

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

B.S. Abdullayeva, Sh.M. O‘tamurodova

**BOLALARNI SAHNALASHTIRISH VA
IJODIY FAOLIYATGA O‘RGATISH**

o‘quv qo‘llanma

**60110200 — “Maktabgacha ta‘lim” bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi
talabalari uchun**

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT - 2022**

UO‘K: 373.2:37.09(075.8)

KBK: 74.10ya73

A 15

ISBN 978-9943-8541-9-2

Abdullayeva, B.S., O‘tamurodova, Sh.M.

Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish [Matn] : o‘quv qo‘llanma / B.S. Abdullayeva, Sh.M. O‘tamurodova. – Toshkent: Bookmayn print, 2022. – 236 b.

O‘quv qo‘llanma Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tasarrufidagi Navoiy davlat pedagogika instituti tomonidan № BD-60110200-1.21 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan, 31.08.2021 yilda tasdiqlangan “Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish” fani dasturiga muvofiq tayyorlangan.

Ushbu o‘quv qo‘llanma fanning nazariy ahamiyatini ochishga mo‘ljallangan “Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish” nomli o‘quv qo‘llanmada sahna tarixi, sahnaning nazariy tushunchalari, qo‘g‘irchoqlar teatri tarixiy ildizlari va tarbiyaviy ahamiyati, sahnalashtirish faoliyatini tashkil qilish, qo‘g‘irchoq teatri personajlarini yasash hamda sahnalashtirish jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishga doir ma‘lumotlar berilgan. Shuningdek, maktabgacha ta‘limda bolalarga ijodiy faoliyatning origami, applikatsiya, loy ishi, plastilin, sho‘r xamir, chinni xamirdan narsalar yasashni o‘rgatish, kashtalar bilan tanishtirish, tabiiy va tashlandiq materiallar bilan ishlashga o‘rgatish yo‘llari taqdim etilgan.

O‘quv qo‘llanma 60110200-Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan.

B.S.Abdullayeva – TDPU ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, pedagogika fanlari doktori, professor.

Sh.M.O‘tamurodova – NavDPI “Maktabgacha ta‘lim” kafedrasida katta o‘qituvchisi.

Taqrizchilar:

S.B.Sanayeva - NavDPI Maktabgacha ta‘lim kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

D.A. Choriyev - Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta‘lim psixologiyasi va pedagogikasi kafedrasida pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

© **Abdullayeva B.S., O‘tamurodova Sh.M.**

© **“Bookmayn print” nashriyoti, 2022**

KIRISH

Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz tomonidan tizimni rivojlantirish maqsadida ko'plab qarorlar, farmoyishlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2020 yil 22 dekabrda qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti"da maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy rivojlanishiga oid qarashlar mavjud bo'lib, bunda bola rivojlanish sohalaridan biri "Ijodiy rivojlanish" sohasining kichik sohalari, ya'ni dunyoni badiiy tasavvur etish hamda badiiy-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish vazifalari belgilangan.

60110200 – "Maktabgacha ta'lim" bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasining majburiy fanlar blokidagi "Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish" fani aynan bolalarni ijodiy rivojlanishini hamda ularda ijodiy faoliyat ko'nikmalarini tarkib toptirish yo'llarini o'rgatishga mo'ljallanadi.

Ushbu fanning nazariy ahamiyatini ochishga mo'ljallangan "Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish" nomli o'quv qo'llanmada mualliflar sahna tarixi, sahnaning nazariy tushunchalari, qo'g'irchoqlar teatri tarixiy ildizlari va tarbiyaviy ahamiyati, sahnalashtirish faoliyatini tashkil qilish, qo'g'irchoq teatri personajlarini yasash hamda sahnalashtirish jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishga doir ma'lumotlar berilgan.

Mazkur o'quv qo'llanmada bo'lajak pedagoglarga bolalar ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarish va rivojlantirishda qo'g'irchoq teatrlari hamda teatrlashtirilgan o'yinli texnologiyalar va ularni yasash texnologiyalari yoritib berilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'limda bolalarga ijodiy faoliyatning origami, applikatsiya, loy ishi, plastilin, sho'r xamir, chinni xamirdan narsalar yasashni o'rgatish, kashtalar bilan tanishtirish, tabiiy va tashlandiq materiallar bilan ishlashga o'rgatish yo'llari kengaytirilgan holda taqdim etilgan.

O'quv qo'llanma 60110200-maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

I-MODUL. TEATR TARIXIGA BIR NAZAR

TEATRNING KELIB CHIQISH TARIXI

Reja:

1. Teatr san'atining kelib chiqishi, rivojlanishi.
2. Jahon teatrining taraqqiyot bosqichlari.
3. Teatr – dunyoni aks ettira oladigan san'atning bir shakli.
4. Yevropa teatri tarixi.
5. Osiyo mamlakatlari teatri tarixi.
6. O'zbek teatri tarixi.
7. Zamonaviy teatrning tarixi.

***Tayanch tushunchalar:** teatr tarixi, jahon teatr tarixiga bir nazar, teatr taraqqiyot bosqichlari, teatr dunyoni aks ettirishning bir san'ati sifatida, Yevropa teatr tarixidan qadimgi Yunoniston va Rim teatri namoyondalari haqida, Yevropa uyg'onish davri teatri va ayrim yetuk ijodkorlari haqida ma'lumotlar, Osiyo mamlakatlari teatr tarixidan yirik mamlakatlar: Hindiston, Xitoy, Yaponiya teatri haqidagi ma'lumotlar, o'zbek teatri tarixi haqida va zamonaviy teatrlar to'g'risida.*

1. Teatr san'atining kelib chiqishi, rivojlanishi:

Teatr yer yuzi bo'ylab hamma joyda bir vaqtda paydo bo'lgan, ya'ni inson ibtidoiy hayot kechirgan paytlardan boshlab ularda turli marosimlarning vujudga kelishi bilan tomoshalar tashkil etila boshlangan. Bunda ovga chiqish oldidan o'tkazilgan marosimlar, diniy e'tiqodga doir, tabiat hodisalariga oid marosimlarda o'z ifodasini topa boshlagan.



Yunonlar ilk marta bu tomoshalarni tartibga soldi. Shuning uchun ular teatr asoschilari sifatida san'at tarixida qayd etiladilar. Bu er.avv. VI-IV asrlarga to'g'ri keladi.

Teatr (yunoncha *θέατρον* – “tomoshagoh”) cheklangan joyda bir yoki bir necha aktyorlar ifoda etadigan tomosha orqali fikr beruvchi san’at janridir.¹

Yunonistonliklarning bayramlari orasida eng yirigi hosildorlik, bog‘dorchilik xudosi Dionis sharafiga bag‘ishlangan bayram hisoblangan. Er.avv.VI asrning ikkinchi yarmida Afina hukumati rahbari Dionis bayramini rasman “davlat bayrami” deb e’lon qiladi. Bayram oddiy bayram kuni emas, balki ommaviy bayram qilish kuni bo‘lgan. Qadimda ommaviy bayramlar e’lon qilingan kuni barcha insonlar bayramni nishonlashgan. Shu kuni davlatmand kishilar, davlat arboblari o‘zlarining qullarini ham bir kunga bayramga borishini ta’minlab berishgan. Hattoki hukumat davlat qamoqxonlaridagi mahbuslarni ham bayram kuni tomoshalarga jalb etgan ekan. Tomoshalar toshdan qurilgan tomoshagohlarda namoyish etilgan. Ommaviy bayramlarda turli urf-odatlar, marosimlar, o‘tmishda xalq hayotida bo‘lgan voqealar, miflar (afsonalar) va real hayot bilan bog‘liq hodisalar ko‘rsatib berilgan. Xalq og‘zaki ijodida og‘izdan og‘izga ko‘chib yurgan xalq afsonalarining yozma manbalari yaratila boshlagan. Dionis bayrami uch bosqichda amalga oshirilgan bo‘lib:

- Dionis sharafiga qurbonlik qilish marosimidan boshlangan;
- kuy, qo‘shiq, raqs, musiqiy tomoshalar, sport musobaqalari tashkil etilgan;
- mifologiya afsonalariga asoslangan teatr tomoshalari bilan boyitilgan.

Ommaviy bayram deb e’lon qilinmasdan avval xalq kechki paytlarda to‘planib, gulxan yoqib, qo‘y-echkilarni qurbonlik qilib, go‘shtini olovda pishirib yeb, terilarini yopinib, gulxan atrofida may ichib har xil qiziqarli, yengil hamda achchiq kulgu ostiga olingan, hazil-mutoyibali, masxarali tomoshalar ko‘rsatishgan va shu qiziqarli tomoshalar zamirida komediya, satira janrlari vujudga kelgan. Kechqurungi ko‘ngilochar tomoshalarda har xil mavzudagi qo‘shiqlar kuylashgan va raqslarga tushib xursandchilik qilishgan. Echkini terisini yopinib ko‘rsatilgan tomoshalar, aytilgan kuy-qo‘shiq qurbonlik

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Teatr>

qilingan echkining qo‘shig‘i, fojiasi sifatida qaralgan. Tragediya janri-echki qo‘shigi – fojia janrining tarixi shunga borib taqaladi. Hosildorlik ma‘budi Dionis bayramini nishonlash davomida uch janr vujudga keldi: tragediya, komediya, satira.

Qadimgi yunon teatr san‘atining eng jo‘shqin, shukuhli davrini miloddan avvalgi V asrda yashab o‘tgan Esxil, Sofokl, Yevripiddan iborat uch ulug‘ fojia-navis va ularning ijodiy faoliyati bilan tutashib ketguvchi komediyana-vis Aristofanning ijodi ham mil. avv. IV asrga kelib teatr sohasini rivojlantirgan. Keyinchalik mil.avv. III asrning ikkinchi yarmida Rimda teatr Yunonistondagiga qaraganda yanada rivojlandi. Rimliklar yunonlarning fan, madaniyat, san‘at, adabiyot vakillarini qul sifatida olib kelishgan va ismlarini o‘zgartirib farzandlarini tarbiyalashda o‘qituvchi vazifasida ishlatishgan. Keyinchalik rimliklarning ba‘zi davlat arboblari yunonistonlik o‘qimishli kishilarni qullikdan ozod qilishgan. Shu

vaqtlardan boshlab teatr sohasida yanada yangiliklarga boy, katta, mashhur Kolizey teatri quriladi. Kolizey teatri bugungi kunda ham qadimiyligi, kattaligi, unda ko‘l va o‘rmon sahnalarining paydo bo‘lishi bilan mashhur va



dunyo sayyohlarini qiziqtirib, o‘ziga jalb qilib kelgan. Bu ochiq osmon ostidagi qadimiy teatr 40 ming tomoshabinga mo‘ljallab qurilgan. Yunonistonda birinchi katta teatr binosiga esa 17 ming tomoshabin sig‘gan bo‘lsa, Rim teatr binosining yunon teatr binosidan farqi: sig‘imi kattaligi, sahnalarining o‘zgachaligida bo‘lgan. Yunonistonda sahna vazifasini bajaruvchi joy rimliklarda davlat boshlig‘i – shoh, senatorlar va ularning oila a‘zolari o‘tiradigan joyga aylantirilgan. Rimliklarning sahnasi yerdan bir, bir yarim metr baland qilib, yarim oy shaklida qurilgan. Sahna – orxestra deb atalgan. Rimliklarning teatr binosida yunonlarnikidan farqli pardalar ham tashkil qilingan. Teatr namoyishlariga odamlarni rasmi afishalar bilan chaqirishgan, chunki o‘sha vaqtda ko‘pchilik oddiy aholi o‘qish va yozishni bilmas edi. Bu teatr binolarida bayramlar, sport musobaqalari, gladiatorlik janglari, mifologiyaga asoslangan teatr tomoshalari namoyish etilgan. Teatr tomoshalarida xudolarning siymolarini yerga tushirilib rol ijro etishgan.

Bu Esxel ijodida namoyon bo'lgan. Sofokl ijodida odamlar obrazlari ham sahnada ifodalangan. U paytlardagi barcha ijodkorlar dindor bo'lishgan. Tomoshalar boshidan oxirigacha musiqa sadolari ostida o'tkazilgan. Aktyorlar sahnaga faqat niqobda chiqishgan. Sahnaga ijodkorlari faqat erkaklar bo'lib, ayollar va bolalar ishtirok etishmagan. Aktyorlar soni ham ko'p emas, uch-to'rttadan oshmagan. Shuningdek, tiriklar o'liklar rolini bajarishmagan, bu rolni ifodalashda qo'g'irchoqlardan foydalanishgan ekanlar. Bundan ko'rinadiki, qo'g'irchoqlar sahnaga qadimgi(antik) davrdan kirib kelgan.

Rimda birinchi teatr tomoshalari mil.avv. 240-yillardan boshlab namoyish etila boshlagan. Rim teatr san'ati rivojiga Yunonistondan qul sifatida keltirilgan adiblar katta hissa qo'shgan. Ularning ismlari xo'jayinlari tomonidan o'zgartirilib ishlatilgan. Liviy Andronik degan kishi, ayniqsa, katta hissa qo'shgan. Liviy Andronikning ham ismi o'zgartirilgan qul edi. Rimliklar mil.avv. IV asrda uzoq yillar urush olib borib, shu asrning o'rtalarida Yunonistonni bosib oladi va O'rta Yer dengizida yagona qudratli davlatga aylanadi. Rimliklar Yunonistondan ko'plab ilmi insonlarni asirga, garovga olib keladi va ularni qul, bolalariga o'qituvchi sifatida ishlatadi. Liviy Andronik ham yunon bo'lib, Rimda bir senatorning quli bo'lgan va shu senatorning nomini olgan. Keyinchalik Liviy Andronikning xo'jayini unga ozodlik bergan. U Rim dramaturgiyasida yunonchadan lotin tiliga ko'plab asarlarni tarjima qiladi va tomoshalar namoyish etadi.

Yunonistonda aktyorlik kasbiga mo'tabar kasb tarzida qaralgani holda Rimda tahqirli kasb sifatida qaralgan. Yunon masalchisi Ezop va komik aktyor Rossiy (mil. avv.I asr) shularning eng peshqadamlari bo'lgan.² Ezop taxminan mil.avv. 640-560-yillarda yashab ijod etgan donishmand kishi bo'lgan. Tarixiy manbaalarga ko'ra, u 400 ga yaqin masal yozgan va bizgacha 300 ga yaqini yetib kelgan. Ezop fridiyalik qul bo'lib, keyinchalik ozod qilingan va u qandaydir sababga ko'ra Delfada mil.avv. 560-yillarda o'ldirilgan. Ezopning tiriklarga: *“Eng avvalo*

² Namangan davlat universiteti Ijtimoiy-madaniy faoliyat yo'nalishi talabalari uchun “Teatr tarixi” fanidan ma'ruzalar matni Namangan. 2014-yil, 21-bet.

Tangrini munosib tarzda ulug'la. Keyin esa podshohni izzat qil. Chunki podshoh va Tangri hukmi tengdir. Ustozingni ota-onang qatorida hurmatla. Ota-onani senga tabiat ato etgan bo'lsa, ustozing seni o'z ixtiyori ila sevadi. Shuning uchun undan ikki karra minnatdor bo'lmog'ing joiz"³, -degan nasihatlar qoldirgan.

2. Jahon teatrining taraqqiyot bosqichlari.

Antik teatr. Antik davr – (lot. *antiquus* – qadimiy) qadimgi yunonlar va rimliklar madaniyatiga xos davr. Uyg'onish davrida yuzaga kelgan atama. Antik davr (lot. *antiquus* – qadimgi) – keng ma'noda qadimgi davrni anglatuvchi termin; iste'molda bo'lgan ma'noda esa Yunoniston va Qadimgi Rim tarixi va madaniyatining ellinizm davrini anglatadi.⁴ Antik – qadimgi davr teatrida yunonlar: Esxil, Sofokl, Yevripid, Aristofanlar sermahsul ijod qilishgan. Qadimgi rimliklardan Plavt va Senekalar sahna asarlari bizgacha yetib kelgan. Bu ikki qadimiy Yunoniston va Rim teatrshunoslarining sahna asarlari va sahnaviy shakllari yuksak badiiy adabiy asar namunalari.

Uyg'onish davri. XV asrdan boshlab, Italiya zaminida teatrning yangi davriga asos solindi. Uyg'onish davrida Italiyada tragediya, drama san'atiga oid nazariy risolalar paydo bo'la boshladi. Biroz keyin Ispaniya teatri va nihoyat, Angliya zaminida Shekspir ijodi misolida Yevropa teatri o'zining yuqori taraqqiyot bosqichiga ko'tariladi. XVII asr fransuz klassitsizm teatri ham Uyg'onish davri teatri rivojining davomi bo'lib, Yevropa badiiy ijodiyotida yangi san'at hodisasiga aylandi. Ayni shu davrda fransuz oliy komediyasining asoschisi Molyer ijod qilgan edi.

XVIII asr teatri. XVIII asr teatri ko'pgina xalqlarning madaniy-hayotiy ehtiyojiga aylandi. Xalq teatr tomoshalarini ko'rishga katta qiziqish bildirgan. Angliyada Sheridan, Fransiyada Volter, Didro, Bomarshe, Italiyada K.Goldoni, K. Gotssi, Germaniyada Lessing, Gyote, Shillerlarning sahna asarlari teatr san'atining mavqeyini yuksakka ko'targan.

XIX asr teatri. Yevropa mamlakatlari va AQSh teatr san'atida yangi sifati bosqichiga ko'tariladi. Teatr bu davrda dastlab Gyugo (Fransiya),

³ kh-davron.uz

⁴ <https://uz.wikipedia.org>

Bayron (Angliya), Kleyst (Germaniya) ijodi misolida romantizm, soʻng naturalizm, simvolizm uslublari zaminida voqelikni aks ettirishning yangi va rango-rang ifoda omillari va usullarini oʻzlashtirib boradi. M. Meterlink, G. Ibsen, B. Shou, G. Gaupman kabi yirik dramaturglar qatori aktyorlik va rejissorlik sanʼati sohasida ham ulkan sanʼatkorlarning yetishib chiqishi dramaturgiya darajasiga monand yuksak sahna ijodi namunalarini yaratish imkonini tugʻdirdi.

3. Teatr – dunyoni aks ettira oladigan sanʼatning bir shakli.


Teatr sanʼatning bir koʻrinishi, uning oʻziga xos ifoda vositasi aktyorning omma oldidagi oʻyini jarayonida yuzaga keladigan sahnaviy voqeani aks ettirishidir. Teatr sanʼatida ham boshqa sanʼatlarda boʻlganidek, xalq hayoti, tarixi, dunyoqarashi aks etib, jamiyat taraqqiyoti, maʼnaviyati, madaniyati bilan bogʻliq holda oʻzgarib, takomillashib boradi. Teatr asosida ogʻzaki yoki yozma dramaturgiya yotadi. Teatr sintetik sanʼat boʻlib, jamiyat hayotida, tomoshabinlarning maʼnaviy va estetik tarbiyasida muhim oʻrin tutadi. Unda dramaturgiya, musiqa, tasviriy sanʼat, raqs, meʼmorlik ajralmas birlikni tashkil etadi. Teatrning muhim vositalaridan biri sahna nutqidir. Aktyor qahramonning pyesadagi soʻzlarini oʻzlashtirib olar ekan, qahramon qiyofasida, holatlarda turib uning nutqiy tavsifini yaratadi, boshqa personajlar bilan muloqotga kirishadi. Sahna nutqi xarakterlarning ochilishida, asar mazmuni, konfliktining yoritilishida muhim oʻrin tutadi. Sahna asarlarining yaratilishida teatr rassomchiligining hissasi katta. Rassom asar mazmuni va reja yechimidan kelib chiqib, dekoratsiya yaratadi. Teatrda musiqaning ham oʻrni katta, tomosha turi va janriga bogʻliq holda u turli vazifani bajaradi: dramatik spektakllarda yordamchi vosita boʻlsa, musiqali dramada soʻz bilan barobar huquqga ega, opera va baletda esa hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Teatr insonlarga jamiyat hamda dunyo haqida toʻgʻri va kerakli bilimlarni beradi. Teatrning mafkuraviy va kommunikativ funksiyasidan tashqari, odamlarning hayotini oʻrganishga yordam beradi. Teatr hayot muammolari haqida gapiradi va kishilarning yaxshi kunlarini ham imitatsiya qiladi, yaxshi kunlarini oʻyin-kulgini qoʻllab-quvvatlaydi.

Teatr davolovchi hamdir. Teatr zamonaviy ijtimoiy qiymatga ega. Teatr san'atining fuksiyalari ko'pdir.

4. Yevropa teatri tarixi.

Qadimgi Yunon teatr ijodkorlari: Esxil, Sofokl, Yevripid, Aristofan haqida.



Esxil hayoti va ijodi (mil.avv.525-456-y.): Esxil Afinaga yaqin Elevsin degan shaharda oqsuyak xonadonida dunyoga kelgan. U Marafon va Salamin janglarida ishtirok etadi va bu voqealarni o'zining "Eroniylar" (er. avv 472-y.) tragediyasida hikoya qilib beradi. Esxil umrining so'ngida Sitsiliyaga keladi va shu yerda (Gele shahrida) dunyodan o'tadi.

Esxil 80 tacha tragediya va satiralar dramasini yozgan. Bizgacha 7 ta tragediyasi to'laligicha, boshqa asarlaridan kichik parchalar yetib kelgan. Esxil tragediyalarida o'z davrining asosiy tamoyillari, urug'chilik tuzumining yemirilishi va Afina quldorlik demokratiyasining shakllanishi natijasida ijtimoiy va madaniy hayot sohasida yuz bergan o'zgarishlar o'z ifodasini topgan.

Esxil e'tiqodi mustahkam, dindor kishi bo'lgan. U olamni boshqaruvchi odil kuch bor va har qanday mavjudot shu kuchning haq hukmiga bog'liq, bilib-bilmay qilingan gunohlarning xudolar tomonidan jazolanishi va adolatning qaror topishi muqarrar, deb bilgan. Intiqom muqarrarligi va adolatning qaror topish g'oyasi Esxilning hamma tragediyalarida ko'zga tashlanib turadi.

Esxil taqdiri azal (Moyra)ga ishonib qaragan. Uning nazdida, hatto, xudolar ham taqdir izmidan chiqolmaydi. Esxil o'z tragediyalariga ikkinchi aktyorni olib kirdi va shu bilan fojeaviy to'qnashuvlarni ancha teran ishlash va xatti-harakat jihatlarini kuchaytirish imkoniga erishdi. Bu teatr san'atida yuz bergan chinakam burilish nuqtasi edi: bittagina aktyor bilan xor ishtirok etuvchi eski tragediya o'rniga sahnada o'zaro olishuvlar orqali personajlarning fe'l-atvori ochiladigan yangi xildagi tragediya paydo bo'ladi.

Esxilning ilk tragediyalari ("Iltijogo'ylar", "Eroniylar")da asosiy o'rin xorga ajratilganidan dramatik to'qnashuv o'ta sust rivojlangan.

Bizgacha yetib kelgan deyarli barcha tragediyalar prolog (muqaddima) bilan boshlanadi. Prologdan so‘ng orxestruga xor kirib keladi va pyesaning oxiriga qadar bu yerdan jilmaydi.

Mil. avv. V asrning oxiriga kelganda, Esxil asarlari o‘sha davr kishilariga birmuncha eskirgan bo‘lib ko‘ringan bo‘lsa-da, lekin keyingi avlodlar uchun u birinchi ulug‘ fojia-navis shoir bo‘lib qoldi. Esxil ijodi jahon poeziyasi va dramaturgiyasi rivojiga sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatgan.



Sofokl (mil.avv.496-406-y.) Sofokl qaramog‘ida qurol-aslaha ustaxonasi bo‘lgan davlatmand xonadonda tug‘ilib, juda yaxshi bilim olgan. Uning ijodiy layoqati yoshligidayoq namoyon bo‘ladi: o‘n olti yoshida Salamin zafarini madh etishga ixtisoslashgan o‘smirlar xoriga rahbarlik qiladi. Sofokl yoshlik chog‘ida o‘z asarlarida o‘zi

rol o‘ynab, zo‘r muvaffaqiyatlar qozongan. Lekin keyinchalik, ovozing xastalashuvi sababli rolda chiqmay qo‘yadi. Sofokl mil. avv. 468-yilda birinchi bor Esxil ustidan g‘alaba qozonadi. Umuman, dramaturg sifatida Sofoklga doimo omad yor bo‘lib kelgan: deyarli hamisha birinchi o‘rinni va ba‘zan ikkinchi o‘rinni olib kelgan, u biror marta ham uchinchi darajali mukofot olmagan.

Sofokl 120 dan ortiq tragediya yozgan, shulardan bizgacha 7 tasi yetib kelgan. Sofokl tragediyalari Esxil tragediyalaridan o‘zgacha: Esxil asarlarida, asosan, xudolar qatnashadi. Sofokl tragediyalari esa bir qadar ko‘tarinki, dabdabador bo‘lsa-da, ularda odamlar qatnashadi. Shu sababli, Sofokl haqida tragediyani falakdan zaminga olib tushgan sohibi qalam degan ta‘bir yuradi. Sofokl asarlarida asosiy e‘tibor insonga, uning ruhiy kechinmalariga qaratiladi. Lekin ayni paytda Sofokl pyesalarida xudolar bevosita ishtirok etmasada, qahramonlar taqdirining o‘zgarishida ularning ta‘siri kuchli. Esxil singari Sofokl ham dindor kishi bo‘lgan, ma‘budlarning kuch-qudratiga shak keltirmagan va sofistlar(yun. sophistes — mohir, dono)ning ko‘pgina qoidalarini qabul qilmagan. Masalan, Protagorning, inson hamma narsaning andozasi, degan qoidasini u tan olmaydi. Aksincha, uning tragediyalarida inson bilimining


cheklanganligi, shu bois uning xatoga yo‘l qo‘yishi va uqubatlarga giriftor bo‘lishi muqarrarligi haqida tez-tez so‘z bo‘lib turadi. Ammo Sofokl insonni barcha jonzotlar ichida eng oliyjanobi deb biladi.

Yunon tragediyasi Sofokl ijodi bilan tugal mukammallik darajasiga ko‘tariladi. U dramaga uchinchi aktyorni olib kirdi, tragediyaning dialoglarga asoslangan qismi epizodiyalarni ko‘paytirdi, xorning chiqishini kamaytirdi. Lekin Sofokl tragediyalarida xor ham muhim rol o‘ynaydi, hatto, xor ishtirokchilari (xorevtlar)ning soni 15 kishigacha ko‘paytiriladi.

Sofoklni alohida shaxslar taqdiri qiziqtirgani sababli u trilogiya yaratish qoidasidan voz kechadi. An‘anaga ko‘ra Sofokl ham shoirlar musobaqasida uch asar bilan qatnashgan. Lekin ularning har biri alohida mustaqil asarlar bo‘lgan.

Sofoklning Fiva turkumiga oid rivoyatlar asosiga qurilgan asarlari uning eng mashhur tragediyalari hisoblanadi. “Antigona” (taxm. mil. avv. 442-yil), “Shoh Edip” (taxm. mil. avv. 428-yil), “Edip Kolonda” (Sofokl vafotidan so‘ng mil. avv. 401-y. qo‘yilgan) asarlari shular jumlasiga kiradi. Sofoklning eng mashhur asari — “Shoh Edip” tragediyasidir. Bu asar turli davrlarda yozilib namoyish etilgan.

Sofokl tragediyalari antik quldorlik demokratiyasi gullagan davrda uning fuqarolik va axloqiy tamoyillarining badiiy ifodasi tarzida dunyoga kelgan. Bu tamoyillar to‘la huquqli barcha fuqarolarning siyosiy teng va erkin bo‘lish, vatanga sidqidildan xizmat qilish, ota-bobolar udumiga ixlosmandlik, ruhan komillik talablarini anglatardi.




Yevripid (taxminan mil.avv.480-406-yil).
Yevripid yoshligidan yaxshigina tahsil olgan. Buning boisi u davlatmand xonadonda tug‘ilganligidadir. Yevripiddan bizgacha 18 ta drama(u jami bo‘lib 75 tadan 92 tagacha asar yozgan), boshqa asarlaridan bir talay parchalar

yetib kelgan.

Uning asarlari Esxil va Sofokl asarlaridan tubdan farq qiladi. U o‘z qahramonlarini hayotga monand ko‘rinishda ifoda etadi. Aristotelning guvohlik berishicha, u odamlar qanday bo‘lsa, ularni shunday ko‘rsatgan.

Aristotel yana shunday fikrni ilgari surgan. Jumladan, Yevripidni barcha yunon fojeanavislari orasida eng yaxshisi deb atagan. “Medeya” tragediyasi (mil.avv.431-y.) Yevripidning eng mashhur asarlaridan biri hisoblanadi. Oilaviy, axloqiy masalalar mavzusida yozilgan tragediyalar orasida “Ifigeniya avlodida” asari jo‘shqin fuqarolik tuyg‘ulariga to‘laligi bilan ajralib turadi. Ushbu asar Yevripid vafotidan keyin mil.avv. 404-yilda sahnaga qo‘yilgan. Yevripid yunon mumtoz fojeanavisligi rivojiga yakun yasadi. Undan keyin qadimgi yunon fojeanavisligi sohasida biron bir yuqori, qimmatli asar yaratilmadi.



Aristofan (taxminan mil.avv. 446-380-yil).

Aristofan – qadimiy komediya yaratuvchilarining bizgacha yetib kelgan birinchi namoyondasidir. Boshqa dramaturglarning komediyalaridan ba’zi parchalargina saqlanib qolgan. Uning ota-onalari erkin fuqarolar bo‘lib yashashgan. Lekin aftidan unchalik davlatmand bo‘lishmagan. Uning birinchi pyesasi mil.avv. 427-yilda qo‘yilib ikkinchi darajali mukofotga sazovor bo‘lgan. Aristofan 40 dan ortiq komediya yaratgan bo‘lib, bizgacha 11 tasi yetib kelgan. Miloddan avvalgi 424-yilda qo‘yilgan “Suvoriylar” Aristofanning eng ko‘zga ko‘ringan siyosiy komediyasi hisoblanadi. “Tinchlik” komediyasi Afina bilan Sparta o‘rtasida sulh tuzish paytida muzokara olib borilayotgan paytda mil.avv. 421-yili ulug‘ Dionis bayramida qo‘yilgan. Aristofan bir vaqtning o‘zida qadimgi Attika komediyasining ham eng yuqori cho‘qqisining ham xotimasini belgilab berdi. Qadimgi Yunonistonda teatr tomoshalarini tashkil etish bilan bog‘liq jamiki ishlarga davlatning o‘zi bosh-qosh bo‘lgan. Dramalar Dionis sha’niga atalmish: Kichik yoki Qishloq Dionisi (dekabr — yanvar); Leney (yanvar — fevral); Ulug‘ yoki Shahar Dionisi (mart — aprel) degan uch bayramda namoyish etilgan.

Qadimgi Rim teatr ijodkorlari: Plavt va Seneka haqida.




Plavt (taxminan 254-784-y.) rim

komediyasining eng yirik namoyandasi hisoblanadi. Plavt Rim dastlab Apennin yarim orolini, so'ng butun O'rta yer dengizi havzasini egallagan bir davrda ijod qildi. G'olibona tugallangan ko'pdan ko'p urushlarning natijasi o'laroq bosib olingan yerlardan Rimga behisob qullar, moddiy boyliklar oqib keladi. Tovar-pul munosabatlarining tez rivojlanishi oqibatida sudxo'rlik avjga chiqib boradi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida yuz bergan siljishlar patriarxal hayot tartibotlarini zaiflashtiradi, xudbinlik illatlarini tug'diradi. Rim madaniyatiga yunon madaniyatining kirib kelishi keskin tus oladi. Mil. avv. III—II asrlarda rim hayotida yuz bergan shu o'zgarishlar Plavt komediyalarida o'z aksini topdi. U o'z pyesalari qahramonlarini Menandr hamda yangi Attika komediyasining boshqa vakillari asarlaridan oladi. Lekin ayni zamonda uning asarlarida Rim hayotiga xos xususiyatlar ham keng namoyon bo'lgan. Plavt quldorlik jamiyatining quyi tabaqasiga, plebeylarga xayrixohlik bilan qaragan, haromxo'rlik bilan boyuvchi shaxslarni keskin qoralagan. Plavtdan bizgacha 20 ta to'liq va bitta chala pyesa yetib kelgan. "Egizaklar" ("Menexmlar") Plavtning eng xushchaqchaq, komediyalaridan biri. Plavtning "Egizaklar" komediyasi Shekspirga o'zining "Yanglishlar komediyasi" asarini yozishda asos bo'lib xizmat qilgan.

"Maqtanchoq jangchi" pyesasi maqtanchoq zobit obrazi mohirona namoyon etilishi jihatidan Plavtning eng yaxshi komediyalaridan biri hisoblanadi. "Xazina" komediyasida insonning xasisligi masxara ostiga olingan. Keyingi zamonlarda "Xazina" komediyasi "Maqtanchoq jangchi" singari keng shuhrat topdi. Xususan, Molyer o'zining "Xasis" komediyasini yaratishda Plavtning shu asariga asoslangan.

Plavt Uyg'onish davrida, bamisoli qayta tug'ilgandek, yangi davr dramaturgiyasining yaralishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Italian gumanistlari Plavt komediyalarini shoshilinch tarjima qiladilar, uning yo'li bo'yicha o'z asarlarini yarata boshlaydilar.



Seneka. Fuqarolar urushi natijasida mil. avv. I asrda Rim respublikasi barham topadi. Mil. avv. 31-yili Antoniy ustidan g'alaba qilgan, keyinchalik Avgust ("Muqaddas") nomini olgan Oktavian Rimning yakka-yagona hokimi bo'lib oladi. Oktavian o'rnatgan tartib avvalroq tarkib topa boshlagan byurokratik apparatdan iborat harbiy diktatura edi.

Avgust teatrning ijtimoiy ahamiyatini tushunib, uni har tomonlama rivojlantirishga yordam ko'rsatadi. U fuqarolarni davlatga sodiqlik ruhida tarbiyalashda yunon tragediyasining alohida ahamiyat kasb etishini ko'zda tutib, Rim sahnasida, avvalo, shu tragediya turini tiklash maqsadini olg'a surdi. Atoqli Rim shoiri Goratsiy "Poeziya ilmi" risolasida Avgustning shu sa'y-harakatini ifodalab bergan. Goratsiy ushbu risolada rimlik shoirlarga yunon tragediyasini sahnaga qaytarishni taklif etadi. Oddiy, ixcham voqeali va uch aktyor hamda xor ishtirok etuvchi yunon tragediyasi shoirga ma'qul tushib qolgan edi. Goratsiy Avgust fikrini quvvatlab, san'atning g'oyaviy teran, mazmunan o'tkir bo'lishi zarurligi qoidasini olg'a suradi. Uning ta'kidlashicha, bir tomondan, shoir fuqarolarning tarbiyachisi va murabbiysi bo'lganidan u yuksak bilimdon bo'lmog'i lozim; ikkinchidan, uning san'ati go'zal bo'lishi uchun uni tomoshabinga havola etishdan avval obdon ishlovdan o'tkazishi, har tomonlama mukammallik darajasiga chiqarishi lozim. "Poeziya ilmi" asari XVII asr fransuz klassitsizm nazariyasining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Imperiya davrida yaratilgan tragediyalardan bizgacha faylasuf va dramaturg Seneka asarlarigina yetib kelgan. Lutsiy Armeiy Seneka armonli va shuhratli kunlarga boy murakkab umr kechirgan. U Neronning tarbiyachisi va shu hukmdorning hukmi bilan o'z qon tomirini qirqib, saroy fitnalarining qurboni bo'lgan shaxs. U stoya falsafasi tarafdori bo'lib, chinakam baxtni ruhiy osoyishtalikdan axtarmoq kerak, inson shunday ruhiy chiniqsinki, har qanday ruhiy va jismoniy azoblarga mardonavor peshvoz chiqqa olsin, hatto o'limga ham bardosh bera olsin, degan g'oyani olg'a surgan. Seneka davrida Rim hayoti qonli voqealarga

to'la edi. Shu muhit ta'siri o'laroq, uning asarlarida qonli intiqom, zo'rlik va ajal ohanglari dahshat solib turagan.

Senekadan bizgacha o'nta tragediya yetib kelgan. Ular yunon miflari asosida yozilgan. Bular "Medeya", "Edip", "Fiyest", "Fedga", "Agamemnon", "Troyalik ayollar" kabilardir.


Uyg'onish davrida Yevropa teatri: XIV— XVI asrlarda tarixga Uyg'onish (Renessans — fr. Renatsance) davri sifatida kirgan bu ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot davri Ovro'po teatr san'ati tarixida yangi rivojlanish davrini belgilab berdi.

Erkin, hur inson aynan Uyg'onish davrida jamiyatning oliy tilagiga aylanadi. Yaqin o'tmishda dag'al masxarabozlik, aqidaparastlik makoni bo'lib kelgan sahna endi ulug'vor g'oyalar, teran falsafiy mushohadalar maskaniga, umumxalq minbariga aylanadi. Sahnada zamonning ur-yiqitlari o'z aksini topadi, nozik, ruhiy kechinmalar tadqiq etiladi; shu bilan birga tomoshabinlar ichakuzar sahnaviy hazil-mutoyiba va hangomalarni zavq-shavq bilan qarshi oladilar.

Renessans davri teatri XV—XVI asrlar bo'sag'asida Italiyada shakllanadi, so'ng Ispaniyada yangi taraqqiyot bosqichiga kirib Angliyada Shekspir zamonida kamolot cho'qqisiga ko'tariladi.

Yangi davr teatr me'morchiligida ham Italiya namuna bo'lib xizmat qilgan. Italiya me'mori Sebastyan Serlio qadimgi rim me'mori Vitruviy asarlari asosida 1545-yili "Me'morchilik haqida" kitobini yozib, unda antik teatrning ba'zi jihatlari bilan zamonaviy teatr uyg'unligi talabini olg'a surdi. Serlio loyihasini o'zi amalga oshirolmadi, me'mor Andre Palladio shu loyiha asosida Vichense shahrida "Olimpiya" teatrini tiklaydi. Bino 1580-yili qurila boshlangan, Palladionning o'g'li va shogirdi Vincheniye ishni davom ettiradi va teatr 1585-yili Sofoklning "Shoh Edip" asari bilan ochiladi. Binoning eng afzal jihati uning tomosha zali bilan sahnaning o'zaro uyg'unligi (ko'rish, eshitish)da edi. Sahna ortida qad ko'targan uchta ulkan ark orqali uzoqqa cho'zilgan ko'chalar go'zal shahar timsolini yaratar, old sahna tepaligi-peshtoqiga va yarim doira shaklidagi zalning orqa devorlariga ishlangan haykal va tasvirlar bilan ajib uyg'unlik kasb etgan edi. Ming kishiga mo'ljallangan ushbu teatr binosi hozirda ham mavjud. XVII asrda ko'p yarusli, balkon va

lojalarga ega uch minglab tomoshabin sigʻadigan teatr binolari qad koʻtaradi. Italyan meʼmorlari teatr qurilishi sohasidagi yutuqlarini Ovroʻponing Avstriya, Ispaniya, Fransiya, Germaniya kabi mamlakatlariga olib kirganlar.



Vilyam Shekspir 1564-yil 23-aprelda Angliyaning qoq yuragida joylashgan Stretford shahrida tavallud topgan. Uning otasi Jon Shekspir oʻziga toʻq savdogar va teri oshlovchi hunarmand edi. Onasi Meri kambagʻallashib qolgan arden dvoryan oilasidan chiqqan. Vilyam yetti yoshida mahalliy maktabga boradi. Bu yerda oʻquvchilar notiqlik sanʼati, mantiq ilmi, lotin, yunon tillari, antik adabiyot, mifalogiya asoslaridan voqif boʻladilar. 1580-yillarning oxirida Shekspir Stretfordni tark etib, sayyor truppa safida birmuncha vaqt viloyatlarda safarda boʻlgan, soʻng Londonga kelib, bir truppaga ishga kirgan. Shekspirning ijodiy faoliyati 1594-yildan “Lord Kamerger truppasi” bilan bogʻliq. U atoqli aktyor Richard Berbedj rahbarlik qiluvchi shu teatrda 1612-yilgacha ishlaydi. Uning soʻnggi toʻrt yillik umri Stretfordda oʻtadi. U 1616-yilning 23-aprelida, oʻzi tugʻilgan kuni shu shaharda dunyodan koʻz yumadi. Shekspir oʻttiz yettita pyesa yozgan. Ijodining dastlabki oʻn yilligi (1590-1600) davomida ikki tragediya (“Romeo va Julyetta”, “Yuliy Sezar”)dan istisno faqat komediya va tarixiy solnomalar yaratdi. Bu asarlarda Shekspirning hayotga boʻlgan ishonchi ufurib turadi, shundan boʻlsa kerak, bu bosqichni — hayotbaxsh ijod davri deydilar. “Hamlet”, “Otello”, “Qirol Lir kabi asarlar yaratilgan 1600-1608-yillar fojeaviy ijod davri, “Qish ertagi”, “Boʻron” kabi pyesalar dunyoga kelgan 1608-1612-yillar romantik ijod davri deb izohlanadi.

Shekspir dramalari jahon sanʼati yutuqlarining eng nodir namunalarini tashkil etadi. Davrning real voqeliklarini teran aks ettiruvchi bu asarlar kundalik turmushning ruhsiz izohi boʻlib qolmadi. Ular yuksak umumlashma asarlar darajasiga koʻtarildi. Bu hol dramaturgga jamiyatdagi shiddatli toʻqnashuv va ziddiyatlarni ochib tashlash, davrning mashaqqatli muammolarini olgʻa surish imkonini berdi. Inson va Uygʻonish davri haqidagi haqiqat qanchalik achchiq va oʻkinchli

bo‘lmasin, Shekspir bu haqiqatni butun borlig‘icha to‘la-to‘kis bayon qilib berdi.

Ulug‘ mutafakkir va daho so‘z ustasi Shekspir nomining jahon teatri tarixida abadiy boqiyliги u yaratgan san‘atning insonparvarligi, xalqchilligi, mazmunan g‘oyat teran va haqqoniyliги bilan belgilanadi.



Jan Batist Poklen Molyer (1622-1673). Molyer Fransiya qiroli saroyida jihaz sozlovchi usta Jan Pokelen oilasida tug‘ildi, imtiyozli o‘quv yurtlaridan Klerman kollejida tahsil oldi va 1643-yili o‘ziga Molyer degan taxallus olib, hayotini teatrga bag‘ishlashga ahd qildi. U bir guruh san‘atkorlar bilan o‘n uch yil davomida viloyatlarda o‘zi asarlar yozib, spektakllar qo‘yadi, rollar ijro etadi.

Molyer yangi usuldagi komediya turini yaratishda xalq teatri bilan adabiy dramaturgiya yutuqlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish yo‘lidan borgan. “Sevgi mojarosi” (1656) komediyasi shu yo‘ldagi birinchi urinish bo‘lgan.

O‘rta asrlarda ta‘lim-tarbiya, axloqiy munosabatlar mavzuyida “Erlarga saboq” (1661), “Ayollarga saboq” (1662) kabi asarlarini yaratdi.

Ijodkorlar turli Yevropa mamlakatlarda turlicha ijod qilgan bo‘lsalarda, lekin ularni yagona ma‘rifatparvarlik g‘oyasi birlashtirib turardi. Ayni zamonda XVIII asr badiiy ijodiyotida bir-biridan tubdan farqlanuvchi o‘ziga xos, betakror ijodiy siymolarni yetishtirib berdi: Angliyada Sheridan va Garrik, Fransiyada Volter, Didro, Bomarshe va Leken, Germaniyada Lessing, Gyote, Shiller, Italiyada Goldoni va Gotssilar jahon madaniyati tarixidan munosib o‘rin olgan shunday so‘z ustalari va san‘atkorlar edilar.

5. Osiyo mamlakatlari teatri tarixi.

Qadimgi Hindiston teatri: Teatrlashtirilgan tomoshalar qadimgi Hindistonda miloddan avvalgi ikkinchi ming yillik boshlaridayoq vujudga kelgan edi. Qizig‘i shundaki, ularning asosiy janrlari bizga qadar deyarli o‘zgarmagan holda yetib kelgan. An‘anaviy hind teatrida ikki asosiy janr — *lila* va *yakshagana* mavjud bo‘lgan. Shakl jihatidan *lila* musiqali-raqsli dramaga ancha yaqin, uning tomoshalari “Mahobhorat”

va “Ramayana” epik rivoyatlaridan olingan matnlar asosida uyushtirilgan. Shuningdek, mahobatli spektakllar ba’zi paytlarda oylarcha davom etgan. *Lila* teatrida hech qanday dekoratsiya bo‘lmagan. Tomoshabinlar ko‘z o‘ngida faqat yorqin liboslar va maxsus niqoblar kiygan aktyorlarga namoyon bo‘lishgan ekan.

Hindiston janubida teatr tomoshasining boshqa bir shakli- *yakshagana* shakllangan bo‘lgan. Ikir-chikirigacha ishlab chiqilgan imo- ishoralar tizimi unga ham xosdir. Ular o‘z his-tuyg‘ularini mimikalar yordamida ifodalashgan va ular niqobsiz aktyorlik qilishgan. Yakshagana ishtirokchilaridan har biri shaxsiy nutq maromiga, alohida imo- ishoralarga va hattoki raftorga (**raftor** (fors. — yurish) — bir maromda to‘lqinsimon harakatdagi naqsh chizig‘i (tanob, novda)⁵ ega bo‘lgan. Qadimgi Hindiston teatrining o‘ziga xosligi kishilar holati va qiliqlarining ramziy tarzda ifodalanishi sanalgan. Muayyan bir spektaklni tushunish uchun shartli belgilar tizimini, ya’ni aktyorlar imo- ishoralari va xatti-harakatlarini o‘rganish kerak bo‘lgan.



Hind sahna san’ati uch shaklga bo‘linadi: klassik sanskrit dramasi, an’anaviy xalq teatri va zamonaviy teatr.⁶

Hind klassik sanskrit dramasi 1-asrda faol rivojlana boshlagan teatr san’atining eng qadimiy turlaridan biridir. Sanskrit dramasi uzoq vaqt davomida mavjud bo‘lganligi quyidagi nufuzli manbalardan dalolat beradi: “*Natya Shastra*” - teatr san’ati haqidagi risola, Bharata Muni (miloddan avvalgi IV asr - miloddan avvalgi IV asr) tuzgan.



An’anaviy xalq teatri: O‘rta asrlarda tashkil etilgan Hindistonning an’anaviy xalq teatri klassik drama va tarixiy voqealar, shuningdek, Puranalar va dostonlarning mavzulariga asoslangan bepul eksrompt

⁵ uz.wikipedia.org

⁶ www.bharatiya.ru

spektakllarning sintezidir. Xalq teatri oddiy odamlarning fikr-mulohazalarini, g‘oyalarini, his-tuyg‘ularini aks ettiradi. Aslida an’anaviy xalq teatrini diniy va dunyoviy xarakterdagi spektakllarga bo‘lish mumkin. Birinchisi, diniy va axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qilishga xizmat qiladi va aslida hayotning mazmuni haqida fikr yuritadi. Ikkinchisining maqsadi o‘yin-kulgidir. Hind xalq teatrida muhim o‘rinni qo‘shiq egallaydi, unga eng muhim rol beriladi. Hindistonning an’anaviy xalq teatri hayratlanarli darajada xilma-xildir. Ko‘p millatli mamlakatning har bir davlati mahalliy urf-odat va urf-odatlarini aks ettiruvchi yorqin sahna ko‘rinishlari bilan namoyish etiladi. Ammo ko‘pincha ularning barchasini romantik g‘oya bilan bezatilgan hayotning realizmi, sevgi, fazilat va yomonlik birlashtiradi.

Zamonaviy teatr: Britaniya hukmronligi davrida hind teatrida yangi yo‘nalish shakllana boshladi. Teatr sahnasi mustamlakachilikka qarshi kurashda qurolga aylanadi. Shu munosabat bilan inglizlar mamlakatdagi barcha teatr faoliyatini nazorat qiladi. Mustamlakachilik siyosatining o‘zboshimchaligini qoralaydigan barcha shovshuvli improvizatsiyalar taqiq ostida qoladi. Ammo Britaniyaning ikki yuz yillik ishtiroki davomida muhim madaniy almashinuv sodir bo‘ldi. Sharq va G‘arb madaniyatlarining uyg‘unlashuvi hind teatrining zamonaviy ko‘rinishini vujudga keltirdi. Vaqt o‘tishi bilan xudolar, donishmandlar va afsonaviy qahramonlar haqidagi hikoyalar fonga o‘tib, o‘zlarining dolzarb muammolari bilan oddiy odamlar haqidagi hikoyalarga o‘z o‘rnini berdi.

Xitoy teatri uzoq va murakkab tarixga ega. Xitoyliklarning ilk tomoshalari ularning ibodatxonalaridagi qo‘shiq, raqs, diniy marosimlaridan va saroy tomoshalaridan kelib chiqqan. Chjou davrida (miloddan avvalgi XII-III asrlar) saroy hazillarining turli xil pantomimalari va chiqishlari, shuningdek, she’riy matnlar bilan aralashib ketgan baysi (“yuz o‘yin”) sirk tomoshalari orqali vujudga kelgan va keng tarqalgan.





Miloddan avvalgi va milodiy I, II, III asrlarda yuqori martabali vazirlarning uylaridagi ziyofatlarda kuy, qo‘shiq, raqs, tomoshabinbop sport o‘yinlari, harbiy o‘yinlar, yo‘lbars va sehrgar o‘rtasidagi raqs, turli o‘yinkulgilarni tasvirlashganlar. Bu tasvirlarni Aristokratik qabrlardan topilgan Xan davri rasmlari dalillaydi.

Zamonaviy xitoy teatri va dramasi o‘tmishga nisbatan ancha o‘zgardi. Zamonaviy dunyoning ta’siri xitoyliklar musiqasi, teatri, dramasi ta’sir ko‘rsatdi. Mamlakatning jadal rivojlanishi teatrning o‘rnini pasaytirdi, chunki u madaniyatga emas, balki uning iqtisodiy muhitiga e’tibor berishni boshladi. Garchi ba’zi kekxa xitoyliklar qadimgi xitoy teatri an’analarini himoya qilish va himoya qilishga harakat qilsada, ammo an’anaviy xitoyliklarning yo‘q bo‘lib ketishi muqarrar edi. Hozirgi xitoy teatri yangi shaklga keltirilgan: odamlar teatrdan spektakllarni tomosha qilmaydilar, televizorlarida uylarida tomosha qilishadi. Musiqiy teatrdan tashqari zamonaviy dunyo dramaturgiyaning yangi turlarini, shu jumladan og‘zaki drama deb nom olgan (soddalashtirilgan xitoy: 话剧; an’anaviy xitoy: 話劇; pinyin: *Huàjù*) G‘arb bosqichi.⁷

Yaponiya teatr san’ati haqida. Yapon teatri buddizmning Yaponiyaga kirib borishi davrida vujudga kelgan va G‘arbiy Osiyo, Hindiston va Xitoyning ellinistik davlatlari orqali Uzoq Sharqqa kirib kelgan antik drama elementlarini saqlab qolgan. Yapon teatri san’ati inson iste’dodi, uzoq o‘tmishda ildiz otgan an’analar va ko‘plab tashqi atributlarning o‘ziga xos kombinatsiyasida yotadi, bu oddiy spektaklni uning yapon teatri bo‘lgan xalqning chuqur ma’no va energiya bilan to‘ldirilgan rangbarang hikoyasiga aylantiradi. “Yo‘q” yapon teatri XIV-XV asrlarda paydo bo‘lgan.



⁷ https://uz.wikidea.ru/wiki/Theatre_of_China

Keyinchalik yapon an'anaviy teatrining eng mashhur turlaridan biri - Kabuki paydo bo'ldi, unda barcha rollarni faqat erkaklar ijro etishdi. 20-asr boshlarida teatr san'atining yangi tarmog'i – Takarazuka teatri shakllandi, unda faqat ayollar o'ynaydi.

An'anaviy yapon teatri - bu bir-biri bilan uzviy bog'langan komponentlar - aktyorlik, musiqa, raqs, ssenografiya va tashqi atributlardan - niqoblar, pariklar, bo'yanish, kostyumlar, bezaklar va qo'shimcha elementlardan iborat boy va rang-barang aksessuarlar bo'lib, birgalikda misli ko'rilmagan, ajoyib, lekin ko'pincha tushunish, idrok qiyin bo'lgan falsafiy tushunchalar tasvirlangan.

Yapon teatri shunchalik chuqurki, spektaklga tashrif buyurgan odamda ikki tomonlama taassurot qolmaydi. Tomoshabin yo ko'rgan narsasining estetikasi bilan sug'oriladi yoki asarning yashirin ma'nosini tushunmay, hafsalasi pir bo'ladi.

Yaponiyada turli davrlarda mamlakat madaniyati va tarixining rivojlanishi va shakllanishini aks ettiruvchi bir nechta teatr yo'nalishlari mavjud.

“Yo'q” yapon teatrida bosh qahramon yuzi odamlar va ruhlar hayotidan hikoya qiladi, o'tmishdagi janglar, jinlarga qarshi kurash haqidagi mavzulardan iborat bo'lgan. Hikoya tomoshabinni aktyorning xatti-harakatidan qat'i nazar, his-tuyg'ularini o'z-o'zini ifoda etishga undash istagiga qaratilgan alohida ifoda bilan olib boriladi.



Yapon teatri. Klassikdan zamonaviy teatrgacha harakat turli cholg'u asboblari jo'rligida sodir bo'ladi, bir nechta qismlardan iborat bo'lib, ular asosiy harakatni ta'kidlash uchun kichik miniatyuralar va raqslar bilan to'xtatiladi. Rivoyat olib boriladigan arxaik til niqoblar o'yinini yanada ta'sirli va sirli qiladi.

“Yo'q” teatrining spektakli 3 soatdan 5 soatgacha davom etadi va odatda ixtisoslashtirilgan xonalarda bo'lib o'tadi, lekin ko'pincha ochiq havoda o'tkaziladi.

“Kyogen” teatri. Yaponiyaning *“Kyogen”* teatri *“Yo'q”* teatri bilan deyarli bir vaqtda paydo bo'lgan, ammo janrlarning uslubi va mazmuni

bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Agar “Yo‘q” teatri ham his-tuyg‘ulardan, ham ehtirolardan iborat drama, o‘ziga xos fojia (spektakllarning mazmuni har doim ham fojiali bo‘lmas-da), nafis va poetik spektakl bo‘lsa, “Kyogen” teatri oddiy komediya, murakkab bo‘lmagan hazillar, shovqinli va jonli harakatlar, prozaik va keng tarqalgan farslar. “Kyogen” spektakllari insondagi barcha yuksak va asoslarning o‘ziga xos qarama-qarshiligi asosida qurilgan va an’anaviy ravishda “Yo‘q” teatrining klassik spektaklidagi kabi intermediya sifatida ijro etiladi.

“Kabuki” yapon teatri Tokugava davrining boshida paydo bo‘lgan, bu “Kabuki”ni Yaponiyadagi eng demokratik teatlardan biriga aylantiradigan o‘ziga xos aralash tur. Afsonaga ko‘ra, Kabuki teatrining asoschisi ma’bud raqqos Izumo no Okuni deb hisoblanadi, u marosim ibodatxonasi raqsini romantik va dunyoviy raqslar, xalq balladalari, she’riy elementlar, nay, eski uslubdagi barabanlar jo‘rligida ijro etilgan improvizatsiyalar bilan uyg‘unlashtirgan.



Turli komponentlarning mohir va uyg‘un kombinatsiyasi Kabuki teatrining yaratilishiga olib keldi, unda yosh raqqoslar chiqish qildi. Okunining turmush o‘rtog‘i Nagoya Sanzaburo tufayli teatrda paydo bo‘lgan shamisenning qabul qilinishi va pantomima elementlarining kiritilishi teatrning yanada rivojlanishiga yordam berdi. Teatrlashtirilgan raqsga kulgili dialoglar qo‘shildi va Okuni o‘zi erkak rollarini o‘ynay boshladi. Turli komponentlarning mohir va uyg‘un kombinatsiyasi Kabuki teatrining yaratilishiga olib keldi, unda yosh raqqoslar chiqish qildi. Okunining turmush o‘rtog‘i Nagoya Sanzaburo tufayli teatrda paydo bo‘lgan shamisenning qabul qilinishi va pantomima elementlarining kiritilishi teatrning yanada rivojlanishiga yordam berdi. Teatrlashtirilgan raqsga kulgili dialoglar qo‘shildi va Okuni o‘zi erkak rollarini o‘ynay boshladi.

1603-yilda “Kabuki okuni” nihoyat tuzilib, teatr shaklini oldi. “Kabuki”ning keng jamoatchilik, xususan, raqqosalar o‘rtasida juda


mashhur bo'lishi, keyinchalik ayollarning teatrdan "quvib chiqarilishi" sabablaridan biriga aylandi.

Kabuki teatri spektaklida sodir bo'lgan voqealar va tartibsizliklar va samuraylar yosh aktrisalarning e'tiborini qozonish uchun kurashda uyushtirgan janglar uchinchi syogun Iemitsu hukumatini 1629-yilda har qanday spektaklda ayollarning ishtiroki taqiqlovchi qat'iy farmon chiqarishga majbur qildi.

Onna Kabuki teatri (Ayollar Kabuki teatri) vayron qilingan. Uning o'rnini 17-asr boshlarida paydo bo'lgan "Vakashu Kabuki" (erkaklar teatri) egalladi, unda faqat yigitlar o'ynagan.

Onnagata - ayol rollarini o'ynaydigan erkaklarning mavjudligi, aktrisalarning chiqishlari taqiqlanganidan keyin mutlaqo zarur bo'lib qoldi va hozirgi kungacha saqlanib qoldi.

"Joruri" - Yaponiyadagi qo'g'irchoq teatri, uning paydo bo'lishining kelib chiqishi ovchilar tomonidan uyushtirilgan qo'g'irchoq tomoshalari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.



Spektakllar uyma-uy yurib, ko'chada bo'lib o'tdi. Keyinchalik, Jodo buddist sektasining izdoshlari bo'lgan sayohatchi rohiblar qo'g'irchoqlar ishtirokida spektakllarni namoyish qila boshladilar. O'z chiqishlari uchun ular qo'g'irchoqlar yordamida hikoyalar va buddist mavzularni aytib beradigan kichik, o'z-o'zidan yasalgan sahnalardan foydalanganlar.

Keyinchalik, sayr qiluvchi qo'g'irchoq teatrlari "sekkyo"- buddist hikoyalarining musiqiy tasvirlari bilan birlashtirildi, bu ularning mashhurligini oshirishga yordam berdi. Tokugava Sekkyo hukmronligining dastlabki yillarida ular mashhur sevimli mashg'ulotlariga chuqurroq kirib borishdi.

Ushbu san'atning rivojlanishiga musiqiy hamrohlik, sevgi tus olgan hikoyalarning dunyoviy tabiati yordam berdi. Joruri uchun ishlatilgan eng qadimgi matn bu janrga o'z nomini bergan "Joruri hikoyasi" edi. Qahramon Minamoto Yoshitsune va savdogarning qizi Joruri o'rtasidagi

sevgi hikoyasi qo‘g‘irchoq tomoshalari va shamisen o‘ynash bilan muvaffaqiyatli birlashtirildi.

Bu janrning mashhur vakillari Jyokeya Joun, Gendaiu, Miyauchi Gidayu edi. Ushbu ajoyib ijrochilarning Kiotoga kelishi bilan qo‘g‘irchoq teatri gullab-yashnashning yangi davrini boshdan kechirdi.

“Yose” yapon teatri. Yose - an’anaviy kamerali yapon komediya teatri. Bu teatrning spektakllari hajviy, satirik hikoyalar, latifalar asosidagi spektakllar bo‘lib, o‘yin-kulgilarga boy va ko‘pincha kutilmagan yakun bilan yakunlanadi.

Yapon teatri. Klassiklardan hozirgi kungacha: janrning ushbu shakli 1600-1912-yillar orasida rivojlanganligi sababli, ushbu spektakllarning mazmuni zamonaviy tinglovchiga unchalik tanish bo‘lmagan turmush tarzi haqida hikoya qiladi, ammo bu vaziyatni hisobga olgan holda, ko‘plab ijrochilar bugungi kunda ushbu janrda ishlash, o‘zlari zamonaviy voqelikni aks ettiruvchi hikoyalar yaratadilar.



Yaponiya teatri “Bunraku”. Klassiklardan hozirgi zamongacha



Bunraku Yaponiyadagi eng yirik qo‘g‘irchoq teatri bo‘lib, uzoq vaqt davomida o‘z asoschisi Uemura Bunrakuken an‘analarini saqlab kelmoqda. Teatr 1872-yilda ochilgan va o‘sha davr hukumati tomonidan rasman tasdiqlangan.

Teatr tomoshalari statsionar, jihozlangan sahnalarda o‘tkaziladi. Teatr qo‘g‘irchoqlarining o‘lchami inson balandligining 1/2 - 2/3 qismiga yetadi. Ular qo‘g‘irchoqning boshi, qo‘llari va oyoqlari harakatini tartibga soluvchi qora kostyum kiygan operatorlar tomonidan boshqariladi.

Xonanda qo‘g‘irchoqlarni shamisen va nog‘ora jo‘rligida boshqaradi. Janr xilma-xilligi, mamlakatning shakllanish va rivojlanish bosqichlarini aks ettiruvchi ko‘p asrlik tarix ko‘plab qiziquvchanlarni yapon teatriga jalb qiladi.

Kimdir yapon madaniyatining chuqurligiga nazar tashlamoqchi bo'lsa, kimdir oddiy savollarga javob izlaydi, kimdir shunchaki sodir bo'layotgan narsalarning tashqi atributlariga jalb qilinadi. Idrokdagi farqlarga qaramay, asrlar davomida o'z an'analarini olib kelgan yapon teatri hali ham o'zining sirini, buyuk san'at sirini saqlab kelmoqda, buni hamma ham hal qila olmaydi.

6. O'zbek teatr tarixi.

XX asrda o'zbek teatr tarixida birinchi bor, Samarqandda 1914-yilda Mahmudxo'ja Behbudiyning (1875-1919) "Padarko'sh" pyesasi "Turon" teatr truppassi jamoasi tomonidan namoyish etildi. Bu teatr jamoasi 1918-yilda "Davlat teatri" nomini olgan va Mannon Uyg'ur rahbar hamda rejissiyor bo'lib ishlay boshlagan. Shu yillarda sahna ishini tashkil etishda va uni xalq orasiga keng yoyishda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy singari madaniyatshunoslarning say-harakatlari tufayli teatr xalq hayotining madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi san'atga aylandi. Bir necha yil oralig'ida o'ttizga yaqin pyesalar yaratishdi. Bu sahna asarlari namoyishi natijasida aktyorlar, rejissiyorlar sahna tamoyillariga asos soldi. o'zbek aktyorlari 1924-1927-yillarda Mannon Uyg'ur va Cho'lpon rahbarligida Moskva teatr studiyalarida va Boku teatr texnikumlarida tahsil olib kelishadi. Ulardan turlicha yo'nalish, uslublarni o'rganib qaytadi. Ularga ko'r-ko'rona taqlid qilmasdan ijodiy yondoshadi, hayotni astoydil kuzatishadi va o'rganishadi. Bu o'zbek teatrining dastlabki darvlaridanoq o'z milliyligini asrash yo'lida jonbozlik ko'rsatganidan dalolat beradi. o'zbek teatrini tomoshalari qo'yila boshlaganiga o'n yil bo'lmasdan Abdurauf Fitratning "Chin sevish", "Abulfayzxon", Cho'lponning "Yorqinoy" va Hamza Hakimzodaning komediya, dramalarining yaratilishi badiiy adabiy merosimiz-teatr san'atining boyishiga katta hissa qo'shdi. Mahmudxo'ja Behbudiy teatr haqida *"Teyotr – ibratnomadur... Hech kimni rioya qilmasdan to'g'ri so'zlaguvchi va ochiq haqiqatni bildirguvchidir. Umumiy odatlarni nafi va zararidan paydo bo'ladurg'on natijalarni teatrxonada aynan ko'rsaturlarki, har kim mundan ta'sirlanib, yomon odatlarni tark etib, yaxshilikni ziyoda qilmoqg'a sabab*

bo'lar. ... Teatrionalari masxarabozxona bo'lmay, balki irbatxonadur, mushaxxis-aktyor muallimi axloqdurlar."⁸-deb ta'rif bergan.

1930-yillarda Samarqanddagi "Davlat teatri" Toshkentga ko'chirilib "Hamza teatri" nomini olgan. Jadid ma'rifatparvarlari 1930-yillarga qadar o'zbek sahnasiga Shiller, Gogol, Sheksper singari dramaturglar asarlarini ham olib kirdi. "Hamza teatri" 1930-yildan ko'p yillar davomida sof drama yo'nalishida faoliyat yuritgan. 1993-yili "O'zbek davlat akademik teatri" maqomi bilan taqdirlangan. 2001-yilda bu teatr binosi mukammal ta'mirlanib "O'zbek milliy akademik teatri" nomiga ega bo'ldi. O'zbekistonda bugungi kunda 40ga yaqin teatr faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

O'zbek o'quvchilari Rim adabiyoti asarlari bilan 1930-yillarda ulug' adib Oybek tarjimasida tanishganlar. Bu tarjimalar, shu jumladan Plavtning "Maqtanchoq jangchi", "Xumcha", Terensiyning "Qardoshlar" Senekaning "Medeya" pyesalaridan olingan parchalar Oybekning 20 jildlik "Mukammal asarlar" to'plamining 15-jildiga kiritilgan.

7. Zamonaviy teatrning tarixi.

Uzoq vaqt davomida teatr san'ati deyarli o'zgarmadi va uning janrlari drama: komediya, tragediya va satira edi. XIX asrda fan va texnika taraqqiyoti yangi imkoniyatlarni vujudga keltirdi. Kino san'ati, multipikatsiya, video o'yinlar va internet paydo bo'lishi bilan rejissyorlar tomoshabinlar bilan muloqot qilish uchun yangi yo'nalishlar izlay boshladilar va sahnalashtirishning turlicha yondashuvlarini o'ylab topdilar. Ular boshqa san'at turlarini o'z spektakllariga qo'shib, tomoshabinlarni harakatga jalb qila boshladilar va g'ayrioddiy joylarda spektakllarni sahnalashtira boshladilar.

Zamonaviy teatr-tomoshalarining paydo bo'lishi, avvalgi teatrning o'z mavqeyini biroz yo'qotganday bo'ldi, lekin yo'qolmadi, u yangi ifoda shakllari va tomoshabinlarni jalb qilish usullarini izlay boshladi. Teatr yangi bosqichga ko'tarila boshladi: u nafaqat aktyorlik, balki rejissyorlik mahoratini ham rivojlantirib va takomillashtirib kelmoqda. Yangi teatr kasbi – rejissyorlik spektakllarni yanada yaxlit, yagona rejissyor g'oyasiga bo'ysundirdi. Texnologik yutuqlardan foydalanish hissiy

⁸ Sotimboy Tursunboyev Teatr tarixi o'quv qo'llanma, "Bilim", –T.: 2005, 288 bet

ta'sirni oshirdi. Barcha ifoda vositalariga uyg'un birlashish imkoniyati berildi. Teatr nazariyasida eng muhim vazifa, dramatik tugun, to'qnashuv kabi yangi tushunchalar paydo bo'la boshladi. Teatrda g'oyaviy-estetik chegaralanish jarayoni boshlandi. Teatr aniq milliy tus oldi. Romantizm va realizm o'rnini yangi, ba'zan qarama-qarshi oqimlar – pozitivizm, intuitivizm va hokozolar egallab bormoqda. Dramaturgiya va teatr o'rtasidagi aloqa mustahkamlanib bormoqda.

Zamonaviy teatr turlari va teatr rivojlanishi haqida rus teatr ijodkorlari Anton Xitrov, Aleksey Kiselev -“Dastlab (qadimgi yunonlar orasida) aynan ikkita teatr janri mavjud edi: tragediya va komediya. Keyin, siz bilganingizdek, dunyoga nima bo'ldi: Xristianlik, Buyuk Migratsiya, Salb yurishlari, Uyg'onish davri, vabo, texnologik taraqqiyot, Darwin, Freyd, Qora maydon, kino, jinsiy inqilob, internet va o'ziga xoslik yuzaga keldi. XXI asrga kelib, teatrning aql bovar qilmaydigan xilma-xilligi shakllandi va ularning hammasi aralashib ketdi. Ularni qandaydir tarzda tushunish uchun biz hamma narsani ochib, javonlarga qo'yishga harakat qilamiz.”-deb zamonaviy teatrni turlarga ajratdi.

Drama teatrida sahnada aktyorlar tomoshabinlarga uydirma hikoyalarni o'ynashadi. Drama qadimgi tarixdan hozirgacha yetib kelgan sahna tomoshalaridir. Dramada voqealar she'riy va qo'shiq orqali musiqa jo'rligida namoyish etiladi.

Opera teatrida sahnada hashamatli liboslarda erkaklar va ayollar orkestr jo'rligida qo'shiq aytishadi. Umuman olganda, opera XVII asr boshlarida Italiyada teatr san'atining bir turi sifatida kelib chiqqan va shakllangan. An'anaviy opera teatrlarini Stanislavskiy, Nemirovich-Danchenko va Mariinskiy nomidagi musiqali teatrlarda tomosha qilish mumkin. Rossiyadagi eng muhim opera markazlaridan biri Teodor Kurentzis boshchiligidagi Perm shahri opera va balet teatridir.

Yangi musiqali teatr – bu musiqali kompozitsiya, uni faqat quloq bilan eshitmasdan, ko'rish han zarur. Lekin u orepa emas. Yangi musiqali teatr - XX asrda bastakorlar ixtiro qilgan va operaga muqobil sifatida bugungi kunda ixtiro qilishda davom etayotgan barcha teatr janrlarining umumiy nomi. Masalan, 50-yillarda paydo bo'lgan instrumental teatr:

unda aktyor va musiqachi bir kishi, musiqa asbobini o‘ynash esa vizual diapazonning bir qismidir.

*Balet teatri*da erkaklar va ayollar musiqa ostida nafis harakat qilishadi va ular tor, nozik trikotaj liboslar kiyishadi.

Shunday qilib, teatr san’ati tarixi haqida ko‘plab ma’lumotlar keltirish mumkin bo‘lgan sohadir. 1961-yilda YUNESCONing Xalqaro teatr instituti IX konfederatsiyasining delegatlari tomonidan “27-mart – Xalqaro teatr kuni” deb e’lon qilingan. Hozirgi vaqtda har yili 27-mart kunini 100dan ziyod mamlakatlar teatr san’ati xodimlari kasb bayrami sifatida nishonlashib kelishmoqda.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Teatr qachon, qanday paydo bo‘la boshlagan?
2. Qadimgi Yunoniston teatr tarixi haqida gapirib bering.
3. Qadimgi Rim teatri haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Uyg‘onish davri teatri haqida o‘rganganlaringizni so‘zlab bering.
5. Hindiston teatr tarixi haqida nimalarni bildingiz?
6. Xitoy teatr tarixining kelib chiqishi va ahamiyatli jihatlarini ayting.
7. Yapon teatr tarixi va teatr turlari haqida nimalarni bilasiz?
8. O‘zbekiston teatri haqida nimalar deya olasiz?

Mavzu yuzasidan test topshirig‘i:

1. Teatr qachon paydo bo‘lgan?

- a) Teatr yer yuzi bo‘ylab bir vaqtda paydo bo‘lgan
- b) Yunonistonda paydo bo‘lgan
- c) Qadimgi Rimda paydo bo‘lgan
- d) Misrda paydo bo‘lgan

2. Teatrni birinchi bo‘lib kimlar tartibga solgan?

- a) yunonistonliklar
- b) rimliklar
- c) misrliklar
- d) xitoyliklar

3. Teatr birinchi qachon tartibga solingan?

- a) mil.av. VI asrdan boshlab

- b) er.av. IV asrdan boshlab
- c) mil.av. III asrda
- d) er.av. II asrda

4. Antik so‘zning ma’nosi qaysi?

- a) eramizdan avvalgi
- b) miloddan avvalgi
- c) uzoq o‘tmish
- d) qadimgi

5. Qadimgi Yunonistonda qaysi xudo sharafiga ommaviy bayram uyushtirilgan?

- a) Dionis
- b) Osiris
- c) Xronus
- d) Zevs

6. Esxil, Sofokl, Yevripid, Aristofanlar qaysi davr teatri ijodkorlari?

- a) antik
- b) uyg‘onish davr
- c) ahmoniylar davri
- d) egey

7. Yunonistonlik birinchi teatr ijodkori kim?

- a) Esxil
- b) Sofokl
- c) Yevripid
- d) Aristofan

8. Qadimgi Rimda teatr qachon rivojlandi?

- a) mil.av. III asrning ikkinchi yarmida
- b) mil.av. II asrning ikkinchi yarmida
- c) mil.av. I asrning ikkinchi yarmida
- d) mil.av. IV asrning ikkinchi yarmida

9. Qadimgi Yunonistonda birinchi katta teatrga qancha odam siqqan?

- a) 17 ming kishi

- b) 27 ming kishi
- c) 37 ming kishi
- d) 7 ming kishi

10. Mashhur Kolizey teatri qayerda joylashgan?

- a) Rimda
- b) Afinada
- c) Misrda
- d) Rim va Afina oralig'ida

11. Kolizey teatrining mashhurligi nimada?

a) qadimiyligi, kattaligi, o'rmon va ko'l sahnalarining paydo bo'lishi bilan

b) qadimiyligi, Rimdaligi, birinchi qurilganligida o'rmon va ko'l sahnalarining paydo bo'lishi bilan

c) qadimiyligi, birinchi qurilganligida o'rmon va ko'l sahnalarining paydo bo'lishi bilan

d) qadimiyligi, chiroyliligi, birinchi qurilganligida, senatorlar o'tiradigan joylarni tashkil etilganligida, o'rmon va ko'l sahnalarining paydo bo'lishi bilan

12. Teatr so'zi qaysi tildan kelib chiqqan?

- a) yunon
- b) lotin
- c) arab
- d) fors

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sotimboy Tursunboyev Teatr tarixi o'quv qo'llanma, "Bilim", – T.: 2005, 288 bet

2. Namangan davlat universiteti Ijtimoiy-madaniy faoliyat yo'nalishi talabalari uchun "Teatr tarixi" fanidan ma'ruzalar matni Namangan. 2014-yil, 21-bet.

3. <http://anysite.ru/>

4. uz.wikipedia.org

5. www.bharatiya.ru

6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/>

QO'G'IRCHOQ TEATRINING PAYDO BO'LISHI, TARIXIY ILDIZLARI VA TARBIYAVIY AHAMIYATI

Reja:

1. Qo'g'irchoq teatri tarixi.
2. O'zbekistonda qo'g'irchoq teatrining qadimiy turlari.
 - ✚ Fonus xayol
 - ✚ Chodir jamol
 - ✚ Chodir xayol
3. Dunyo xalqlarining qadimiy milliy qo'g'irchoqlari haqida.
4. Qo'g'irchoq teatrlarining tarbiyaviy ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: qo'g'irchoq teatr tarixi, fonus xayol, chodir jamol, chodir xayol, milliy qo'g'irchoqlar, tomoshalarning ahamiyati haqida.

Qo'g'irchoq teatri tarixi.

Qo'g'irchoq o'yin tomoshalari butun dunyoning ko'plab xalqlarining azaliy an'analaridir. Jumladan, O'zbekistonda ham qo'g'irchoq teatrining uzoq o'tmishi mavjud. O'zbekistonda qo'g'irchoq teatri an'analari eramizdan avvalgi VI-IV asrga, Ahmoniyalar hukmronligi davriga borib taqaladi. Biroq, qo'g'irchoq teatri XIV asrga, Amir Temur hamda Temuriylar hukmronligi davriga kelibgina keng tarqala boshlagan.

Dunyo xalqlaridan Qadimgi qo'g'irchoq teatri Misrning bayramlari bilan bog'liq tarixga ham ega. Xudo Osirisning hayoti bilan bog'liq bo'lgan sahna ko'rinishlarini ko'rishga ko'plab odamlar yig'ilgan. Shu lavhalarda qo'g'irchoqlardan foydalanilgan. Qadimgi Yunonistonda juda ko'plab qo'g'irchoqlar yasalgan bo'lib, ular qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan va bayramlarda harakatga keltirilgan. Yunonistonda kimdir old devori bo'lmagan quti yordamida dunyoni tasvirlash g'oyasini ilgari surgan. Sandiq ko'rinishidagi sahnani o'ylab topgan. Pastki qismida qo'g'irchoq o'ynatishga moslashgan teshiklar bo'lib, ular orqali qo'g'irchoqlar harakatga keltirilgan (bu er.avv. VI-IV asrlarga to'g'ri kelgan). Shu-shu qo'g'irchoq teatri dunyoga keldi. Qo'g'irchoqbozlar butun dunyoda qo'g'irchoqlarni ertak, masal, hikoya, rivoyat, afsonalarni

sahnalashtirgan va xalqlarning milliy qo‘g‘irchoq san‘ati taraqqiy eta boshlagan.

Qo‘g‘irchoq teatri repertuarlarining ilgari yozma matni bo‘lmagan. Qo‘g‘irchoq tomoshalarning so‘zlari va harakatlarini yodlash orqali, uzoq mashqlar natijasida avloddan avlodga, ustozdan shogirdga o‘tkazib kelingan. Qo‘g‘irchoq o‘yinlarining Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani G‘ishti qishlog‘ida yashab o‘tgan Xolmurod bobo (1897-1967), uning otasi Siddiq Kalon (1858-1840), bobosi Abdukarim (1800-1870)lar mashhur namoyondalaridan bo‘lishgan. Bundan tashqari toshkentlik Tursunboy Abdujabborov, samarqandlik Novvot lug‘takboz, Mahmud Mehtar, Hamro buvi, Buxorodan yana Zarif Misgar, Qori Hoji, Sharof Chala, Sadriddin Eshon, Rajab Meshkob kabi o‘nlab qo‘g‘irchoqbozlar o‘tishgan. Qo‘g‘irchoqbozlar asosan jamiyatdagi yomon illatlar, zo‘ravonlik, amaldorlar zulmini xalqqa kulgili qilib ko‘rsatib berishga harakat qilishgan. Oddiy mehnatkash xalqqa zavq, kulgu-tabassum ulashgan va asl haqiqatlar haqida odamlarga tushuncha bergan. Ayniqsa, XIX asr o‘rtalarida qo‘g‘irchoq o‘yin satirasining tig‘i o‘tkirlashdi. Qo‘g‘irchoqbozlar faollashib, hukmron tabaqalarga nisbatan o‘z munosabatlarini va baholarini dadil hamda oshkora ifoda qildilar. Satira tig‘iga yirik amaldorlar, sutxo‘rlar, o‘g‘rilar sharmandai sharmisor bo‘ldilar. Qo‘g‘irchoqbozlar mehnatkash xalq orasidan chiqqan bo‘lib, ular hech vaqt boy yashamagan, ularga amaldorlar tomonidan tayziqlar, tahqirlashlar, kamsitishlar, xo‘rlashlar bo‘lib turgan. Dindorlar esa qo‘g‘irchoq teatrini “shayton o‘yini”, narigi dunyoda qo‘g‘irchoqlar jon talab qiladi, “qo‘g‘irchoqboz shakkok va diyonatsiz”,- degan gaplarni xalq orasida targ‘ib qilib kelganlar.

Qo‘g‘irchoq o‘yinlari odamlar gavjum joylarda, bozorlarda, xalq bayramlarida namoyish etilgan. Qo‘g‘irchoq tomoshalari soddagina qurilgan (sahna)minbarlarda ko‘rsatib berilgan. Teatr mazmunini jamiyat: boy va kambag‘allar o‘rtasidagi munosabatlar, oddiy xalq hayoti, sevishganlar, do‘stlik-dushmanlik, yaxshilik-yomonlik, sadoqat-xiyonat kabi mavzular tashkil etgan.

K.S.Stanislavkiy iborasi bilan aytganda “Har bir san‘at turi o‘z ifoda vositasiga tayanib inson ruhiyati, hayotini gavdalantirishdan iborat” - deb

fikr keltirib o'tgan. Yana taniqli san'atshunos olim, professor Muhsin Qodirov: "Qo'g'irchoq teatri – san'atning ajoyib, ta'sirchan turlaridan biri. Uning jozibadorligi, tomoshaviyligi, qandaydir sodda go'zalligi "mo'jizali" tabiatga ega bo'lishidadir. Boshqa paytda oddiy bolalar o'yinchog'idan farq qiladigan qo'g'irchoq san'atkor qo'liga qo'ndirgach, jonlanadi, nafas ola boshlaydi, tafakkur hosil qiladi, ya'ni rosmana insoniy hayot bilan yashay boshlaydi"-deb yozgan edi. Olimlarning teatr-tomosha san'ati va qo'g'irchoqlar teatrlari haqidagi fikrlaridan va amaliyotdan kelib chiqib qo'g'irchoqlar bolalarning o'yinchog'i-ovunchog'i, bolalarga hamda kattalarga hayot to'g'risida fikr berguvchi, ta'lim-tarbiya ulashuvchi vositadir.⁹

O'zbekistonda qo'g'irchoq teatrining qadimiy turlari.

XV asrda Xuroson, Movarounnahrda boshqa san'atlar qatori qo'g'irchoq teatri ham taraqqiy etdi va uch turi keng tarqaldi:

- +Fonus xayol(soya tushiriladigan),
- +Chodir jamol(qo'lga kiyiladigan),
- +Chodir xayol(iplar vositasida).

Fonus xayol teatri qadimdan mavjud bo'lib, ayniqsa, XI asrda Yava va Xitoy davlatlarida keng tarqalgan. Xitoy Fonus xayol teatrida qo'g'irchoqlar qo'tos, eshak, qo'ylarning terisidan qilingan. Ular har xil rangga bo'yalgan. Masalan, qo'g'irchoqning yuzi oq bo'lsa- u ayyor, qizil bo'lsa-dono, qora bo'lsa - saxiy degan ma'nolarni anglatgan. Agarda qo'g'irchoqning qo'lida qamchi bo'lsa, u otda; eshak bo'lsa, qayiqda ketayotganini bildirgan.

Xitoyda hozirgi kunda ham bunday teatr mavjud bo'lib, u **Impuri** deb ataladi. Bunday teatr Yavada ham bor bo'lib, uning nomi **Vayan-puro**dir. Uning syujetida asosan qadimgi afsonalar yotadi. Qo'g'irchoqlar asosan hayvonlar terisidan tayyorlanib, tayoqchalarga mahkamlab qo'yiladi. Ular badiiy so'z ustasining hikoyasi yoki qo'shiq jo'rligida harakat qilishadi.

Bunday teatr Turkiyada ham keng tarqalgan bo'lib, ularda **Qaraiz** deb atalgan. Tomoshalar odatda qahvaxonalarda ko'rsatiladi.

⁹ N.Mirsaidova, R. O'taganov "Qo'g'irchoq boshqarish asoslari"(qo'lqopli qo'g'irchoq) nomli o'quv-uslubiy qo'llanma Toshkent-2015. 8-bet

Qo'g'irchoqlar yaxshi oshlangan teridan yasilib, asosan qizil va ko'k rangga bo'yalgan ekan. Fonus xayol teatri Turkiyadan avval Italiyaga, so'ngra Angliya, Fransiya, Germaniyaga tarqalgan. XVIII asrning ikkinchi yarmi Fonus xayol teatrining yevropada eng gullagan davri bo'lgan. 1775-yilda Londonda tashkil etilgan. **Ambruz** teatri butun yevropada gastrolda bo'lgan. Rassom Anri-River rahbarlik qilgan **Shapuor** (Qora mushuk) teatri Parij va chet el mamlakatlari o'rtasida katta muvaffaqiyat qozongan.

“**Chodir jamol**” da ijtimoiy va maishiy hayot bilan bog'liq bo'lgan voqealar satira va yumor vositalari bilan aks ettirilgan. Voqealar markazida Kachal polvon obrazi turgan. Kachal polvon mehnatkash xalq vakilidir. U jasur va bahodir. U hatto dev, shayton va ajdardan qo'rqmaydi. Shunisi qiziqki Kachal polvonning tashqi qiyofasi ham, karakteri ham osiyo va yevropadagi shu tipdagi qahramonlarga o'xshab ketadi. “Chodir jamol” teatrida sahnagalar safar bir juft qog'irchoq chiqib bir ko'rinishli mitti pyesa hosil qilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, 40ta qo'g'irchoq ishtirokida o'yinlar namoyish qilingan. Demak, 20ta sahna bo'lgan, deb taxmin qilish mumkin. Ularda korfarmon nomidagi usta va tajribali qo'g'irchoqboz, ya'ni guruh boshlig'i tomoshabinlarga ko'ringan holda qo'g'irchoq qahramonlar bilan savol-javob qilib, gapini izohlab, shu yo'l bilan tomoshani boshqargan.¹⁰

“Qo'l qo'g'irchoq” teatrida bir tomoshada ko'pi bilan o'n qo'g'irchoq ishtirok etgan bo'lsa, “**Chodir xayol**” da bir yo'la ellikdan ortiq qo'g'irchoq o'ynagan. O'zbek an'anaviy qo'g'irchoq teatr turi. Odatda, qo'g'irchoqlarning boshi, iyagi, kindigi, tirsagi, bilagi, tizzasi, to'pig'i, iplar bilan bog'lanib, bir uchi dastcho'pga ulanadi. Parda ortida turgan qo'g'irchoqboz dastcho'pdan ushlab qo'g'irchoqni sahnaga olib chiqadi va iplarni tortish orqali ularni harakatga keltiradi. Sayilgoh, ko'cha yoki hovlida orti tabiiy to'sinli joy tanlanib, uzunligi 5-6 metr, bo'yi 2-2,5 metr keladigan rangdor yoki hovlida yo'l-yo'l chitdan parda tutiladi. Uning o'rtasi kesilgan bo'ladi. Chodir deb atalgan bu joyning ortida uzunligi 3-3,5 metr, bo'yi 20-25 sm keladigan ichki qora chodir

¹⁰ Nurmatova M.Sh. Xasanova Sh.T. D.Azimova. Ustaxonada amaliy mashg'ulot. “Musiqqa” T.:2010-y.79-bet

bo‘lib, uning ham pastki tomoni 180 sm uzunlikda va 70-75 am balandlikda kesiladi va o‘yin joyi hosil qilinadi. Ichki chodir, ustun, bolor, tirgovuchlardan iborat moslama bilan tiklanib turadi. Yarim metrgacha ichkarida qora orqa parda bo‘ladi. Tomoshalar, odatda, kechqurun ko‘rsatilib, 50 tagacha qo‘g‘irchoq o‘ynatilgan. Chodir xayol O‘zbekiston hududida taxminan VI asrda maydonga kelgan. XIV asrning ikkinchi yarmidan boshigacha keng taraqqiy etgan. Dastlab xalq afsonalari, mifologik syujetlar yoritilgan bo‘lsa, XVII-XIX asrlarda unda satirik bo‘yoqlar bilan saroy hayoti, bozor manzaralari aks etgan. O‘zbekistonda qo‘g‘irchoq teatri shu tariqa taraqqiy etib keldi.

O‘zbekistonda 1937-yillarda xalq qo‘g‘irchoqbozi Po‘latjon Doniyorov rahbarligida kichik truppa tashkil etildi. Po‘latjon Doniyorovning qo‘g‘irchoq teatri 1939-yil noyabr oyida rasman faoliyat yurita boshladi.¹¹ Davlat qo‘g‘irchoq teatriga asos solgan Po‘latjon Doniyorov, S.A. Urazova, Ye.G.Podgurskayalar o‘zbek xalq qo‘g‘irchoq teatri an‘analari va rus qo‘g‘irchoq teatri tajribalariga suyanganlar. Jamoa o‘z ishini bolalar teatri sifatida boshlagan bo‘lsada, Ikkinchi jahon urushi davrida katta yoshdagi tomoshabinlarga ham xizmat qilgan.

Dunyo xalqlarining qadimiy milliy qo‘g‘irchoqlari haqida.

Qo‘g‘irchoqlar bolalarni ovunchog‘i-o‘yinchog‘i hamdir. Har bir xalqning qadimiy milliy qo‘g‘irchoqlari mavjud bo‘lgan, masalan:



-O‘zbekistonda o‘zbeklarning milliy qo‘g‘irchoq‘i **Kachalpolvon** va **Bichixon** bo‘lgan. Kachalpolvon shox, tili o‘tkir, hamma vaqt zolimlarga, riyokorlarga, shaytonu alvastilarga, keskin salbiy munosabatda bo‘lgan. Kachalpolvon va Bichixon (er-xotin) xushchaqchaq, halol, mehnatsevar, hazilkash bo‘lib xalqqa xursandchilik ulashgan. Kachalpolvon tabiatan Nasriddin afandiga o‘xshagan. Teatr qo‘g‘irchoq‘ining kelib chiqishiga oid birinchi tadqiqotlar XIX asrlardanoq ma‘lum bo‘lgan. 1842-yili fransuz yozuvchisi Sh.Node qo‘g‘irchoq teatrining kelib chiqishini insonning “bolalik” pallasiga bog‘liqligi g‘oyasini o‘rtaga tashlaydi. Unga ko‘ra birinchi bo‘lib

¹¹ library.ziyonet.uz

qo‘g‘irchoqni “birinchi qiz bola” o‘zining tabiiy onalik instinkti tufayli kashf etilishi bo‘lib chiqdi. Qo‘g‘irchoqlarning paydo bo‘lishiga yana bir qarash bor edi. Fransuz arxeologining fikricha qo‘g‘irchoq johiliyat davri odamlari “xudo”larini jonlantirish, ularni harakatga keltirishga intilishidan kelib chiqqan degan har ikki gipoteza juda ko‘p bahs-munozara va tortishuvlarga sabab bo‘lgan. XX asrda madaniyatshunoslik fanining rivojlanishi olimlarning izlanishlari natijalari va xulosalarini birlashtirib bir to‘xtamga kelishib, aniqlik kiritadi. Qo‘g‘irchoq teatrining ham kelib chiqishi xalqchil urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar bilan bog‘liqligini asoslaydi. Qadimiy urf-odatlar, ibtidoiy tafakkur, mifologiyaning ildizlari o‘rganilishi, qo‘g‘irchoqlarning sirdan “o‘yinchoq” sifatida ko‘rishga qaramay, aslida insonning narigi dunyo haqidagi tasavvurlari bilan bog‘liq (xronik) mavjudot degan xulosa qaror topadi. Barcha xalqlar (osiyoliklar, afrikaliklar, qadimiy yevropaliklar, avstraliyaliklar, Shimoliy Amerika hindulari, slavyanlar va boshqalar)da qo‘g‘irchoqlar aslan marhumlar va ruhlar dunyosiga mansub bo‘lganlar. Ularda odamlarning o‘tib ketgan ajdodlarga munosabati aks etgan, qo‘g‘irchoqlar tiriklarga mansub bo‘lmagan ishlarni qilishga haqli hisoblanganlar. Hozirda bolalar o‘yinchoqlariga Zumrad, Mashhura, Ra‘no kabi ismlarni qo‘yib olishadi.

-rus xalqi milliy qo‘g‘irchog‘ining nomi **Matryoshka** bo‘lgan. Matryoshka o‘yinchog‘i butun dunyoga mashhur bo‘lib, u rus xalqining milliy ramzi sanaladi. Rossiyaga kelgan chet elliklar estalik sifatida Matryoshka qo‘g‘irchoqlarini xarid qilishib o‘zlari bilan olib ketishadi.. Matryoshka qo‘g‘irchoqlari yog‘ochdan, bir-birini ichiga joylashadigan qilib yasaladi. Matryoshka o‘yinchog‘i XIX asrda ko‘p miqdorda yasaladigan bo‘ldi. Matryoshka qo‘g‘irchoqlari asosan 3tadan 20tagacha bir komlekt qilib yasalgan. Bugungi kunga kelib Matryoshka qo‘g‘irchoqlarining eng ko‘pi o‘zida mujassamlashtirgan, 72tagacha qo‘g‘irchoqlarni birlashtira oladigan matryoshkaga ega. Hozirgi vaqtda siyosatchilar aktyorlar va



multifilm qahramonlari suratlari tushirilgan qo‘g‘irchoqlarni ham xarid qilish mumkin.

Rossiya xalq qo‘g‘irchoq teatrining asosiy bosh qahramoni **Petrushka** bo‘lgan. U asosan kulgili xarakterda qizil ko‘ylakda, keng shimda, cho‘tka bilan ishora qilingan qopqoqda tasvirlangan.



XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiyada paydo bo‘lgan bu qo‘g‘irchoqning kelib chiqishi ishonchli tarzda aniqlanmagan bo‘lsa-da, Rossiyada petrushka XVII asrdan beri ma‘lum bo‘lgan. Rus qo‘g‘irchoqlari qo‘g‘irchoqlar (qo‘g‘irchoqlar teatri) XIX asrga qadar petrushka, asrning oxiriga kelib, Petrushka ko‘rinishi rus emas: u mubolag‘a katta qo‘llari va boshi, gipertrofiyalangan yuz xususiyatlari bor, u (yog‘ochdan kesilgan) o‘ziga xos o‘simlik suyuqligi bilan ishlov beriladi, bu esa quyuqroq ko‘rinadi; katta bodom shaklidagi ko‘zlar va katta burun, mutlaqo oq ko‘zlar va qorong‘u Kamalak, Shuning uchun petrushka ko‘zlari qora ko‘rinadi. Uning qo‘lida to‘rt barmoq bor. Teatr qo‘g‘irchoqlari bo‘lishiga qaramasdan, qo‘g‘irchoqlar va iplar bilan boshqariladi.¹²

-**Ichimatsu** yapon xalqining qadimiy milliy qo‘g‘irchog‘i hisoblanadi. Yaponiya xalqi azal-azaldan shu ichimatsu nomli qo‘g‘irchog‘ini bir-birlariga sovg‘a tariqasida berishni xush ko‘rishar ekan. Yaponiyaliklar ichimatsu qo‘g‘irchog‘iga o‘yinchoq emas, san‘at asari sifatida qarab kelisharkan va uylarini bezatish



uchun ham foydalanar ekanlar. Avvallari Ichimatsu qo‘g‘irchog‘i qizlarga hadiya qilingan bo‘lib, qizlar bu o‘yinchoqdan kimanoni chiroyli kiyishni o‘rganishar, sochlarini turmaklashni, yuzlariga oro berishni, yurishini yaxshilashni o‘rganishgan ekan. Umuman olganda qizlar kiyinish, yurish-turish madaniyatini estetik tarbiyani Ichimatsu qo‘g‘irchog‘idan o‘rganishga harakat qilisharkan. Shu sababli Ichimatsu qo‘g‘irchog‘i –

¹² ru.wikipedia.org

yapon qizlarining ideali bo'lib xizmat qilgan. Yaponiya bayramlari va to'ylarida yapon qizlarining tashqi ko'rinishi – imidji Ichimatsu qo'g'irchog'idek chiroyli ko'rinishda bo'lgan.

-Motanka Ukrainada eng mashhur milliy qo'g'irchog'i hisoblangan. Bu qo'g'irchoq qo'lda yasalgan bo'lib, odamlar ushbu qo'g'irchoqni turli baxtsizliklardan asrashiga ishonishganlar. Hozirgi vaqtda esa motanka qo'g'irchog'i chiroyli bezak sifatida foydalaniladi. Motanka qo'g'irchog'ining boshqa milliy qo'g'irchoqlardan farqi yuz qismi bo'lmasada tashqi qiyofasi juda chiroyli qomat, uzun sochlar hamda bejirim milliy libosga ega.



Shvetsiyada **Tilda** qo'g'irchoqlari mashhur sanaladi. Tilda qo'g'irchoqlari mato va mato qoldiqlaridan uy sharoitida qo'lda tayyorlangan. Tilda shved dizayneri Toni Finnanger tomonidan yaratilgan. Tonim xonimning Tilda qo'g'irchoqlari butun dunyoga mashhur bo'lib ommalashib ketgan. Bu o'yinchoqlar qo'l mehnatiga asoslanib tikilganligi, bezatilganligi, tabiiylikka yaqinligi va go'zalligi uchun ham mashhurlikka erishgan. Tilda qo'g'irchoqlari zamirida xushbichim qizlar tasvirlangan bolib, ular estetik did va farosatni shakllantirgan.



- Italiyada **Pulchinella** sevimli qo'g'irchoq hisoblanadi. Pulchinella juda xushchaqchaq va kulgili bo'lgan.

- fransuzlarniki **Polishinel** qiziqchi, jiddiy bo'lmagan, boshida katta qoziqlar, yog'ochdan yasalgan kulgili qilib tasvirlashgan. Ko'zlari katta va pushti yonoqlari bor. Qo'g'irchoqning kayfiyati uning boshini o'girishiga bog'liq. Polishinel 1650 yillarda yashab o'tgan fransuz va italiya xalq qo'g'irchoq teatrining asosiy personaji bo'lgan. XVI asrning oxirida xalq orasida



mashhur bo‘lib, qo‘g‘irchoq teatrining sevimli qahramonlaridan biriga aylandi.

– Angliya qo‘g‘irchoq‘ining nomi mister **Panch** va uning partniyori **Judi** bo‘lgan. Punch va Judi XVII asrda Italiyada paydo bo‘lgan an‘anaviy ko‘cha qo‘g‘irchoq teatri bo‘lib, keyinchalik o‘sha asrning oxirida Buyuk Britaniyada paydo bo‘lgan. Teatrning Markaziy belgilar Punch (Pulcinella) va uning xotini Judi. Ushbu teatrning chiqishlari odatda uch daqiqadan oshmasligi kerak bo‘lgan qisqa sahnalardir.



- nemis xalqining sevimli qo‘g‘irchoq‘ining nomi – **Kasperle**



bo‘lgan. U marionetka qo‘g‘irchoq teatrining bosh qahramoni bo‘lib XVIII asr oxirida ko‘plab tomoshalarda xalqni kuldirib, zavqlantirib sahna tomoshalari ko‘rsatgan. Nemis milliy folklor va qo‘g‘irchoq teatrining kulgili xarakteri. Odatda, bu qo‘lidagi qo‘g‘irchoqni kiyib olgan, qo‘pol hazil bilan ijro etilgan va sodda belgi, xatti-harakati bilan ajralib turadigan “ijro”. Kasperlning obrazi

uning oldingi shaxslari - boshqalar qatorida-Vena xalq sahnasidan Gansvurstga ega ekanligiga ishoniladi. Nemis tilida so‘zlashadigan hududlarda Kasperl qo‘g‘irchoq teatri XVIII asr oxiridan beri ma‘lum. Kasper va uning do‘stlari ko‘pincha bolalarga do‘stlik, ehtiyotkorlik, adolat, ixtiro, qat‘iyatlilik va yaxshi xulqli hazilning muhim qadriyatlarini o‘rgatadi. Bolalarning reaksiyalari ko‘pincha rag‘batlantiriladi va o‘yin jarayoniga kiritadi. Kasperning yaxshi do‘sti va ba‘zan uning xotini. U aqlli, amaliy va foydali. U tez-tez Kasperga yordam beradi. U juda ko‘p ijobiy fazilatlarga ega.

Seppel Kasperning yana bir yaxshi do‘sti. U muloyim, ba‘zan aqlli va kuchli. U hech qachon yaxshi ovqatdan bosh tortmaydi. U tez-tez Kasperni xavfli sarguzashtlar haqida ogohlantiradi va osongina qo‘rqitadi

Politsiyachi jamiyatning kuchi va qonunlarini ifodalaydi. U yaxshi do‘st va biznesni rivojlantirishga yordam beradi. Politsiya ko‘pincha maslahat uchun murojaat qiladi. Kasperning hazillariga e‘tibor bermasligi mumkin bo‘lsa-da, u Kasperga qattiq qaraydi yoki jamiyatdagi qoidalarning qiymatini mustahkamlashini ogohlantiradi. O‘g‘ri chirigan, hiyla-nayrang, iflos, yolg‘onchi va qo‘shimcha ravishda dangasa! U juda kuchli, lekin xayriyatki, juda aqlli emas. Shuning uchun u har doim qo‘lga olinadi va jazolanadi.

Yovuz, o‘jar, osonlik bilan bezovtalanadigan va hiyla-nayrang bo‘lishdan tashqari, Jodugar sehrlarni o‘qiy oladi va ko‘pincha boshqa yovuzlarni birlashtiradi.

Sehrgar kuchli, dono va foydalidir. U o‘z kuchini faqat yaxshi uchun ishlatadi. Biroq, u o‘zini juda jiddiy qabul qilishga moyil va Kasper o‘z mablag‘lari bilan qiziqqanida, u tez-tez so‘raydi: “Men kimligini bilmaymanmi?” Sehrgarning shafqatsiz ko‘rinishi ko‘pincha qahqaha manbai bo‘lib qoladi.

Qo‘g‘irchoq teatrlarining tarbiyaviy ahamiyati

Qo‘g‘irchoqlar teatri bolalarni eng birinchi navbatda xursand qiladi, zavqlantiradi, quvontiradi, o‘ynatadi, ovutadi, ruhiyatini ko‘taradi.

Qo‘g‘irchoq teatri san‘ati avvalo, maktabgacha yoshdagi bolalarni san‘atni sevishga, voqealardan estetik zavq olishni, milliy urf-odatlarimizni, an‘analarimiz va qadriyatlarimizni sindirishni, vatanimiz barchamizniki ekanligini uqtirib tabiatga mehr bilan munosabatda bo‘lishni, atrof-olam haqidagi bilimlarni boyitadi va odob-axloq normalariga amal qilishni o‘rgatib boradi. Bolalar tomoshalarni shunchaki ko‘ribgina qolmay xulosa chiqarib, tafakkur, tasavvur doirasi kengayadi, voqealar yuzasidan fikr-mulohazalar yuritib idrok etib boradi. Qo‘g‘irchoq o‘yin tomoshalari bolalarni olam haqidagi bilimlarini shakllantiradi. Turli ruhiy salbiy holatlardan xalos bo‘lishga yordam beradi. Ya‘ni artterapiya vazifasini bajaradi.

Bugungi kunda bolalar sevimli qo‘g‘irchoq-o‘yinchoqlarini qo‘llaridan qo‘ymasdan o‘ynashadi. Ulardan ertak to‘qib sahnalashtirishadi. Ularning bu ishlarini tizimli yo‘naltirish zarurati tug‘iladi. Shu bois, tarbiyachilar bolalarni qo‘g‘irchoqlari bilan va

o‘zlarini qahramonlar qiyofasida sahnalashtirib, televizion ko‘rsatuvlar tashkil etilsa, ko‘p sonli bolalarda ham sahna faoliyatiga qiziqish uyg‘onadi. Boshqa bolalarda ham rol ijro etish istagi paydo bo‘ladi. Bu istak sahna faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini yanada orttiradi. Sahna faoliyati esa bolalarni har tomonlama jismoniy, ma’naviy, aqliy-axloqiy, ruhiy, estetik, ijtimoiy-madaniy jihatdan rivojlantiradi. Ertak, masal, hikoya, afsona va rivoyatlarni sahnalashtirish bolalar ongi-shuurida insoniy qadriyatlarni singdirishga yordam beradi. Albatta, bolajonlarni rag‘batlantirib borish, ularning ijodi samaradorligini oshiradi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Qo‘g‘irchoqlar teatrining kelib chiqish tarixini gapirib bering.
2. O‘zbekistonda qo‘g‘irchoqlar teatrining qanday turlari bo‘lgan?
3. O‘zbek xalqining qadimiy milliy qo‘g‘irchog‘lari qanday nomlangan?
4. Dunyo xalqlaridan rus, italyan, nemis, yapon, shved, ukrainlarning milliy qo‘g‘irchoqlari nomlarini ayting.
5. Qo‘g‘irchoq teatrlari bola ta’lim-tarbiyasida qanday ahamiyatga ega?

Mavzu yuzasidan test topshirig‘i:

- 1. Soya teatrini qayerda “Qaraiz” deb nomlagan?**
 - a) Turkiyada
 - b) O‘zbekistonda
 - c) Xitoyda
 - d) Yavada
- 2. O‘zbekistonda birinchi qo‘g‘irchoq teatri qachon rasman ish faoliyatini boshalagan?**
 - a) 1937-yil
 - b) 1939-yil
 - c) 1979-yil
 - d) 1989-yil
- 3. Buxorolik mashhur qo‘g‘irchoqboz kimligini toping.**
 - a) Xolmurod bobo

- b) Hamro buvi
- c) Tursunboy Abdujabborov
- d) Novvot lug‘tagboz

4. Karfarnom kim?

- a) Tajribali usta qo‘g‘irchoqboz, qo‘g‘irchoqbozlar guruhi rahbari
- b) Tajribali usta qari qo‘g‘irchoqboz
- c) Tajribali usta qo‘g‘irchoqbozlar
- d) Tajribali va mahoratli usta qo‘g‘irchoqboz

5. O‘zbekistonda qo‘g‘irchoq teatrining tarixiy ildizlari qaysi davrga borib taqaladi?

- a) Er.avv. VI-IV asrga Ahmoiylar davriga
- b) XIV asr Temuriylar davriga
- c) XX asr sovet davriga
- d) XIII asr mug‘ullar davrida

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. N.Mirsaidova, R. O‘taganov “Qo‘g‘irchoq boshqarish asoslari”(qo‘lqopli qo‘g‘irchoq) nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanma Toshkent-2015
2. Nurmatova M.Sh. Xasanova Sh.T. D.Azimova. Ustaxonada amaliy mashg‘ulot. “Musiqqa” T.:2010-y.
3. library.ziyonet.uz
4. ru.wikipedia.org

TEATRNING NAZARIY TUSHUNCHALARI HAQIDA

Reja:

1. Teatr kategoriyalari.
2. Sahnada nutq madaniyati.

Tayanch tushunchalar: teatr nazariyasi, teatrga bo‘lgan qarashlar, teatr so‘zining qo‘llanilish o‘rinlari, sahna hutqi haqida, tushunchalar: sahna, obraz, personaj, qo‘g‘irchoq teatri, ssenariy, drama, shirma, repetitsiya, imidj, repertutar, general repetitsiya, aktyor, sufliyor, final, finish, dekaratsiya va boshqalar.

1. Teatr kategoriyalari.

Bugungi teatr taraqqiyotida qadimgi teatr nazariyalari dasturul amal bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Buni miloddan avval yaratilgan sahna asarlari va nazariyasiga hanuzgacha murojaat etib kelinayotganligi ham dalilaydi. Zero, antik davrning fan, adabiyot, san‘at, madaniyat, musiqa, teatr va boshqa sohalari kelajak avlodga ta‘lim-tarbiya berishda maktab vazifasini bajaradi. Kelajak avlod avval o‘rganadi, so‘ng shu manbalarga asoslanib o‘z sohalari taraqqiyotiga yangiliklar kiritishadi, boyitishadi, kashfiyotlar qilishadi.

Teatr – keng qamrovli tushuncha sanalib, sahna va tomoshalar uning tarkibiy qismi sanaladi, shuning uchun ko‘p hollarda **“teatr” sahna va tomosha** nomlari bilan ham yuritiladi. Aslida, sahna – tomosha qo‘yiladigan joy nomi, tomosha esa fikr beruvchi, ibrat bo‘lguvchi san‘at hisoblanadi. Teatr san‘atining turlari xilma-xil bo‘lib, ularning har biri alohida o‘rganish obyekti bo‘la oladi. Jumladan, bolalar olamidagi eng muhim teatr turi sanalgan – qo‘g‘irchoq teatri sintetik san‘at turi bo‘lib, bolalar hayotida har tomonlama ta‘limiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega. U nafaqat ta‘lim-tarbiya vositasi, balki ko‘ngilochar, rivojlantiruvchi, davolovchi kabi vazifalarni ham bajaradi.

Sahna ikki xil ko‘rinishda: birinchisi tabiiy – hayot sahnasi, unda hamma o‘z rolini o‘zi o‘ynaydi, ikkinchisi sun‘iy sahna bo‘lib, o‘tgan voqealarni qayta tiklash, uning nusxasi yaratiladigan, tomoshabinga taqdim etiladigan makon. Demak, sahna tomosha ko‘rsatiladigan joy,

makon, ba'zan tomoshaning o'zi ham teatr deb yuritiladi. Bu esa tilning metonimik bog'lanishi asosida insonning umumiy bilish fondi orqali anglanadigan ma'nosi. Masalan, *Talabalar bolalarga qo'g'irchoq yordamida ajoyib sahna namoyish etishdi// Talabalar bolalarga qo'g'irchoq yordamida ajoyib teatr namoyish etishdi*. Ko'rinadiki, bu o'rinda sahna va sahnaga qo'yilgan asar, ya'ni teatr o'rtasidagi bog'liqlik, aloqadorlik asosida metonimik ma'no ko'chishi yuzaga kelgan: *"Talabalar bolalarga qo'g'irchoq yordamida sahnada ajoyib teatr namoyish etishdi"*.

Ba'zan teatr tomoshalari o'tkaziladigan binolarni ham *teatr* deb atashadi (aslida ularni *teatr binosi* deb atash o'rinli).¹³ Teatr san'ati turli janrlarga asoslanadi: dramatik teatr, opera, balet, pantomimo va hok. Ammo hozirgi davrda teatr terminining qo'llanish doirasi kengayib quyidagi ma'nolarni ham anglatib boshladi:

1. Spektakllar qo'yish yoki unga muvofiqlashtirilgan binolar.
2. Muassasa, idora-spektakllar ko'rsatuvchi jamoa, shuningdek, spektakllar prokatini amalga oshiruvchi uyushma (masalan: Muqimiy teatri, Ilhom teatri gastrollari va shu kabilar.)
3. Dramaturgik va boshqa sahnaviy asarlarning ma'lum bir uslubiyotga asoslangan majmualari ("Uyg'onish davri teatri", "Myuler teatri", "O'zbek teatri", "Mannon Uyg'ur teatri" va hok.)
4. Ko'chma ma'noda "Qandaydir voqea-hodisalar joyi (harbiy harakatlar teatri, anatomik teatr va h..)"¹⁴

Professor D M. Genkin o'z izlanishlaridan kelib chiqqan holda teatrlashtirish uslubiga, insonlarni tarbiyalashda pedagogik omil sifatida qaraydi. Teatrlashtirishni tashkil qilish teatr qonunlariga bo'ysunadi.

Ssenariy-bu tadbirning mazmunini adabiy-badiiy tasvirlash bo'lib, unda mavzu va g'oya to'liq ochib berilib, harakatning barcha elementlari jiddiy ketma-ketlik qonuniyatiga asoslangan holda, bir qismdan ikkinchisiga o'tiladi. Bundan tashqari, ssenariyda quyidagilar aniq va ravon ko'rsatiladi:

¹³ <https://uz.wikipedia.org>

¹⁴ Namangan davlat universiteti Ijtimoiy-madaniy faoliyat yo'nalishi talabalari uchun "Teatr tarixi" fanidan ma'ruzalar matni Namangan. 2014-yil.

- maydon, zal va sahna bezagi;
- tomosha boshlovchilarining va boshqa ishtirok etayotgan personajlarning matnlari;
- tomosha davomida ishlatiladigan publitsistik nutqiar;
- badiiy materiallar;
- qo‘llaniladigan turli uslublarning xarakteri.

Ssenariy yaratish jarayonida quyidagi kompozitsiya komponentlari albatta bo‘lishi lozim.

Mavzu — bu ssenariy muallifi nima haqida hikoya qilmoqchigi, tomoshada olib boriladigan hayotiy hodisalardir.

G‘oya — bu tomoshaning asosiy fikri, mazmuni, mantig‘i, mafkurasidir. Bu nimadir uchun kurashish chaqirig‘idir. Tomoshaning g‘oyasi hujjatli va badiiy materialni birlashtiruvchi asosdir. G‘oya faqatgina tomoshaning oxiridagina (finalda) to‘liq ochilishi lozim. Tomosha davomida esa tomoshabinga fikrlash uchun ozuqa beriladi.¹⁵

Ssenariy muallifi mavzu va g‘oyani aniqlagach, o‘zining dastlabki ssenariy rejasini tuzadi.

Syujet — bu harakat davomida rivojlanuvchi voqealar zanjiridir. Syujet har qanday teatrlashtirilgan tomoshada qarama-qarshiliksiz rivojlana olmaydi.

Kompozitsiya — bu xatti-harakatni tashkil qilishda, dramaturgiya qonuniyatlariga asoslangan holda, tomoshaning barcha komponentlarining bir butun yaxlit bo‘lib joylashishi va bog‘lanishidir. Teatrlashtirilgan tomosha kompozitsiyasi strukturasi - prolog, tugun, asosiy voqea, kulminatsiya va final (yechim) tashkil qiladi.

Prolog — bu tomoshaning asosiy g‘oyasini jamlangan holda ifoda etishdir.

Tugun — bu xatti-harakatning, voqeaning boshi bo‘lib, tomoshabinning tomoshadagi asosiy birlamchi g‘oyalarini fikr qila olishdir.

Asosiy voqea — bu syujet, konflikt rivoji bo‘lib, kurash, to‘qnashuvlar va ularni yengib o‘tish jarayonini tasvirlashdir. Aynan mana shu yerda qarama-qarshilik (konflikt)ning rivoji juda ham

¹⁵ Д.М.Генкин. Массовые праздники. —М.: «Просвещение». 1975. С. 91.

muhimdir.

Kulminatsiya — bu harakat rivojidadagi eng yuqori nuqta, eng yuqori keskinlikdir. U albatta yechimga olib boradi.

Final — bu tomoshaning (ko‘pincha buni yechim yoki epilog deb atashadi) oxiridir. Teatrda va ommaviy tomoshalarda hujjatli materialni qo‘llash bir-biridan ko‘p tomonlama farq qiladi.

Bu talablarni badiiy vositalar orqali hal eta olish, buning uchun esa, o‘z sohasini yaxshi o‘zlashtiraolishi kerak.

Rejissyorlik sahnalashtirish rejasi uchta savolga javob beradi:

➤ Men nima uchun qo‘yyapman? (Tomoshabinga nima demoqchiman?)

➤ Men nimani qo‘yyapman? (Dramatik materialning tahlili).

➤ Men qanday qo‘yaman? (hal etish uslublari).

Sahnalashtirish rejasining mavzusini tahlil qilish jarayonida, sahnalashtiruvchi o‘zini qiziqtirgan bo‘lajak tomoshaning yo‘nalishini aniqlaydi.

Mavzu – bu ssenarist va rejissyor tomonidan tanlab olingan hayotiy hodisalar doirasidir. Mavzu (yunonchadan- «theme» asosiy fikr degan ma‘noni bildiradi) badiiy mazmunning asosiy momentidir. Asosiy mavzu ssenaristning yaxlitlikni tashkil etishdagi asosiy muammosidir. Bu muammoni tushunish uchun chuqurroq qarasa, uni yechishning ikkita aspekti borligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan shu narsa aniq bo‘ladiki, har bir mavzu “urug‘ida” muammo sifatida mualliflik nuqtayi nazari, kurashdagi qarama-qarshilikdagi ma‘lum bir pozitsiyani egallash uchun intilishi yetakchilik qiladi. Shunday ekan, asosiy mavzu qarama-qarshilikning ma‘lum bir tomoniga uzviy bog‘liq bo‘lib, ssenariy muallifi tomonidan tasdiqlanadi. Boshqa tomondan mavzu, rejissyorlik g‘oyasi bilan chambarchas bog‘langandir.

G‘oya-bu asardagi tasvirlanayotgan voqeaning muallif tomonidan baholanishining, asosiy fikri, asosiy xulosasidir. Bu muallifning tutgan pozitsiyasini, uning xatti-harakatlarini namoyon bo‘lishidir.

Ssenariy (italyancha «Scenario» - adabiy-dramatik asar degan ma‘noni anglatadi) tadbir mazmunini adabiy ta‘svirlash bo‘lib, bunda jiddiy ketma-ketlik asosida harakat elementlari bo‘lmish mavzu va g‘oya,

bir bo‘lakdan ikkinchisiga o‘tish, bloklar, bezaklar, matnlar to‘liq ko‘rsatiladi.

Ssenariy tabiati bo‘yicha bir qancha turlarga bo‘linadi:

- + *badiiy filmlar ssenariysi;*
- + *hujjatli filmlar ssenariysi;*
- + *ilmiy-ommabop filmlar ssenariysi;*
- + *qo‘g‘irchoq va multfilmlar ssenariysi.*
- + *televizion ssenariylar:*
 - a) adabiy-badiiy ko‘rsatuvlar ssenariysi;
 - b) publitsistik — axborot ko‘rsatuvlar ssenariysi;
 - d) ma‘naviy-ma‘rifiy ko‘rsatuvlar ssenariysi;
 - e) ijtimoiy-siyosiy ko‘rsatuvlar ssenariysi;
 - g) o‘yin-ko‘ngil ochar ko‘rsatuvlar ssenariysi;
 - f) televizion filmlar ssenariysi;
 - j) musiqiy ko‘rsatuvlar ssenariysi va h.k.
- + *radio eshittirishlar ssenariysi:*
 - a) ijtimoiy-siyosiy eshittirishlar ssenariysi,;
 - b) adabiy - badiiy eshittirishlar ssenariysi;
 - d) publitsistik-axborot eshittirishlari ssenariysi;
 - e) musiqiy eshittirishlar ssenariysi;
 - f) ma‘naviy-ma‘rifiy eshittirishlar ssenariysi;
 - g) o‘yin-ko‘ngil ochar eshittirishlar ssenariysi va h.k.
- + *sirk tomoshalari ssenariysi;*
- + *ommaviy bayram va tomoshalar ssenariysi.*

Ommaviy bayram va tomoshalar ssenariysi — sintetik asardir. Unda dramaturgiyaning elementlari bo‘lib, ko‘proq epik xarakterdagi (ba’zida lirik — epik) asarlarga yaqin turadi.

Improvizatsiya (fransuzcha - improvisation, italyanча improvvisazione (lotincha- improvisus-kutilmagan, dabdurustdan) — she’r yaratish, musiqa yozish va h.k., oldindan tayyorgarlik ko‘rmay ijro qilish, degan ma’noni bildiradi.

Sahna — teatr binosining tomosha ko‘rsatiladigan qismi. Birinchi teatr binolari, jumladan, Qadimgi Xitoy, Hindiston, Turon, Yunonistonda paydo bo‘lib, asrlar davomida o‘zgarib borgan. Hozirgi teatrlar, odatda,

uch qavatli qutisimon shaklda quriladi. 1-qavati sahna osti (tryum)dan iborat. Oʻrta qavati tomoshabinlarga yaqqol koʻrinib, asosiy voqealar shu yerda aks ettiriladi. Bu joy “sahna oynasi” deb yuritiladi. Sahna maydoni (plansheti), odatda, tomosha zalidan 0,8—1,1 m baland boʻladi.¹⁶

Shirma – bu parda, toʻsiq. Qoʻgʻirchoq teatri tomoshalari namoyish etishda ishlatiladigan toʻsiq, meditsinada ishlatiladigan shirma-toʻsiq-parda mavjud boʻlib, baʼzi muolajalar boshqalarning koʻzi tushmasligi uchun foydalaniladi. Goʻzallik salonlarida ham shirma-toʻsiq ortida bajariladigan amaliy ishlar mavjud. Kiyinishda liboslarni alishtirishda ham shirmalardan foydalansak boʻladi.

Obraz – bu atama “tasvir”, badiiy obraz— voqelikni faqat sanʼatga xos usulda oʻzlashtirib va oʻzgartirib harakterlovchi estetik kategoriya. Shuningdek, badiiy asarda ijodiy qayta yaratilgan har qanday voqea ham obraz deb yuritiladi.

Personaj – (lot. persona — shaxs) — sanʼat va badiiy adabiyotda muallif tomonidan tasvir etilgan shaxs. Personajlar asar voqealarida qatnashuvi, tasvirlanishi va umumlashtirilishi darajasiga koʻra asosiy personajlar, yordamchi personajlar, epizodik personajlarga boʻlinadi. Badiiy asar voqealarining boshidan oxirigacha faol qatnashgan va yozuvchining asosiy gʻoyaviyestetik niyatini tashuvchi shaxslar asosiy personajlar hisoblanadi. Ular asarning bosh qahramoni deb ataladi. Barcha voqealarda toʻla qatnashmasada, yozuvchining gʻoyaviy niyatini toʻlaroq ochishga xizmat qiladigan faol obrazlar yordamchi personajlardir. Asarning makrostrukturasida yanada kamroq qatnashadigan shaxslar epizodik personajlar boʻlib qolaveradi. Epizodik personajlar asosiy qahramon tabiatidagi muhim xususiyatlarni ishonarli yoritishga xizmat qiladilar.

Drama – (yun. drama — harakat) —syujetlilik, harakatlarning ziddiyatga asoslanishi va ularning sahna, epizodlarga boʻlinishi, bayonning yoʻqligi, personajlar munosabatlarining oʻzaro soʻzlashuvga asoslanishi dramaning oʻziga xos xususiyatidir. Ijtimoiy muammolarni aks ettiruvchi dramatik ziddiyatlar qahramonlarning xatti-harakatlarida, avvalo dialog va monologlarda ifodalanadi. Drama matni koʻrishga (imo-

¹⁶ uz.wikipedia.org

ishora, harakat), shuningdek, eshitishga mo‘ljallanadi; u sahnaviy makon, zamon va teatr texnikasi imkoniyatlariga ham muvofiq keladi. Drama adabiy asar sifatida aktyor, rejissyor tomonidan sahnada o‘z talqinini topadi. Drama tufayli teatr san’ati yuzaga kelgan va u kino san’ati uchun ham asos bo‘lgan.

Aktyor – erkak yoki ayol(aktrisa) bo‘lishi mumkin. Aktyor (lotincha “act”- “ijro” drama, opera, balet, qo‘g‘irchoq teatri, estrada, sirk, film, radio va televideniya rollar ijro etuvchi shaxs. Aktyor o‘z tanasi, ovozi, aqli, his-tuyg‘ulari, qobiliyati vositasida jonli badiiy obraz yaratadi. Aktyor artistdan farqli o‘laroq, biror tayinli obrazni ifoda etadi.¹⁷

Imidj – (ing . image, lot. imago — timsol, ko‘rinish) — shaxs, hodisa, narsaning ommalashtirish, reklama qilish va h. k. maqsadlarda odamlarga hissiy, ruhiy ta’sir ko‘rsatishni ko‘zlab shakllantiriladigan qiyofa.

Repetitsiya – (lot. repetitio — qaytarish) — teatr, estrada, sirk tomoshalari, konsert dasturlari, ayrim chiqishlar, sahnalarni ko‘p marta (butunlay yoki qisman) takrorlash orqali tayyorlashning asosiy shakli.

Repertuar – (frans. repertoire, lot. repertorium — ro‘yxat, izohlash) — drama teatri, musiqali teatr, qo‘g‘irchoq teatri estrada konserti yoki ayrim artist tomonidan ijro etiladigan asarlar majmui.

Suflyor – (fr. “souffleur” – “nafas ol, zarba ber, taklif et”) – spektakl matni asosida repetitsiya, spektakllarning borishini kuzatib boruvchi va kerak bo‘lganda sufllyor – shivirlab maslahat beruvchi ijodkor.

Spektakl – (lot. spectaculum — tomosha) — teatr san’ati asari. Sahnalashtiruvchi boshchiligida teatr jamoasi: aktyorlar, rassom, kompozitor, baletmeyster va boshqalar tomonidan yaratiladi.

Dekoratsiya – (lot. decoro — bezayman) — teatrda sahnani, kinoda film suratga olinadigan joy — maydon, pavilonni spektakl, film mazmuniga moslab bezash. Dekoratsiya yaratishda rassomlik, haykaltaroshlik, me’morlik, voqelik joyini loyihalash san’ati, yoritish va boshqa vositalardan foydalaniladi. Dekoratsiya yaratish dekoratsiya-bezak san’ati deb ataladi.

Finish – tugash, marraga yetib kelmoq, teatrda tomoshalari voqealari yechim topib tugashi tushuniladi.

¹⁷ wikipedia.org

2. Sahnada nutq madaniyati.

Bugungi kunda nutq texnikasini egallash bo'yicha qator mashqlar tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, ular teatr pedagogikasi tajribasiga asoslangan va ular nutq nafasi, ovoz va talaffuzga oid ko'nikmalar majmuidan iborat. Ular bola nutqining rivojlanishi imkonini ham beradi.

Xo'sh, nutq texnikasi o'zi nima? Unga qanday ta'rif berish mumkin? Bu savollarga javob berish uchun avvalo "nutq texnikasi" iborasini tashkil etuvchi so'zlarning mohiyatiga e'tiborni qaratamiz. Nutq nima?

O'zbek tilining izohli lug'atida nutq so'ziga shunday ta'rif beriladi: "Nutq – tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi; so'zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shu jarayonning hosilasi".¹⁸

Texnika (yun. techne – san'at, mahorat) – bu biror ish-faoliyat yoki harakat turida orttirilgan mahorat darajasi, malaka-ko'nikmalar yig'indisi.¹⁹

Nutq texnikasi esa – bu til vositalari yordamida, notiqlik san'ati talablariga rioya qilgan holda ko'pchilik oldida nutq so'zlay olish hamda ishchi muloqot o'rnatish mahoratidir.

Nafas texnikasi. Nafas organizmning tirikligini ta'minlab, fiziologik vazifani bajaradi. Shuningdek, u nutqning energiya manbai ham sanaladi. Nutq nafasi fonatsion (grekcha phono - tovush) nafas deb ham ataladi. Kundalik hayotda nutqimiz dialogik xarakterda bo'lganligi uchun nutq nafasida bola boshqalar bilan muloqotga kirishuvi paytida va sahnada bo'lganida ko'p vaqt o'zi gapirishiga to'g'ri kelsa, agar nutq nafasi mashqi qildirilmagan bo'lsa, yurak urishi tezlashishi, qizarib ketishi yoki nafas tiqilib qolish mumkin. Shuning uchun sahnaga bolani avval qisqa muddatga, keyinchalik nisbatan-nisbatan uzoq muddatlarda ham chiqishini ta'minlab borish zarur. Shundagina bolada sahnada o'zini erkin tutib gapirish ko'nikmasi hosil bo'ladi.

¹⁸ O'zbek tilining izohli lug'ati. J.III. N – Tartibli/ Tahrir hay'ati: T.Mirzayev va b.; O'zR FA Til va adabiyot instituti. –T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 67-b.

¹⁹ O'zbek tilining izohli lug'ati. J.IU. T – Tartibli/ Tahrir hay'ati: T.Mirzayev va b.; O'zR FA Til va adabiyot instituti. –T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 80-b.

Nafas texnikasining asosiy holatlarini qisqacha bayon qilamiz. Nafas jarayonida ishtirok etadigan muskullarga ko‘ra nutq nafasining 4 xil turi ajratiladi.

1. Yuzaki nafas elkani va ko‘krak qafasining yuqori qismini ko‘tarib tushiradigan muskullar yordamida amalga oshiriladi. Bu zaif, yuzaki nafas bo‘lib, unda o‘pkaning faqat yuqori qismi ishtirok etadi.

2. Ko‘krak nafasi qovurg‘alararo muskullar yordamida amalga oshiriladi. Bunda ko‘krak qafasi eniga kengayadi. Diafragma harakati zaif bo‘lganligi uchun chiqarilayotgan nafasning kuchi ham zaif bo‘ladi.

3. Diafragma nafasi ko‘krak qafasining bo‘ylamasiga kengayishi hisobiga amalga oshiriladi. Natijada diafragma qisqaradi, lekin qovurg‘alararo muskullar qisqarishi unchalik faol bo‘lmaydi.


4. Diafragma–qovurg‘a nafasi ko‘krak qafasining ham eniga, ham bo‘yiga kengayishi natijasida amalga oshiriladi. Natijada diafragma, qovurg‘alararo va qorin muskullari qisqaradi. Bu nafas eng to‘g‘ri nutq nafasi sanaladi.

Diafragma–qovurg‘a nafasi mexanizmini ko‘rib chiqamiz. Diafragma qisqarib pastga qarab egiladi va ichki organlarni bosadi yuqori natijada qorinning qismi turtib chiqadi, ko‘krak qafasi bo‘yiga kengayadi, o‘pka kengayib, havoga to‘ladi.


Nafas chiqarilayotganda diafragma bo‘shashib, yuqoriga ko‘tariladi, ko‘krak qafasi eniga qisqara boshlaydi. Ko‘krak qafasining umumiy hajmi qisqaradi, unga nisbatan bosim kuchayadi va havo tashqariga chiqadi.

Fonatsion nafas yoki ovoz nafasi oddiy nafasdan nimasi bilan farqlanadi?

Oddiy nafasda nafas olish va chiqarish burun orqali amalga oshiriladi va bir maromda bo‘ladi. Bunday nafas ketma-ketligi nafas olish, nafas chiqarish, pauza.



Gapirish uchun oddiy fiziologik nafas olish etarli emas. Nutq va o‘qish uchun yetarli miqdordagi havo talab etiladi, shuningdek, uni tejab ishlatish kerak bo‘ladi. Nutq nafasida nafas chiqarish nafas olishga nisbatan uzunroq bo‘ladi. Qisqa nafas olishdan so‘ng pauza (qorin muskullarini taranglashtirish uchun), keyin esa ovozi nafas chiqarish amalga oshiriladi.



Nutq tovushlari nafas chiqarilayotganda hosil qilinadi. Shuning uchun ham uni to‘g‘ri qurish nutq nafasini va ovozi tashkil qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Diafragma, qorin va qovurg‘alararo muskullarni rivojlantirish va mustahkamlash uchun qator mashqlar mavjud. Masalan: Chalqancha yotib, burun orqali chuqur nafas olinadi. Bunda siz o‘pkaning havo bilan to‘planganligini, qorin muskullari va pastki qovurg‘alar harakatga kelganligini sezasiz. Xuddi shu mashqni tik turgan holda ham bajarib ko‘rish kerak. Bunda havo o‘pkaning pastki qismida qolishiga, ko‘krak qafasining yuqori qismiga ko‘tarilmasligiga e‘tibor berish kerak. Havoni har doim pastga qarab yo‘naltirish lozim.

Bunda mashqni tarbiyachi o‘zida ham qo‘llashi kerak. Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyalanuvchi bolalariga o‘rgatishi va tez-tez mashq qildirib turishi zarur. Nafas mashqlar orqali bola nutqi rivojlanadi, sahnada o‘zini erkin tutadi, tilidagi nuqsonlarni bartaraf etishga ham yordam beradi. O‘z ustida mustaqil ishlash har bir inson nutq nafasi tizimini takomillashtiradi.

Nutq texnikasining *nafas*, *tovush* va *diksiya* kabi elementlari mavjuddir.

Inson nutqi amalga oshirilishiga ko‘ra ichki va tashqi nutqqa, tashkil etilishiga ko‘ra og‘zaki va yozma nutqqa bo‘linadi. Sharoitga qarab nutq turli xilda namoyon bo‘ladi. U bazan istak-tilak, ba’zan chaqiriq-murojaat, ba’zan esa inson quvonchi yoki ruhiy iztirobi shaklida ifodalanadi. Nutq ichki va tashqi ko‘rinishlarga ega. Ichki nutq odamning

o‘z ichida gapiradigan passiv nutqi bo‘lib, u ikkinchi kishining ishtirokini talab etmaydi. Shuning uchun ham bu nutq o‘z-o‘ziga qaratilgan nutq sanaladi va uni nazorat qilib bo‘lmaydi. Ichki nutq og‘zaki va yozma nutqning asosi sifatida xizmat qiladi. Ichki nutq inson tafakkurining mahsulidir. U inson miyasida juda tez sur‘atlarda sodir bo‘lib, faqat insonning o‘zigagina ma’lum bo‘ladi. Ichki nutq ba’zan xayol, fantaziya kabi psixologik xususiyatlar bilan bog‘lanib ketadi.

Tashqi nutq esa ikki yoki undan ortiq kishilar uchun amalga oshirilib, atrofdagilarga fikr-mulohazalarni bildirish uchun tashkil etiladi.

Nafas. Nafas fiziologik funksiyani, ya’ni inson organizmining hayotiy funksiyasini amalga oshiradi. Shuningdek, u nutq jarayonini energiya bilan ta’minlaydi. Demak, inson ikki turda nafas oladi: *fiziologik* va *fonasion* nafas.

Fiziologik nafasda havo burun orqali olinib, nafas olish va nafas chiqarish teng hamda bir tekisda bo‘ladi. U quyidagi ketma-ketlikda sodir bo‘ladi: qisqa nafas olish, qisqa nafas chiqarish va pauza.

Fonasion nafasda qisqa nafas olinadi, pauza va cho‘ziq nafas chiqariladi. Chunki tovush hosil qilish uchun havo oqimi zarur bo‘ladi.

Fonasion nafas shakllanmagan bo‘lsa nutq jarayonida hapqirib qolish, yurak urishi tezlashishi, yuz qizarib ketishi kabi holatlar kuzatiladi. Nafas olish jarayonida ishtirok etadigan muskullar ishtirokiga qarab nafasni to‘rt turga ajratiladi. Yuqori nafas - yelka, ko‘krak qafasi va o‘pkaning yuqori qismi ishtirokida amalga oshiriladigan yengil nafas turidir. Ko‘krak nafas – qovurg‘a muskullari ishtirokida sodir bo‘lib, ko‘krak qafasini aylanasi o‘zgaradi. Bunda diafragma deyarli o‘zgarmaydi.

Diafragmal nafas – ko‘krak qafasi hajmining bo‘ylamasiga o‘zgarishi natijasida amalga oshadi. Diafragmal-qorin nafas ko‘krak qafasi muskullarining ko‘ndalangiga hamda bo‘ylamasiga o‘zgarishi, qorin muskullarining o‘zgarishi asosida hosil bo‘ladi. Shu nafas fonasion nafas uchun eng qulayi hisoblanadi. Nutq tovushlari cho‘ziq nafas chiqarish jarayonida hosil bo‘ladi. Shu sababli fonasion nafas va tovush hosil qilish jarayonini takomillashtirishda diafragmal-qorin nafasni rivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish lozim. Bolaning nafas olishini tartibga solish

uchun juda ko'plab mashqlar belgilangan. Shulardan biri, yerga chalqancha yotgan holda burun orqali uzoq vaqt davom etadigan chuqur nafas olish yoki shu holatni tik turgan holda qaytarish nafas olish organlarining to'g'ri ishlashiga yordam beradi.

Tovush. Insonlar orasida tabiiy ravishda ijobiy ta'sir etadigan, jarangdor, yoqimli tovush egalari juda kam uchraydi. Yaxshi tovush yillar o'tishi bilan, maxsus mashqlar yordamida chiniqtirib borilmasa, o'zgarishi mumkin. Shuningdek, har bir insonning tovushi maxsus mashqlar asosida chiniqtirilsa kuchli, o'zgaruvchan va jarangdor bo'lishi mumkin. Tovush apparatining tuzilishi bilan tanishib chiqamiz. Tovush apparati 3 qismdan iborat: generator, rezonator, energiya tizimi. Generator tizim – tovushni generatsiyalaydi, tovush paylarida va og'iz bo'shlig'ida sodir bo'ladi. Tovushlarni tonal va shovqin tovushlarga ajratadi. Rezonator tizimga halqum, og'iz va burun bo'shlig'i kiradi. U nutq dinamikligini ta'minlaydi. Energetik tizimga yuqori nafas yo'llari kirib, tovush hosil qilishda ishtirok etadigan havo oqimining tezligi va hajmini ta'minlaydi.

Inson tovushining muhim xususiyatlari Tovush o'pkadan chiqayotgan havo oqimining tovush paylari tomonidan to'sib qolinishi natijasida hosil bo'ladi. Tovushning muhim jihatlari tovush apparatining qay darajada shakllanganligiga bog'liq. Inson tovushining muhim jihatlari quyidagilar kiradi:

- tovushni ma'lum masofaga yetkazish va boshqarish.
- Tovushning egiluvchanligi – nutq mazmuniga ko'ra o'zgartirish.
- Tovushning balandligi – tovushning tonalik darajasi. Tovush harakati uning baland-pastligiga bog'liq. Odam ovozi osongina 2 oktava balandligida o'zgarib turishi mumkin, ammo kundalik nutqimizda 3-5 nota kuchida ovoz ishlatilishi mumkin.

- Diapazon – ovoz ko'lami, kengligi. Inson imkoniyatlari darajasidagi, eng yuqori va eng quyi chegarasiga ega turli balandlikdagi tovushlar yig'indisi.

- Tembr – har bir tovushning o'ziga xos bo'lgan sifati, tovush bezagi, uning mayinligi yoki yo'g'onligi, yorqinligi.

Har bir insonning tovush tembri rezonator tizim asosida o'zgarishi mumkin. Rezonator tizimning 2 turi farq qilinadi: yuqori (bosh) va quyi (ko'krak).

Yuqori yoki bosh rezonator tizimiga bosh miya, og'iz va burun bo'shlig'i kiradi. Quyi yoki ko'krak rezonator tizimiga traxeya va bronxlar kiradi. Rezonator tizim yordamida turli xildagi ton (tovush) va oberton (qo'shimcha tovush)lar hosil qilish mumkin.

6) Ritmika – tovush va so'zlarni talaffuz qilishdagi umumiy tezligi, davomiyligi, ovoz maromi yoki vazni. Ba'zi bir so'zlarning, bo'g'inlarning talaffuzi, ularning tezligi - nutqning sur'atini tashkil etadi.

7) Temporitm - so'zlar orasidagi tanaffuslardir.

8) Nutq tezligi o'qituvchining shaxsiy sifatlari, nutq mazmuni, muloqot qilish vaziyatiga, har bir o'qituvchining fazilati nutq mazmuni va muomala vaziyatiga bog'liq.

Individual tarzda tashkil etiladigan maqsadli va aniq yo'naltirilgan mashqlar tovush tembriga ta'sir etadi, tovushdagi noo'rin qo'shimcha tovushlarni yo'qotishga yordam beradi.

Diksiya. Diksiya – tovush va so'zlarni aniq, tushunarli talaffuz qilish, ya'ni tovush hosil qilishda lab, til, jag', yumshoq va qattiq tanglay, tilcha, halqum, tovush paylari ishtirok etadi. Agarda ulardan birortasining faoliyati buzilsa diksiya buziladi.

Diksiya-talaffuz tarzi, talaffuzni aniq ravshanligi darajasi. Bola uchun to'g'ri talaffuz - eng kerakli vosita hisoblanadi, chunki atrofdagilar tushunishi uchun nutqi, talaffuzi ravon, har bir bo'g'in, so'z va tovushlarni aniq aytishi kerak.

Pauza, temp va nutqning yoqimli bo'lishi nutq ohangini tashkil etadi. Bir ohangdagi nutq zerikarli bo'lib, qiziqish va diqqatni pasaytiradi. Demak, nutq texnikasi haqidagi tushunchaga ega bo'lgach endi doimiy mashq qilishga o'tish kerak. Ba'zi birlar, tovush va uning o'ziga xosligi ham insonga in'om etilgan tug'ma xususiyat deb hisoblaydilar. Lekin zamonaviy fiziologik ilmiy tajriba, ovoz sifatini tubdan o'zgartirish mumkin ekanligini tasdiqlaydi. Bu fikrni tarixiy misollar ham tasdiqlashi mumkin. Masalan, Qadimgi Gretsiyalik Demosfen o'zidagi ba'zi bir nuqsonlarni yengib, buyuk notiq bo'lib yetishgan.

Sahnaga chiqish oldidan bola nutqini imkon darajasida kerakli mashqlar bilan shug‘ullantirib borish, bolani chiroyli, ravon, izchil, ifodali, mazmunli so‘zlay olish qobiliyatini rivojlantiradi. Bola o‘zini sahnada erkin his eta olishiga erishiladi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Hozirda “teatr” so‘zining qo‘llanilish o‘rinlarini ayting.
2. Ssenariyning qanday turlari bor?
3. MTTda bolani sahnaga o‘rgatishdan maqsad nima?
4. Sahnaviy nutq qanday bo‘lishi kerak?
5. Sahna madaniyati nima?

Mavzu yuzasidan test topshirig‘i:

1. Improvizatsiya nima?

a. lotincha- improvisus-kutilmagan, bexosdan, dabdurustdan — she‘r yaratish, musiqa yozish va h.k., oldindan tayyorgarlik ko‘rmay ijro qilish, degan ma‘noni bildiradi.

b. birdan paydo bo‘ladigan ijod tamoyili, o‘xshatish degan ma‘noni bildiradi

c. oldindan tayyorgarlik ko‘rgan holda o‘xshatish degan ma‘noni bildiradi

d. lotincha- improvisus-kutilmagan, bexosdan, dabdurustdan — she‘r yaratish, musiqa yozish va h.k., oldindan tayyorgarlik ko‘rgan holda ijro qilish degan ma‘noni bildiradi.

2. Qadimda o‘liklar rolini kimlar o‘ynashgan?

- a. qo‘g‘irchoqlar
- b. erkaklar
- c. qullar
- d. mahbuslar

3. Drama so‘zining ma‘nosi nima?

- a. yunoncha drama-o‘zbekchada harakat
- b. lotincha drama-o‘zbekchada harakat
- c. fransuzcha drama-o‘zbekchada fojia
- d. italyancha drama —o‘zbekchada harakat qiluvchi

4. “Kompozitsiya” tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?

- a. lotinchadan olingan bo‘lib, “composition”- tuzilish, birlashish, bog‘lanish degan ma’noni anglatadi.
- b. yunonchadan olingan bo‘lib, “composition”- tuzilish, birlashish, bog‘lanish degan ma’noni anglatadi.
- c. yunonchadan olingan bo‘lib, “composition”- tuzilish, birlashish, bog‘lanish qurish-yasash, ulab chiqish degan ma’nolarni anglatadi.
- d. lotinchadan olingan bo‘lib, “composition”- qurash, payvandlash, birlashish, bog‘lanish degan ma’noni anglatadi.

5. Ssenariy so‘zi qanday ma’noni anglatadi?

- a. italyanacha “Scenario” - adabiy-dramatik asar degan ma’noni anglatadi.
- b. yunoncha “Scenario” - adabiy-dramatik asar degan ma’noni anglatadi.
- c. lotincha “Scenario” - adabiy-dramatik asar degan ma’noni anglatadi
- d. fransuzcha “Scenario” - adabiy-dramatik asar degan ma’noni anglatadi.

6. “Nutq texnikasining ..., ... va ... kabi elementlari mavjud.”

Nuqtalar o‘rniga kerakli tushunchani qo‘ying.

- a. Nafas, tovush, diksiya
- b. Nafas, nutq, tovush
- c. Nafas, diksiya, diafragma
- d. Nafas, nutq, diafragma

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. J.III. N – Tartibli/ Tahrir hay’ati: T.Mirzayev va b.; O‘zR FA Til va adabiyot instituti. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 67-b.
2. Д.М.Генкин. Массовые праздники. —М.: «Просвещение». 1975. С. 91.
3. wikipedia.org

II.MODUL. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA SAHNA FAOLIYATI

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA SAHNALASHTIRISH FAOLIYATINING ASOSIY MAQSADI

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatining asosiy maqsadi.
2. Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatining vazifasi.
3. Teatr - sahnalashtirish faoliyatining shakllari.
4. Teatr - sahnalashtirish faoliyati tamoyillari.

Tayanch tushunchalar: Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatining asosiy maqsadi, vazifasi, maktabgacha ta'limda sahnalashtirish shakllari va sahna talablari haqida.

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatining asosiy maqsadi.

Maktabgacha davr – bu bolaning o‘shir, rivojlanish, o‘zini namoyon etishga intilish, o‘rganishga, bilishga ishtiyoqi kuchli bo‘lgan davrdir. Aynan shu davrda bolaning insoniy sifatlari va aqliy salohiyati rivojlanishi uchun poydevor yaratiladi. Maktabgacha yoshdagi bola bilan ta'lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa, samarasi shunchalik erta namoyon bo‘ladi va bolaning butun hayotiga ijobiy ta'sir qiladi.

Maktabgacha ta'lim-tarbiya – har bir bolaga individual yondashish, uni shaxs sifatida hurmat qilish, ma'naviy-axloqiy tomondan tarbiyalash, bolaning qiziqish va ehtiyojiga mos tarzda ta'lim berishni nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lim mazmuni va metodlari bola shaxsining shakllanishi, uning mustaqil shaxs sifatida tan olinishi jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etilishi katta ahamiyatga ega. Zero, shaxs sifatida shakllangan, kamol topgan bola o‘zini, o‘zligini taniydi va

kelajakda millatning, yurtning faxriga aylanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolaning kelajak hayotida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beruvchi jismoniy, aqliy va ma'naviy qobiliyatini bilish jarayonida, bizni o'rab turgan atrof-muhitni o'rganish, nutq o'stirish, badiiy asarlar tinglash, rasm chizish, qurish-yasash, jismoniy mashqlar bajarish va boshqa faoliyat turlarida rivojlanadi. Bu faoliyatlarda yo'nalishlar bir-biri bilan uyg'unlashtirilib – integrallashgan rejalashtirish asosida tashkil etiladi hamda o'yin shaklida qiziqarli tarzda olib boriladi. O'yin kichkintoyning tabiiy ehtiyojlari va istaklariga mos kelganligi sababli, o'yin jarayonida o'rganayotgan mavzuni quvnoqlik bilan takrorlaydi, yengillik bilan o'zlashtiradi.

2. Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatining vazifasi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatining asosiy vazifasi – har bir bola shaxsini yosh bosqichiga mos tarzda sifatli rivojlantirish va uni navbatdagi ta'lim bosqichiga puxta tayyorlashni ta'minlash hamda muassasada ijobiy muhit va zarur sharoit yaratishdan iboratdir.

Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish fanining asosiy maqsadi maktabgacha ta'lim muassasalarida sahnalashtirish ishlarini olib borish, bolalar ijodiga rahbarlik qilish uchun amaliy bilim va ko'nikmalar berish. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni, “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti” va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Qarori asosida Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya ishlarini olib borish vazifasi yuklatilgan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev – “Maktabgacha yoshdagi bolaga singdirilgan bilim va qadriyatlar, uning kelgusidagi butun hayotini belgilab berishi sababli maktabgacha ta'lim uyg'un rivojlangan shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.”- degan fikrlari ham pegagoglarga katta vazifa yuklaydi.

Davlarimiz Prezidentining ushbu fikri, davlatimizning amaldagi qonun va qonunosti hujjatlari bolalar egallashi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlarni singdirishdan iborat bo'lgan maqsad hamda vazifani belgilab beradi.

Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish fanining vazifasi - Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni sahnalashtirish, aktyorlikka tayyorlash, ijodiy faoliyatini tashkil etishga, qo'l mehnatiga, badiiy mehnatga qiziqishlarini uyg'otish, mehnat orqali hosil bo'lgan ko'nikma va malakalarini shakllantirish; maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatga nisbatan muhabbatni tarbiyalash va kasbga yo'naltirish; bolalarda ijodiy ko'rgazmalar, o'yinlar uchun atributlar yasashga xohishlarini uyg'otish; qog'oz, karton kabi materiallarning xususiyatlari bilan tanishtirish; mehnat qilish madaniyati malaka va ko'nikmalarini tarbiyalash, buyumlarni tayyorlash jarayonini rejalashtirish, tayyorlash texnologiyasini o'rgatish, mahsulotni tejash, buyumlari qoralamasining eskizini va suratini chizishga ish joylarini tartibli saqlashga o'rgatish; bolalarni buyumlar yasash jarayonida oddiy asboblardan foydalanishga o'rgatish hamda badiiy didlarini shakllantirishga, vaqtni tejay olishga, maqsadga muvofiq ishlashga odatlantirishdir.

Ijodiy qobiliyat insonni hayvondan farqlab turadigan bir xususiyatdir. Bu qobiliyat insonga nafaqat hayoti davomida qo'l kelishi va undan foydalanishi mumkin, balki uning ko'inishini o'zgartirishi ham mumkin.

Bolalar ijodiyoti va uning o'ziga xos tomonlarini tushunish pedagoglardan ko'pgina bilimlarga ega bo'lishni talab etadi. Pedagog san'atda bu faoliyat qanday harakterga ega, rassom badiiy obrazni yaratishi uchun qanday vositalardan foydalanayapti, uning ijodiy faoliyatining bosqichlari qanday degan savollarga javob bera olishi kerak.

Bolalar atrof-olam bilan tanisha borish jarayonida ularni o'z faoliyatlarida ya'ni o'yinlarida, chizgan rasmlarida, loy ishlarida, hikoyalarda va hokazolarda aks ettiradilar. Bolalar tasviriy faoliyatda atrof-olamdan olgan tassurotlarini, tasavvurlaridagi timsollarni turli-tuman materiallardan va aniq shakllar yordamida tasvirlashga harakat qiladilar.

Bolalar ijodiyotida ijodiy faoliyatning boshlang'ich bosqichida o'ziga xos harakter xususiyatlari mavjud. Bularga avval o'zlashtirilgan ish usullarini yangicha mazmunda qo'llashda, oldinda turgan vazifalarni yangi usullar orqali yechishni, o'z his-tuyg'ularini turli vositalar yordamida ifoda etishlarida faol va mustaqil ishtirok etishlari kiradi.

Atrof-olamni bolalar tasviriy faoliyatida tushunish ijodiy ko'rinishlar bilan bog'liq emas, balki bola ishlayotgan, ko'rsatayotgan materialning tarkibini aniqlash orqali namoyon bo'ladi. Masalan: qalam va bo'yoqlar qog'ozda iz qoldiradilar, loy yumshoq undan narsalar yasash mumkin. Keyinchalik tasviriy faoliyat va izlanishlarni rivojlantirish uchun bu bosqich kichik ahamiyat kasb etadi, chunki bola bunda tasavvurlaridagi timsolni yaratish uchun yordam beradigan material bilan tanishadi.

Qalamdan qoladigan iz nimanidir ifodalashini tushunadigan bola o'z xohishi va kattalarning taklifiga ko'ra qandaydir predmetni tasvirlashga harakat qilsa, unda bolaning faoliyati tasviriy harakter tusini olgan bo'ladi. Bolada fikr, maqsad bo'lib, ularni namoyon etishga harakat qiladi. Shu tariqa ijodiy jarayonning birinchi bosqichi fikrning paydo bo'lishi-bola faoliyatida ham hosil bo'ladi. Rassomda fikrning paydo bo'lishi bilan odatda mazmunini va bajarish vositalarini o'ylab boradi, ish uchun odatda uzoq vaqt kerak bo'ladi, bolada esa ko'pincha bu bosqichning hosil bo'lishi kuzatilmaydi. Bola qanchalik kichik bo'lsa, u shunchalik o'ylagan narsasini tez tasvirlashga harakat qiladi. U hali o'z ishining natijasini va uni bajarish yo'lini oldindan ko'ra olmaydi. Avvaldan o'ylab ko'rish va ishni rejalashtirish tasvirlash jarayoni bilan birgalikda amalga oshiriladi. Shuning uchun ham bolalar ijodiyotida faoliyatlar jarayonida ish mazmunini o'zgartirish hollari tez-tez uchrab turadi. Bola tasvirlayotgan rasmdagi timsollarga umuman taalluqli bo'lmagan detallarni kiritishi mumkin.

Bolalarning tasviriy ijodiyotining o'ziga xos tomonlarini o'rganish uchun pedagogika tarixida bir qator pedagogik va psixologik tadqiqot ishlari olib borilgan.

Bolalarda ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishida tasviriy faoliyat turkumiga kiruvchi mashg'ulotlarning o'rni beqiyos ekanligini e'tirof

etgan holda bunday mashg'ulotlar ularda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirilishiga ham tamal toshini qo'yishi shubhasizdir.

Bolalar rasm, appalikatsiya, loy ishi, qirqib yelimplash mashg'ulotlari davomida nafaqat biror ish bilan ma'lum muddat band bo'ladilar, balki yuqorida aytib o'tganlarimizga qo'shimcha ravishda ularda qo'yidagilar rivojlanadi va shakllanadi:

- tasviriy san'at sohasiga doir qobiliyatlari aniqlanadi va shakllantiriladi;

- qalam, mo'yqalamni ushlab, loy, plastilin bilan ishlash, qaychida ayrim narsalarni qirqib yelimplash orqali mayda qo'l mushaklari rivojlanadi;

- bola yozuv texnikasini egallashga tayyorlanadi;

- bola tasviriy faoliyat mashg'ulotlari orqali diqqatini bir joyga taqsimlay olishni va ishini oxiriga qadar bajarishni, o'tira olishni o'rganadi;

- tabiatni, atrof-olamni kuzatishni, uni asrab-avaylashni ardoqlashni, unga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rganadi;

- jamoa bo'lib mehnat qilish, ishni rejalashtira olish, o'rtoqlarini eshita olish va o'zaro fikr-mulohazalarni inobatga olgan holda ishlash malakalari shakllanadi;

- xalqimizning boy madaniy-ma'naviy merosi haqida tushuncha va tasavvurga ega bo'ladi va ularni o'z ishlarida ifodalashga o'rganadi.

Ijodkorlik qobiliyati insonning tabiiy va ijtimoiy dunyoni voqelikning ob'ektiv qonunlari asosida o'z maqsadi va ehtiyojlariga muvofiq o'zgartiradigan faoliyatidir. Ijod mahsuli bu inson ongining faol mahsulidir.»Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi»ning asosiy mazmunida bolalarning individual xususiyatlari va iste'dodini rivojlantirish vazifasi belgilab berilgan. Hozirgi tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolalar rasm chizish, loy va plastilin o'yinchoqlar yasashda ijodiy faoliyat ko'rsata olishini isbotladi. Albatta, bolalar ijodkorligi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, kattalar ijodkorligi mezonlariga javob bera olmaydi. Ta'lim jarayonida, ertaklar eshitish, har xil rasmlarni ko'rish tufayli bola o'yinchoq yasashdan oldin o'zi bevosita idrok etgan predmetlar doirasiga kirmaydigan narsalarni asta —sekin tasavvur qila boshlaydi. Bolada avval

kattalarning og‘zaki ta’siri bilan ixtiyoriy tasavvur obrazlari hosil bo‘lib, keyinchalik ular bolaning mustaqil fikrlashidan vujudga kelishi mumkin.

Bolalar badiiy ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish yo‘llarini o‘rganganda, bolalarga berilgan topshiriqlarni 3 bosqichda murakkablashtirib borishimiz mumkin. Birinchi bosqichda bolalarga ulardan ijodiy faoliyatda dastlabki yo‘nalishni talab qiladigan topshiriqlar beriladi: Tarbiyachining (o‘zing yasa, bir narsa o‘yla, qidirib top, o‘zgartir kabi) ko‘rsatmalari bo‘yicha bolalar pedagog bilan birga ishlab, ijodkorlik elementlarini namoyon etadilar. Ikkinchi bosqichda bolalarni aniq maqsadga muvofiq ishlashga va izlanishga da’vat etuvchi topshiriqlar beriladi. Bola tarbiyachi bilan birga ishlab, o‘zlashtirgan ko‘nikmalarni kombinatsiyalash va o‘zgartirish mumkinligini tushuna boshlaydi. Nihoyat, uchinchi bosqich — bolani turli faoliyatda fikrlash bo‘yicha mustaqil harakat qilishga, o‘z ishlarini rejalashtirishga, tasvirlash vositalarini tanlashga o‘rgatadigan topshiriqlardan iboratdir. Tarbiyachi bolalarga topshiriqni emotsional tarzda tushuntiradi. Tarbiyachining izohi bolalarni qiziqtirishi, buning uchun tarbiyachi goho o‘yin elementlaridan, o‘yin harakatlaridan foydalanishi mumkin. Bolalar ko‘z o‘ngida qo‘g‘irchoqlar paydo bo‘ladi. Ular birgalikda tomosha qo‘yishni so‘raydilar. Bunday ertak personajlarning kutilmaganda paydo bo‘lishi bolalarni suyuntirib yuboradi. O‘yinchoqlarning harakatlarini ko‘rib, bolalar sevinib ketadilar, tarbiyachi ularga qarab murojaat qilayotganidan mamnun bo‘ladi. Agar tarbiyachi mashg‘ulotda o‘yin usulini qo‘llyotgan bo‘lsa, u mashg‘ulot davomida o‘yinda qatnashadigan personaj to‘g‘risida oldindan o‘ylab qo‘yadi. Masalan, qo‘g‘irchoq mana shunday personaj rolini bajarib, bolalar qanday ishlayotganligi bilan, topshiriqni kim qanday bajarayotganligi bilan qiziqib ko‘rishi mumkin. Keyin u bolalarning hatti — harakatlarini ma’qulaydi, ijodiy ishlashga qiynalayotgan bolalarga yordam beradi va boshqa shunga o‘xshagan ishlarni bajaradi. Mashg‘ulotda har doim ham bir xildagi o‘yin harakatlaridan foydalanmaymiz, har bir mashg‘ulot oldidan bolalarning ruhini ko‘taradigan, kayfiyatini yaxshilaydigan tadbirlar tashkil qilamiz. Buning uchun bolalarga she’r o‘qib berishimiz, qo‘shiq aytib berishimiz,

topshiriqlar bo'yicha topishmoqlar aytib, kichkintoylarni qiziqtirishimiz lozim.



Tetiklantiruvchi mashq

- Zo'r uy qurish xohlayman
- Unda deraza bo'lsa
- Darvozasi ham bo'lsin
- Oldida daraxt o'ssa
- Hovlini it qo'risa
- O'tloqda qo'ng'iz bo'lsa
- O'rdamchaklar yugursa
- Quyosh bo'lsa, yomg'ir yog'sa
- Bog'da lola gullasa
- Tepada bayroq hilpillab
- Tipratikan ham yashasa

3. Teatr- sahnalashtirish faoliyatining shakllari.

- + Qo'g'irchoq teatri
- + Bayramlar
- + Sahnalashtiriladigan o'yinlar

QO'G'IRCHOQ TEATRI TURLARI

Stol teatri. Stol teatrida stol sahna vazifasini bajaradi. Stolda qo'g'irchoqlar stolda o'ynatiladi. Tomosha stolda namoyish etiladi. Sahna dekaratsiyalari ham stolda tashkil etiladi. Stolda qo'g'irchoq teatrlarini tashkil etish qulay va bolalar uchun ham juda qiziqarli tomosha hisoblanadi. Stol teatrining o'yinchoqlari nimadan yasalganligiga qarab turlarga ajratiladi. Ularga **yumshoq o'yinchoqlar**, tabiiy materiallardan (qarag'ay g'uddalaridan, yog'ochdan, va b.) yasalgan o'yinchoqlar orqali namoyish etiladigan, **uy-ro'zgor buyumlaridan** (qoshiq, tayoqchalar, choynak piyolalardan), **yassi shakldagi o'yinchoqlar:** (plastilin, loydan, xamirdan), **uy-ro'zg'or buyumlaridan**(choynak, piyola, qoshiq va h.), **Geometrik figuralar:** konus, silindr shaklida tayyorlangan o'yinchoqlar, **-Origami:** Origami usulida yasalgan o'yinchoqlar orqali sahna ko'rinishlari tomosha (teatr) tayyorlanadi.

Devoriy teatr. Devoriy teatrning devoriy teatr deb nom olishiga sabab devorda tomoshalar namoyish etilishidir. Devoriy teatrning **matoli:** jun

(yoki boshqa paxmoq) matodan yasalgan devoriy stend va o'yinchoqlar, **soyali:** devorga obrazlarning soyasi tushiriladi. Ya'ni hayvonlar, qushlar va insonlarning soyalarini devorga tushurilgan. **magnitli:** o'yinchoqlar magnitli yoki magnit orqali devorga yopishtiriladi. **kitob teatri:** devorga kitob joylashtiriladi. Unda bitta yoki bir nechta kitob ertak mujassam bo'lishi mumkin.

Qo'l teatri. Qo'l teatrida qo'g'irchoqlar qo'lda yoki qo'lga kiyib o'ynatiladi. Qo'lda namoyish etiladigan qo'g'irchoq teatr turlari stolda va shirmada namoyish etiladi. **bir barmoqli qo'lqop, poypoqli o'yinchoqlar, kaft va barmoqlarda bajariladigan tomoshalar: qo'l soyasi, kaft tekisligi orqali tomosha, bi-ba-bo o'yinchoqlar:** ingalaydigan, chiyillaydigan, chinqiradigan, bi,bo,ba kabi ovoz chiqaradigan o'yinchoq: ovoz chiqaradigan o'yinchoqlar orqali tomosha tashkil etiladi. **-trostli o'yinchoqlar:** pishiq arqonli yoki elastik simli harakatlantiriladigan o'yinchoqlar orqali teatr namoyish etiladi, **barmoq teatri:** bu qo'lqopsiz, barmoq uchiga qog'ozdan yasalgan o'yinchoqlarni kiyish orqali, personajlarni to'qish orqali ham yasash mumkin. **Qadam tashlovchi:** qadam tashlovchi

Jonli qo'g'irchoqlar teatrida insonlar(bolalar) to'liq holatda sahnaga chiqib rol ijro etadi. O'zlari jonli qo'g'irchoqlar rovida sahnaga obrazlarni gavdalantirgani chiqishadi. Katta yoshdagi inson yoki bolalar asar qahramonlarini liboslarini kiygan holda rol bajarishadi. Sahnada liboslar kiygan holatda odam qiyofasi, hayvonlarni gavdalantirishi, bundan tashqari, gullar, daraxtlar ya'ni dekotasiya bo'lib ham chiqishlari mumkin bo'ladi.

BAYRAM HAQIDA

“Bayram” - turkcha so'zdan olingan bo'lib, to'y, marosim, xursandchilik degan ma'nolarni bildiradi. Bayram so'zining turli talqinlari bor. Bizningcha, falsafiy ensiklopediyada berilgan Bayram — insonlar xursandchiligining yig'indisi,—degan talqin eng to'g'risi deb hisoblanadi. Bayram ijtimoiy mahalliy hayotning eng muhim qismlaridan bo'lib, shodiyona, xursandchilikni vujudga keltiradigan voqealarni nishonlaydi. Rejissiyor Farhod Axmedovning “Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari”(T.: “Aloqachi”, 2008-yil) nomli darsligidan bayram

turlarining tasniflanishi:

I. Ijtimoiy-siyosiy bayramlar:

- 1-sentyabr — Respublikamizning “Mustaqillik” kuni,
- 8-dekabr — “Konstitutsiya” kuni,
- 14-yanvar - Vatan himoyachilari kuni,
- 9-may — Xotira va qadrlash kuni,
- 21 -oktyabr — Til bayrami.

II. Milliy bayramlar:

- “Navro‘z” bahor bayrami,
- “Qovun sayli”,
- “Gul sayli”,
- “Suv sayli”,
- “Olma sayli”,
- “Qum sayli”,
- “Lola sayli”,
- “Qushlar bayrami”,
- “Ona yer sahovati” bayrami,
- “Mehrjon”,
- “Birinchi qadam” bolalar bayrami.

III. Mehnat bayramlari:

- “Birinchi chigit qadash” bayrami,
- “Paxta” bayrami,
- “Birinchi gul” bayrami,
- “Birinchi karvon” bayrami.

IV. Diniy bayramlar:

- “Qurbon hayit”,
- “Ramazon hayit”.

V. Kalendar-professional kasb bayramlari:

- “O‘qituvchilar va murabbiylar kuni”,
- “Radio kuni”,
- “Teatr kuni”,
- “Shifokorlar kuni”,
- “Militsiya xodimlari kuni”,
- “Matbuotchilar kuni”,

- “Savdo xodimlari kuni”,
- “Metallurglar kuni”,
- “Temiryo‘lchilar kuni”,
- “Shaxtyorlar kuni”,
- “Neftchilar kuni”,
- “Geologlar kuni”,
- “Qishloq va o‘rmon xo‘jaligi kuni”,
- “Quruvchilar kuni”.

VI. Kalendar bayramlari:

- 1-yanvar - Yangi yil bayrami,
- 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar bayrami,
- 1-iyun — Xalqaro bolalar kuni,
- 1-aprel — Kulgi va hazil kuni va h.k.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘yin turlari

Bola tarbiyasida o‘yinning ta’siri katta. Shuning uchun bir shoir shunday yozgan edi:

*Bolaga so‘z bilan erishmoq istadim,
U so‘zlarimga quloq osmadi, hatto.
Bolaga kitoblar-la erishmoq istadim-
U menga hayron nigohlar-la qaradi faqat.
Umidimni uzib, bir chekkada o‘tirib oldim,
“Bu bolaning ko‘nglini qanday topsam?” deya yig‘ladim.
U kelib qulog‘imga shivirladi sekin:
“Kel,-dedi.-Men bilan o‘ynagin”.*²⁰

Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yinlari o‘zining rang-barangligi bilan ajralib turadi. O‘yinlar o‘z mazmuni va tashkil etilishi, bolalarga ta’sir ko‘rsatish darajasi, vositalarning turlari hamda kelib chiqishiga ko‘ra xilma-xildir. Professor Y.A. Arkin maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yinlarini quyidagicha tasniflagan:

²⁰ Abdumurod Tilavov “Bolalarga gap uqtirish san’ati”, “Sano-standart nashriyoti” Toshkent, 2016-y. 30-bet

1. Bolalardagi ruhiy jarayonlarni takomillashtirishga qaratilgan o‘yinlar:

- harakatli;
- intellektual;
- estetik.

2. Texnikaviy o‘yinlar:

- san`at o‘yinlari;
- qishloq xo‘jaligi o‘yinlari;
- kasb bilan bog‘liq o‘yinlar;
- qurilish o‘yinlari.

3. Hayotiy-ijtimoiy o‘yinlar:

- oila hayotiga doir;
- bog‘cha, maktab;
- ijtimoiy hayot bilan bog‘liq;
- ijtimoiy-siyosiy o‘yinlar;

4. Harbiy o‘yinlar:

- “Askar-askar” o‘yini;
- “Dengizchi (matroschi)” o‘yini.

5. Dramalashtirilgan o‘yinlar:

- teatr;
- kino;
- sirk.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yinlarini D.B. Elkonin o‘z navbatida quyidagicha tasniflagan:

- maishiy mavzu syujetiga oid o‘yinlar;
- ishlab chiqarish syujetiga taalluqli o‘yinlar;
- ijtimoiy-siyosiy syujetli o‘yinlar.

Bolalarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishni to‘g‘ri tashkil etish orqali o‘yin syujetining ko‘lami kengayishi mumkin. Bola maktabgacha ta’lim muassasasiga kelgan kunda ularning o‘yinlari faqat oilaviy turmushdagi voqealarni aks ettirsa, mashg‘ulotlarda bilim olish, sayrga chiqish, tabiatni kuzatish natijasida o‘yinlarning turlari ko‘payib, bog‘cha, hayvonot bog‘i, oshxona, poyezd, sartaroshlik, sotuvchilik kabi o‘yinlar qo‘shilib boradi. Bolalar o‘yinlarining ko‘payib borishi ularning yosh

xususiyatlari bilan ham izohlanadi. Bolalar o‘sib-ulg‘aygan sari ularning o‘yinlar syujeti tobora boyib, xilma-xillashib boraveradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning barcha o‘yinlari o‘zining mazmuni, xususiyati va tashkil etilishiga ko‘ra ikki katta turkumga bo‘linadi:

1. Ijodiy o‘yinlar.
2. Qoidali o‘yinlar.

Ijodiy o‘yinlarni bolalarning o‘zlari o‘ylab topadilar. Unda oldindan belgilab qo‘yilgan qoidalar bo‘lmaydi. Qoidalar bolalar tomonidan o‘yin jarayonida o‘ylab topiladi.

Qoidali o‘yinlarning mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. O‘yin davomida bu qoidalarga amal qilinishi shart.

Ijodiy o‘yinlarga:

- syujetli-rolli o‘yinlar;
- sahnalashtirilgan o‘yinlar;
- qurish va yasashga doir o‘yinlar kiradi.

Ijodiy o‘yinlarda bolalarning tevarak-atrofdan olgan taassurotlari aks etadi. Bunday o‘yinlar mustaqil o‘yin bo‘lib, uning mazmunini ishtirokchilarning o‘zlari o‘ylab topadilar. Bu o‘yinda bolaning erkinligi, mustaqilligi, tashkilotchiligi va ijodkorlik qobiliyatlari to‘la namoyon bo‘ladi. O‘yinda hayotiy taassurotlar aynan aks ettirilmaydi, balki bolalar ongida qayta ishlab, o‘yinga tatbiq etiladi. Bu bolaning o‘yin g‘oyasini yaratishida, uning mazmunini tuzib, tasvirlovchi vositalarni tanlashida namoyon bo‘ladi. Bolaning tevarak-atrofidagi hayotdan – tengdoshlari, kattalar faoliyatidan olgan taassurotlari ijodiy o‘yinlarda qayta ishlanadi, to‘ldiriladi, sifat jihatidan o‘zgartiriladi. Bolalarning bunday o‘yinlari tevarak-atrofdagi borliqni bilishning amaliy shaklidir.

Syujetli-rolli o‘yinlar o‘z xususiyatiga ko‘ra aks ettiruvchi faoliyatdir. Rolli o‘yinlar bolalarning kuzatuvchanligi, qiziquvchanligini oshirib, bilish doirasini rivojlantiradi. Bola o‘z o‘yinida borliqni aks ettirib olgan rolining mazmuni bilan bog‘liq bo‘lgan u yoki bu hissiyotni boshdan kechiradi.

“Bolalar bog‘chasi”, “Maktab” kabi o‘yinlar bolalarda do‘stlik, o‘rtoqlik, burch hissi, jamoatchilik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. Rolli o‘yinlarda har bir bola o‘zi olgan rolini bajaradi. Masalan, quruvchi,

haydovchi, tarbiyachi, enaga, o'qituvchi kabilar. Syujetli-rolli o'yinlarda bolalar avval katta bo'lmagan guruhlarda 2–3 kishidan bo'lib o'ynaydi. Katta va tayyorlov guruhlarida esa ko'p sonli jamoalarga birlashadi. O'yinda o'rtoqlik munosabatlari shakllanadi.

Uch yoshda bolaning o'yinlari yangicha tus oladi. Bola o'z o'yinlarida sekin-asta murakkab bo'lmagan syujetli o'yinlarni o'ynay boshlaydi. Uch yoshning oxiriga kelib, bola rol tanlay boshlaydi ("Men oyisiman", "Men shifokorman" tarzida). Bolalar to'rt yoshga yetganda, syujetli rollar ancha rivojlanadi. Bu yoshdagi bolalar o'z o'yinlarida oila, bog'cha, avtobusdagi voqealarni aks ettiradi. Bola besh yoshga qadam qo'yganda, undagi kuzatuvchanlik yanada ortadi, tafakkuri rivojlanib, bilish doirasi kengayadi. Shu sababli o'yin mazmuni murakkablashib boradi. Xayolning rivojlanishi orqali ertak va hikoya mazmuni bo'yicha o'yinlar o'ynaydi. Katta bog'cha yoshida ijodiy o'yinlar juda yaxshi rivojlanadi. Bu o'yinlarda bolalar o'zlari eshitgan, ko'rgan voqealar, hikoyalar, kitob va boshqa manbalardan olgan bilim, malaka, his-hayajonlarini to'liq qo'llay boshlaydilar.

Uzoq muddat davom etadigan o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinlarining yuqori bosqichidir. Katta guruh yoshidagi bolalar o'yinlariga to'g'ri rahbarlik qilinsa, ularning mustahkam jamoasi yuzaga keladi. Rolli o'yinlarda bolalar har xil vositalardan foydalanadilar. O'yin jarayonida ular ba'zi bir narsalarni xohlaganicha nomlab, faraz qilib o'ynaydilar. Masalan, qumni shakar, stulni mashina, danaklarni konfet o'rnida qabul qiladilar. Aks ettiruvchi vosita qancha ko'p bo'lsa, o'yin mazmuni shunchalik boyib boradi. Psixolog J. Piaje o'yinda jismlarga yangi nom berish omiliga jiddiy e'tibor bilan qarab, bu ish ramzli, ma'noli tasavvur shakllarining tayanchi, degan xulosaga kelgan.

O'yin davomida bola shaxs sifatida shakllanib boradi. Taniqli pedagog olimlarning olib borgan tadqiqotlariga ko'ra, bolalar o'yinlariga har tomonlama to'g'ri rahbarlik qilish orqali ularga o'yinning mazmuni, tashkil etilishi, tuzilishi bolalar o'rtasidagi axloqiy munosabatlar, o'yinlarning rivojlanib, takomillashib borishiga ta'sirini ko'rish mumkin.

Bolalar o'yinlarining ikkinchi turkumi qoidali o'yinlardir. Bunga quyidagilar kiradi:

- didaktik;
- harakatli;
- musiqaviy;
- ermak o‘yinlar.

Qoidali o‘yinlar barcha o‘yinlar kabi amaliy faoliyat hisoblanadi. Lekin bolalar belgilangan qoidaga amal qilishlari talab etiladi. Belgilangan qoidalar kichkintoylarda mas’uliyatli bo‘lishni tarbiyalaydi. Bola jamoada hamjihat ishlash, atrofdagilar bilan murosada bo‘lishga o‘rganib boradi. Har bir qoidali o‘yinlar o‘z g‘oyasi va mazmuniga egadir. O‘yin davomida qoidalarning to‘g‘ri bajarilishi “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri”, “o‘yin qoidasi buzildi”, degan baholar bilan belgilanadi. Bolalar o‘yin vaqtida o‘z-o‘zini nazorat qilishni o‘rganib boradi. Albatta, har bir o‘yin so‘ngida natija tarbiyachi tomonidan muhokama qilinishi, unda qo‘yilgan maqsad, qoida va erishilgan natijalarga e‘tibor qaratilishi kerak. O‘yin so‘ngida qatnashchilarni rag‘batlantirish, faol ishtirokchilarni maqtash – kelgusi o‘yinlarning samarali o‘tishini ta‘minlaydi. Yuqorida aytib o‘tilgan barcha turdagi qoidali o‘yinlar mazmuniga ko‘ra o‘z qoidalariga ega bo‘ladi. Ular quyidagi xususiyatlarga ega:

- o‘yin harakatlari orqali amalga oshiriladigan o‘yin vazifasining mavjudligi;
- o‘ynovchilarning harakat va munosabatlari qoidalar bilan yo‘lga solib turilishi;
- o‘yinda qoida va tayyor mazmunning mavjudligi;
- o‘yinning ta‘lim-tarbiyaviy mazmuni o‘yin harakatlari va qoidalarida mujassam bo‘lib, ular bolalar uchun mustaqil vazifa sifatida namoyon bo‘lmaydi.

4. Teatr –sahnalashtirish faoliyati tamoyillari.

Sahnalashtirishda butun jahon tan olgan, qolaversa vatanimiz O‘zbekisonda ham K.S.Stanislavskiyning sahnalashtirish tamoyil(prinsip)lari asosida teatrlar, spektakllar va kinolar ishlanadi. K.S.Stanislavskiy 1963-yilda Moskvada san’atkor oilasida tug‘ilgan. K.S.Stanislavskiyning ta‘limoti va tamoyillari hayotiyli, insoniyli va haqqoniyli bilan hozirgacha ham o‘z mavqeyini yo‘qotmagan.

K.S.Stanislavskiyning sahnalashtirish faoliyatining beshta asosiy tamoyili quyidagilar²¹

1.*Hayotiylik* tamoyili

2.San’atda g’oyaviy fikrning “*Oliy maqsad*” orqali amalga oshirilish tamoyili

3.Sahnadagi maqsad sari intilish jarayonida sezgi va hissiyotlarni qo‘zg‘atuvchi yagona kuch *harakat* ekanligi to‘g‘risidagi tamoyil

4. Aktyorning tabiiy tarzda paydo bo‘ladigan *ijod* tamoyili

5.Siymo qiyofasi chog‘ida aktyorning *o‘zligini yo‘qotmay ijodiy yondashuvi* tamoyili

Stanislavskiyning ta’limoti asrlar davomida sinovdan o‘tib, san’at qonuniyatlari asosida rivojlanib keldi. Uning ta’limotining asosiy jihati u hayotni haqqoniy aks ettirish uchun xizmat qiladi. Bu ta’limot boshidan oxirigacha hayotiy haqiqat tushunchasi bilan sug‘orilgan. Uning ta’limotida “oliy maqsad” tushunchasi bo‘lib, u harakat, g‘oya, adolat bilan say-harakat bilan, g‘ayrat-shijoat bilan “oliy maqsad”ni amalga oshirishdan iborat. Stanislavskiy- “obraz yaratayotganda tabiiylik va badiiylik bo‘lishi kerak”-deb hisoblagan.

K.S.Stanislavskiyning shogirdi Ye.B.Vaxtangov “Yaramas axloq egasi, yaxshi aktyor bo‘la olmaydi,”-degan bo‘lsa S.Stanislavskiy – “Axloqi buzuvchi, ma’naviy qashshoq odam sahnada turib tomashabinni va oliyjanoblikka da’vat eta olmaydi”.-degan ekan. Aktyorning asosiy ish quroli uning emotsional (his-tuyg‘usi) xotirasidir. Xalqimizda “beayb parvardigor” degan maqol bor. Shu bois, inson o‘zidagi kamchilik va nuqsonlardan forig‘ bo‘lishga intilsa, bu uning kamoloti belgisi hisoblanadi.

Ye. B. Vaxtangov o‘z talabalari oldiga qo‘ygan talablari:

- muomalada –shirinsuxanlik
- kundalik hayotda –kamtarinlik
- do‘stlarga yordam qo‘lini cho‘zish
- jamoa ichida bir-biriga yelkadoshlik
- yurish-turishda oliftagarchilik qilmaslik va manmansiramalik

²¹ O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Qo‘g‘irchoq teatri rejissiyorligi yo‘nalishining “Qo‘g‘irchoq teatri rejissiyorligi” fanidan o‘quv uslubiy majmuasi 2014-yil

➤ o‘zaro munosabatlarda xayrixohlik, o‘zgalar muvaffaqiyatidan quvonish

➤ aktyorlik mahorati

➤ jamoat joylarida yengil tabiatlilikdan uzoq bo‘lish, o‘z-o‘zini ko‘z-ko‘z qilmaslik

➤ tanqidiy fikrlarga sabrli bo‘lish

➤ o‘zgalar fikri bilan hisoblashish

Hurmatli talabalar “Yaxshi xulq ming yaxshi libosdan a’lo”-degan dono naqlni doim yodda tuting! K.S.Stanislavskiyning ta’limotida aktyorning sahnaviy tarbiyasi jahon madaniyati va san’tida e’tirof etilgan. U aktyorning intizomi, ijodiy axloqiy-ma’naviy, ichki intizomidan ajralgan holda bo‘lmaydi. Axloqiy intizom bilan mehnat intizomi bir-biriga chambarchas bog‘liq.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatishning maqsadi va vazifasi nimadan iborat.

2. Maktabgacha yoshdagi bolaga qanday qadriyatlarni singdirish kerak?

3. Sahnalashtirish faoliyatida qanday prinsiplarga amal qilinadi?

4. Bolani sahnaga qanday o‘rgatasiz?

5. Maktabgacha ta’limda sahnalashtirish faoliyati shakllarni sanab bering.

Mavzu yuzasidan test topshirig‘i:

1. yumshoq o‘yinchoqlar, tabiiy materiallardan (qarag‘ay guddalaridan, yog‘ochdan, va b.) **uy-ro‘zgor buyumlaridan** (qoshiq, tayoqchalar, choynak piyolalardan), **yassi shakldagi o‘yinchoqlar:** (plastilin, loydan, xamirdan), **uy-ro‘zg‘or buyumlaridan**(choynak, piyola, qoshiq va h.), **Geometrik figuralar:** konus, silindr kabi shakllar, **pape-mashe, origami** usulida yasalgan o‘yinchoqlar yordamida

Ushbu o‘yinchoqlar yordamida qaysi teatr namoyish etiladi.

a. stol teatri

b. soya teatri

c. barmoq teatri

d. qo‘lqop teatri

2. -matoli: *jun (yoki boshqa paxmoq) matodan yasalgan o‘yinchoqlar*
-soyali: *devorga obrazlarning soyasi tushiriladi. Ya’ni hayvonlar, qushlar va insonlarning soyalarini devorga tushurilgan*

-magnitli: *o‘yinchoqlar magnitli yoki magnit orqali devorga yopishtiriladi*

-kitob teatri: *devorga kitob joylashtiriladi. Unda bitta yoki bir nechta ertak mujassam bo‘lishi mumkin.*

Ushbu ro‘yxat nimani anglatadi?

a. devoriy teatrning turlarini

b. devoriy teatrning bir turini

c. devoriy teatrning o‘yinchoqlarini

d. devoriy teatrning usullarini

3. Bayram so‘zi qaysi tildan olingan?

a. turk tilidan

b. arab tilidan

c. lotin tilidan

d. fors tilidan

4. Bayram so‘zining ma’nosi to‘g‘ri berilgan javobni toping.

a. to‘y, marosim, xursandchilik

b. to‘y

c. to‘y, maraka, xushkayfiyatlik

d. xursandchilik, shod bo‘lmoq, yaxshi kuni

5. 1-sentyabr – Respublikamizning Mustaqillik kuni qaysi bayram turiga kiradi?

a. ijtimoiy-siyosiy bayramlarga

b. milliy bayramlarga

c. kalendar bayramlariga

d. kalendar-profisional bayramlarga

6. Quyidagilarning qaysi biri ijtimoiy-siyosiy bayram turiga kiradi?

a. 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni

b. 21-mart - Navro‘z bayrami

c. 1-yanvar- Yangi yil bayrami

d. 8-mart – Xalqaro xotin qizlar bayrami

7. Quyidagilarning qaysi biri diniy bayram hisoblanadi?

- a. Qurbon hayiti
- b. Navro‘z bayrami
- c. Mehrjon bayrami
- d. Til bayrami

8. 21- oktyabr – Til bayrami qaysi bayram turiga kiradi?

- a. ijtimoiy-siyosiy bayramlarga
- b. milliy bayramlarga
- c. kalendar bayramlariga
- d. kalendar-profesional kasb bayramlariga

9. 1-oktyabr – o‘qituvchi va murabbiylar kuni qaysi bayram turiga kiradi?

- a. kalendar-profesional kasb bayramlariga
- b. kalendar bayramlariga
- c. milliy bayramlarga
- d. mehnat bayramlariga

10. 8-dekabr – Konstitutsiya kuni qaysi bayram turiga mansub?

- a. ijtimoiy-siyosiy bayram turiga
- b. milliy bayramlar turiga
- c. kalendar bayramlar turiga
- d. huquqshunoslar bayram turiga

11. Professor Y.A. Arkin maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yinlarini necha turga bo‘lib tasniflagan?

- a. 5 turga
- b. 3 turga
- c. 2 turga
- d. 4 turga

12. - Bolalardagi ruhiy jarayonlarni takomillashtirishga qaratilgan o‘yinlar;

- *Texnikaviy o‘yinlar;*
- *Hayotiy-ijtimoiy o‘yinlar;*
- *Harbiy o‘yinlar;*
- *Dramalashtirilgan o‘yinlar.*

Yuqorida berilgan maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yin turlari kim tasniflagan o‘yin turlari hisoblanadi?

- a. Y.A. Arkin

- b. D.B .Elkonin
- c. Y.A. Komenskiy
- d. K.D. Ushinskiy

13. Qovun sayli, gul sayli, suv sayli, olma sayli, lola sayli, qushlar bayrami qaysi bayramlar turiga kiradi?

- a. milliy bayramlar
- b. diniy bayramlar
- c. mehnat bayramlari
- d. kalendar bayramlari

14. Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yinlarini D.B. Elkonin necha turga bo‘lib tasniflagan?

- a. 3 turga
- b. 4 turga
- c. 2 turga
- d. 5 turga

**15. – maishiy mavzu syujetiga oid o‘yinlar;
– ishlab chiqarish syujetiga taalluqli o‘yinlar;
– ijtimoiy-siyosiy syujetli o‘yinlar.**

Yuqorida berilganlar nimani anglatadi?

- a. D.B. Elkonin tasniflagan maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yin turlari
- b. Y.A.Arkin tasniflagan maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yin turlari
- c. Y.A.Kominskiy tasniflagan maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yin turlari
- d. K.D. Ushinskiy tasniflagan maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yin turlari

16. Prinsip nima?

- a. tamoyil, talab
- b. bajarilishi kerak majburiyat
- c. qonun, qoida, mohiyat
- d. tartib, qoida, talab, mahorat

17. Hayotiylik tamoyili, san’atda g‘oyaviy fikrning “Oliy maqsad” orqali amalga oshirilish tamoyili, sahnadagi maqsad sari intilish jarayonida sezgi va hissiyotlarni qo‘zg‘uvchi yagona kuch harakat ekanligi to‘g‘risidagi tamoyili, aktyorning tabiiy tarzda paydo bo‘ladigan ijod tamoyili, siymo qiyofasi chog‘ida aktyorning o‘zligini yo‘qotmay ijodiy yondashuvi tamoyili

Bu ta’myollarni kim ishlab chiqqan?

- a. K.S.Stanislavskiy
- b. Ye.B.Vaxtangov
- c. M. Behbudiy
- d. F. Axmedov

18. Quyida berilgan fikr egasini toping.

“Axloqi buzuvchi, ma’naviy qashshoq odam sahnada turib tomashabinni va oliyjanoblikka da’vat eta olmaydi”.

- a. K.S.Stanislavskiy
- b. Ye.B.Vaxtangov
- c. U. Shekspir
- d. N.Danchenko

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020-y. O‘RQ-637-son.

2. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 16.12.2019-y., O‘RQ-595-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 08.05.2019-y., PQ-4312-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standarti” 22.12.2020-y., 802-son

5. Farhod Axmedovning “Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari” T.: “Aloqachi”, 2008-yil.

6. Abdumurod Tilavov “Bolalarga gap uqtirish san’ati”, “Sano-standart nashriyoti” Toshkent, 2016-y. 30-bet

7. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Qo‘g‘irchoq teatri rejissiyorligi yo‘nalishining “Qo‘g‘irchoq teatri rejissiyorligi” fanidan o‘quv uslubiy majmuasi 2014-yil

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA TURLI YOSH GURUHLARIDA SAHNALASHTIRISH FAOLIYATINING ASOSIY VAZIFALARI

Reja:

1. Sahnalashtirish faoliyati rivojlantirish vositasi sifatida.
2. Turli yosh guruhlarda sahnalashtirish faoliyatining vazifalari.
 - ✚ Kichik yosh guruhda sahnalashtirish faoliyati.
 - ✚ O'rta yosh guruhda sahnalashtirish faoliyati.
 - ✚ Katta yosh guruhda sahnalashtirish faoliyati.
 - ✚ Tayyorlov guruhida sahnalashtirish faoliyati vazifalari.

Tayanch tushunchalar: sahna insonni har tomonlama rivojlantiruvchi vosita, maktabgacha ta'limda turli yosh guruhlarda sahnalashtirish faoliyati vazifalari

“Teatr san’atiga tarbiyaning ilg’or vositasi sifatida qarash insonni kashf etishga yo’l ochadi. Insonni kashf etish esa shaxsni kashf etishdir. Aynan badiiy ijodiy faoliyatda bola o’zini to’laroq namoyon eta oladi”

L.M.Batkin.

1. Sahnalashtirish faoliyati rivojlantirish vositasi sifatida.

Har bir insonning bolaligi rolli o‘yinlar asosida o‘tadi, sahnalashtirish faoliyati bolada kattalarning hayotiy qonun-qoidalarni anglashni o‘rgatadi. Har bir bola o‘zi bilganicha o‘ynaydi, lekin bu o‘yinlar asosan kattalar, sevimli qahramonlardan o‘rganib yoki ularga taqlid qilgan holda amalga oshiriladi. Bolalar o‘yinlariga improvizatsiya jarayonlar juda tez kechadi.

Har bir bola ish jarayonida rejissyor yoki ijrochi vazifasini bajarganda quyidagilarni aniq bilishi lozim:

- ma’lum sahnaviy voqeaga qanday yondashish kerak;
- berilgan shart-sharoitda haqqoniy harakat degani nimani anglatadi,

— rolning mantiqiy harakatini bajarishda o‘zining g‘oyasi degani nimani anglatadi;

— rolning begona so‘zlarni qanday qilib o‘ziniki qilish va qanday qilib qahramonning fe‘l-atvorini o‘zining hayolida yaratilgan mantiqiy fikr bilan boyitish;

— mantiqiy harakatni qanday qayd etish kerak, lekin qayd qilish mumkin bo‘lmagan sezgilar mantiqi;

— uzviy ravishda rivojlanayotgan yetakchi xatti-harakatga qanday yaqinlashish;

— o‘zining oliy maqsad haqidagi tushunchasini harakatga o‘tkazish;

— qanday qilib tipik xarakterlarni yaratish, buning uchun obrazni yaratishda tanish (o‘rganilgan) berilgan shart-sharoitlarni va xarakterlilikning elementlarini topish.

Ommaviy etyud-mashqlar g‘oyani obrazga ko‘chirishning asosiy elementlari bilan tanishish imkoniyatini yaratadi. Birinchi bosqichda umumiy kompozitsiyada o‘z o‘rnini topa olish mahorati juda ham muhimdir. Omma ichida o‘zining mantiqiy harakatini aniqlash, qachon o‘ziga diqqatni jalb qilish yoki aksincha, hech kimga bilinmaydigan holda ikkinchi planga o‘ta olishni o‘rganish juda ham muhimdir.

Ommaviy etyud, harakat rivojida tasodifiylikni rad etadi, u tanlab olingan, aniqlangan harakat rivojini ko‘zlaydi.

Talabalar ommaviy etyud ustida ishlashda sahnaviy muloqot qonunlarini tashkil etishni o‘rganishlari hamda, eng asosiysi, partnyorlar o‘rtasidagi munosabatlarning aniqligi va kurash jarayonini qanday qurish, har qanday joylashtirishni qayd qilishdan qochishlari kerak.

Ommaviy etyuddagi rejissyorlik texnikasini oshirishda talabalar, sahna harakatining plastik yechimini aniqlashda teatrlashtirilgan tomosha sifatida qarash mumkin. Bolaga o‘zini rejissor, aktyor, musiqachi, dekorator holida ko‘rish imkoni beriladi. Dekoratsiya va kostumlarni tayyorlash bolada ijodiy va texnik faoliyatni rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Tomoshani tayyorlash jarayonida ular chizish, yasash, tikish ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, oldilarida amalga oshirishlari lozim bo‘lgan vazifalarga nisbatan istak, xohish tuyg‘ulari yanada rivojlanadi va ular bundan katta zavq oladilar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida teatrlashtirilgan faoliyatning barcha yo'nalishlariga katta e'tibor berish lozim va shart, chunki ular, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish modelini yaratishni;

- milliy va ma'naviy qadriyatlarni singdirib borgan holda bolaning madaniyatini oshirishni;

- bolalar adabiyoti, musiqa, tasviriy san'at, o'zini tutish odobi, milliy an'analar va qadriyatlar bilan yaqindan tanishtirish va bu boradagi qiziqishini muntazam oshirib borishni;

- to'g'ri fikrlash, yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalarni o'yinlar orqali bolalar ongiga singdirib borishga yordam beradi.

Shuningdek, teatrlashtirilgan faoliyat bolalarning ichki kechinmalari, munosabatlari, emotsional faoliyatining rivojlanishiga ya'ni asar qahramonlariga munosabat bildirish, ularning holatiga kirishga harakat qilish kabi holatlar bilan birga boladagi ijodiy faollikni o'yin, fantaziya, to'qib chiqarish orqali kengaytiradilar. Teatrlashtirilgan faoliyat bilan bolalar nutqini rivojlantirish uzviy bog'liq bo'lib, qahramonlarning so'zlari, bola nutqi bilan uyg'unlashib uning so'z boyligini orttiradi, nutqining tovush madaniyati mukammalashadi.

Teatrlashtirilgan mashg'ulotlar o'z ichiga ertaklardan lavhalar qo'yish, rasimga qarab rolli suhbatlar tuzish, hayotiy mavzularga oid mustaqil improvizatsiya (o'xshatish) qilish (kulguli voqealar, qiziq hodisalar va hokazo);

qo'g'irchoq tomoshalarini ko'rish va uni muhokama qilish, drammatizatsiyalashgan

o'yinlar, rolni ijro etish ifodaliligini rivojlantiruvchi mashqlar (verbal va noverbal);

bolalarni hissiy rivojlantiruvchi mashqlarni qamrab oladi.

Teatrlashtirilgan faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'yish, jamoani to'g'ri yo'naltirishda tarbiyachi katta rol o'ynaydi. Tarbiyachi nafaqat ifodali o'qishi yoki aytib berishi, balki ko'rishi, eshitishi, obrazga kirishi, ya'ni aktyorlik va rejissorlik mahoratlariga ham ega bo'lishi zarur. Aynan shu holat bolalarda teatrlashtirilgan faoliyatga qiziqishni uyg'otishi, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini ijobiy tomonga o'zgarishiga yo'l ochadi. Tarbiyachi o'zining aktyorlik faolligi bilan tortinchoq bolalarni faqatgina

tomoshabinga aylantirib qo‘ymasligi, har bir bolani diqqat bilan kuzatishi lozim. Tarbiyachi bolalarni muntazam ravishda qo‘llab quvvatlashi, ularning xato qilish va sahnaga chiqishda qo‘rqish, “artist” va “tomoshabin”ga bo‘linib qolishlariga yo‘l qo‘ymaslik lozim.

Quyidagi vazifalar teatrlashtirilgan faoliyatni shakllantirish bo‘yicha amalga oshiriladigan darslar majmuasi davomida hal etiladi:

-tarbiyalanuvchining ijodiy qobiliyat va ijodiy o‘z o‘ziga ishonish tuyg‘ularini shakllantirish;

- bolalarda ijodiy faoliyatning barcha jabhalariga qiziqish uyg‘otish;

- improvizatsiya (o‘xshatish) qilish ko‘nikmalarini egallash;

- nutq faoliyatining barcha shakl, funksiya va komponentlarini rivojlantirish;

- bilish ko‘nikmalarini mukammallashtirish.

Teatrlashtirilgan o‘yin teatrlashtirilgan mashg‘ulotning asosi hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida teatrlashtirilgan o‘yinni o‘tkazishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish lozim:

➤ janr va mavzuning turli-tumanligi;

➤ pedagogik faoliyatning barcha yo‘nalishlariga teatrlashtirilgan faoliyatni har doim va har kuni singdirish.

➤ Bolalarning teatrlashtirilgan o‘yinni tayyorlash va o‘tkazishdagi maksimal faolligi.

➤ Bolalarning teatrlashtirilgan o‘yinni uyushtirishda o‘zaro va kattalar bilan hamkorligi.

Pedagogik vazifa suniy teatrlashtirilgan faoliyat bilan qiyinlashib boradi. U his etish, fikrlash, tasavvur, nutq bilan uyg‘unlashib, bolalarning turli xil faolliklarida namoyon bo‘ladi (nutqiy, musiqiy va hokazo). Shuning uchun teatrlashtirilgan faoliyatni umumlashtiruvchi faoliyat deb atashimiz mumkin.

Teatrlashtirilgan tomoshalar, o‘yinlar, davomida bolalarda:

✚ atrof olam haqidagi tushunchalari kengayadi;

✚ tasavvur, ong, anglash kabi psixologik tushunchalari rivojlanadi

✚ ko‘rish, eshitish, so‘zlab berish kabi turli analizatorlar rivojlanadi;

✚ soʻz boyligi, grammatik nuqtai nazardan toʻgʻri gapirish, oʻz fikrini toʻgʻri ifodalash, talaffuz, temp, soʻz intonatsiyasi va ifodasi faollashadi va yaxshilanib boradi;

✚ motorika, koordinatsiya, tembr, suhbat qurish koʻnikmalari mukammalashadi;

✚ hissiy-irodaviy faoliyati rivojlanadi;

✚ xulq shakllanishi roʻy beradi;

✚ jamoada faoliyat olib borish, bir-biri uchun javobgarlik rivojlanadi;

✚ mustaqil fikrlilik, ijodiy faollik rivojlanadi;

✚ teatrlashtirilgan faoliyatda ishtirok etish bolalarga olam-olam quvonch baxsh etadi, bu faoliyatga nisbatan qiziqish uygʻonadi.

2. Turli yosh guruhlarda sahnalashtirish faoliyatining vazifalari.

Kichik guruh

Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida sahna faoliyati, sahnalashtiriladigan oʻyinlar bolalarning ijtimoiy-madaniy rivojlanishini shakllantiradi. Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida kichik guruh - 2-3-yosh oraligʻida kamolga yetayotgan bolalarni qamrab oladi. Bu yoshdagi bolalar bilishga ishtiyoqi eng kuchli davr hisoblanadi. Bu yoshdagi bolalarni savollar juda koʻp boʻlib, ular shu savollarga tezda javob olishni, anglashni, tushunishni istaydi. Shu bois, bolaga 3-4 yoshdan taʼlim berishni boshlashni olimlarimiz maʼqul topishgan va shu yoshdan boshlab mamlakatimizda maktabgacha taʼlim boshlanadi. Bu taʼlim jarayoni asosan davlat maktabgacha taʼlim tashkilotlarida, davlat sherikchiligidagi oilaviy maktabgacha taʼlim tashkilotlarida amalga oshiriladi. 3-4 yosh davr oraligʻida oʻsib-ulgʻayib kelayotgan bolalarga qoʻgʻirchoq teatrlari, sahnalashtiriladigan xalq oʻyinlari, jismoniy-harakatli oʻyinlar tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, qoʻgʻirchoqlar teatrining barmoq va stol teatrlaridan koʻproq foydalanish tavsiya beriladi. Xalq oʻyinlari hamda jismoniy-harakatli oʻyinlardan “Quvlashmchoq”, “Yashrinmchoq” kabi oʻyinlarni oʻynashni boshlashi mumkin.

Asosiy vazifalari:

Kichik yosh guruh 3-4 yoshli bolalar ta'lim-tarbiyasi sahnalashtirish faoliyati oldiga quyidagi vazifalar qo'yadi:

Tomosha tayyorlash uchun sahna asari tanlashda bola yoshiga mos bo'lishi, ya'ni tanlanayotgan asar kichik hamli, asarda obrazlar soni 3-4tadan oshmasligi, voqealar ham bir yoki ikkita bo'lishi kerak. Masalan: qisqa ertaklardan "Chupor tovuq", kichik hajmli masallar, bolalarning o'zi haqidagi to'qilgan ertaklar ularga yoqadi. Bola haqida to'qigan ertaklarimiz mazmunli, ko'p orzu-maqсадli bo'lishi kerak. Bola kelajagi chiroyli bo'lishini ta'minlaydi.

Sahnalashtirilgan tomoshalar:

➤ qahramonlarni to'g'ri baholashga, e'tiborli bo'lishga, ijobiy idealni tarbiyalashga;

➤ teatrlashtirilgan o'yin faoliyatiga kuchli qiziqishni rivojlantirib borish;

bolalarning nutq, qo'shiq, mimika, jest, harakat va shu kabi boshqa holatlarni erkin ko'rsata olishlariga erishish;

➤ o'yin, qo'shiq va raqs san'ati orqali ijodiy obraz va ijro etish ko'nikmalariga erishish;

➤ bolalarning narsa va hodisa, tabiat va haqiqat, kelajak va o'tgan zamon, an'analar va boshqa narsalar haqidagi tushunchalarini kengaytirish;

➤ bolalarda stol teatri, drammatizatsiya, yerda ijro etiladigan teatr kabi teatrning turli yo'nalishlari haqida tushunchalarini mustahkamlashga yordam berish;

➤ bolalar so'z boyligini boyitish, to'g'ri talaffuz etish qoidalariga e'tibor berishlariga erishish;

➤ bolalarda o'zlari yaxshi biladigan hikoya, ertaklarni improvizatsiya qilish, mustaqil yoki tarbiyachi ko'magida turli hikoyalar tuzishga yo'naltirish;

➤ bolalarda ong, fikrlash, diqqatni shakllantirish;

➤ bolalarda o'zini va o'rtoqlarini harakatlarini to'g'ri baholashga o'rgatish;

➤ bolalarda turli harakatlarni bajarish, raqs tushish, yorqin obraz yaratish istagini kuchaytirish;

➤ rol o‘ynash, ya’ni aktyorlik mahoratini ko‘rsatish ko‘nikmalarini tarbiyalash.

➤ qo‘shiq, raqs, o‘yin improvizatsiyalaridan mustaqil faoliyatda to‘g‘ri foydalanishga erishish ko‘nikmalarini shakllantirish vazifasini bajaradi.

O‘rta guruh

4-5 yoshdagi bolalar obrazli, rolli o‘yinlarni o‘ynay boshlaydi. Bu yoshda bolalarda teatrlashtirilgan o‘yinga nisbatan qiziqishlari kuchayadi. Bolalarning teatrlashtirilgan o‘yinga nisbatan qiziqishlari ortadi. Masalan: “Mehmon-mehmon”, “Xola-xola”, “Qo‘g‘irchog‘im-o‘yinchog‘im(bolajonim)” kabi o‘yinlarni o‘ynay boshlaydi. 4-5 yoshli bolalar multfilmni yaxshi tomosha qila boshlaydi. Ertaklarni maroq bilan tinglaydi. Qayta hikoya qilishga ham urinishadi. Bu yoshda yumshoq o‘yinchoqlar, yog‘ochli teatr, konusli teatr, xalq o‘yinchoqlari teatri kabi stol teatrining turli ko‘rinishlarini o‘rganadi. Bu yoshdagi bolalar sahnaga chiqib raqsga tushishi, sahnada rol o‘ynashi va sahnada ekanligini his qila boshlaydi.

Asosiy vazifalari:

➤ Bolalarda teatrlashtirilgan o‘yin faoliyatiga kuchli qiziqish uyg‘otish;

➤ Etyud, drammatizatsiya, qo‘shiqli va raqsli improvizatsiya jarayonida mukammal obraz yaratishga o‘rgatish;

➤ Atrofdagi narsalar haqidagi tushunchalarini boyitib borish;

Narsalarning rangi, holati, kattaligiga ko‘ra ajratish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

Bolalarda teatrlashtirilgan o‘yin faoliyatida ishtirok etuvchi tomosha qahramonlari

haqidagi bilimlarini kengaytirish;

➤ Bolalar so‘z boyligini to‘ldirish va faollashtirish. Nutqning intonatsion ifodaliligini shakllantirish. Teatrlashtirilgan o‘yin faoliyatida bolalarda suhbat qurish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

➤ Qo‘g‘irchoqlardan to‘g‘ri foydalanish qoidalarini mustahkamlash;

➤ Bolalarda qo‘g‘irchoqlar bilan improvizatsiyalashgan o‘yinlarda ishtirok etish istaklarini shakllantirishda davom ettirish;

➤ Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari xodimlari, ota-onalar va bolalar oldida tomosha ko‘rsata olish qobiliyatini muntazam ravishda shakllantirish va qo‘llab quvvatlab borish.

Katta guruh

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida katta guruh bolalari sahna tomoshalarini yaxshi ko‘radi. Bu yoshdagi bolalar sahnada rol ham ijro eta boshlaydi. Bu yosh guruhdagi bolalar uchun sahna asarlarini tanlashda mazmunli, ibratli, chiroyli, voqealari ham kichik, o‘rta guruhlardagiga qaraganda birmuncha kengroq va ko‘p obrazli asarlar tanlanadi. Katta guruhlardagi bolalarning ko‘pchiligi mustaqil fikrini bayon eta oladigan bo‘lishadi. Ularning ayrimlarida rejissyorlik qobiliyatlari namoyon bo‘ladi. Katta guruh tarbiyalanuvchilarida ijodiy fikrlash, ledirlik qobiliyatlari shakllana boshlaydi. Katta guruh tarbiyalanuvchisi bir necha adabiy asardan tashkil topgan improvizatsiya o‘yinlari, mustaqil ko‘rinishlar qo‘yish imkoniyati yaratiladi..

Asosiy vazifalari:

➤ Bolalarda teatrlashtirilgan o‘yin faoliyatiga kuchli qiziqish uyg‘otish davom ettiriladi.

➤ Bolalarda badiiy ijro etish ko‘nikmalarini shakllantirishda qo‘shiq, raqs improvizatsiyalaridan foydalangan holda mukammallashtirish.

➤ Atrofdagi munosabatlarga nisbatan bolalarning tushunchalarini kengaytirish. Guruhda, zalda, maktabgacha ta‘lim muassasasi binosiga moslashish ko‘nikmalarini mukammallashtirish.

➤ Bolalarda qo‘g‘irchoq teatrlarining turlarini ajrata olish va aytib bera olish ko‘nikmalarini mustahkamlash.

➤ Bolalarning lug‘at boyligini shakllantirishda davom etish. Nutqning intonatsion ifodaliligini mukammallashtirish. Monologik va diologik nutq shakllarini rivojlantirish.

➤ Qo‘g‘irchoqlar bilan to‘g‘ri muloqotga kirishish, ya‘ni to‘g‘ri yo‘naltirish qoidalarini mustahkamlash.

➤ Bolalarni yakka tartibda yoki guruh bilan birga turli hikoya va ertaklar to‘qish va shu asosida improvizatsiyalashgan qo‘g‘irchoq tomoshalarini tashkil etishga ilhomlantirish.

➤ Bolalarda ong, fikr, tasavvur, diqqatni rivojlantirish.

➤ Tomosha qo‘g‘irchoqlari bilan o‘ynash istagini tarbiyalash. Mustaqil faoliyatda qo‘shiq, raqs, o‘yin improvizatsiyalaridan foydalanish qobiliyatlarini rivojlantirish.

➤ Bolalarning maktabgacha ta‘lim tashkiloti bayramlarida, ko‘ngilochar tadbirlarida mashg‘ulotlar va mustaqil faoliyat jarayonida olgan o‘z bilim va ko‘nikmalaridan foydalangan holda faol ishtirok etish ko‘nikmalarini qo‘llab quvvatlash.

Tayyorlov guruhi

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida 6-7 yoshdagi bolalar tayyorlov guruhini tashkil etadi. Bu yoshdagi bolalarda ijtimoiylashuv jarayonlari sezilarli darajada ilgariylan, ma‘naviy-madaniy tushunchalarni o‘zida mujassam qilaolgan yosh hisoblanadi. Ularda o‘yin va o‘qish faoliyati birgalikda kechayotgan davrdir. Bu davrda sahna va sahna tomoshalari materiali yanada murakkablashadi. Teatrlashgan tomoshalar obrazlari bolalarni fikrlashga undaydi. Bolalar obrazlar orqali fikrlaydilar. Fikrlar esa narsalarni yaratadi. Sahna tomoshalari ijodkorlikka undaydi.

Asosiy vazifalari:

➤ Teatr-tomosha san‘ati asosida bolalarda har taraflama ijodiy qobiliyatlarni rivojlanishini mukammallashtirish;

➤ Badiiy obraz yaratishda o‘yin, qo‘shiq raqs improvizatsiyalari orqali bolalarda mustaqil ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish;

➤ Atrofdagi munosabatlarga nisbatan bolalarning tushunchalarini kengaytirishda davom etiladi. Guruhda, zalda, maktabgacha ta‘lim muassasasi binosiga moslashish ko‘nikmalarini mukammallashtirish. Bolalarda qo‘g‘irchoq teatrlari haqida tushuncha, ularni farqlay olish ko‘nikmalarini kengaytirish;

➤ Bolalar so‘z boyligini yaxshilash va ko‘paytirishda davom etish, muntazam lug‘at boyligini kengaytirib borish. Nutqning suhbat va monologik shakllarini mukammallashtirish. Muloqotda nutq madaniyatini tarbiyalash;

- Qo‘g‘irchoqlar ishtirokida kichik hikoyalar, ertaklar tuzish ko‘nikmalarini yaxshilash;
- Qo‘g‘irchoqlarni to‘g‘ri manipulyatsiya qilish ko‘nikmalari mustahkamlanadi;
- Bolalarga ma‘lum mashxur ertak qahramonlarining suhbatlarini improvizatsiya qilish ko‘nikmalarini yanada mustahkamlash;
- Ong, diqqat, fikrlash, tasavvur qilish, his etish ko‘nikmalari mukammallashadi;
- Bolalarda o‘z ruhiyatlarini boshqalarga ulashish, musiqa ohangini turli tana xarakatlari orqali ko‘rsatib berish, badiiy o‘z-o‘ziga ishonish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- Qo‘g‘irchoq teatri tomoshalari jarayonida bolalarning yakka va jamoa bilan musiqa asboblari yordamida improvizatsiya qilish tashabbuslarini qo‘llab quvvatlash;
- Bolalarning maktabgacha ta‘lim muassasasi bayramlarida, ko‘ngil ochar tadbirlarida mashg‘ulotlar va mustaqil faoliyat jarayonida olgan o‘z bilim va ko‘nikmalaridan foydalangan holda faol ishtirok etish ko‘nikmalarini qo‘llab quvvatlash.

Yuqorida aytib o‘tilgan holatda tashkil etilgan ta‘lim albatta o‘z samarasini ko‘rsatadi. Teatrlashtirilgan o‘yin bolalarda o‘zini boshqalar oldida ifoda eta olish, o‘zining “Men”ini boshqalarga taqdim eta olish, o‘rtoqlari oldida o‘z harakatlaridan faxrlanish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bolalarning maktabgacha ta‘lim tashkilotlaridagi davrlari teatrlashtirilgan o‘yin faoliyatining integratsiyalashgan o‘yinlar, san’atning turlari hisobiga boyitiladi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlaridagi kichik guruhga kichik hajmli, personajlari 3-4tadan oshmaydigan, voqealari ham kam bo‘lgan mazmunli, ixcham, ibratli asar tanlash qoidasiga amal qilish zarur. Bu qoidaga qachon amal qilmaslik mumkin. Agar bola avvaldan eshitib, tomosha qilib turgan asarlari bo‘lsa bu qoidaga amal qilmasa ham bo‘ladi. Chunki, avaldan ko‘rib, eshitib turilgan bo‘lsa asar mazmunini bir-biriga bog‘lay oladi, tushunchalarni idrok qila oladi. Bu qoida kichik yosh guruhda notanish asar tanlaganda amal qiladi. O‘rta, katta, tayyorlov yosh guruhlari bolalari uchun sahna asari tanlashda bir yosh - bir pog‘ona

ko'tarilganda, o'sganda asar hajmi ham kattalashib, voqealari ko'payib boradi. Yoshi ulg'aygan sayin bola yaxshi fikrlaydigan, voqealarni bir-biriga bog'lab tushunadigan bo'lib boradi. Shunday qilib, "Sholg'om", "Zumrad va Qimmat", "Yetti uloqcha", "Qizil qalpoqcha", "Chiroyli uycha", "Uch aka-uka cho'chqachalar", "Bo'g'irsoq" kabi ertaklarni har bir yosh guruh bolalariga namoyish etsa bo'ladi.

Tomoshalar bolalar ko'nligini ko'taradi, zavqlantiradi, hislarini uyg'otadi. Tomoshlar ko'ngilga yangi orzu-umidlar tug'ilishiga sababchi bo'ladi. Inson ko'nglida chiroyli orzu-maqсадlar paydo bo'ldimi, xohishga intilish, istaklarni ro'yobga chiqarish uchun harakat boshlanadi. Ko'ngildagi oru-maqсад insonni o'qishga, mehnat qilishga, g'ayratli, shijoatli bo'lishga undaydi. Dangasalik bo'lmaydi. Faqat maqsadga etishish, intilish, ro'yobga chiqarish istagi yuqori bo'ladi va bir kun albatta shu maqsadga erishadi, musharraf bo'ladi, etishadi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Kichik yosh guruhda sahnalashtirish faoliyatining ahamiyatli jihatlari haqida gapirib bering.
2. O'rta yosh guruhda sahnalashtirish faoliyatining pedagogik-psixologik jihatlari haqida gapirib bering.
3. Katta yosh guruhda sahnalashtirish faoliyatining vazifalari nimalardan iborat?
4. Tayyorlov guruhida sahnalashtirish faoliyati vazifalari nimalardan iborat?

Mavzu yuzasidan test topshirig'i:

- 1. Kichik yosh guruh qaysi yoshni o'z ichiga qamrab oladi?**
 - a. 3-4 yosh oralig'ini
 - b. 3-6 yosh oralig'ini
 - c. 3-7 yosh oralig'ini
 - d. 4-5 yosh oralig'ini
- 2. Kichik yosh guruh bolalariga sahna asarlarini qanday tanlash kerak?**
 - a. Kichik hajmli, 3-4 personajdan oshmaydigan, voqealari ham kam bo'lgan mazmunli, ixcham, ibratli asar tanlash kerak.

- b. Kichik hajmli ertak, masal, hikoya tanlash kerak.
- c. Personajlari ko'p bo'lmagan asar tanlash kerak.
- d. 3-4 obrazdan oshmaydigan kichik hajmli ertak tanlash kerak.

3. O'rta yosh guruh qaysi yosh oralig'ini qamrab oladi?

- a. 4-5 yosh
- b. 5-6 yosh
- c. 6-7 yosh
- d. 3-7 yosh

4. "Sholg'om", "Zumrad va Qimmat", "Yetti uloqcha", "Qizil qalpoqcha", "Chiroyli uycha", "Uch aka-uka cho'chqachalar", "Bo'g'irsoq" kabi ertaklarni qaysi yosh guruh bolalariga namoyish etish mumkin?

- a. har bir yosh guruhga
- b. faqat katta yosh guruhga
- c. faqat tayyorlov guruhga
- d. kichik yosh guruhdan boshqa barcha yosh guruhlarga

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo'stoni 2013
2. Nurmatova M.Sh. Xasanova Sh.T. D.Azimova. Ustaxonada amaliy mashg'ulot. "Musiq" T.:2010-y.
3. F.Axmedov Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. "Aloqachi", Toshkent, 2008-y.
4. A.Rasulova Sahna nutqi. "Musiq". Toshkent. 2009-y.
5. Чаброва Т.Л. Обучение Театрилизованной и творческой деятельности. Ташкент, 2021 г.

SAHNALASHTIRISH FAOLIYATI JARAYONIDA BOLALARDA IJODKORLIKNI RIVOJLANISHINING O‘ZIGA XOSLIGI

Reja:

1. Sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishining o‘ziga xosligi.
2. Sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishining asosiy kriteriyalari.
3. Maktabgacha ta’lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatini tashkil qilish shakllari.

***Tayanch tushunchalar:** teatr-tomoshalar bolalarni ijodkorlikka undaydi, ijodkorlikning asosiy mezonlari, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyatining tashkil qilish shakllari*

1. Sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishining o‘ziga xosligi.

Teatr bola ta’lim-tarbiyasi uchun katta ahamiyatga ega, bolalar u bilan uchrashuvni sabrsizlik bilan kutadi. Teatr hamma (yoki deyarli hamma) narsaga qodir. U mo‘jiza yaratadi: quvontiradi, o‘rgatadi, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, ularning xulqini korrektsiyalaydi, emotsional namoyon bo‘lishiga ko‘maklashadi, bolalarning nutqi, notiqlik qobiliyatlarini rivojlantiradi, o‘ziga ishonchini oshiradi, omma oldida chiqish ko‘nikmalarini egallashida yordam beradi.

Teatr san’ati bola shaxsining har tomonlama rivojlanishiga ko‘maklashadi. Teatr san’ati bilan kun sayin muloqot qilib borar ekan, bolalar bir-biriga nisbatan toqatli, kelishuvchan, og‘ir-bosiq bo‘lib, o‘zini tartibga solib oladi. Teatr maktabgacha yoshdagi bolalarning his-tuyg‘ulari va kayfiyati (ruhiyati)ga kuchli emotsional ta’sir o‘tkazadi, ularning fikrlash doirasini kengaytirib, nutqini boyitadi, axloqiy-ma’naviy tasavvurini shakllantiradi, aqliy tasavvurlarini rivojlantiradi, intellektual qobiliyatlarini oshiradi. Teatr bolani ma’naviy tarbiyalaydi. Teatr – sehrli olam, unda bola o‘ynab, quvonadi, o‘ynab atrof olamni

o‘rganadi, ya’ni uning emotsional olamini boshqarishni o‘rganadi. Bolada ijodga e’tibor, qiziqish, intilishning namoyon bo‘lishi uning taassurotlarini yangilaydigan emotsional undovlarni talab qiladi. Bu borada teatrlashtirish faoliyatining juda katta ijobiy ahamiyatini alohida ta’kidlash mumkin. Pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil qilingan bu kabi faoliyat bola hayotiga yangi qimmatli mazmun olib kiradi, quvonch hissini uyg‘otadi, barcha kuch va qobiliyatlari, jumladan nutqiy rivojlanish qobiliyatlarini faoliyatga safarbar qilishga undaydi. Hamma bolalar spektakllarni yaxshi ko‘radi. Ularga nafaqat tomosha qilish, balki artist bo‘lish yoqadi. Teatr san’ati bolalarga yaqin va tushunarli, chunki uning asosida o‘yin yotadi. Teatrda o‘ynash va bolalar o‘yini aynan bir xil shartlilikdan kelib chiqadi va o‘zida voqelikni har bir inson ko‘ra oladigan va ifodalay oladigan darajada fokuslaydi. Bolalarda o‘yinga bo‘lgan ehtiyoj, shubhasiz, katta va u juda erta namoyon bo‘ladi. Ikki-uch yoshidayoq kichkintoylar sakrayotgan quyoncha va ona tovuqqa ergashayotgan jo‘jachalarni tasvirlaydi. Ular jon-u dili bilan kuchukcha, mushukcha, ulochalar qiyofasiga kiradi. Ular imitatsiyalash-taqlidiy harakatlarni bajaradi, bu harakatlar hamisha rejali, ammo favqulodda boy va shu sababli o‘zida katta emotsional quvvatni jamlaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida teatrlashtirilgan faoliyatning o‘ziga xosliklari:

- teatrlashtirilgan faoliyatda bolalarning ijodiy faolligi uchun sharoit yaratiladi;
- bolalarni teatr madaniyatiga oshno qiladi.
- pedagogik jarayonda teatrlashtirilgan va boshqa faoliyat turlari o‘zaro aloqadorligi uchun sharoit yaratadi;
- Bolalar va kattalarning hamkorlikdagi teatrlashtirilgan faoliyati (bolalar, ota-onalar, pedagog-xodimlar ishtirokida birgalikda spektakllar qo‘yish; katta guruh bolalarining kichik tarbiyalanuvchilar oldida chiqishlarini tashkil qilish va h.k.).

Teatrlashtirilgan o‘yinlar bolalarni hamma vaqt o‘ziga jalb qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yinga jon-u dili bilan kirishadi: qo‘g‘irchoqlarning savollariga javob beradi, ularning iltimoslarini bajaradi, maslahatlar beradi, u yoki bu obrazga “kiradi”. Kichkintoylar

personajlar bilan birga kuladi, ular bilan birga qayg‘uradi, ularni xavf-xatardan ogoh qilishga intiladi, sevgan qahramonining muvaffaqiyatsizligidan birga ko‘z yoshi to‘kadi, hamma vaqt unga yordamga tayyor turadi. Teatrlashtirilgan o‘yinlarda qatnashib, bolalar atrof olam: obrazlar, ranglar(bo‘yoqlar), tovushlar bilan tanishadi. Teatrlashtirilgan o‘yinlarning bola shaxsiga katta va har tomonlama ta’siri undan kuchli pedagogik vosita sifatida, ortiqcha majburlashsiz, foydalanish imkonini beradi, chunki kichkintoy o‘yin vaqtida o‘zini erkin his qiladi.

Teatr-o‘yin faoliyati shakllari xilma-xil: qo‘g‘irchoq teatri o‘zining barcha turlari bilan. Teatr-o‘yin faoliyati bolalarni badiiy tarbiyalash, estetik rivojlantirishga ko‘maklashadi, ularni yangi taassurotlar bilan boyitadi, avval egallagan bilimlarini mustahkamlaydi, faollashtiradi, tashabbuskorligi, nutqi, badiiy didini rivojlantiradi. Faoliyat tasavvur uchun boy oziqa beradi. Bolalar atrof olamdan boy taassurot oladi va uni jonli o‘yin harakatlari va obrazlarda gavdalantirishga intiladi. Dramatizatsiya bolalar ijodining keng tarqalgan turi bo‘lib, xilma-xil ko‘rinishda: insho, improvizatsiyalangan kichik sahnalar ko‘rinishida ham, tayyor adabiy materialni instsenirovkalash ko‘rinishida ham namoyon bo‘ladi. Bolalarni adabiy syujetlarning emotsional ichki boyligi, personajlarning muayyan harakatlari o‘ziga tortadi.

Teatr-o‘yin faoliyati turlari xilma-xil va har biri o‘zicha qiziqarli. Bolalar maqtanchoq xo‘rozchani yoki boshqa jonivorlarni o‘ynash va o‘zini artist sifatida his qilishga qiziqadi. Teatr faoliyati – bola nutqini rivojlantirish uchun bitmas-tuganmas xazina. She’riy asarlarni “o‘ynash”dan ish boshlab, sahnalarga o‘tiladi, ishning yuqori cho‘qqisi drama(sahna)lashtirish hisoblanadi, bunda bolalar qahramonning xarakterini ochib bergani holda savodli gapirishi lozim. So‘zni sahna harakatlari bilan birlashtirish murakkab, ayniqsa uyatchan bolalar uchun juda murakkab ish sanaladi. Tarbiyachi uchun bevosita ta’limiy faoliyatni amalga oshirish, nutqni rivojlantirish muhim, sahnalar kichik spektakllarga o‘xshashi kerak. Bunda tarbiyachi bosh rolni o‘ynaydi, bolalar esa artist bo‘lishga o‘rganadi. Bu jarayonda qo‘g‘irchoqlar, ayiqchalar va h.k. jonlanadi. Bolalar o‘ynaydi, niqoblar kiyadi, turli

jonivorlarga aylanadi, o'rmonda bo'ladi, bizni stol-stullar emas, balki ertaklar mamlakati o'rab turadi. Tomoshaga tayyorgarlik jarayonida ham bolalarning o'zi qatnashadi. Bunda tomoshaning mazmuni, bayram muhitini tashkil qilish masalalari muhokama qilinadi, rollar taqsimlanadi. Bolalar ishtirokchi (artist) bo'lganida ularning faol nutqi namoyon bo'ladi va mashq qildiriladi. Hamma vaqt va hamma sharoitda yaxshi gapirish uchun nafaqat gapirishni bilish, balki omma oldida, notanish tinglovchilardan uyalmasdan gapira olishga odatlanish talab qilinadi. Boy ichki dunyo egalari, nutqni mukammal egallagan, ammo shu qadar uyatchan, o'ziga ishonmaydigan, omma oldida nutq so'zlashga odatlanmagan kishilar uchraydiki, ikki-uchta notanish kishining borligi ularning lom-mim deyolmay qolishiga sabab bo'ladi. Bunga qarshi kurashish, bolalarda o'zi va o'z kuchiga ishonchni rivojlantirish zarur. Omma oldida nutq so'zlash odatini insonda kichik yoshdan notanish auditoriya oldida nutq so'zlashga o'rgatish yo'li bilan shakllantirish mumkin. Buni teatrlashtirilgan faoliyatda ajoyib tarzda amalga oshirish mumkin. Bola maktabgacha ta'lim tashkilotidayoq umum (ko'pchilikning) ishida qatnashayotganini anglab yetishi, ularning xatti-harakati hammada qiziqish uyg'otayotgani, bundan boshqalar manfaatdor ekani, ular hammani qiziqtirishi mumkin va kerak bo'lgan harakatlarni amalga oshirayotganini tushunib yetishi juda muhim. Kichik sahnalarni o'ynab, boshqa qiyofalarga kirib, bolalar nutqini sayqallashtiradi, ularda o'ziga ishonch, topqirlik rivojlanadi, ijod uchun imkoniyatlar ochiladi. Zamonaviy olamda, ezgu hislar va hamdardlik, hamkechinmalikka kam o'rin qolayotgan bir davrda, aynan teatrlashtirilgan faoliyat maktabgacha ta'lim yoshidagi bola tarbiyasi uchun juda zarur, zero u bolada ezgu hislar uyg'otadi va yorug'liq urug'larini shakllantiradi, pedagoglarga bolaning emotsional sohasiga murojaat qilish, "hislarni tarbiyalash" bilan shug'ullanish imkonini beradi. Aynan teatrlashtirilgan faoliyat, san'atning amaliy turi sifatida, ham tarbiya, ham ta'lim uchun katta imkoniyatlarga ega va shaxsni tarbiyalash imkonini yaratadi. Aynan u bolani to'laqonli qiziqtirishi, uni yanada jur'atli, faol qila olishi mumkin. Teatrlashtirilgan faoliyat bolaning barcha qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bola aqlan, jismonan va, eng muhimi, emotsional

rivojlanadi. Pedagog uchun teatrlashtirilgan faoliyat zarur va u bilan imkon qadar erta, kichik guruhdan boshlab shug‘ullanish kerak, shunda tayyorlov guruhiga kelib o‘zimiz kutgan natijaga erishamiz. Teatrlashtirilgan faoliyat bilan shug‘ullanish bolalarga nafaqat ertaklar vositasida atrof olamni o‘rganish va bilish, balki u bilan uyg‘unlikda yashash, turli faoliyat shakllaridan zavq olish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan teatrlashtirilgan faoliyatni amalga oshirish uchun makonni tashkil qilish katta ahamiyatga ega.

Teatrlashtirish bo‘yicha faoliyatda rivojlantiruvchi predmet-makon muhitini tashkil qilish va bezashda quyidagi prinsiplarga tayaniladi:

- **komplekslash va egiluvchan zonalashtirish** prinsipi, bolaga qiziqtirgan faoliyat bilan bir-biriga xalaqit bermagan holda shug‘ullanish imkonini beradi;

- **faollik** prinsipi, bolaning bilish faoliyatini, faolligini rag‘batlaydi;

- **erkinlik va mustaqillik** prinsipi, bolaga muhitga o‘z munosabatini mustaqil belgilash: idrok qilish, taqlid qilish, yaratish; o‘zi istaganini mustaqil tanlash imkonini beradi;

- **hayotiy haqiqat illyuziyasi** prinsipi, bolalarni yaratilgan aldovga berilish va haqiqiy predmetlar bilan ishlayotganiga ishonch hosil qilish uchun ruhiy va faktik imkoniyat yaratadigan sharoitga qo‘yishdan iborat.

Sanab o‘tilgan prinsiplar bilan bir qatorda quyidagi didaktik prinsiplar ham realizatsiyalanadi:

- **psixologik komfort** (qulaylik) prinsipi bolalar o‘zini xuddi uyidagidek his qiladigan sharoit yaratish. Stress hosil qiluvchi omillarni bartaraf qilish, bolalarni muvaffaqiyatga yo‘naltirish, asosiysi, quvonchni his qilish, faoliyatning o‘zidan zavq olishga yo‘llash;

- **ijodkorlik** (kreativlik) – bolalarni maksimal darajada ijodiy ibtidoga, o‘z ijodiy faoliyat tajribasini egallashga yo‘naltirish;

- **olam haqida shartli tasavvur** – dunyoning yaxlit manzarasi, bolaning olingan bilimlarga shaxsiy munosabati, shuningdek, ularni o‘z amaliy faoliyatida qo‘llash

malakalarini shakllantirish;

- **variantivlik** – bolalarda variantiv fikrlash, ya’ni masalani hal qilishning turli variantlari mavjudligini tushunish, qiyin vaziyatdan

chiqish yo'lini izlash, yechimi bo'lmagan vaziyatlar yo'qligini tushunishni rivojlantirish;

- bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish.

Mazkur prinsiplar tizimli ravishda qo'llanadi.

Bolalar bilan teatrlashtirilgan faoliyat yo'nalishlari.

Teatrlashtirilgan faoliyat madaniy hordiq faoliyatiga tushuniladi va bolalar bilan olib boriladigan faoliyatda ustuvor o'rin egallaydi. U bolalar bilan muloqotning yangi shakllarini realizatsiyalash, har bir bolaga yakka tartibda yondashish, oila bilan o'zaro hamkorlikning noan'anaviy yo'llarini amalga oshirishga ko'maklashadi.

Bolalar bilan teatrlashtirilgan faoliyat quyidagi yo'nalishlardagi ishni o'z ichiga oladi:

- teatrlashtirilgan faoliyatda bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun sharoit yaratish;

- bolalarning ijrochilik ijodini (turli sahna va postanovkalarda rol o'ynash, mashg'ulotlarda ifodali o'qish va sh.k.) rag'batlantirish;

- bolalarda individual xususiyatlariga muvofiq kattalar va tengdoshlari oldida chiqish vaqtida o'zini erkin tutish qobiliyatini rivojlantirish (jumladan, uyatchan bolalarga bosh rollarni berish, nutqiy qiyinchiliklari bo'lgan bolalarni spektakllarga

jalb qilish, har bir bolaning spektakl va boshqa chiqishlarda faol ishtirokini ta'minlash);

- bolalarni (turli personajlarning xarakterli xususiyatlarini, o'zining hissiy kechinmalari, emotsional holatini ifodalashda) mimika, pantomima, ifodali harakat

va intonatsiya yordamida improvizatsiyalashga undash;

- bolalarni dramalashtirishning turli vositalari orqali ifodalanadigan personajlarning kayfiyati, emotsional holatini farqlashga o'rgatish (mimika va harakatlar yordamida quvonch, qayg'u, jahl, hayrat va sh.k. ni namoyish qilish va personajning holatini aniqlashni taklif qilish; qo'g'irchoq personajdan foydalanib, boladan aynan bitta jumlaning turlicha intonatsiya bilan aytishni so'rash va qolgan bolalardan personajning xarakteri va kayfiyatini topishni so'rash).

2. Sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishining asosiy kriteriyalari.

Teatrlashtirilgan faoliyatda bolalarning ijodiy faolligini oshirish bo'yicha vazifalarni hal qilishda ular va ota-onalar bilan ishlarning zarur shakllari belgilangan bo'lib, ular uchta: tashkiliy, amaliy va yakunlovchi bosqichni o'z ichiga oladi.

Tashkiliy bosqichda:

- mavzuga oid metodik adabiyotlar o'rganiladi;
- bolalar bilan teatr haqida suhbat o'tkaziladi;
- "Ijodkor bola qanday bo'ladi?" mavzusida ota-onalar bilan so'rov o'tkaziladi;
- "Ijodkor bola o'zida qaysi fazilatlarni rivojlantiradi?" mavzusida ota-onalar bilan so'rov o'tkaziladi;
- bolalarni teatrlashtirilgan faoliyatga jalb qilish bo'yicha rejalar tahlil qilinadi;
- "Teatrlashtirilgan faoliyat nutqning ifodaliligi vositasi" mavzusida ota-onalar uchun maslahat o'tkaziladi;
- bolalar va ota-onalarning xalq ertaklari bo'yicha ishlangan rasmlar "Ertak huzurida mehmonda" ko'rgazmasida ishtiroki ta'minlanadi.

Amaliy bosqichda quyidagilar amalga oshiriladi:

- bevosita ta'limiy faoliyat. "Kommunikatsiya" sohasi. "Zumrad va Qimmat" nomli xalq ertagini sahnalashtirish;
- "Sholg'om", "Bo'g'irsoq" ertaklarini ilk, kichik va o'rta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun, shuningdek, ota-onalar majlisida namoyish qilish;
- bolalar bilan turli spektaklini tomosha qilish;
- badiiy adabiyotlar mutolaasi va xalq ertaklariga illyustratsiyalarni ko'rib chiqish;
- xalq ertaklari aks ettirilgan audioyozuvlarni tinglash, videomateriallarni tomosha qilish;
- niqob va kostumlardan foydalangan holda "ayyor tulki", "kuchukchalar va mushukchalar" instsenirovkasi;
- "sehrli tovushlar" o'yini;
- mustaqil ijodiy o'yinlar;

- xalq ertaklarini namoyish qilish uchun qo‘g‘irchoq teatrini tayyorlash.

Ishning yakunlovchi bosqichi:

- bolalarning ijodiy improvizatsiyalash qobiliyatini aniqlash;
- ota-onalar yordamida rivojlantiruvchi muhitni to‘ldirish;
- ma’ruza (doklad) shaklida qilingan ish natijalari haqida hisobotni o‘z ichiga oladi.

Sahna bu ibratxonadir. Sahnada bola obrazlarga kirish orqali hayotni anglab etadi. Rol ijrochilik qobiliyatlari obrazga kirgandagina namoyon bo‘ladi va rivojlanadi. Aktyorlikka bo‘lgan qiziqish bolaligidan paydo bo‘ladi. Bu qobiliyati borligi aniq bo‘lgan bolalar shu sohada faoliyat yuritishi uchun tarbiyachi va ota-onalar tomonidan qulay sharoitlar yaratib beriladi.

Axloqiy-estetik sifatlar bolalarda go‘zallik haqidagi bilimlar, hayot voqeligi, buyumlar, ularning rang-barangligi, turlarini, o‘zini tuta bilishni muloqotga kirishuvchanlik, yaxshi-yomonni farqlash, o‘z-o‘ziga baho berish kabilarni tarbiyalash masalasini o‘z ichiga oladi. Inson hayoti o‘z-o‘zini anglashdan boshlab, jismoniy, aqliy va ijtimoiy kamolotga erishuv jarayoni amalga oshishi tugallanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida axloqiy tarbiya berishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- turli yosh guruhlari bolalari uchun sodda elementlar axloqiy tushunchalar haqida ma’lumot berish;

- har bir o‘rgatiladigan u yoki bu fazilatlar rasmlar, multfilm tasmlar, axborot kommunikativ texnologiya vositalari asosida va bolalarga jonli harakatlari orqali tushuntirish;

- bolaga doimiy ravishda “nima yaxshi”, “nima yomon” ma’nosini anglab, o‘z fikrini sodda bayon etishga ko‘maklashish. Maktabgacha yoshdagi bolalarni teatr tomoshalariga oshno qilish, ularning qo‘g‘irchoq o‘yinlarini tashkil qilishda quyidagilar maqsad qilib olinadi:

- bolalar uchun ijodkorlik, faollikni ta’minlovchi shart-sharoitlar yaratish;

- teatr ko‘rish odobiga o‘rgatish;

- teatr tomoshalari jarayonida bolalarning nutqi va jismoniy rivojlanishidagi uzviylikni ta’minlash;

- xalq yaratgan boy merosimizga bo‘lgan muhabbat hissini uyg‘otish;
- qo‘g‘irchoq teatrini ota-onalar bilan hamkorlikda tashkil qilish imkoniyatini yaratishdan iboratdir.

Har bir qo‘g‘irchoq teatri bolaning ruhiyatiga quyidagicha ta’sir ko‘rsatadi:

- qo‘g‘irchoq teatri uchun tanlangan ertak bolaning yosh va bilim saviyasiga mos bo‘lsa bolada butun vujudi bilan uni ko‘rish va unga nisbatan qiziqish paydo bo‘ladi;

- kuzatishlarimizdan ma’lumki, ayrim bolalarda ertak qahramoniga nisbatan ruhiy tetiklik yoki qo‘rqish, nafrat, ko‘ziga yosh olish yoki kulib yuborish kabi emotsional holatlar namoyon bo‘ladi;

- qo‘g‘irchoq teatri yakunida o‘tkazilgan suhbatda bolalar qo‘g‘irchoq teatrida ko‘rganlari haqida qiziqish va xursandchilik bilan qo‘g‘irchoq teatrini doimo ko‘rishga xohish bildiradilar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘g‘irchoq teatrlarini tayyorlash va tomoshalar ko‘rsatish mazmunini bosqichma-bosqich amalga oshirish ijobiy imkoniyat beradi.

Birinchi bosqich:

Maktabgacha ta’lim tashkilotida qo‘g‘irchoq teatrini tayyorlashda jihozlar, ya’ni quyidagi moddiy ta’minot amalga oshiriladi:

- manba tanlash (ertak tanlash). Tanlangan ertak bolaning yoshiga mos kelishi;
- musiqa tanlash;
- qo‘g‘irchoq teatrini ko‘rsatish rejasini tuzish.

Ikkinchi bosqich:

- ko‘zlagan maqsadga erishishda ertak mazmuniga ko‘ra qahramonlarni tanlash va so‘zlarini yod oldirish;
- qo‘g‘irchoqlarni yasash va kiyintirish;
- tarbiyachi bilan hamkorlikda sh’erlarni yod olish.

Uchinchi bosqich:

- tarbiyachi va bolalar bilan hamkorlikda teatr turiga ko‘ra ertakni sahnalashtirish;
- qo‘g‘irchoq teatrini namoyish etish, bolalarni qiziqishlari va ularga yoqqan qahramonlar haqidagi fikrlarini aniqlash.

Qo'g'irchoq teatri ijodkori uchun eng zarur bo'lgan yo'nalish bu uning qo'l harakatchanligidir. Haqiqatdan ham inson xatti-harakatining eng faol ijrochisi bo'lgan qo'l qo'g'irchoq teatrida o'zining mo'jizakorligi, sehrgarlik kuchini yanada yaqqol namoyon qiladi. Dramaturg asaridagi qiyofalar musavvir va qo'g'irchoq ustasining ijodiy ko'magida dunyoga kelgan qahramonlar qo'g'irchoq teatri aktyori qo'li bilan jonlanib, mantiqli, maqsadli xatti-harakatga moyil qilinadi.

Bu o'z o'rnida qo'g'irchoq teatri aktyoridan qo'llarining naqadar harakatchan, chiniqqan, chidamli bo'lishini taqozo etadi. Shuning uchun qo'g'irchoqlarni katta mahorat bilan boshqarib, turli mantiqli xatti-harakatlar sodir qilish bilan birga, qo'l yalang'och holda, qo'lqopli holatda yoki dumaloqcha kiygan holatda turli harakatlarni amalga oshirib, turfa obrazlar yaratadi va boy imkoniyatlarini namoyon etadi. Demak, qo'g'irchoq teatri aktyorning qo'l harakatchanligi cheksiz imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak.

Sahnada bajarilayotgan harakat uch xil holatda bo'ladi:

1. Jismoniy harakat bajariladigan ishning tashqi holati (kiyinish, gul taqdim qilish, o'sma qo'yish va boshqalar). Bu harakat asosan psixik harakatni amalga oshirish uchun moslama sifatida xizmat qiladi.

2. Psixik harakat inson ongiga, ruhiga, holatiga ta'sir qilib, uni o'zgartirishga olib keladi (tushuntirish, maqtash, rad etish, kulish va h.k.).

3. So'zli harakat - so'z bu fikr bayoni. So'zni sahnada aniq maqsadga erishmoq uchun aytiladi. So'z inson ruhiyatiga, ya'ni intellektiga, tasavvuriga va his-tuyg'ulariga har tomonlama ta'sir qilish kuchiga ega. Jismoniy, psixik va so'zli xatti-harakatlarning barchasi sahnada bir maqsadga erishish uchun yo'naltiriladi.

Qo'g'irchoq qo'l barmoqlarining qo'g'irchoqda joylashishi, qo'g'irchoqni egishda barmoqlar holati, sahna ortidagi aktyor holatiga qo'g'irchoq teatrida qo'g'irchoqboz jonsiz o'yinchoqqa jon baxsh etadi.

Qo'g'irchoqboz soatlab oyna oldida mashq qilib, obrazni jonlashtirishga harakat qiladi. Shuning uchun qo'g'irchoqboz jismoniy sog'lom, qo'l va barmoqlari abjir, epchil bo'lishi kerak. Chunki qo'g'irchoqbozning har bir qo'l harakati qahramon fikrini ifodalab berishi

kerak. Qo‘g‘irchoqboz har xil holatda, izzalab o‘tirgan holatda, yotgan holda to‘siq ortida rol ijro etishi mumkin.

Ishtirokchilarning bo‘yiga moslab to‘siq yaratish kerak. To‘siq qanday balandlikda bo‘lishidan qat’i nazar, uning ustki qismiga biriktirilgan taxta (reyka) qo‘g‘irchoq uchun taxminiy yuradigan maydon hisoblanadi. Aktyor sahnada qanday yursa, Qo‘g‘irchoq ham shartli maydonda xuddi shunday yurishi kerak, ya’ni reykanidan pastga tushib ham, chiqib ham ketmasligi kerak. To‘siqdan qo‘g‘irchoqni uchdan ikki qismi tomoshabinga aniq ko‘rinishi shart. Sahna ichkarisiga uzoqlashgani sari qo‘g‘irchoqni balandroq ko‘tarish kerak, chunki to‘siqdan uzoqlashganda qo‘g‘irchoq tomoshabinga kichrayib ko‘rinadi.

Qo‘g‘irchoq teatri dekoratsiyalari ixcham bo‘lishi kerak. To‘siqda jihozlar qancha kam bo‘lsa shuncha yaxshi, chunki qo‘g‘irchoqlar harakati va ijrochilari uchun erkinlik va osonlik yaratiladi.

Qo‘g‘irchoq spektaklini musiqasiz tasavvur qilish qiyin, musiqa parda ochilganda, yopilganda, ko‘rinish o‘rtasida, sahna o‘zgarishidagi bo‘shliqlarni to‘ldirib turadi.

Sahnalashtirish faoliyati jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorligi rivojlanishi mezonlari:

- sahnada ekanligini his eta boshlashi;
- sahna madaniyatidan xabardor bo‘la boshlashi;
- sahnada nutq so‘zlay olishi;
- sahnada she‘r, qo‘shiq, raqs tusha olishi;
- sahnada rol ijro eta olishi;
- sahnada o‘zini erkin his eta boshlashi;
- sahnalashtiruvchilik qobiliyatining shaklantirishi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatini tashkil qilish shakllari.

1. Qo‘shma teatr faoliyati kattalar va bolalar, festival va o‘yin kulgu, qo‘g‘irchoqlar muzeyi, teatr darslari, teatr o‘yinlari shaklida tashkil qilish.

2. Mustaqil teatr va badiiy tadbirlar, kundalik hayotda teatrlashtirilgan o‘yinlarni tashkil qilish.

3. Ota-onalar bilan birgalikda teatrlashtirilgan o‘yinlar va

tomoshalarni tashkil qilish.

4. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan qurilish, sahnalashtirilgan va didaktik o‘yin mashg‘ulotlarini olib borish.

Qo‘shma teatr faoliyati kattalar va bolalar tomonidan yaratilgan tomoshalarga maktabgacha yoshdagi bolalarni taklif etish ular uchun maktab, saboq vazifasini o‘taydi. Ular tomoshani ko‘rish orqali sahnada qanday o‘zlarini tutish kerakligini, sahna aktyorlariga taqlid qilgan holda aktyor bo‘lgisi va sahnada rol ijro etish ishtiyoqi tug‘iladi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarni har xil festivallarga olib borishni ota-onalar bilan hamkorlikda tashkil etishsa maqsadli ishni amalga oshirishgan bo‘lishadi. Misol uchun maktabgacha yoshdagi bolalarni Samarqandda muntazam bo‘lib o‘tadigan “Sharq taronalari” festevaliga olib borishni tashkil etsa bolalar musiqaga bo‘lgan qiziqishi kuchayadi va kelajakda buyuk musiqachilar yetishib chiqishiga zamin yaratiladi. Bola ko‘rgan narsasinigina tasavvur eta oladi. Shi ko‘rgan tomoshasi, eshitgan musiqalari uni kelajak orzu, istak, maqsadlarini tug‘ilishiga sabab bo‘ladi. Endi festivallarga borishi tavsiya berish juda oson, lekin uni tashkil etish katta mehnat va mas‘uliyat yuklaydi. Buning uchun rahbarning tashkilotchilik qobiliyati muhim hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bugungi kunda ko‘chma, ya’ni ko‘chib yuradigan maktabgacha ta‘lim tashkiloti ham faoliyatini boshlagan, bu loyiha yangi model bo‘lib, u avtobusda tashkil etilgan. Bu maktabgacha ta‘lim tashkilotida festivallarga borishni tashkil etish qulaydir. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarni o‘yin kulgu, qo‘girchoqlar muzeyi, teatr darslari, teatr o‘yinlariga borishini va shunday ko‘rinishdagi tomoshalarni tashkil etish bolani har tomonlama rivojlantirishning muhim yo‘llaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotida mustaqil teatr va badiiy tadbirlar, kundalik hayotda teatrlashtirilgan o‘yinlarni tashkil qilish.

Mustaqil teatr bolalardan tashkil topgan bo‘lib, u bir guruh aktyorlikka va sahnalashtirishga layoqati bor bolalardan tuzilib, to‘garak shaklida Maktabgacha ta‘lim tashkiloti qoshida tashkil etiladi. Bu teatrni “Yosh aktyorlar teatri” kabi nomlar bilan yurutib, turli asar(ertak, hikoya, matal, masal)larni sahnalashtirib repertuarlarini boyitib borishadi. Tayyor

bo'lgan sahna asarlarini ta'lim muassasasida va boshqa joylarda namoyish etib berishni tashkil etsa bo'ladi. Masalan: ota-onalarning ish joylarida, boshqa maktabgacha ta'lim muassasalarda, oliy ta'limning maktabgacha ta'lim yo'nalish talabalariga ham ko'rsatishlari mumkin.

Xuddi shunday shaklni ozgina o'zgartirib, endi bu tomoshalar ijrosida ota-onalar bilan ham birgalikda teatrlashtirilgan o'yinlar va tomoshalarni tashkil qilish maqsadli bo'ladi. Ota-onaning ham bolaga bo'lgan e'tibori kuchayadi. Bolalarda ham ota-onaga bo'lgan mehr-muhabbati ortadi. Bola ish bilan band ota-onasini unga qaratayotgan e'tiboridan mamnun bo'ladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan qurilish, sahnalashtirilgan va didaktik o'yin mashg'ulotlarini olib borish bolani komil inson qilib tarbiyalashning poydevorini yaratishdagi mahsulotlardan biri sifatida xizmat qiladi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishining o'ziga xosliklarini sanab bering.
2. Sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishining asosiy kriteriyalari nimalardan iborat.
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatining qanday tashkil qilish shakllari mavjud?

Mavzu yuzasidan test topshirig'i:

1. Kreativlik nima?

- a. Ijodkorlik
- b. Kamolga etish
- c. Ko'rgazmalilik
- d. Uquvlilik

2. Ijodkor kim?

- a. Yangilik yaratuvchi
- b. Yangilik
- c. Bunyodkor

d. Yangi fikr

3. Qo‘g‘irchoq teatrida qo‘g‘irchoqboz sahnada bajarilayotgan harakat qanday holatda bo‘ladi?

- a. Jismoniy, ruhiy, so‘zli harakat holatida
- b. Strees, asabiy holatda,
- c. Jismoniy, ruhiy, hissiy holatda
- d. Jismoniy, ruhiy, asabiy holatda

4. “Kriteriya” so‘zining lug‘aviy ma’nosi qanday?

- a. me’zon
- b. mazmun
- c. ma’no
- d. mantiq

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1. O.Xasanboeva va boshq. Oila pedagogikasi. T.: “Aloqachi”, 2007 y.
- 2. F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, M.A’zamova. “Maktabgacha pedagogika”.-T., “Ma’naviyat”. 2013
- 3. Sh.Shodmonova. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. Fan va texnologiya. -T:, 2008.
- 4. F.Axmedov Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. “Aloqachi”, Toshkent, 2008-y.
- 5. A.Rasulova Sahn nutqi. “Musiqqa”. Toshkent. 2009-y.
- 6. Чаброва Т.Л. Обучение Театрилизованной и творческой деятельности.Ташкент, 2021.
- 7. <http://www.ziyonet.uz/>
- 8. <http://www.google.co.uz/>

QO‘G‘IRCHOQ TEATRI UCHUN BADIY ADABIYOT JANRLARI VA PERSONAJLARINI YASASH ORQALI BOLALARNING BADIY IJODIY QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI

Reja:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy ijodiy qobiliyatlarni qo‘g‘irchoq teatri vositasida shakllantirish mazmuni.

+ Ijodkorlik haqida.

+ Bolalar adabiyoti: ertaklar, hikoyalar, masallar va she‘rlar.

+ Bolalar qo‘shiqlari, raqslari va sahna ko‘rinishlari.

+ Bolalar qo‘l mehnati orqali ijodkorlikni rivojlantirish.

2. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida qo‘g‘irchoqlar teatrini tashkil etish va qo‘g‘irchoq yasash ishlari.

Tayanch tushunchalar: Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning vositasi qo‘g‘irchoq teatri, qo‘g‘irchoq teatri mazmuni, qo‘g‘irchoq yasash usullari bilan tanishish.

1. Ijodkorlik haqida

Bugungi kunda ijodkorlik yuksak qadrlanadi va u bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘nalishlar tobora ommalashib bormoqda. Sartaroshlar va televizion ijodkorlar, dam olishni tashkil etuvchilar va fotosuratchilar, kiyim-kechak dizaynerlari va veb-dizaynerlar va hatto avtomobillarni tashhishlash bo‘yicha mutaxassislar - bularning barchasi muayyan iste‘dod va ijodiy qobiliyatlarni talab qiladi. Biroq, bu yo‘nalishda bolaning rivojlanishiga etarli darajada e‘tibor berilmaydi. Nutq, fikrlash va xotira rivojlanishiga e‘tibor, ustunlik beriladi. Tasavvur va taassurotlar bolani shakllantiriladi. Tabiiyki, ko‘p narsa tabiiy moyillarga bog‘liq: yosh tirnoqlardan biri yorqin ijodiy qobiliyatlarni namoyon etadi, biroq hayoti davomida musiqa va san‘atga mutlaqo befarq.

Ijodkorlik nima?

Ilm “ijodkorlik” tushunchasiga juda murakkab ta‘riflarni beradi. Biroq, bu atamani juda oddiy izohlash mumkin: ijodkorlik o‘zini o‘zi ifodalashning faol shakli. Bundan tashqari, o‘z-o‘zini ifodalash har qanday narsalar orqali amalga oshirilishi mumkin: so‘z yoki harakat,

chizilgan yoki haykal, she'r yoki ohang. Hatto buxgalteriya hisobi va kimyoviy tadqiqotlarda ham - ijobiy bo'lmagan ishlarda - siz o'zingizning rejalaringizni muvaffaqiyatli bajarish va ijobiy natijaga erishish uchun ijodiy qobiliyatlardan foydalanishingiz mumkin (va kerak!).

Ijodkorlik quyidagilardan iborat:

- qobiliyat - ixtiro qilish qobiliyati, butunlay yangi narsalarni kashf etish;
- pozitsiyalar - o'zgarish va yangiliklarni qabul qilish qobiliyati, g'oyalari va imkoniyatlar bilan tajriba qilish istagi, mafkuraning moslashuvchanligi, mukammallikka erishish uchun yo'llarni qidirish;
- natijasi butunlay yangi tasvirlarni yaratishdir.

Maktabgacha yoshdagi bolaning ijodiy qobiliyatlari - bu ijodiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishning o'ziga xos fazilatlari. Ijodkorlik qobiliyatini tarbiyalanuvchining ko'plab fazilatlari birlashtirilishi mumkin, jumladan:

- boshqalarni ko'rmaydigan narsalarga e'tibor berish (masalan, butun boshini ko'rish va faqat detallarni aniqlash);
- turli xil original g'oyalarni ishlab chiqarish uchun o'zgina vaqtning kerak bo'lishi;
- osongina uzoq tushunchalarni bog'lash;
- o'rganish istagi;
- bitta muammoni hal etishda qo'lga kiritilgan ko'nikmalarni mutlaqo boshqa yechimlarda qo'llash;
- obyektning aniq maxfiylikni ko'rsatadigan shart-sharoitlarni maqsadli ravishda tashkil etish;
- taklif etilayotgan echimlar orasida kerakli narsani topish o'rniga muammoni muqobil yechimini yaratish;
- obyektning rivojlantirishning muayyan shaklini majoziy ravishda tushunish va ushbu obyektning aniq kontseptsiyasini olishdan oldin.

Bu fazilatlarning asosi - tasavvur va ijodiy fikrlashdir, uning rivojlanishi maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini yaxshilashga olib keladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish darajasini aniqlash uchun maxsus diagnostika texnikasi ishlab chiqildi. Bolalarning chizilgan rasmlarini tahlil qilish orqali bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish darajasining eng keng tarqalgan diagnostikasi quyidagicha aniqlanadi:

- kosmosdagi obyektning manzilini to‘g‘ri yetkazish qobiliyati;
- tasvirning mazmunan to‘liqligi;
- yaratilgan tasvirning hissiyligi;
- shubhalarni ochib bera olish qobiliyati.

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish darajasini diagnostika qilish bolalar qiyinchiliksiz nima qilish mumkinligini aniqlashga yordam beradi va kichik ko‘radiganlarni o‘zlarini yanada samarali ifodalashga undaydi.

Bolalar adabiyoti: ertaklar, masallar, hikoyalar va she’rlar.

ERTAK — xalq og‘zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to‘qima va uydirmaga asoslangan sehrli, sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Asosan, nasr shaklida yaratilgan. M. Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida yetuk shaklida uchraydi va biror voqeani og‘zaki tarzda hikoya qilish ma’nosini bildiradi. Ertak Surxondaryo, Samarqand, Farg‘ona o‘zbeklari orasida *“matal”*, Buxoro atrofida tuman va qishloqlarda *“ushuk”*, Xorazmda *“varsaqi”*, Toshkent shahri va uning atrofida *“cho‘pchak”* deb atalgan. Ertak hayot haqiqatining xayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlanganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqea va harakatlarning ajoyib, g‘aroyib holatlarda kechishi, qahramonlarning g‘ayritabiiy jasorati bilan folklorning boshqa janrlaridan farq qiladi. Ertaklarda uydirma muhim mezon bo‘lib, syujet voqealarining asosini tashkil etadi, syujet chizig‘idagi dinamik harakatning konflikt(ziddiyatlar) yechimini ta’minlaydi. Uydirmalarning turli xil namunalari ta’limiy estetik funksiyani bajaradi, janr komponenti sifatida o‘ziga xos badiiy tasvir vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Uydirmalar voqea va hodisalarni hayotda bo‘lishi mumkin bo‘lmagan yoki mavjud bo‘lgan hodisalar tarzida tasvirlaydi. Xayoliy va hayotiy uydirmalarning ishtiroki, syujet chizig‘ida tutgan o‘rni va vazifasiga ko‘ra ertakni 2 guruhga — **xayoliy** va **hayotiy** uydirmalarga asoslangan ertaklarga bo‘lish mumkin. Xayoliy uydirmalar

asosidagi ertaklar syujeti mo'jizali, sehrli; hayotiy uydirmalarga asoslangan ertaklar syujeti esa hayotiy tarzda bo'lib, unda real voqea-hodisalar tasvirlanadi. Ertakda, asosan, uch maqsadda hikoya qilinadi. Birinchisida ideal qahramonning jasorati, yovuz kuchlarga qarshi chiqib, xalq manfaatini himoya qilishi, ikkinchisida, asosan, bosh qahramonning o'zga yurt malikalariga yoki parizodlariga oshiq bo'lib uylanishi, kasalga dori topishi, ajdar va devlar olib qochgan kishilarni ozod qilishi, uchinchisida esa adolatsizlikka, zulmga qarshi chiqishi kabi maqsadlar qilinadi. Birinchi maqsad pahlavonning faol harakati va g'ayritabiiy kuch-qudrati bilan amalga ohsa, ikkinchi maqsad passiv qahramonga yordam beruvchi tilsim vositalari yordamida, uchinchi maqsad esa bosh qahramonning aql idroki, tadbirkorligi bilan amalga oshadi.

Ertak janri obrazlar talqini, g'oyaviy mazmuni va konflikti, syujet va kompozitsiyasi, uydirmalarning o'rnini va vazifasi, tili va uslubiga ko'ra, shartli ravishda hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, maishiy ertaklar, hajviy ertak larga bo'linadi.

Hayvonlar haqidagi ertaklarning bir turi majoziy ertaklardir. Majoziy ertak larning ("Susambil", "Bo'ri bilan tulki", "Tulkining taqsimoti", "Ikki boyqush" va boshqalar) syujeti asosida ko'chma ma'no, allegorik obrazlar yotadi. Masalan: laqmalik va qonxo'rlik bo'ri orqali, ayorlik va tilyog'lamachilik tulki orqali ifodalangan.

Sehrli ertaklarda voqealar sehr-jodu, fantastik uydirmalar asosiga qurilgan bo'ladi. Bularda pahlavonlik va qahramonlik madh etiladi ("Yalmog'iz", "Semurg'", "Devbachcha", "Kenja botir" va boshqalar). "Quloqboy", "Handalak polvon", "Uch yolg'onda qirq yolg'on» va boshqalar Ertaklar komik, ba'zilar hatto hajviy xarakterga ega. Masalan: "Uch yolg'onda qirq yolg'on"da bosh qahramon xalq orasida shuhrat topgan kal bo'lib, bu komik qahramonning "yolg'on to'qishi"dan zulm va jaholat, adolatsizlik kabi mavjud tuzumga xos illatlar qoralanadi, kishilardagi donishmandlik, tadbirkorlik kabi fazilatlar ulug'lanadi.

Maishiy ertaklarda ko'proq zulm va adolatsizlik qoralanadi ("Uch og'aini botirlar", "Oygul bilan Baxtiyor", "Tohir va Zuhra", "Farhod va Shirin", "Zolim podsho" va boshqalar). Masalan: "Uch og'a-ini botirlar" ertagi, odatdagidek, ota nasihati bilan boshlanadi. Bunda ota kambag'al,

lekin, hayot tajribalariga boy bo‘lgan shaxs, boshqa variantlarida esa shoh bo‘lib, o‘g‘illari shahzodalardir. Botirlar obrazida axloq va odobning yuksak namunasi, odamiylik, donishmandlik, jasurlik kabi sifatlar ko‘rinsa, shahzodalar qiyofasida mol-mulk to‘plash yo‘lida har qanday yomon niyatlardan qaytmaydigan yolg‘onchi, johil kishilar obrazi gavdalangan. Ertaklar, asosan, didaktik vazifani bajaradi.

HIKOYA— badiiy adabiyotda kichik epik janr, hayot hodisalari ixcham ifoda etiladigan nasriy asar. Jahon adabiyotida hikoya qadim an‘analarga ega. O‘tmishda hikoya folklor asarlari tarkibida bayon unsuri bo‘lib ishtirok etgan. Mustaqil janr sifatida faqat yozma adabiyotda shakllangan. Yevropa adabiyotida hikoya **novella** deb ham ataladi. “Hikoya” atamasi kengroq ma’noda biror voqeani gapirib berishni ham anglatadi. Hikoya mazmuniga ko‘ra lirik, psixologik, falsafiy, ilmiy-fantastik, satirik, yumoristik yo‘nalishlarda bo‘lishi mumkin.

MASAL - majoziy xarakterdagi qisqa hikoyacha bo‘lib, nasriy yoki she‘riy shaklda yoziladi. Uning asosiy qahramonlari turli hayvonlar, narsa-buyumlardan iboratdir. Bular uzviy-majoziy ma’noda qo‘llanilib, insonlar fe‘l-atvoridagi turli xususiyatlarga ishora sifatida keltiriladi. Masalning asosiy jihati shuki, u to‘liq ma’noda tarbiyaviy maqsadga yo‘naltiriladi. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan Ezop masallari bunga yorqin misoldir. Agar Ezop birinchi masalchi hisoblansa, undan so‘ng eramizning birinchi va ikkinchi asrlarida yashab o‘tgan grek masalchilari Fedr, Babriy tom ma’noda uning davomchilari hisoblanadi. Hatto Fedrning masalchilik rivojidadagi asosiy xizmati shunda ediki, u Ezop masallarini she‘riy yo‘l bilan lotin tiliga tarjima qiladi. Ana shu tarjimalarga suyanib va ilhomlanib XVII asrda Fransiyada Lafonten, XVIII asrda Germaniyada Lessing, Gellert va XVIII - XIX asrlarda Rossiyada I. A. Krilov masal janrida barakali ijod qildilar.

SHE’R-(arabcha: *shuur* — sezgi) — fikrning his-tuyg‘uga qorishiq ifodasi sifatida vujudga kelgan, hayajonli she‘riy nutq bilan ifoda etilgan, ma’lum ichki ohangga ega badiiy asar. “She’r” atamasi o‘rniga ba’zan “nazm” so‘zi ham qo‘llanadi. U badiiy adabiyotning qadimiy turi bo‘lib, insoniyat eng birinchi badiiy asarlarni shahrida yaratgan. Rivoyat qilishlaricha, birinchi shahrini bevaqt o‘ldirilgan o‘g‘li Hobilning dardida

kuygan Odam alayhissalom yaratgan ekan. Shuning uchun ham unda, deyarli hamisha, muallifning oniy kayfiyati, lahzalik porloq kechinmalari ustuvorlik qiladi. She’rda tuyg‘ular po‘rtanasi qudratli, sezimlar miqyosi keng va ta’sirchanlik, yuqumlilik darajasi yuqori bo‘lishi muhimdir. She’rning uzoq yashashini ta’minlaydigan asosiy omillar: tuyg‘ular samimiyati va ifoda tabiiyligidir.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida “She’r” atamasi ma’nosini erkinroq tushunish, oldingi shakliy qoliplarni o‘zgartirgan holda yangi poetik kashfiyotlar qilishga intilish tamoyili kuchli. Shuning uchun ham o‘zbek nazmida “oq she’r”, “sochma she’r”, “nasriy she’r”, “tasbih”, “uchchanoq” singari she’r shakllari paydo bo‘lmoqda. She’rning eng kichik ko‘rinishi mumtoz adabiyotda 1 baytdangina iborat bo‘lsa (fard), o‘zbek folklorida 4 qatorni tashkil etadi (to‘rtlik). Bir misradan iborat she’r yaratishga ham urinishlar bo‘lgan (rus she’riyatida “monostix” — bir she’r deb nomlangan).

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida she’rlar asosan, kuylash uchun yaratilganligi uchun “qo‘shiq” deb atalgan. Og‘zaki she’r qat’iy shakliy-mundarijaviy qoliplarga tushmaydi va yo‘nalishiga ko‘ra mavsum, marosim, sevgi qo‘shiqlari kabi turlarga ajratiladi. Mumtoz she’rlar qofiyalanish va banddagi misralarning miqdoriga ko‘ra maxsus janrlarga bo‘lingan. Agar she’r bandi 2 misradan iborat bo‘lsa — masnaviy, 3 misradan iborat bo‘lsa — musallas, har bir band 4 misradan tashkil topsa — murabba’, 5 qatorli bandlardan tashkil etilsa — muxammas, bandlari 6 satrdan tashkil topsa — musaddas, 7 misrali bandlardan iborat bo‘lsa — musabba’, 8 misrali bandlardan tashkil topsa — musamman, 9 qatorli bandlardan iborati — tasne’ (mustasne’), 10 qatorli bandlardan iborat poetik asarlar muashshar (mashru’) deyilgan.

Bolalar qo‘shiqlari, raqslari va sahna ko‘rinishlari.

QO‘SHIQ – kuyga solib aytiladigan kichik lirik sher.

Qo‘shiqlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Lirik qo‘shiqlar. Bunday qo‘shiqlarda insonlarning ruhiy olami, ishqiy kechinmalari aks etadi, to‘rt misralik bandlardan tashkil topadi, ular kasb, payt, o‘rin tanlamaydi: ularni istalgan vaqtda istalgan kishi xohishiga ko‘ra baland ovoz bilan yoki xirgoyi qilib aytaveradi.

2. Mehnat qo‘shiqlari:

a) Dehqonchilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar: qo‘sh qo‘shiqlar, o‘rim qo‘shiqlari, yanchiq qo‘shiqlari (“Xo‘p mayda”lar), yorg‘ichoq qo‘shiqlar.

b) Chorvachilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar: sog‘im qo‘shiqlari: xo‘sh-xo‘sh govmishim, turey-turey, churiyalar.

c) Hunarmandchilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar: charx qo‘shiqlari, bo‘zchi qo‘shiqlari, o‘rmak qo‘shiqlari (o‘zbek ayollarining gilam to‘qish bilan bog‘liq mehnat qo‘shiqlari), kashta qo‘shiqlari.

3. Mavsumiy – marosim qo‘shiqlari:

a) Yil fasllari tasvirlangan qo‘shiqlar mavsum qo‘shiqlari deyiladi. Qadimgi qo‘shiqlarning namunalari Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit - turk” asari orqali yetib kelgan. Bizgacha yetib kelgan mavsumiy – marosim qo‘shiqlari quyidagilar:

Sust xotin (yomg‘ir chaqirish qo‘shig‘i). Sust xotin qadimgi zardushtiylik dinida muqaddas sanalgan Tishtiriyaning xalq o‘rtasida nomi o‘zgarib ketgan obrazidan iborat. Bunda bahor oylarida yomg‘ir yetarli yog‘masa, qishloq ayollari yig‘ilib, poliz qo‘riqchisiga o‘xshash qo‘g‘irchoqqa keksa ayol ko‘ylagini kiydirib, qishloqdagi barcha xonadonlarga kirishib, Sust xotin qo‘shig‘ini aytib yurganlar. Xonadon egalari ularni shodlik bilan qarshi olib, qo‘g‘irchoq ustidan suv sepishib, marosim ishtirokchilariga xayr-sadaqa qilishgan. Marosim tugagach yig‘ilgan xayr-sadaqa hisobiga Sust xotinga atab katta is chiqarishgan.

b) Choy momo (shamol to‘xtatish). Bunday qo‘shiqlarda iltijo qilinadigan Choy momo tarixan Chuy momo, ya’ni Shamol momo obrazidan iborat bo‘lib, u zardushtiylikning shamol tangrisi hisoblangan. Bu marosim quyidagicha o‘tkazilgan: ikki kampir eski kiyim va chopon kiyib, yuzlariga qora kuya surtishib, qo‘llariga aso ushlab oldinda Choy momo qo‘shig‘ini aytib yurishgan. Bo‘y yetib qolgan beshta qiz boshlariga sholcha yopib, kampirlar ortidan ergashib, qo‘shiqqa jo‘r bo‘lib yurishgan. 7-8 yoshlardagi bir yoki bir necha o‘g‘il bolalar xurjun osilgan eshaklarga minishib, xonadonlardan xayr-sadaqalarni yig‘ib yurishgan. Eshakka o‘qlog‘, yumshoq supurgi va keli sopi sudratib qo‘yilgan. Marosim tugagach, yig‘ilgan xayr-sadaqa hisobiga shamol

tangrisi sharafiga is chiqarilgan .Choy momo marosimlari hozir Qozog‘istonning Turkiston, Sayram atroflarida yashovchi o‘zbeklar orasida saqlanib qolgan.

RAQS - san‘at turi bo‘lib, musiqaga monand ritmik tana harakatlarida namoyon bo‘ladi. Raqs turli madaniyatlarda mavjud va hissiyotlar, ijtimoiy aloqalarni bildirish shakli sifatida yoki ko‘ngilxushlik uchun ijro etiladi.

Raqs faqat odamlar tomonidagina emas, balki boshqa jonivorlar (masalan, hayvonlar asalarilar, qushlar) tomonidan ham bajariladi. Jonsiz jismlar ham raqsga tushishi mumkin — metaforik: “barglar shamolda raqs tushishmoqda” yoki haqiqatan: robotlar raqsi. Gimnastika, sinxron suzish va ba’zi jang san’atlarini ham raqsga qiyoslash mumkin.

Raqs aynan nima ekanligi ijtimoiy, madaniy, estetik, artistik va ma’naviy cheklovlarga bog‘liq va funksional harakatdan (xalq raqslari) tortib virtuoz texnikagacha (balet) bo‘ladi. Raqs ommaviy (to‘y-bazmlarda), ijtimoiy (vals), ijroiyy (sahnada), tantanali (hind raqslari), musobaqa (badiiy gimnastika) va erotik (striptiz) turlarga ajratiladi. Raqs harakatlari orqali fikrlar va hissiyotlarni yetkazish, hikoyanavislik qilish mumkin. Raqs evolutsiyasi natijasida turfa uslublar kelib chiqdi. Masalan, nisbatan yaqinda paydo bo‘lgan “breakdance hip hop” madaniyatiga oiddir; afrikacha raqs esa izohlanishlidir; balet va vals klassik raqs bo‘lsa, step zamonaviydir. Katta tezlikli raqslarga tushayotganda tajriba va ehtiyotkorlik talab etiladi, yo‘qsa (pay tortishishi va hk) jarohatlanish mumkin. Raqs ijrosi san’ati xoreografiya deyiladi. Raqs yaratuvchi shaxs esa *xoreograf* deb ataladi.

Raqqos(a)ning garmonik tana harakati va holatlari, plastik ifodaviyligi va yuz imo-ishoralari, ritm, temp, kompozitsiya orqali obraz yaratish raqsning asosiy vositasidir. Insonning mehnat jarayoni va borlikdan olgan emotsional taassurotlari bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan. Dastlab qo‘shiq va so‘z bilan bog‘liq bo‘lib, keyinchalik mustaqil san’at turiga aylangan. Raqs asrlar davomida takomillashib, barqaror shakllarga ega bo‘la borgan. Ijrochining libosi raqs obrazlariga aniqlik beradi. Raqs musiqa bilan uzviy bog‘liq, musiqa mazmunini obrazlar vositasida ochib beradi. Xalq raqslarida ritm muhim bo‘lib, u musiqada

o‘z ifodasini topadi, oyoq, qo‘l, bosh va tana harakatlari umumiy ritmga bo‘ysunadi, bir-biri bilan bog‘lanadi. O‘zbek raqslari mazmunini ifodalashda ijrochilar tepki, qarsak, zangdan ham foydalanadi. Ayrim raqslar ro‘mol, piyola, qadah kabi buyum bilan ijro etiladi, ba‘zan ijrochi xalq cholg‘u asboblari (qayroq, doira, nog‘ora va h.k.)da o‘ziga o‘zi jo‘r bo‘ladi. G‘arbiy Yevropa xalqlari raqsida, asosan oyoq harakatlari muhim bo‘lib, qo‘l va tana harakatlari unga jo‘r bo‘ladi. Sharqda esa qo‘l va tana harakatlari plastik ifodaviylikning asosiy vositalaridir. Sahnaviy raqs xalq ijodiga tayanadi, uning merosi va o‘ziga xos fazilatlarini saqlaydi va rivojlantiradi. U dastlab Yunoniston, Hindiston va boshqa mamlakatlarda paydo bo‘lgan. Xalq raqslari asosida tarkib topgan professional raqslar yuksak darajada rivojlanib, turli raqs tizimlari (xususan, Yevropa va sharq mumtoz raqslari) qaror topgan.

Musulmonlik davrida ham O‘zbekiston sarhadlarida turli taraqqiyot bosqichlarida paydo bo‘lgan. Raqslar, o‘yinlar bir-biriga ta‘sir ko‘rsatib, yonmayon yashab kelgan. Shu bois shahar va qishloqlarda o‘tkazilgan to‘y, bayram va ma‘rakalardagi “Beshqarsak” kabi qad. o‘yinlar ham, “Katta o‘yin”, “Lazgi”, “Kema o‘yin”, “Ashshadaroz” singari katta umumlashmaga, ramziy timsollarga ega. Raqslarni ham, jangovar o‘yinlarni ham uchratish mumkin bo‘lgan. 9—12-asrlardagi Uyg‘onish davrida raqs san‘atida ham chinakam ko‘tarilish yuz bergan, ko‘pgina qadimiy raqslar tiklanib, Navro‘z, Mehrjon va Sada bayramlarida namoyish qilingan. Abul Fayz Bayhakiyning yozishicha, o‘sha davrda birgina Termiz shahrining o‘zida yuzlab san‘atkorlar bo‘lib, Amir Ma‘sudni kutib olish uchun Termizdan 300 dan ziyod san‘atkor Amudaryo bo‘yiga kelgan ekan. Buxoro, Gurganj, Kesh va boshqa shaharlarda ham raqsga e‘tibor baland bo‘lgan. Xorazmda Abul Abbos Ma‘mun hukmronligi davrida (1003-1017) raqs san‘ati yaxshi rivojlangan.

Raqs san‘ati, ayniqsa, Amir Temur va temuriylar saltanatida ravnaq topgan. Unda xotin-qizlarning o‘rni katta bo‘lgan. Rang-baranglik, tarixiy qatlamlar raqsda yaqqol ko‘zga tashlangan. Olov atrofidagi o‘yinlar, Anaxita va Rustam timsollariga bag‘ishlangan o‘yinlar, maqom raqslari, “Arg‘ushtak” kabi raqslar shu jumladandir. “Munojot”, “Tanavor”,

“Lazgi” raqslari ham aynan shu davrda malakali ijrochilar dasturidan mustahkam o‘rin olgan. 15-asrning 2-yarmi va 16-asr boshida Sayyid badr, Tohir chakka, Mohchuchuk, Maqsudali, Katta Moh, Kichik Moh laqabli raqs ustalari shuhrat qozondi. Bu davrda raqs san’ati xalq raqsi va malakali raqs yo‘nalishida rivojlandi.

Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklari vujudga kelgach, raqs san’atida ham o‘ziga xos uslublar maydonga keldi. Bu davrda jaholat, mutaassiblik kuchaygani sababli raqs san’atida o‘smir bolalar va yigitlar yetakchilik qilgan. Ayollar raqsi esa sozanda (Buxoro amirligi), xalfa (Xiva xonligi) va yallachi (Farg‘ona vodiysida) deb yuritilgan ayol san’atkorlardan iborat ixcham to‘dalarning teatrlashgan dasturlarida rivojlanib, ichkarilarda uyushtiriladigan ziyofat va bazmlarda ko‘rsatib kelingan. Erkaklarning yig‘inlarida raqqosalar xufiyona qatnashganlar.

20-asrda raqs san’ati Buxoro raqsi, Xorazm raqsi, Farg‘ona raqsi yo‘nalishida; zamonaviy sahna talablari asosida qayta ishlangan sahnaviy xalq raqsi sifatida: milliy raqs unsurlaridan foydalangan balet spektakllari tarzida rivojlanib keldi. Mazkur yo‘nalishlarning har biri asr davomida bir necha tarixiy bosqichni bosib o‘tib, o‘z shaklishamoyili, mazmuniga ega bo‘ldi. Bir qator davlat va xalq raqs jamoalari jahonga tanildi. Bunda Hamdamxon, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg‘unboyeva, Gavhar Rahimova, Roziya Karimova, Qunduz Mirkarimova, Karim Rahimov, Qodir Mo‘minov, Ma‘mura Ergasheva, Yulduz Ismashova, Shokir Ahmedov, Gavhar Matyoqubova, Rushana Sultonova, Dilafro‘z Jabborova, Qizlarxon Do‘stmuhammedova, Malika Ahmedova kabi raqs ustalarining xizmati katta.

SAHNA KO‘RINISHLARI- sahnada tomoshalarning ko‘rinishlari turlicha bayram tadbiri, viktorinalar, tanlovlar, raqslar, intermedialar, latifa-aytishuvlar, qo‘g‘irchoqlar teatri kabi ko‘rinishlarda tashkil etiladi. Maktabgacha ta’limda bayramlar tadbirlari, buyuk siymolar hayoti va ijodini o‘rganish, sport musobaqalari ko‘rinishida tashkil etiladi. Bo‘lajak tarbiyachilar birinchi navbatda sahna tushunchasini bilishi va uning talabalariga amal qilgan holda bolalarni boshqarsa-rejissiyorlik qilsa, ko‘zlangan maqsadga erisha oladi.

Bolalar qo‘l mehnati orqali ijodkorlikni rivojlantirish

Sahnalashtirish jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar qo‘l mehnatidan foydalanish - umumiy mehnat qobiliyatini rivojlantirish, psixologik tayyorgarlikni shakllantirish, mehnatga nisbatan mas’uliyatli munosabatni va uning mahsulotlarini(sahna uchun kerakli jihozlarni) ishlab chiqish, shuningdek, bolaning aqliy va jismoniy rivojlanishiga ta’sir etishi bilan birga ijodkorlikka undaydi. Mehnat ta’limi muammolari maktabgacha yoshdagi bolalar uchun juda dolzarbdir, chunki bu bosqichda bola shaxsiy fazilatlarni, ish qobiliyatini va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni qo‘l mehnatiga o‘rgatishning vazifalari:

- kattalar ishini hurmat qilish va yordam berish istagi;
- ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon etishiga imkon yaratiladi;
- mehnat qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni takomillashtirish va ishlarning mazmunini bosqichma-bosqich oshirish;
- bolalar uchun ijobiy shaxsiy fazilatlarni shakllantirish, masalan, mehnat qilish, g‘amxo‘rlik, mas’uliyat, tejash;
- ishni tashkil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- bolalar o‘rtasida ish jarayonida ijobiy aloqalarni rivojlantirish - jamoada ishlash qobiliyati, zarurat tug‘ilganda yordam berish, tengdoshlarning ishini ijobiy baholash va hurmatli sharhlar berish.

Qo‘l mehnat ijodkorligi vazifalari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida va oilada rivojlantirilishi mumkin. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari bolaning umumiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ta’kidlash kerakki, bolalar bog‘chasida bolalarning tarbiyalanishi muayyan dasturga muvofiq amalga oshiriladi. O‘z tengdoshlar jamiyatida uning mehnat qobiliyatlari va natijalarini uning o‘rtoqlari mehnatini o‘rganish bilan solishtirish osonroqdir. Shuningdek, bolaning shaxsiyatini shakllantirishda oilaviy ta’limga ustuvor ahamiyat beriladi. Oiladagi mehnat ta’limi asosiy prinsipi shundan iboratki, ish yuki bolaning yoshi va shaxsiy xususiyatlariga mos kelishi kerak. Barcha oila a’zolari uchun har doim uy sharoitida namuna bo‘lish muhimdir. Bolalar kattalarga taqlid qilishni va

uyda “haqiqiy” ishlarga ishonib topshirilgan taqdirda katta g‘ururni his qilishni yoqtirishadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni qo‘l mehnati orqali ijodkorlikka o‘rgatishning asosiy maqsadi bolaning shaxsiyatini shakllantirish, shuningdek, mehnatga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish, sahna ishlarini tashkillashtirish ishlarini har bir jarayonini boshdan kechirgan holda qiziqish bildirishi va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishdir. Sahna faoliyatida qo‘l mehnati maktabgacha yoshdagi bolalarning ongida, kuzatuvda, diqqatda, xotirasida rivojlanish paydo qiladi, shuningdek, uning jismoniy kuchi va sog‘lig‘ini mustahkamlaydi.

Sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlik ertak, hikoya, masal, she‘r, qo‘shiq, raqs, sahna ko‘rinish va sahna uchun jihozlarni tayyorlash orqali rivojlanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘g‘irchoqlar teatrini tashkil etish va qo‘g‘irchoq yasash usullari

Dikir-dikir o‘yinchoqlar. Dikir-dikir o‘yinchoqlarni yasash uchun kichik kartonga odam va hayvonlar tasvirini chizish kerak, ularning oyoqlari esa chizilmaydi. Chizilgan tasvirni qirqib olamiz. Shakllarni kaftimizning orqa tomoniga rezina bilan mustahkamlab, ko‘rsatgich yoki o‘rta barmoqqa atir shisha qopqog‘ini kiyib, rezina bilan mustahkamlab, stolda shakllarni yurgazamiz. Ularni choptirish, o‘yinga tushirish mumkin. Katta, tayyorlov guruh bolalari bunday o‘yinchoqlarni mustaqil yasay olishadi.

Qo‘lqop qo‘g‘irchoqlar(barmoqsiz qo‘lqop). Eski qo‘lqopcha, qo‘lqop qo‘g‘irchoqlarni yasash uchun ashyo bo‘la oladi. Bunday o‘yinchoqlarni ham bolalarning o‘zlari yasashlari mumkin. Qo‘lqop qo‘g‘irchoqning bosh qismi, katta barmoq esa, burun bo‘lib xizmat qiladi. Qo‘lqopni to‘liq hayvonga aylantirib olish ham mumkin, bunda katta barmoq dum vazifasini o‘taydi. Qo‘lqop qo‘g‘irchoq tanasi bo‘lishi, unga bosh va boshqa detallarni birlashtirish ham mumkin. Qo‘lqop topilmasa, unda to‘qilgan eski buyum yoki matodan foydalanamiz. Bunda bichishda barmoq o‘rnini bichish shart emas, turli detallar unga tikib qo‘yiladi.

Qo‘lqop qo‘g‘irchoqlar(barmoqli qo‘lqop). Qahramonlarni eski qo‘lqoplardan tayyorlasa bo‘ladi. Agar eski qo‘lqop topilmasa, uni tikish mumkin. Bolalarga tavsiya etiladigan qo‘lqopning andozasi (besh barmoqlimas, to‘rt barmoqli) bo‘lishi mumkin. Detallarni bolalar bichib, xalqa choki bilan tikadilar. Bosh qismini chizib yoki tikib, belgilangan joyga birlashtirib qo‘yish mumkin. Qo‘g‘irchoqning asl nusxasini eski qo‘lqopdan tiksa bo‘ladi. Ortiqcha detalni punktir chizig‘i bilan belgilab, olib tashlanadi va xohlagan ertak qahramonlariga ega bo‘lish mumkin. Qo‘lqopga paypoqdan ozgina ulab qo‘yilsa, qo‘lga kiyib, tugmachadan ko‘zlarini qilib qo‘yilsa, qo‘l barmoq harakati bilan gapirayotgan harakat holatini ko‘rsatish mumkin. Bolalar bunday qahramonlarni o‘zlari yasay oladilar, ayniqsa ikki eski qo‘lqopdan yasalgan o‘yinchoq: kuchukcha, mushukcha, quyoncha, bo‘ri, tulkichalarni tayyorlash qiyin emas. Qo‘lqopning ko‘rsatgich va katta barmog‘i dum bo‘ladi, uning ortiqcha qismlari tikib tashlanadi. Qahramonlarning ayrim detallarini jihozlashda tugmachalar, dur donachalarini ishlatish mumkin. Bunday o‘yinchoqlardan bolalar sahnalashtirish faoliyatida foydalanadilar.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida qo‘g‘irchoqlar teatrini turli ko‘rinishlarni tashkil etish zarur. Chunki, bolalar obrazlar orqali fikrlaydilar.


Qo‘g‘irchoq teatri maktabgacha yoshdagi bolalarning eng sevimli mashg‘ulotlaridan biri hisoblanadi. Har bir maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar qiziqib tomosha qiladigan sahna asarlari ularga olam-olam quvonch, estetik zavq, xursandchilik bag‘ishlaydi. Shu bois, qo‘g‘irchoq teatri orqali bolalarga ta‘lim-tarbiya berishning samarali yo‘lga qo‘yilishi zarurati tug‘iladi.

Xo‘sh, bu yoshdagi bolalar nimalarga qiziqadi? Nimalarni bajarish qo‘lidan keladi? 3 yoshdan 6-7 yoshgacha bo‘lgan bolalar ertak eshitishga, eshitgan asarlarini qayta hikoya qilishga yoki qayta hikoya qildirishga, asarni va asar qahramonlarini tahlil qilishga qiziqadi. Agar asarlar rasmlar asosida aytib berilsa, bolalar ongida yanada chuqurroq iz qoldiradi, ya‘ni yaxshi xotirlaydi. Sahna asarlari bolalarda fikrlash, anglash, idrok etish, tafakkur qilish kabi tushunchalarni tarkib toptiradi, rivojlantiradi. Asar va uning qahramonlari tarbiyachi va ota-onalar, bobo-

buvilar tomonidan to‘g‘ri izohlangan bo‘lsa, bolalar ham eshitgan, tomosha qilgan asarlarini to‘g‘ri tafakkur qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ayrim yengil yasash ishlarini, rol ijro etishni, sahnalashtirishni va asarni muhokama qilishni bilishadi. Faqat bularni o‘rgatgandan keyin, albatta.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida qo‘g‘irchoq teatrni tashkil etish kelajak avlodni to‘g‘ri tarbiyalashning muhim omilidir. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida qo‘g‘irchoq teatri tarbiyachilar, tarbiyalanuvchilar va oliy ta‘limning maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi talabalari tomonidan tayyorlanishi va tashkil etilishi mumkin. Darhaqiqat, bunda qo‘g‘irchoq teatrining tashkilotchilari: tarbiyachilar, talabalar, tarbiyalanuvchilardir. Ular sahna uchun asarlar tanlab, uni sahnalashtirishni “oliy maqsad” va shu maqsadni amalga oshirish uchun birgalikda ijodiy harakat qilishadi. Qo‘g‘irchoq teatrini tashkil etish “Yo‘l xarita”-rejali dastur, ijodiy jamoa, qo‘g‘irchoq teatri mazmuni- bolalar adabiyoti, moddiy ta‘minot va jihozlardan iborat bo‘ladi.



Qo‘g‘irchoq teatri tashkil etishda yagona rahbar bo‘lishi zarur. U tashkilotchi, rahbar, prodyuser, rejissor, aktyor, sahna ustasi va yana bir qancha ishlarni amalga oshirishi talab etiladi. Qo‘g‘irchoq teatri uchun repertuar tanlashda yosh tomoshabinlar mos adabiy asar tanlanadi.

Sahna asari tanlanib, sahnalashtirish uslublari aniq bo‘lgandan so‘ng sahnalashtirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

- sahna asari o‘qib beriladi, qayta o‘qib beriladi;
- obrazlarga-rollarga mos bolalar tanlanadi;

- rollar taqsimlanadi, soʻzlar yod oldiriladi;
- repetitsiya-mashq tayyorgarlik qilinadi;
- sahna dekaratsiyasini va personajlar liboslari tayyorlanadi;
- asar sahnaga chiqishidan bir kun oldin sahnada liboslar bilan oxirgi repetitsiya qilinadi;
- sahna asari namoyish etiladi;
- sahna asari tahlili qilinadi:

Maktabgacha yoshdagi bolalarga sahna asarini taqsimlayotganda ularning oʻz tashabbuslari asosida taqsimlansa, tayyorlanayotgan sahna asari yaxshi chiqadi. Bundan tashqari tarbiyachi rollarni taqsimlashda kastingni yaxshi tashkillashtirishi va obrazga, rolga mos tushadigan bolani tanlash sahna asarini zoʻr chiqishini taʼminlaydigan omillardan biri hisoblanadi. Sahnada namoyish etilgan adabiy asarni bolalar bilan tahlil qilish eng asosiy, muhim joyi hisoblanadi. Har bir qoʻgʻirchoq teatri qanday usulda namoyish etilmasin, albatta, asarni va asar qahramonlarini tahlil qilish kerak. Tahlil qilinmas ekan, koʻzlangan maqsadga singdirmoqchi boʻlgan tushunchalar(taʼlim-tarbiya)ga erishib boʻlmaydi. Shu oʻrinda rus yozuvchisi Lev Tolstoyning “Bilim yodlash bilan emas, fikrlash bilan orttirilgandagina haqiqiy bilimdir”.-deb aytgan soʻzlarini keltirish oʻrinlidir. Darhaqiqat, bolalar gavdalantirgan obrazlarini va asar nima demoqchiligini taʼriflab bera olsa, sahna asarini qoʻyishdagi “oliy maqsad”ga erishilgan boʻladi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Ijodkorlik haqida maʼlumot bering.
2. Ertak, hikoya, masal va sheʼr tushunchasi haqida nimalarni bilasiz?.
3. Bolalar qoʻshiqlari, raqslari va sahna koʻrinishlarini qanday tanlash zarur?
4. Bolalar qoʻl mehnati orqali ijodkorlikni qanday rivojlantirish mumkin?

Mavzu yuzasidan test topshirig'i:

1. ... — *xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to'qima va uydirmaga asoslangan sehrlil, sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar.*

Ushbu ta'rif qaysi badiiy janrga berilgan ta'rif?

- a. ertak
- b. hikoya
- c. masal
- d. she'r

2. **O'tmishda Surxondaryo, Samarqand, Farg'onaliklar ertakni nima deb atashgan?**

- a. matal
- b. masal
- c. cho'pchak
- d. varsaqi

3. **Ertak Buxoro atrofidagi tuman va qishloqlarda nima deb atalgan?**

- a. ushuk
- b. varsaqi
- c. matal
- d. cho'pchak

4. **Xorazmda ertak qanday atalgan?**

- a. varsaqi
- b. ushuk
- c. matal
- d. cho'pchak

5. **Ertakni Toshkent shahri va uning atrofidagi aholi nima deb atashgan?**

- a. cho'pchak
- b. varsaqi
- c. ushuk
- d. matal

6. **Ertaklar ikki guruhga bo'linadi. Ular qaysilar?**

- a. xayoliy va hayotiy uydirmalarga asoslangan
- b. sarguzasht va hayvonlar haqidagi ertaklarga
- c. qahramonlik va tilsimli ertaklar
- d. sehrlil va sarguzasht ertaklar

7. **Yevropa adabiyotida hikoya nima deb ham ataladi?**

- a. novella

- b. drama
- c. peysa
- d. lirika

8. ...-badiiy adabiyotda kichik epik janr, hayot hodisalari ixcham ifoda etiladigan nasriy asar.

Nuqtalar o‘rniga qaysi tushuncha mos keladi?.

- a. hikoya
- b. ertak
- c. qisqa she’r
- d. drama

9. ... - *majoziy xarakterdagi qisqa hikoyacha bo‘lib, nasriy yoki she’riy shaklda yoziladi. Uning asosiy qahramonlari turli hayvonlar, narsa-buyumlar va insonlardan iborat bo‘lishi mumkin.*

Ushbu ta’rif qaysi badiiy asarga berilgan?

- a. masal
- b. matal
- c. ertak
- d. doston

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Сотимбой Турсунбоев “Театр тарихи” номли ўқув қўлланма 2005 Т:.

2. Ф.Ахмедов “Оммавий байрамлар режиссураси асослари” дарслиги 2008 Т:.

3. Sh.M.O‘tamurodova “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘g‘irchoq teatrini tashkil yetish” Farg‘ona davlat universiteti “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limning dolzarb masalalari: muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani 2020 yil, 1-qism, 345-347-betlar.

MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTIDA QO‘G‘IRCHOQ TEATRLARI TURLARI VA JIHOZLARINI YASASH

Reja:

1. Stol teatrlari.
2. Qo‘l teatrlari.
3. Devoriy teatrlar.
4. Jonli qo‘g‘irchoqlar teatri.
5. Qo‘g‘irchoq teatri qo‘g‘irchoq va jihozlarini yasashni o‘rganish.

Tayanch tushunchalar: Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘g‘irchoq teatrining turlari va qo‘llanilishi haqida

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida to‘rt turdagi qo‘g‘irchoq teatri namoyish etiladi.

1. Stol teatrlari.

Stol teatrda tomoshaning barcha personajlari va dekaratsiyalari stol ustiga joylashtiriladi. Stol teatri o‘yinchoqlari va dekaratsiya jihozlari nima materialdan yasalganligiga ko‘ra turlarga ajratiladi.

Yumshoq o‘yinchoqlar orqali stol teatri tashkil etish eng qulay hisoblanadi. Yumshoq o‘yinchoqlar bunda korxonalar tomonidan tayyorlangan, bozorlar, do‘konlarda sotiladigan o‘yinchoqlar yordamida tashkil etilishi tushuniladi. Bu o‘yinchoqlarni do‘konlardan xarid qilish yoki tikib tayyorlab olish mumkin.



Tabiiy materiallar: qarag‘ay g‘uddalaridan, yog‘ochdan, paxtadan, chig‘anoqlardan urug‘-mevalardan va shu kabi tabiatda bor bo‘lgan materiyadan foydalanib qo‘g‘irchoqlar yasaladi. Bundan tashqari kerakli jihozlarni ham yasash mumkin. Yasalgan o‘yinchoqlar orqali qo‘g‘irchoq teatri tomoshalari ishlanadi.



Uy-ro‘zgor buyumlaridan: turli qoshiqlar, tayoqchalar, choynak-piyolalar, kir qistirgichlar, stakanlar, likopchalar, bankalar, bakallar, bir martalik ishlatiladigan idishlardan qo‘g‘irchoq teatri persojanlarini yasab foydalaniladi.



Yassi shakldagi o‘yinchoqlar: plastilin, loydan, xamirdan yassi(pachiq) shaklda tayyorlanadi. Bundan tashqari karton qog‘oz, yupqa yog‘och fanerlardan yasaladi. Bu o‘yinchoqlar stolda tik turishi uchun pastiga moslama-taglik tayyorlanadi.



Geometrik figuralar: konus, silindr shaklida tayyorlangan o‘yinchoqlar yordamida stol teatrini tashkil etish juda qulay. Stol teatri maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida eng ko‘p foydalaniladi va o‘yinchoqlarni yasash osonligi bilan ham ajralib turadi.



Origami: Origami(qog‘ozni buklab yasash) usulida yasalgan o‘yinchoqlar hisoblanadi. Origami yaponcha so‘z bo‘lib, bu qog‘ozni buklab yasash san‘ati hisoblanadi. Bu san‘at Yaponiyada paydo bo‘lgan. Origaming oddiy va murakkab yasash usullaridan foydalanib o‘yinchoqlar va sahna dekaratsiyalarini tayyorlab olib, stolda bolalar uchun tomoshalar tashkil etish, ularni quvontiradi, zavqlantiradi, o‘ylantiradi, fikr-mulohaza yuritishga undaydi. Qo‘g‘irchoq tomoshalari bolalardagi turli salbiy ruhiy holatlarni bartaraf etadi va davolaydi.



Tashlandiq materiallardan yasalgan o‘yinchoqlar yordamida stol teatri tashkil etish juda kamchiqim bo‘ladi, lekin bunda tozalikka -gigienaga qat’iy e’tibor beriladi. Idishlarning yuza va ichki qismlari xlorli eritmada yuviladi. Masalan: tashlandiq diskalar, korobkalar, bakalashkalar, idishlar va b.



2. Qo‘l teatrlari.

Qo‘l teatrida qo‘g‘irchoqlar qo‘lda yoki qo‘lga kiyib o‘ynatiladi. Qo‘l teatrida qo‘lining tirsakdan barmoqlar uchigacha bo‘lga qismi sahnaga chiqadi. Qo‘lda namoyish etiladigan qo‘g‘irchoq teatr turlari stolda va shirmada namoyish etililadi.

Bir barmoqli qo‘lqoplardan tayyorlangan o‘yinchoqlarni qo‘lga kiyib yoki stolga tik turadigan qilib tayyorlab olib, o‘ynatish mumkin. Bir barmoqli qo‘lqoplardan o‘yinchoqlarni rasmda



ko‘ringanidek tayyorlash tarbiyachilar uchun qiyinchilik tug‘dirmaydi. Qo‘g‘irchoq teatri o‘yinchoqlarini tayyorlash kishiga zavq bag‘ishlaydi. Bu o‘yinchoqlarni maktabgacha ta’lim tarbiyachilari, chevarlar va mohir qo‘g‘irchoqbozlar tayyorlashadi.

Besh barmoqli qo‘lqop o‘yinchoqlar ham bir barmoqli o‘yinchoqlar singari tayyorlanadi. Besh barmoqli qo‘lqop o‘yinchoqlar kichik yosh guruh bolalariga va katta yoshli kam sonli bolalarni ham to‘plab tomosha-teatr tashkil etsa bo‘ladi. Chunki, 3-4 yoshli bolalarning jussasi hali kichik bo‘lganligi sababli 25-30 nafar bolani teatrga yaqin kelib tomosha qilishini ta’minlash mumkin.




Bundan tashqari, ikki: *bosh va kichik barmoqni* kiygizib o‘ynatadigan *qo‘lqopli o‘yinchoqlar* eng ko‘p ishlatiladigan qo‘g‘irchoq teatri turi hisoblanadi. Bu turdagi o‘yinchoq obrazlar shirmada yoki stolda boshqariladi. Bu turda qo‘g‘irchoqboz qo‘l harakati va so‘z-nutqini bir xil paytda harakatga tushishini ko‘p mashqlar natijasida paydo qiladi.



Poypoqli o‘yinchoqlar: poypoqlardan tayyorlangan o‘yinchoqlar qo‘lga kiyiladi. Poypoqli o‘yinchoqlar teatrini shirma ortida yoki shirmasiz ham namoyish qilsa bo‘ladi. Poypoqlardan stol teatri uchun yumshoq o‘yinchoqlar tikib tayyorlasa bo‘ladi. Poypoqli teatr uchun yangi, kiyilmagan poypoqlar ishlatiladi.



Kaft va barmoqlarda bajariladigan tomoshalar: qo‘l soyasi, kaft tekisligi orqali tomosha tashkil etish maktabgacha yoshdagi bolalarning mayda, yirik, sensamotorikasini rivojlantiradi. Soya devorga, matoga tushiriladi. Yoz oylarida kechki uyqu oldidan shunday tomoshalarni tashkil etish foydalidir.



Bi-ba-bo o‘yinchoqlar ingalaydigan, chiyillaydigan, chinqiradigan, bi-ba-bo deb ovoz chiqaradigan o‘yinchoqlardir. Ular ovoz chiqaradigan o‘yinchoqlar orqali tomosha tashkil etiladi. Bu o‘yinchoqlarning bosh qismi rezinadan yasilib, ovoz chiqaradigan moslama o‘rnatilgan bo‘ladi.



Trostli o‘yinchoqlar: pishiq arqonli yoki elastik simli harakatlantiriladigan o‘yinchoqlar orqali teatr namoyish etiladi. Bu o‘yinchoqlarni bir yoki murakkabligiga qarab ikki kishi boshqaradi.



Barmoq teatri: bu qo‘lqopsiz, barmoq uchiga qog‘ozdan, iplardan to‘qib yoki matodan tikib yasalgan o‘yinchoqlarni kiyib o‘ynatish orqali tashkil etiladi. albatta, barmoq teatri tashkil etish uchun tanlangan asar mos tushishi zarur. Bu teatr kichik yoshli bolalarga juda qo‘l keladi.



Qadam tashlovchi o‘yinchoqlarni yupqa, pishiq kartondan yasash maqsadga muvofiq, sababi yupqa qog‘ozdan yasaladigan bo‘lsa, shalpayib yotib qoladi. Qalin qog‘oz kartondan yasalsa, uni harakatlantirishda noqulay bo‘ladi. Ba’zida bitta barmoqli qilib tayyorlash mumkin.



3. Devoriy teatrlar.

Devoriy teatrning devoriy teatr deb nom olishiga sabab devorda tomoshalar namoyish etilishidir.

Flanelegraf -bu o‘quv ko‘rgazmali qurol flanel bilan qoplangan taxta yoki karton, unga kesilgan figuralar yopishtirilib tomoshalar va o‘quv materiallarini o‘zlashtirish uchun foydalaniladi. Bu bolalarni bilim, ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Devoriy teatrning *matoli* turida jun yoki boshqa paxmoq matodan tayyorlangan personajlar yordamida tashkil etiladi. Fitr materialidan tikib tayyorlangan personajlar va maxsus sahna jihozi bo‘lib xizmat qiladi. Personajarning ort tarafiga g‘ijirlab yopishib turishi uchun lipuchka tikiladi.



Soyali teatr: devorga obrazlarning soyasi tushiriladi. Ya’ni hayvonlar, qushlar, o‘simliklar, tog‘lar va insonlarning shakli pishiq yupqa kartonga chizilib qirqib olinadi. Keyin yorug‘lik lampa orqali devorga yoki to‘rtburchak ramkaga tortilgan mato yo bannerga soyasi tushiriladi. Sahnani



yoritish katta ahamiyatga egadir. Ularni shunday joylashtirish kerakki, ular sahnani yoritsin-u nuri tomoshabinlarga tushmasin.

Magnitli devaoriy teatr: o‘yinchoqlar magnitli yoki magnit orqali devorga yopishtiriladi.



Bu teatrda asar qahramonlari va sahna dekaratsiyalari magnit yordamida yopishtiriladi va harakatlantiriladi.

Kitob teatri: devorga kitob joylashtiriladi. Unda bitta yoki bir nechta kitob ertak mujassam bo‘lishi mumkin. Kitob teatrini devorga mahkamlash yoki qo‘lga olib tashkil etish mumkin. Kitob teatrini qog‘ozdan, kartondan, fitrdan, fanerdan tayyorlasa bo‘ladi.



4. Jonli qo‘g‘irchoqlar teatri.

*Jonli qo‘g‘irchoqlar teatri*da insonlar(bolalar) to‘liq holatda sahnaga chiqib rol ijro etadi. O‘zlari jonli qo‘g‘irchoqlar roliga sahnaga obrazlarni gavdalantirgani chiqishadi. Katta yoshdagi inson yoki bolalar asar qahramonlarini liboslarini kiygan holda rol bajarishadi. Sahnada liboslar kiygan holatda odam qiyofasi, hayvonlarni gavdalantirishi, bundan tashqari, gullar, daraxtlar ya’ni dekotasiya bo‘lib ham chiqishlari mumkin bo‘ladi.

Maskali teatr – bu kattalar va bolalar yuz qismiga maska taqib sahnaga chiqishadi. Maskani ko‘z qismi ko‘rish uchun o‘yilgan bo‘ladi. Ko‘pincha yangi yil bayramlarida katta-yu kichik maskalar taqishib sahnaga va kechki sayllarga chiqishadi.



Shapkali teatr – bu teatrda sahnaga shapka kiyib chiqishadi. Shapkalarni to‘qish iplaridan to‘qish, matodan, qog‘ozdan obrazlarni tasvirlab qirqib yasab olinadi. Sahnaning ko‘rinishi kichik ekrandan yoki sahna planshetidan iborat bo‘lishi mumkin.



Sahnaga *odam qo‘g‘irchoq* shaklida chiqishi tushuniladi. Bu turdagi qo‘g‘irchoqlar kichik yoshdagi boladan katta insonlar shaklida ham sahnaga chiqib rol ijro etishadi. Juda katta gigant qo‘g‘irchoqlar ham uchraydi. Bunday qo‘g‘irchoqlarni ichiga ikki-uch kishi kirib boshqaradi. Sahnaga insonlar sahna dekaratsiyasi sifatida ham chiqishadi. Masalan: gul, o‘simlik, daraxt obrazlarini tasvirlab sahnaga chiqishadi.



Ro‘molli teatrda personajlar tasviri ro‘molga joylashtiriladi. Ro‘mol o‘rtasidan uchburchak shaklida buklanib, teng ikkiga bo‘lingan qismidan rezin tikilib, bo‘yinga ildirish uchun moslashtiriladi. ro‘molni ikki uchidan ikki qo‘l bilan ushlanadi. Ro‘moldan



tayyorlangan sahna libosini taqib rol ijro etishadi. Rasmdagi ko‘rinishda sahnaga chiqish qilishadi. Boshqa matolardan ham ro‘mol ko‘rinishida buklab, obrazlarni joylashtirib, asar personajlarini tayyorlab olish mumkin.

Fartukli teatr – bu teatrda sahnaga rol ijro etish uchun fartuk taqib chiqishadi. Fartukda asar qahramonlari joylashtirilgan bo‘ladi. Fartuklar turli ko‘rinishda va turli o‘lchovlarda tayyorlanadi.



Tantamareska teatrida bolalar va kattalar sahnada yuz qismi o‘yib ishlangan rasmlarga yuzini qo‘yib olib chiqish qilishadi. Sahnasi asari qahramonlaridan tashqari sahna dekaratsiyalari ham shunday shaklda



ishlanishi mumkin. Bu teatrdan bolalar juda katta tasavvurga ega bo‘ladi.

*Marionetka teatri*da qo‘g‘irchoqlar ip yordamida tepadan turib boshqariladi. Marionetka teatri stol ustida yoki tekis yerda sahna tashkil etilib namoyish qilinadi. Marionetka qo‘g‘irchoqlarini ip bilan boshqarish uchun juda ko‘p mashq qilishi zarur. Marionetka qo‘g‘irchoqlarini harakatga keltirish uzoq vaqt davomidagi mashqlar natijasida erishilgan ko‘nikma, malakalar bu teatrning nufuzini oshiradi.



*Dramatik qo‘g‘irchoqlar teatri*da bolalar va kattalar sahnaga chiqishadi. Dramali qo‘g‘irchoq teatri asar voqealarining harakatini boshidan oxirigacha o‘z rollarini-obrazlarini harakatlar, mimika, imotsiya, so‘z, qo‘shiq, raqslari orqali gavdalanitirishadi.



*Musiqali teatrd*a sahna asari namoyishi, sahnaga chiqqanidan to asar tugagunicha musiqa davom etadi. Musiqa tugashi bilan sahna asari ham yakunlanadi. Masalan: daraxtlar raqsi, o‘rmondagi o‘simlik va hayvonlar suhbatini ko‘rinishini ifodalab berish mumkin.



*Pantomima teatri*da sahnaga kattalar va bolalar ham chiqishi mumkin. Bu teatr so‘zsiz imo-ishoralar, harakatlar, imotsiyalar, mimika, jestlar²² yordamida tashkil qilinadi. Pantomimo teatrining o‘ziga xos muhim tomoni so‘z ishlatilmasligidadir.



²² <https://uz.wiktionary.org/wiki/jest>

5. Qo‘g‘irchoq teatri qo‘g‘irchoq va jihozlarini yasashni o‘rganish.

Qo‘g‘irchoq teatri qo‘g‘irchoqlarini va sahna jihozlarini yasash sahna asarning yaxshi chiqishi uchun muhim jihatlaridan biridir. Sahna uchun mavzusiga mos eng yaxshi asar tanlash, obrazlar uchun eng yaxshi rol ijrochilarini tanlash muhim jihati sanalsa, sahna uchun kerakli jihoz, dekaratsiyalar, personajlarini tayyorlash yanada muhim shartlaridan biridir.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarning teatr faoliyatlari uchun joyni tashkil qilish va bezash, bolalarda bu faoliyatga nisbatan doimiy qiziqishni saqlash, ularning teatr-o‘yinda ijodiy namoyon bo‘lishlariga rag‘bat berish hamda bolalarni san‘atning mazkur turi vositalari yordamida estetik o‘stirishning muhim sharti hisoblanadi.

Bolalar ongiga milliy urf-odatlarimizni, an‘analarimizni singdirishda, ularga shu aziz Vatan barchamizniki ekanligini uqtirish, har tomonlama ma‘naviy barkamol qilib tarbiyalashda, tevarak-atrofdagi bo‘layotgan voqea hodisalarni, o‘zini odobidagi ahloqiy kamchiliklarini, tabiatni asrab avaylash, unga mehr uyg‘otishda qo‘g‘irchoq teatrining ahamiyati kattadir. Chunki teatrda tomoshabinlar tomoshalarni faqat ko‘rib, tinglabgina qolmay balki unda mustaqil ishtirok etadi. Bolalar qo‘g‘irchoq teatrini ko‘rganlaridan so‘ng, qahramonlarning harakati, axloqi, adobini birgalikda muhokama qilish, bola qalbida ezgulikka, xayrli ishlar qilishga, odamlarga yaxshilik qilishga intilish to‘yg‘usini tarbiyalaydi.

Soya teatri – qo‘g‘irchoq teatrining o‘ziga hos turlaridan hisoblanadi. Unda qo‘g‘irchoqlar emas balki shakllardan iborat o‘yinchoqlar o‘ynaydi. Tomosha qiluvchilar sahna ro‘parasida o‘tirib, ekranda yorug‘lik orqali harakatlanayotgan soyalar: odamlar, hayvonlar va qushlar soyasini ko‘rishi mumkin.



Soya teatr uchun odam va hayvon soyalarini katta va tayyorlov guruh bolalarining o'zlari chizib, qirqa oladilar. Bolalarga shakllarni boshlari dumlarini qimirlatadigan qilishni o'rgatish kerak, buning uchun tarbiyachi yordamida detallarni simlar bilan biriktirib, spiral holatda aylantirib qo'yiladi. Harakatlanuvchi qismlar qattiq simdan tayyorlanadi. Bunday o'yinchoqlarni shablon yordamida yoki o'zlari o'ylab, siluet chizadilar. Bolalar detallarni qirqib olganlaridan so'ng figuraga ko'zini qilish kerakligi taklif etiladi. Tarbiyachi ko'z o'rnini o'tkir asbob bilan teshib beradi, bolalar qalam yoki mo'yqalam tayoqchasi bilan teshikchani kengaytiradi va yaltiroq qog'oz bilan ko'zini yelimlaydi. Bolalar yelimga qora bo'yoq aralashtirib ko'zini chizib qo'yishlari mumkin.

Barmoq teatri. Yoz oyida bolalarning o'z qo'llari bilan yasagan o'yinchoqlaridan o'yinchoq teatrlari, stol va barmoq teatrlari tashkil qilganda foydalanish mumkin. Bunda bolalar nafaqat oddiy tamoshabin, bo'lib qolmasdan ular mehnat qiluvchi, ijodkorga aylanib, o'zlaridan kichik ukalariga teatr ko'rsatish bilan ularni xursand qiladilar.



Barmoq teatri qahramonlarini qog'ozdan yasash mumkin. Bu kichik konus va silindr shaklidagi barmoqqa kiyish uchun yasalgan. Qog'ozdan odam, hayvonlarning kichik shaklida barmoqqa tasvirini tayyorlab, uni barmoqqa qog'ozdan uzuk shaklida yasalgan qog'oz halqaga yelimlab, barmoqqa kiyib olinadi.

Barmoq teatri boshqa teatrlar kabidir, lekin uning farqi shundaki har bir ertak qahramoni bolalarning barmoqlariga mos kichik yoki ertak ko'rsatuvchining barmog'iga to'g'ri keladigan qilib tayyorlanadi.



Rasmga qarab personajlarni tayyorlash.

Milliy qo‘g‘irchoq yasashni o‘rganish.

Milliy qo‘g‘irchoq yasash uchun kerakli materiallarni to‘plash:


- bo‘z matosi(qalinroq to‘qilgan bo‘lishi kerak),
- paxta yoki sindifon,
- liboslari uchun atlas,adras, shoyi matolari va bezaklar kerak
- igna, ip, qaychi zarur bo‘ladi.






Qo‘g‘irchoq teatri personajlarini yasash bolalarni mehnat bilan tarbiyalashga o‘rgatadi. Mehnat idrok, iroda, diqqat, tafakkur, xayolni tarbiyalaydi, shakllantiradi, rivojlantiradi.

Milliy qo‘g‘irchoq yasash uchun qo‘g‘irchoqning ichki qismini chiqmasini tayyorlab olish. Avval qo‘g‘irchoq teatri uchun bo‘lajak tarbiyachilarni qo‘g‘irchoq tayyorlashga o‘rgatib borish zarur.





Milliy gogizchoq chizmasi



1. Gogizchoqning bosh qismi 2 dona qilib olinadi. Tikish haqi 0,5 sm dan 0,7 sm gacha olinishi mumkin.
2. Q. gvarda qismi har 2 dona olinadi. Atrofi 0,5 sm dan tikish haqi olinadi.
3. Q. eyog'i 4 dona qilib olinadi. Har bir eyog alohida tikiladi.
4. Q. qoli 0,5 sm dan tikish haqi olinib tikiladi. Keyin baxchasiga alohida paxta solinadi.



Milliy gogizchoqning libosi



$bosh. aylara = C$
 $C = 2 \pi R$ $R = \frac{C}{2\pi} + \text{tikish haqi qadi.}$



Oliy ta'limda tayyorlanayotgan tarbiyachilarni tayyorlashda qo'g'irchoq teatri uchun qo'g'irchoqlar, o'yinchoqlar, liboslar, sahna dekaratsiyalari tayyorlashni o'rgatish ta'lim maqsadlarini amalga oshirishning muhim bir omilidir.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Qo'g'irchoq teatri maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning rivojlanishida qanday ahamiyatga ega?
2. Qo'g'irchoq teatri o'yinchoqlari va jihozlarini yasashni bilasizmi? O'rganishni istaysizmi?
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qaysi qo'g'irchoq teatrlarini tashkil etish qulay deb hisoblaysiz?

Mavzu yuzasidan test topshirig'i:

1. Marionetka teatri qanday teatr?

- a. Qo'g'irchoqlar teatrining iplar yoki metal tayoq yordamida tepadan boshqariladigan turi
- b. Qo'g'irchoqlar teatrining faqat ip bilan pastdan boshqariladigan turi
- c. Qo'g'irchoqlar teatrining tross yoki sim bilan tepadan boshqariladigan turi
- d. Qo'g'irchoqlar teatrining faqat simlar vositasida tepadan boshqariladigan turi

2. Pantomima teatri qanday teatr?

- a. Pantomima teatri - so'zsiz, harakatlar, mimikalar, imotsiyalar, jestlar – imo-ishoralar orqali ifodalangan sahna asari

b. Pantomima teatri - soʻzsiz, harakatlar, mimikalar, imotsiyalar, jestlar – imo-ishoralar orqali kattalar uchun ifodalangan sahna asari

c. Pantomima teatri - soʻzsiz, harakatlar, mimikalar, imotsiyalar, jestlar – imo-ishoralar orqali faqat bolalar uchun tayyorlangan sanʼat asari

d. Pantomima teatri - harakatlar, mimikalar, imotsiyalar, jestlar – imo-ishoralar orqali ifodalangan sahna asari

3. Qoʻl teatri qayerda namoyish etiladi?

a. Qoʻlda shirmada yoki stolda namoyish etiladi.

b. Faqat qoʻlda qoʻlqopli qoʻgʻirchoqlar yordamida

c. Faqat shirma yordamida namoyish etiladi.

d. Faqat stolda namoyish etish mumkin.

4. Soya teatrining qadimiy nomini toping.

a. Fonus xayol

b. Shirmali

c. Chodir jamol

d. Chodir xayol

5. Magnitli teatr qaysi qoʻgʻirchoq teatri turiga kiradi?

a. Devroyi teatr

b. Stol teatri

c. Qoʻl teatri

d. Jonli qoʻgʻirchoqlar teatri

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Nurmatova M.Sh. Xasanova Sh.T. D.Azimova. Ustaxonada amaliy mashgʻulot. “Musiqqa” T.:2010-y.

2. N.Mirsaidova, R. Oʻtaganov “Qoʻgʻirchoq boshqarish asoslari”(qoʻlqopli qoʻgʻirchoq) nomli oʻquv-uslubiy qoʻllanma Toshkent-2015

3. <https://uz.wiktionary.org/wiki/jest>

III-MODUL. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA IJODIY FAOLIYAT TURLARI

MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALARNI IJODIY FAOLIYATINI TASHKIL QILISH TEXNOLOGIYASI

Reja:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy faoliyatining turlari.
2. Bolalarni har tomonlama rivojlantirishda ijodiy faoliyatning ahamiyati.
3. Maktabgacha ta'limda bolalarning ijodiy faoliyatini tashkil qilish texnologiyasi.

***Tayanch tushunchalar:** Maktabgacha ta'limda ijodiy faoliyat turlari, bolalarni har tomonlama rivojlantirish masalasining yechimlari, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ijodiy faoliyatni tashkil qilish yo'llari haqida*

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy faoliyatining turlari.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni ijodiy faoliyatning sahnalashtirish, rasm, applikasiya, loy ishi, origami, konstruktorli yasash ishlari, tabiiy va tashlandiq buyumlar, chinni xamir bilan ishlash, sho'r xamir bilan ishlash, to'qish ishlari, kashta haqida tushunchalar berish va ular bilan ijodiy ishlar qilishga o'rgatish maqsadida faoliyatlar olib boriladi.

Sahna faoliyati:

1. Tomoshani og'zaki hikoya qilish orqali tashkil etish;
2. Tomoshani rasmi – tasvirli tashkil etsih;
3. Tomoshani qo'g'irchoqlar vositasida tashkil etish;
4. Qo'g'irchoq o'rnida bolalarning o'zlari yordamida tomosha tashkil qilish;
5. Audio va video orqali qo'g'irchoq teatri tomoshasini tashkil qilish;
6. Bayramlar dasturlari tayyorlash;

7. Musobaqali tanlovlar tashkil etish.

Sahna faoliyatini eng oddiy, sodda tomoshani *og‘zaki hikoya qilish orqali tashkil etish usuli* – bu “ertakchi”ning o‘zi asar qahramonlari qiyofasiga kirib asarni hikoya qilib berish usulidir. Masalan: ertakchi rollarga kirib “Bo‘g‘irsoq”, “Qizil qalpoqcha”, “Yetti uloqcha va bo‘ri” kabi ertaklarni aytib berishi mumkin.

Sahna faoliyatini rasmlil – tasvirli tashkil etish usulida asarni rasmlar orqali hikoya qilib beriladi. Bunda ertak qahramonlari va sahnalari tasviri chiziladi. Ertak syujeti ketma-ketligi bilan bir vaqtda rasmlar, tasvirlar namoyish etila boshlaydi. Bu usul ertak yoki masalni shunchaki hikoya qilib bergandan ko‘ra ancha tushunarli, qiziqarli, diqqatni jalb qiluvchi samarador vosita bo‘ladi. Tasvirlar bolalar ongida tasavvurlarni tez hosil qilishga yordam beradi. Tasavvurlar orqali fikrlar tug‘iladi.

Sahna faoliyatida tomoshani *qo‘g‘irchoqlar vositasida tashkil etish* yanada samarador, yanada qiziqarli, yanada tushunarli, yanada ta’sirli usuldir. Bu usulda tomoshaning sodda va murakkab yasalgan qo‘g‘irchoqlar bilan tashkil etiladi. Bunda sahna stol, devor, doeka, shirma, yoki sahnaning o‘zidan iborat bo‘ladi. Tomoshani tashkil etish uzoq vaqt mashq qilishni, ko‘p mehnat qilishni talab etadi. Sahna dekaratsiyalarini va qo‘g‘irchoqlarni yasab olish zarurati bo‘ladi. Tomosha qo‘g‘irchoqlarni o‘ynatish orqali amalga oshiriladi.

Sahna faoliyatida *qo‘g‘irchoqlar timsolida bolalarning o‘zlari yordamida* tomosha tashkil etiladi. Bu usuldagi tomoshalar bolalarni sahna faoliyatiga jalb qilishdan boshlanadi. Bunda bolalarning ichki imkoniyatlari, qobiliyatlari ochiladi va rivojlanadi. Notiqlik, dunyoni anglash, bilish jarayonlarini, diqqat qilish, tafakkur qilish doirasini kengaytiradi.

Audio va video orqali qo‘g‘irchoq teatri tomoshasini tashkil etish – bu usulda multifilmlar qo‘yib berish, uni tahlil qilish, audiolar eshittirish, videolar qo‘yib berish, videolarni o‘zlarini ishtirok ettirgan holda tayyorlash bolalar uchun foydali. Bu usulni qo‘llab tomoshalarni tashkil etish bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishda katta xizmat qiladi.

Har bir asar qanday usulda namoyish etilmasin, albatta, asarni va asar qahramonlarini tahlil qilish bolalarni fikr yuritishini rivojlantiradi hamda

fiklarini uyalmasdan, tortinmasdan bayon qilishga o'rgatadi. Tahlil qilinmas ekan, biz ko'zlagan maqsadimizga singdirmoqchi bo'lgan tushunchalarga, ta'lim-tarbiyaga erisha olmaymiz.

Sahna faoliyatida *bayram dasturlarini tayyorlash* bolalarni ko'pchilik oldida chiqish qilishga, so'zlashga, o'zini tutish o'rgatadi. Bola o'zini namoyon etishdan uyalmaydigan bo'ladi. Bolani o'z "Men"ini anglaydi. Ijtimoiy-madaniy tushunchlarni o'zlashtiradi. Bayramlar haqidagi bilimlarga ega bo'ladi.

Sahna faoliyatida *musobaqali tanlovlarni tashkil etish* usuli bolalarni aqliy, dunyoviy, hissiy, irodaviy sifatlarini, bilish jarayonlarini rivojlantiradi. Fanlarga oid bilimlarni o'zlashtiradi. Tez fikr yuritadigan, tez qarorlar qabul qila oladigan bo'ladi, liderlik qobiliyatlari namoyon bo'la boshlaydi va shakllanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni ijodiy faoliyatning boshqa turlariga o'rgatish, ularni kasblarga tayyorlashda qiziqish va uquvlarini namoyon qiladi. Kasblarning eng birinchi sir-asrorlarini maktabgacha ta'limda olishadi. O'zlari istagan mashg'ulot bilan shug'ullanishiga qulay sharoitlar yaratib beriladi.

Ijodiy faoliyatga o'rgatishning vazifasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni qo'l mehnatiga badiiy mehnatga qiziqishlarini uyg'otish, mehnat orqali hosil bo'lgan ko'nikma va malakalarini shakllantirish; maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatga nisbatan muhabbatni tarbiyalash va kasbga yo'naltirish; bolalarda ijodiy ko'rgazmalar, o'yinlar uchun atributlar yasashga xohishlarini uyg'otish; qog'oz, karton, yelim, qaychi, bo'yoqlar kabi materiallarning xususiyatlari bilan tanishtirish; mehnat qilish madaniyati malaka va ko'nikmalarini tarbiyalash; buyumlarni tayyorlash jarayonini rejalashtirish, tayyorlash texnologiyasini o'rgatish, mahsulotni tejash, buyumlari qoralamasining eskizini va suratini chizishga ish joylarini tartibli saqlashga o'rgatish; bolalarni buyumlar yasash jarayonida oddiy asboblardan foydalanishga o'rgatish hamda badiiy didlarini shakllantirishga, vaqtni tejay olishga, maqsadga muvofiq ishlashga odatlantirishdir.

Ijodiy qobiliyat insonni hayvondan farqlab turadigan bir xususiyatdir. Bu qobiliyat insonga nafaqat hayoti davomida qo‘l kelishi va undan foydalanishi mumkin, balki uning ko‘rinishini o‘zgartirishi ham mumkin.

Bolalar ijodiyoti va uning o‘ziga xos tomonlarini tushunish pedagoglardan ko‘pgina bilimlarga ega bo‘lishni talab etadi. Pedagog san’atda bu faoliyat qanday xarakterga ega, rassom badiiy obrazni yaratishi uchun qanday vositalardan foydalanyapti, uning ijodiy faoliyatining bosqichlari qanday degan savollarga javob bera olishi kerak. Bolalar atrof-olam bilan tanisha borish jarayonida ularni o‘z faoliyatlarida ya’ni o‘yinlarida, chizgan rasmlarida, loy ishlarida, hikoyalarda va hokazolarda aks ettiradilar. Bolalar tasviriy faoliyatda atrof-olamdan olgan tassurotlarini, tasavvurlaridagi timsollarni turli tuman materiallardan va aniq shakllar yordamida tasvirlashga harakat qiladilar.

Bolalar ijodiyotida ijodiy faoliyatning boshlang‘ich bosqichida o‘ziga xos xarakter xususiyatlari mavjud. Bularga avval o‘zlashtirilgan ish usullarini yangicha mazmunda qo‘llashda, oldinda turgan vazifalarni yangi usullar orqali yechishni, o‘z his-tuyg‘ularini turli vositalar yordamida ifoda etishlarida faol va mustaqil ishtirok etishlari kiradi.

Atrof-olamni bolalar tasviriy faoliyatida tushunish ijodiy ko‘rinishlar bilan bog‘liq emas, balki bola ishlayotgan, ko‘rsatayotgan materialning tarkibini aniqlash orqali namoyon bo‘ladi. Masalan: qalam va bo‘yoqlar qog‘ozda iz qoldiradilar, loy yumshoq undan narsalar yasash mumkin. Keyinchalik tasviriy faoliyat va izlanishlarni rivojlantirish uchun bu bosqich kichik ahamiyat kasb etadi, chunki bola bunda tasavvurlaridagi timsolni yaratish uchun yordam beradigan material bilan tanishadi.

Bolalar rasm, appalikatsiya, loy ishi, qirqib yelimplash mashg‘ulotlari davomida nafaqat biror ish bilan ma’lum muddat band bo‘ladilar, balki yuqorida aytib o‘tganlarimizga qo‘shimcha ravishda ularda quyidagilar rivojlanadi va shakllanadi:

➤ tasviriy san’at sohasiga doir qobiliyatlari aniqlanadi va shakllantiriladi;

➤ qalam, mo‘yqalamni ushlab, loy, plastilin bilan ishlash, qaychida ayrim narsalarni qirqib yelimplash orqali mayda qo‘l mushaklari rivojlanadi;

- bola yozuv texnikasini egallashga tayyorlanadi;
- bola tasviriy faoliyat mashg'ulotlari orqali diqqatini bir joyga taqsimlay olishni va ishini oxiriga qadar bajarishni, o'tira olishni o'rganadi;
- tabiatni, atrof-olamni kuzatishni, uni asrab-avaylashni ardoqlashni, unga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rganadi;
- jamoa bo'lib mehnat qilish, ishini rejalashtira olish, o'rtoqlarini eshita olish va o'zaro fikr-mulohazalarni inobatga olgan holda ishlash malakalari shakllanadi;
- xalqimizning boy madaniy-ma'naviy merosi haqida tushuncha va tasavvurga ega bo'ladi va ularni o'z ishlarida ifodalashga o'rganadi.

2. Bolalarni har tomonlama rivojlantirishda ijodiy faoliyatning ahamiyati.

Ijodkorlik qobiliyati insonning tabiiy va ijtimoiy dunyoni voqelikning ob'ektiv qonunlari asosida o'z maqsadi va ehtiyojlariga muvofiq o'zgartiradigan faoliyatidir. Ijod mahsuli bu inson ongining faol mahsulidir. "Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi"ning asosiy mazmunida bolalarning individual xususiyatlari va iste'dodini rivojlantirish vazifasi belgilab berilgan. Hozirgi tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolalar rasm chizish, loy va plastilin o'yinchoqlar yasashda ijodiy faoliyat ko'rsata olishini isbotladi. Albatta, bolalar ijodkorligi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, kattalar ijodkorligi mezonlariga javob bera olmaydi. Ta'lim jarayonida, ertaklar eshitish, har xil rasmlarni ko'rish tufayli bola o'yinchoq yasashdan oldin o'zi bevosita idrok etgan predmetlar doirasiga kirmaydigan narsalarni asta-sekin tasavvur qila boshlaydi. Bolada avval kattalarning og'zaki ta'siri bilan ixtiyoriy tasavvur obrazlari hosil bo'lib, keyinchalik ular bolaning mustaqil fikrlashidan vujudga kelishi mumkin.

Bolalar badiiy ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish yo'llarini o'rganganda, bolalarga berilgan topshiriqlarni 3 bosqichda murakkablashtirib borishimiz mumkin. Birinchi bosqichda bolalarga ulardan ijodiy faoliyatda dastlabki yo'nalishni talab qiladigan topshiriqlar beriladi: Tarbiyachining (o'zing yasa, bir narsa o'yla, qidirib top, o'zgartir kabi) ko'rsatmalari bo'yicha bolalar pedagog bilan birga ishlab, ijodkorlik elementlarini namoyon etadilar. Ikkinchi bosqichda bolalarni aniq

maqsadga muvofiq ishlashga va izlanishga da'vat etuvchi topshiriqlar beriladi. Bola tarbiyachi bilan birga ishlab, o'zlashtirgan ko'nikmalarni kombinatsiyalash va o'zgartirish mumkinligini tushuna boshlaydi. Nihoyat, uchinchi bosqich — bolani turli faoliyatda fikrlash bo'yicha mustaqil harakat qilishga, o'z ishlarini rejalashtirishga, tasvirlash vositalarini tanlashga o'rgatadigan topshiriqlardan iboratdir.

Tarbiyachi bolalarga topshiriqni emotsional tarzda tushuntiradi. Tarbiyachining izohi bolalarni qiziqtirishi, buning uchun tarbiyachi goho o'yin elementlaridan, o'yin harakatlaridan foydalanishi mumkin. Bolalar ko'z o'ngida qo'g'irchoqlar paydo bo'ladi. Ular birgalikda tomosha qo'yishni so'raydilar. Bunday ertak personajlarning kutilmaganda paydo bo'lishi bolalarni suyuntirib yuboradi. O'yinchoqlarning harakatlarini ko'rib, bolalar sevinib ketadilar, tarbiyachi ularga qarab murojaat qilayotganidan mamnun bo'ladi. Agar tarbiyachi mashg'ulotda o'yin usulini qo'llayotgan bo'lsa, u mashg'ulot davomida o'yinda qatnashadigan personaj to'g'risida oldindan o'ylab qo'yadi. Masalan, qo'g'irchoq mana shunday personaj rolini bajarib, bolalar qanday ishlayotganligi bilan, topshiriqni kim qanday bajarayotganligi bilan qiziqib ko'rishi mumkin. Keyin u bolalarning xatti-harakatlarini ma'qulaydi, ijodiy ishlashga qiynalayotgan bolalarga yordam beradi va boshqa shunga o'xshagan ishlarni bajaradi. Mashg'ulotda har doim ham bir xildagi o'yin harakatlaridan foydalanmaymiz, har bir mashg'ulot oldidan bolalarning ruhini ko'taradigan, kayfiyatini yaxshilaydigan tadbirlar tashkil qilamiz. Buning uchun bolalarga she'r o'qib berishimiz, qo'shiq aytib berishimiz, topshiriqlar bo'yicha topishmoqlar aytib, kichkintoylarni qiziqtirishimiz lozim.

3. Maktabgacha ta'limda bolalarning ijodiy faoliyatini tashkil qilish texnologiyasi.

Har tomonlama intellektual, estetik jihatdan yoqimli shaxsni shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, rivojlangan ijodiy shaxsni tayyorlash uchun turli amaliy faoliyatlar bilan shakllantirishdan iborat.

Rivojlangan ijodiy shaxsni tayyorlash masalasi ota-onalar bilan ishlash, oddiydan murakkabga qaratilgan tizimli o'quv dasturning bo'lishi, bolaga individual yondoshuv, ijodkorlikning turli turlari bilan

shug‘ullantirish vazifasini yuklaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning raqs ijodida ijodiy qobiliyatlarini improvizatsiya orqali rivojlantirish, musiqaga muhabbat va qiziqishni rivojlantirish, musiqaga ijodiy yondoshuv hosil qilish uchun turli erkin faoliyatli o‘yinlarni tashkil qilish maqsadga erishishga xizmat qiluvchi omillardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Bolalar ijodiy qobiliyatlarini konstruktorli o‘yinlar: origami usulida o‘yinchoqlar yasashga o‘rgatish, mazoika bilan shug‘ullantirish, ligo o‘yinchoqlarini yig‘ishga o‘rgatish bolalarni yaratuvchanlikka o‘rgatishni boshlang‘ich mashqlari bo‘ladi.

Noan‘anaviy rasm chizish jarayoni maktabgacha yoshdagi bolaning tabiiy va eng qiziqarli mashg‘ulotidir. Maktabgacha ta‘limda maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida ahamiyat beriladi. Ko‘pchilik samarali vosita bolalarning ijodiy fikrlash va tasavvurlarini rivojlantirish uchun yordam beradi.

Mozaika – bu (frans. *mosaïque* — muzalarga bag‘ishlangan) — bir xil yoki turli xom ashyo (koshin, tosh, yogoch, marmar, metall va boshqalar) bo‘laklaridan ishlangan tasvir, naqsh. Mahobatli (monumental) bezak san‘atining asosiy turlaridan. Asosan, binolar, amaliy san‘at asarlarini bezashda, san‘ati asarlari yaratishda qo‘llanadi. Qadimda baxt keltiruvchi, omad xudosini, ilhom parisini “Muza”- deb aytishgan ekan. Mazoika san‘ati juda qadimiy bo‘lib, 3000 yillik tarixni o‘z ichiga oladi. Qadimiy shaharlarimiz Buxoro, Samarqand, Xivadagi obidalar mozaika san‘atidan foydalanib bilan bezatilgan.



Bugungi kunda mozaikaning zamonaviy ko‘rinishlari bilan favoralar, oshxonalar, xojatxonalar, yuvinish xonalari, xona devorlari, yo‘laklar, supalar chiroyli qilib bezatilib kelinadi.



Maktabgacha ta‘limda mozaikadan foydalanish keng yo‘lga qo‘yilgan. Bolalar mozaikani juda yaxshi ko‘rishadi. Mozaika ularning sevimli mashg‘uloti hisoblanadi. Avvaliga tarbiyachi mozaikani terish yo‘lini ko‘rsatib beradi.

Keyinchalik bolalar rasmi-konstruktorga qarab yig'a boshlaydi. Bu mashg'ulot bilan uzoq muddat shug'ullanish natijasida bola mustaqil konstruktorsiz ham narsalar shaklini yarata oladi. Maktabgacha ta'limdagi mozaika mashg'uloti ijodkorlikka undaydi va kelajakda bolalarning kasb tanlashiga hamda kasb sirlarida yosh bolaligidan xabardor bo'lishiga yordam beradi.



Lego – bu (lego, Dan. Leg-godt – “yaxshi o‘ynash”) – turli obyektlarni yig‘ish va modellashtirish uchun qismlar to‘plami bo‘lgan konstruktorlar seriyasi. Lego to‘plamlari bosh qarorgohi Daniyada joylashgan. Lego group tomonidan ishlab chiqariladi. Kompaniya 1932-yilda tashkil etilgan.²³ Uning nomi italyanacha “lego”- “men yig‘aman” deb eshitaladi. Dastlab lego o‘yinchoqlar yog‘ochdan oddiy qilib yasalgan. Lego kompaniyasining asosiy mahsuloti – ko‘p rangli plastik g‘isht, kichik figuralardan turli xil transportlar, binolar, harakatlanuvchi robotlarni terishda foydalanish mumkin bo‘lgan. Bolalar qismlardan narsalar qurish-yasash va yana qismlarga ajratish ishlarini amalga oshiradi. Lego korporatsiyasi 1949-yilda plastik g‘ishtlar ishlab chiqara boshlagan.

LEGO o‘yinchoqlari 1939-yildan boshlab Daniyada Britaniyadan rasmiy patent olgandan so‘ng, Ole Krik Kristiansen degan kishi tomonidan tashkil etilgan va “Lego group” nomli kompaniyasida ko‘plab miqdorda ishlab chiqarila boshlagan.

Daniyada 1947-yildan lego o‘yinchoqlarining birinchi taqdimoti bo‘lib o‘tgan. Shu tarzda yillar davomida takomillashib hozir bizning ko‘zimiz o‘rgangan holga yetib kelgan.

Hozirgi kunda “Lego group” kompaniyasi bolalar va kattalar uchun dunyo bo‘ylab 8 ta ko‘ngilochar bog‘lar tashkil qilgan.

1. Daniyada Bellung shahrida
2. Germaniyada Gyunsberg shahrida
3. Angliyada Bendsor shahrida
4. Koliforniyada Korsbet shahrida

²³ <https://ru.wikipedia.org/wiki/LEGO>

5. Floridada Venterhevin shahrida
6. Malayziyaning Nusajaya shahrida
7. Birlashgan arab amirliklarining Dubay shahrida
8. Xitoyda Shanxay shahrida joylashgan.

Lego kompaniyasi 1997-yildan boshlab video o‘yinlar ishlab chiqara boshlagan. 1999-yildan boshlab esa o‘zining jurnali va kitoblarini nashr ettirib kelmoqda. “Lego group” kompaniyasi 2015-yilda Ferrari brendini ortda qoldirib, dunyodagi eng kuchli brend nomini olgan. 2021-yil holatiga ko‘ra Lego dunyodagi eng yirik o‘yinchoq ishlab chiqaruvchi kompaniya hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning lego o‘yinlarida qiziqishlari katta. Lego o‘yinchoqlari 3 yoshdan boshlab oddiydan murakkab turlarigacha o‘ynatiladi. Avvaliga tarbiyachi ko‘maklashuvi bilan konstruktorli-tasvirlarga qarab yasaydilar, keyinchalik bolalar konstruksiyaga qarab mustaqil yasay boshlashadi. Ko‘p yasashlar natijasida ular qismlarni yasash yo‘llarini eslab qolishadi va ijodiy yondoshgan holda yangi narsalarni yasashni ixtiro qilishib yasaydilar. Shu tariqa ijodiy rivojlanish jarayoni sodir bo‘ladi.



Ijodiy faoliyat-san‘at turlari bilan insondagi ba‘zi yengil ruhiy holatlarni davolash-bartaraf etish – Art-terapiyadir.

“Art-terapiya” atamasi 1938-yilda rassom Adrian Xill tufayli paydo bo‘ldi. Uning bemorlari orasida sil bilan kasallangan odamlar bor edi, ular mutaxassis ushbu kasallik haqidagi fikrlardan ijodkorlik orqali chalg‘itgan. Bemorlarni kuzatar ekan, Xill uning texnikasi nafaqat og‘riqli holatni quritibgina qolmay, balki tiklanishiga ham yordam berishini ta’kidladi.

AQShda art-terapiya fashistik kontslagerlarning sobiq asirlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashda muvaffaqiyatli ishlatilgan. 1960 yilda Amerika Art Therapy tashkiloti paydo bo‘ldi.

Art-terapiya nafaqat ruhiy bezovtalikdan xalos bo‘lishning yaxshi usuli, balki stress, hissiy holatlarning oldini olishga ham yordam beradi.

San‘at terapiyasining turlari:

Ushbu uslub tobora ko‘proq qiziqish uyg‘otmoqda, bu uning chegaralarini kengaytirish va tibbiy san‘atning yangi «vositalarini» paydo bo‘lishiga zamin yaratmoqda. Art-terapiya usullari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- izoterapiya - rasm va chizish;
- rang terapiyasi - odam turli xil ranglarning nuriga duch keladi;
- turli xil kompozitsiyalarni tinglashdan iborat musiqa terapiyasi;
- qum terapiyasi - qum bilan bo‘yash;
- video terapiya - bu qahramon xuddi shu muammoni aks ettiradigan videoni tomosha qilishni anglatadi;
- o‘yin terapiyasi - o‘yin davomida zarur aqliy funktsiyalar shakllanadi;
- biblioterapiya - bu usul adabiyotdan so‘zlarni davolash uchun foydalanadi;
- ertak terapiyasi - ertaklarni yozish, mavjud asarlarni tahlil qilish;
- maskoterapiya - bemorning yuzining uch o‘lchovli tasviridan foydalaniladi, bu sizga uning his-tuyg‘ulari va his-tuyg‘ularini to‘g‘ri yo‘naltirishga imkon beradi;
- dram terapiyasi, ya‘ni dramtizatsiya, syujet o‘ynash;
- fototerapiya - suratga olish, kollajlar yaratish;
- raqs terapiyasi - raqsga tushish;
- badiiy sintez-terapiya - bu rasm, rang berish, ko‘p rang, niqob, fototerapiya va boshqalarni birlashtiradi.


➤ Mandala terapiya – bu oq-qora tasvirlarni bo‘yash demakdir. Bu san‘at turi katta-kichik insonlarga foyda beradigan san‘at turi hisoblanadi.

Art-terapiyaning afzalligi - bemorlarning xulq-atvorini chuqurroq o‘rganish, bemor hayotning qaysi bosqichida ekanligi to‘g‘risida fikrni shakllantirish qobiliyati - nafaqat lahzali fikrlar, balki bemorning kelajagi va o‘tmishi bilan bog‘liq bo‘lgan narsalar chizmalarda va hunarmandchilikda, shuningdek, bosilgan va yashirinni aniqlashda ham aks ettirilgan. tasviriy shaklda aks ettirilgan kechinmalar va bularning barchasi hayot va davolashning yorqin kundaligiga aylanishi mumkin.


Art-terapiya uchun ko‘rsatmalar: emotsional rivojlanishdagi qiyinchiliklar, stress, ruhiy tushkunlik, past kayfiyat, hissiy beqarorlik,

hissiy reaksiyalarning dürtüsülliligi, boshqa odamlar tomonidan hissiy rad etish, yolg'izlik, shaxslararo nizolar, oilaviy munosabatlardan norozilik, rashk, ota-onalar keishmovchiligidan aziyat chekayotga bolalar, ajrashgan ota-onalarning bolalarida bo'ladigan krizeslarni, yo'qotishlar, ortib borayotgan tashvish, qo'rquv, fobiya, salbiy «mentushuncha», o'zini past baho berish kabi ruhiy holatlarini yaxshilaydi.

Mandala – bu aylana, disk. Buddist va hindularning diniy va ezoterik amaliyotlarida ishlatiladigan muqaddas sxematik tasvir yoki dizayn.²⁴ Katta yoshdagi kishilar bo'ladi. Kattalar uchun ham o'simlik, gullar, manzaralar tasviri tushirilgan mandalalar mavjud.



Mandala bilan shug'ullanish: maktabgacha yoshdagi bolalar mandala(raskraska) bilan shug'ullanishi dunyo haqidagi bilish doirasini kengaytiradi. Atrof-olam haqidagi tasavvurlari kengayadi. Bolada o'ziga ishonch hissi oshadi, ya'ni o'ziga adekvat baho bera boshlaydi.



Rasm chizish – izoterapiya. Tasviriy san'at bilan oshno bo'lish bu insoniyatning eng katta yutuqlarga erishish timsolidir. Rasmlar orqali insonlar o'z his-tuyg'ulari va maqsadlarni ko'rsata oladi. Rasmlar-tasvirlar maqsadga erishishni ta'linlovchi muhim vositadir.



Mustahkamlash uchun savollar:

1. Qanday ijodiy faoliyat turlarini bilasiz?
2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijodiy faoliyatning qanday turlarini tashkil etish kerak? Fikringiz?
3. Art-terapiya nima?
4. Mozaika, lego o'yinlari bolaga nima beradi?

²⁴ <https://ru.wikipedia.org/wiki>

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Mozaika nima?

a. Mozaika - frans. masaique — muzalarga bag‘ishlangan. Qadimda baxt keltiruvchi, omad xudosini, ilhom parisini “Muza”- deb aytishgan ekan.

b. Mozaika - arab. masaique — muzalarga bag‘ishlangan. Qadimda baxt keltiruvchi, omad xudosini, ilhom parisini “Muza”- deb aytishgan ekan.

c. Mozaika - lotin. masaique — muzalarga bag‘ishlangan. Qadimda baxt keltiruvchi, omad xudosini, muz parisini “Muza”- deb aytishgan ekan.

d. Mozaika - grek. masaique — muzalarga bag‘ishlangan. Qadimda baxt keltiruvchi, omad xudosini, ilhom parisini “Muza”- deb aytishgan ekan.

2. Lego nima?

a. Lego – bu Dan. Leg-godt – “yaxshi o‘ynash” degan ma’noni bildiradi.

b. Lego – bu konstruklotrli qiyin o‘yin degan ma’noni bildiradi.

c. Lego – bu men yig‘aman, teraman degan o‘yin.

d. Lego – bu aqliy faoliyatni, ijodkorlikni yaxshi ko‘raman degan o‘yin.

3. Art-terapiya nima?

a. Art-terapiya – bu san’at bilan davolash degani

b. Art-terapiya – bu ertak bilan davolash degani

c. Art-terapiya – bu kitob bilan davolash degani

d. Art-terapiya – bu qo‘g‘irchoq teatri bilan davolash degani

4. Izoterapiya nima?

a. Izoterapiya – bu tasviriy san’at bilan davolash

b. Izoterapiya – bu sahna san’at bilan davolash

c. Izoterapiya – bu issiqlik bilan davolash

d. Izoterapiya – bu yasash san’at bilan davolash

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://ru.wikipedia.org>

2. <https://koreajob.ru/>

3. <https://www.maam.ru/>

QOG‘OZDAN BUKLASH YO‘LI BILAN O‘YINCHOQLAR YASASH (“ORIGAMI USULI”)

Reja:

1. Origami san’atining kelib chiqish tarixi.
2. Origami turlari.
3. Origami usulida o‘yinchoq yasashga o‘rgatishning ahamiyati.
4. Origami usulida o‘yinchoq yasash.

Tayanch tushunchalar: origami san’ati tarixi, uning turlari, maktabgacha yoshdagi bolalarga origami o‘yinchoqlarini yasatishdan ko‘zlangan maqsadlar, origami usulida o‘yinchoqlar tayyorlashni o‘rganish haqida

1. Origami san’atining kelib chiqish tarixi.

“Origami” yaponcha so‘z bo‘lib, o‘zbekchaga tarjima qilinganda “buklangan qog‘oz” degan ma’noni anglatadi. Bu yapon qog‘oz buklama san’ati hisoblanadi.

Origami san’ati qog‘oz ixtiro qilingan qadimgi Xitoyda ildiz otgan. Dastlab origami diniy marosimlarda ishlatilgan. Uzoq vaqt davomida san’atning bu turi faqat yuqori sinf vakillari uchun mavjud edi, bu yerda yaxshi ta’bning belgisi qog‘ozni qatlama texnikasiga ega bo‘lish edi. Klassik origami kvadrat qog‘oz(varag‘i)dan yasalgan. Klassik origami qaychi ishlatmasdan bitta varaqdan foydalanishni belgilaydi. Bunday holda, ko‘pincha murakkab modelni shakllantirish, ya’ni unga shakl berish yoki uni saqlash uchun asl varaqni metilselyoza yoki PVA o‘z ichiga olgan yopishqoq kompozitsiyalar bilan singdirish qo‘llaniladi. Origami tarixi qog‘oz tarixi bilan chambarchas bog‘liq. U ikki ming yillikdan avval Xitoyda ixtiro qilingan. Faqat bir necha asr o‘tgach, u Yaponiyada paydo bo‘ldi.

Origami - qatlam qog‘ozi san’ati. Origami san’ati - ko‘p asrlar ilgari Yaponiya madaniyatida ildiz otgan. Yaponiyada origami diniy ramziylik bilan bog‘liq bo‘lib, u alohida ahamiyatga ega bo‘lgan.

U vaqtda qog‘oz juda qimmatbaho va noyob mahsulot bo‘lgan va faqatgina boy odamlar undan haykalchalar yasashga qodir bo‘lgan. Samuray jangchilari ularni sovg‘alar sifatida almashtirganlar, origami ularning yuklarini bezagan.

Ko‘pchilik buddist ibodatxonalarida tayyorlanadigan marosimlar buyuk origami san‘atining rivojlanishiga turtki berdi. Keyinchalik jozibali ko‘rinishdagi rangli qog‘ozlar paydo bo‘lgan. Vaqt o‘tishi bilan qog‘oz figuralari g‘ayritabiiy ahamiyatga ega bo‘lgan ibodatxona marosimlarining asosiy bezak qismiga aylangan.

Bu origami san‘ati turli ijtimoiy sinflarni ajratib turadigan vositaga aylandi. Vaqt o‘tishi bilan, yangi raqamlar paydo bo‘ldi. Yaponiya yaponiyaliklarning avloddan avlodga, kattalaridan yoshlariga qadar og‘zaki shakllanadigan san‘at bo‘lib qolavergan. Qog‘oz nisbatan arzonlashgandan so‘ng, hamma uni o‘rganib olgan. Birinchi yozma ko‘rsatma Hayden Sembazuru Orikata (kranni katlama uchun mingdan ziyod usul) chop etilganda 1797-yilga to‘g‘ri keladi. Keyinchalik, 1845-yilda “Kan-no Mado” kitobi chop etildi.

Evropada dastlabki o‘n oltinchi asrda paydo bo‘lgan qatlama pechati san‘atidir. Qog‘ozlarning to‘liq aniqligi aniqlanmagan bo‘lsa-da, o‘sha kunlarda ularning borligidan dalolat topildi.

Uning qanotlarini qushli haykaltaroshlar yaponiyadan ko‘proq. Qushlarni tayyorlash jarayonini tavsiflovchi ko‘rsatmalar Evropada faqat XIX asrning oxirida chop etildi. Evropada birinchi marta 1878-yili Parijda bo‘lib o‘tgan Butunjahon ko‘rgazmasida ilk marta paydo bo‘lganiga ishonish uchun asos bor, u yerda yunonlar evropaliklarga uning qatlama jarayonini ko‘rsatdilar. Shu vaqtdan boshlab, shubhasiz, g‘arb va sharq an‘analari, shu vaqtga qadar mutlaqo mustaqil ravishda rivojlangan, birlashtirildi. Bu butun dunyoda qog‘oz ishqibozlarining tarqalishi va rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

Ispaniyalik buyuk yozuvchi va faylasuf Migel de Unamuno qog‘oz qushlarni tayyorlashni yaxshi ko‘rardi. U hatto “Love and Pedagogy” (1902) kitobiga qo‘shilgan bo‘lib, “Kronologiyaga oid risola haqida eslatmalar” deb nomlangan.

U bugungi kunda ham qayta nashr etilib, kattalashtirilgan qog‘oz varaqlari uchun ko‘plab ko‘rsatmalar mavjud. XX asrning ikkinchi yarmida origami taraqqiy etdi. Ko‘pgina kitoblarning nashr etilishi dunyo bo‘ylab origami xobbilarining tarqalishiga yordam berdi.

Bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab origami san‘atini sevib shug‘ullanishgan, ammo Yaponiyada u eng keng tarqalgan. U yerda origami sinflari onalar uchun deyarli barcha maktablarda o‘tkaziladi. Bundan tashqari, Yaponiyada xususiy origami ta‘lim markazlari ochilgan bo‘lib, ularning savdo sohasidagi haqiqiy ustalari dars beradi.

Yapon Akira Yoshizava (1911-2005) bizning davrimizning eng buyuk origamishunosi deb tanilgan. Uning ko‘pgina kitoblarini nashr etib, uning mahorat sirlarini oshkor qildi. Bugungi kunda ko‘p origami qatlama metodlari ma‘lum bo‘ldi.

Origami har doim jonli mavjudotlar bilan bog‘liq bo‘lgan oddiy raqamlar tug‘ilgan o‘yin deb hisoblangan. Yaratilish uchun bir necha soat (va ba‘zan kunlar) ishlashi mumkin bo‘lgan raqamlar ham bor! Kimdir miniatyuralar qiladi, kimdir buyuk raqamlarni sevadi. Yigirmanchi asrning oxirgi o‘n yilliklarida modulli origami ayniqsa mashhur bo‘ldi. Texnik, bir qator (ba‘zan bir necha yuz) detallar qog‘oz ulab uch o‘lchovli shakllar modulli yaratish asoslangan.

Origami - bir qog‘oz varag‘ini buklab turli xil narsalar, hayvonlar, qushlar, gullar modellarini yaratishning asl yapon san‘ati. Hech kim, origami bilan kim va qachon yozgan va uning yozilmagan qoidalari qanday rivojlanganligini bilmaydi. Hatto, bu san‘at qog‘ozdan qadimgi degan fikr ham bor. Dastlabki origami shakllari an‘anaviy yapon kiyimlarini ishlab chiqarishda to‘qimachilik matolaridan kelib chiqdi. Yaponiyaliklarning ko‘p avlodlari tekis qatlamni ajoyib shaklga aylantirish qobiliyatini topshirish orqali origami uchun o‘z hissalarini qo‘shganlar.

Qadim zamonlardan boshlab, origami Yaponiyadagi hayotida boshqa rol o‘ynagan. Qog‘oz raqamlar Sinto ibodatxonalar janoza birga, to‘y stol bezatilgan bejirim kapalaklar, samuraylar g‘amxo‘rlik qarindoshlari yomon ruhlarni quvib uchun, kasal to‘shagida ustidan sehrlil qog‘oz sharlarni osilib, ba‘zi oddiy raqamlar qo‘shib, o‘rta asr to‘playdi

xonimlarni aytdilar. Avlodan-avlodga qadar qadimiy san'at mukammallashtirildi, avlodlar uchun eng oqlangan, eng mazali haykalchalarni tanladi.

Vaqt o'tishi bilan origami diniy chegaradan chiqib, faqat tanlanganlar ular bilan shug'ullanishi mumkin edi, chunki qog'oz noyob va qimmatbaho material edi. Bir kvadrat o'lchamli rasmni qo'yish qobiliyati yaxshi ta'lim, chiroyli xulq-atvor va zaif ta'mga ega.

Qadimgi Xitoyda qog'oz turli maqsadlarda va diniy marosimlarda ishlatilgan. Misol uchun, u aslida dafn marosimida vafot etgan kishi bilan birgalikda uning barcha uy-ro'zg'or buyumlarini yoqish uchun oldi osmonda davom etishini ta'minlash uchun. Biroq, keyinchalik, o'liklarning haqiqiy narsalari o'rniga faqatgina nomlari yozilgan qog'ozlar (bu kunlarda farovonlik va baxtning xohish-istaklari bilan yozilgan qog'ozli qog'ozlar Xitoyning kichik do'konlarida sotib olinishi mumkin bo'lgan) maxsus qog'ozli qog'ozlar bilan almashtirildi. Mashhur marvarid chiroqlari kabi turli xil uy-ro'zg'or buyumlari qog'ozdan tayyorlangan. Ularning ishlab chiqarishida va qatlama texnikasi ishlatilgan. Biroq, kvadrat qog'ozlardagi kattalashtirilgan shakllar Yaponiyada bo'lgani kabi, Xitoyda ham bir xil kuchli rivojlanishni olmagan. Buning sababi shundaki, yapon qog'ozi nafaqat yozuvni, ekranni, soyabonni, deraza va hatto kiyimlarni ishlab chiqarish uchun emas, balki Zen buddizm falsafasining ba'zi g'oyaviy g'oyalari namoyish qilish uchun ishlatilgan. Yapon buddistlar haqiqatni ko'rishning ajoyib usullarini yaratdilar. Uning eng haqiqiy belgisini topdilar: go'zallik. Buddizmning yapon bo'limi haqiqatni ko'rsatuvchi sifatida tanimagan, taniqli go'zallikning yo'liga ergashdi. Ushbu yo'lda yaponiyaliklar noziklik, oddiy narsalar va narsalarga sarflangan vaqtni kashf qildilar. Shu sababli origami, masalan, Xitoyda tug'ilgan emas, bu yerda zen (Xitoy) buddizm ham rivojlangan. Xitoyliklar haqiqatni boshqa tomonga qarab qidirdilar, go'zallik yo'li yo'q edi, ya'ni, go'zallik g'oyalari, haqiqat yo'lidir.

Hozirgi kunga qadar Yaponiyada katata-shiro qatlami - sakkizta oq qog'ozli qo'g'irchoqlar, bu sakkizta yo'nalishdagi baxtsizliklarning oldini olish uchun ajratilgan; qatlanmasini - qog'oz tulkiga; va Nagasi-Bu

oilaviy kelishmovchilikning ramzi bo‘lib, u va yumaloq to‘shakda qog‘oz kimono kiygan. Yovuz ruhlardan haydash va ma‘budlarni tozalash uchun, shintoistlar hali ham harom-g‘ozni ishlatishadi, oq qog‘ozli chiziqlardan yasalgan chivin. Umuman olganda, Sintoda qog‘ozning ahamiyati katta va ezoterik ma‘no ularda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga biriktiriladi.

Kamakura davri (1185-1333) va Muromachi (1333 - 1573) davrlarida origami ibodatxonalar orqasida kengayib, imperator saroyiga yetib boradi. Aristokratlar va saroylardagilar qatlash san‘atida ma‘lum qobiliyatlarga ega bo‘lishi kerak. Kalabak, kran, gul yoki mavhum geometrik shaklda qatlanmasi eslatmalar, yaqinlaringiz uchun do‘stlik yoki yaxshi istaklarning belgisidir. Ba‘zan so‘zlar bilan amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan narsalarga qaraganda ko‘proq e‘tibor, sevgini namoyon etishga muvaffaq bo‘ldilar. Qo‘shib qo‘yish qobiliyati yaxshi ta‘lim va nozik xulq-atvor belgilaridan biriga aylandi. Turli xil oila a‘zolari origami belgilarini qurol va muhr sifatida ishlatgan.

Azu-Momoyan (1573 - 1603) va Edo (1603 - 1867) davrlarida origami tantanaviy san‘atdan mashhur o‘yinlarga aylandi. Keyinchalik qog‘oz hashamatli bo‘lishni to‘xtatdi va origami oddiy xalq orasida tarqaldi. Keyinchalik, uch yoki to‘rt yuz yil ilgari, bir qator yangi raqamlar ixtiro qilingan va keyinchalik klassik bo‘lgan. Ular orasida yapon krani (zuru) – an‘anaviy Yapon baxtiyorlik va uzoq umr ko‘rish ramzi. Yaponiyada origami san‘ati avloddan avlodga o‘tib, asosan ayollar liniyalari orqali an‘anaga aylanib qoldi. Origami tarixchilarining ta‘kidlashicha, qatlama shakllari va raqamlar to‘plami qizning o‘sishi va o‘rgatilgani Yaponiya viloyatini aniqlashi mumkin.

Shunday qilib, Shinto origami kelib chiqishiga jalb qilingan va buddistlarning diqqatini qog‘oz qog‘ozining siriga qaratgan. Yapon tilidagi so‘zlar “qog‘oz” va “xudo” – “kami” ning o‘xshashligi ham muhim edi. Diniy urf-odatlar va qatlanmasi qog‘ozlardan tayyorlangan buyumlar o‘rtasidagi sirli aloqalar yaponiyaliklarning g‘oyalarida paydo bo‘ldi. Tasodifan birinchi origami Shinto ibodatxonalarida paydo bo‘ladi. Ularning ishlatilish marosimlaridan biri sanballaning kichik qog‘oz qutilarini ishlab chiqarishda ishlatilgan bo‘lib, ular baliqlar va sabzavotlar

parchalari bilan to'lib, ularni xudolarga qurbonlik sifatida taqdim etishgan.

20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab shakllanish yangi turdagi origami modullarini yaratdi. Yaponiya, Evropa va AQShdagi etakchi origami ustalarining ko'pchiligi muayyan miqdordagi pog'onali segmentlarga asoslangan asosiy shakllarga asoslangan mahsulotlardan qoniqmasi. Asta-sekin, ushbu asoslardan olingan raqamlar soni ortib borгани uchun, qatlam stereotipik holga aylanadi. Bu haqiqat origamistlarga hozirgacha yaratilgan hamma narsa kabi emas, balki butunlay yangi asosiy shakllarni yaratishga olib keldi. Asosan ushbu asosiy shakllar dunyoning etakchi institutlari va universitetlarining matematik, arxitektura, badiiy va grafik yo'nalishlarida yaratilgan. Mahsulotning yangi shakllarini yaratish, yuqori matematikani bilish, tavsiflovchi geometriya va kompyuter grafikalarini talab qilish kerak. Modular origami qaychi va elimdan foydalanishni inkor etmoqda, modul ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'lgan katak va cho'ntaklarni ulash uchun ishlatiladi. Ushbu turdagi origami jumboqqa xos bo'lgan jozibasi bor, garchi u geometriya va stereometriyani yaxshi bilishni talab qiladi.

Origami uchun asosiy material qog'ozdir. Qog'oz dastlabki sabzavotlardan tayyorlangan. Yaponiyada guruch qog'ozini tayyorlangan. U tatamigami orisue, kami-orimono, origata deb atalagan va boshqa oq kvadrat shakl bo'lgan. O'n to'qqizinchi asrning oxirida Yaponiyaga ilgari noma'lum rangli qog'oz keltirildi. U origami sifatini sezilarli darajada oshirdi va tez mashhur bo'ldi. Bundan tashqari, rangli qog'ozning paydo bo'lishidan boshlab, standart origami qog'oz o'lchami kvadratga aylandi. Origami bugungi kunda nima uchun mashhur? Qog'oz bugun juda arzon material. Ularning xilma-xilligi sizning qobiliyatingiz, mashg'ulotlar darajasi va bo'sh vaqtning mavjudligi bo'yicha bu raqamni tanlash imkonini beradi.

Dastlab bu san'at turi diniy xususiyatga ega bo'lib, muqaddas marosimlarda qog'oz yozuvlari ishlatilgan. Origami ko'rsatmasi faqat yuqori sinflarga tegishli edi va juda muhim mahorat hisoblandi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng, origami butun dunyoga yoyilib, nafaqat kattalarni, balki turli yoshdagi bolalarni ham qiziqtirdi.

Original origami ko'p rangli kvadrat qog'ozdan foydalanishni o'z ichiga oladi. Biroq qaychi va yelim an'anaviy texnologiyada qo'llanilmaydi.

2. Origami turlari.

Origami san'atining bir necha xil turi mavjud:



Modulli origami. Qatlamli qog'ozlarni eng mashhur va vaqt sarflaydigan usullaridan biri. U bir necha bloklardan yoki modul deb ataladigan katta, uch o'lchamli shakli yaratish uchun ishlatiladi. Birinchidan, bir nechta komponentlar bir xil yoki turli xil qog'oz o'lchamidan iborat bo'lib,

ular bir-biriga sarmoya kiritib, yakuniy tarkibga aylanadi. Ishqalanish kuchi butun tuzilishni parchalanishiga yo'l qo'ymaydi. Modulli origami modelining ajoyib namunasi - ko'pincha *bayram dekorasida* ishlatiladigan volumetrik to'p va ko'pchilikka yaxshi ma'lum.

Oddiy origami - Origami turlari yangi boshlanuvchilar uchun



mo'ljallangan yoki nogironlar uchun mo'ljallangan. Avval ingliz origami fanati Jon Smit tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu tizimda faqatgina tog' va vodiy qatlamlarini ishlatishingiz mumkin. Bu esa, o'z navbatida, klassik texnikadan eng murakkab usullarni qo'llashning mumkin emasligini anglatadi.

Shuning uchun murakkab manipulyatsiz kerakli natijalarga erishishga imkon beradigan yangi texnikalar ishlab chiqilmoqda.


Islom qatlami. Origami uslublari turlari Akira Yesidzyava



tomonidan suv bilan namlantirilgan qog'ozdan foydalangan holda ishlab chiqilmagan holda to'liq emas. Flot va hayvonlarning haykallarini yaratish uchun ho'l qatlam keng tarqalgan. Nam qog'oz, chiziqlar yanada yumshoq va yanada mazmunli bo'lishi mumkin,

shuningdek, ma'lum bir qat'iylik beradi. Ushbu turdagi ijodkorlik uchun maxsus qog'oz ishlab chiqariladi, unda suvda eruvchan yelim qo'shiladi.

Kirigama. Bu qaychi ishlatishga ruxsat beruvchi yagona turdagi



origami. Uch o'lchamli elementlarga ega bo'lgan chiroyli kartochkalarni yaratish uchun ishlatiladi.

Kirigama origamida qaychi murakkab qismlarni qirqish uchun ishlatiladi. Yelim yasalgan oddiy qismlarni bir-biriga birlashtirish uchun ishlatiladi.

Monegami. O'z pullarini qayerga qo'yishni bilmagan, aksincha,



moliyaviy tomondan muvaffaqiyat qozonishga harakat qilayotgan kishilar uchun juda mos bo'lgan san'at turi. Ushbu uslubning raqamlari banknotlardan iborat. Puldor kishilar bir-birlariga puldan origami o'yinchoqlarini aksesuarlar sifatida yasab sovg'a qilishadi. Puldan yasalgan o'yinchoqlar pul olib keladi degan

maqsadda berishadi.

Quilling. To'liq tuzilgan rasmlarni yaratish uchun javob beradi.



Qog'oz kerakli shaklni olish uchun maxsus tarzda buriladi. Keyin u tayanchga yopishtiriladi. Bu usul murakkab emas, balki vaqt talab qiladigan mashg'ulot. Quilling origami san'ati juda chiroyli, maroqli, keng tarqalgan amaliy mashg'ulot hisoblanadi.

Kusudama uslubi nima? Modulli origami turlari ko'pincha



Kusudama texnikasi bilan aralashadi, bu esa modullardan volumetrik dumaloq shaklni yaratishni nazarda tutadi. Farqi shundan iboratki, modomiki origami bilan to'pning tarkibiy qismlari bir-biriga qo'shib, kusudama yopishtirilgan yoki biriktiriladi.

Origami qog'ozini tanlash muhim sanaladi. Origami yasash vaqtida qog'oz eng muhim material hisoblanadi. Origaming turlari yasash texnikasi turli xil va turli xil zichlikdagi sifatli qog'ozlarni talab qiladi.

O'rtacha zichlikdagi ofis qog'ozini, juda yumshoq, ikki tomondan ranglar modulli origami uchun juda mos keladi. Qog'ozning sifati qatlamlarda oq bo'lmasligi bilan belgilanadi. Yozuvlar uchun ko'p rangli Kusudama yoki modulli origami uchun juda mos keladi. Uchburchak modul to'rtburchaklar cho'yshablardan yasalgan, shuning uchun siz yarim kvadrat tayoqni yarmida uchburchak modul uchun mos bo'lasiz. O'zgartirishlarni talab qilmaydigan to'rtburchaklar yorliqlar mavjud.

Origami uchun mo'ljallangan maxsus qog'oz mavjud. U odatdagidek, har xil o'lchamdagi kvadratlarga sotiladi. To'siqda siz turli xil ranglardagi (bir tomoni oq, boshqa ranglar) yoki naqshli qog'ozlarni topishingiz mumkin.

Bolalar uchun xuddi shunday to'siqlar mavjud. Farqi shundaki, modulli origami bir xil rangdagi qog'ozlarni talab qiladi va bolalar

to'plamlarida juda ko'p turli xil ranglar mavjud. Lekin bolalar to'plamlarida nodir ranglar, masalan, qora va jigar ranglarini topishingiz mumkin. Yetarli darajada g'alati, ammo bu ijodiy jarayonda jurnal qog'ozi ham ishlatilgan. Uning sifat ko'rsatkichlari raqamlarni yaratish uchun juda mos keladi, yozuvlar va tasvirlar qiziqarli bezakni kafolatlaydi.

3. Origami usulida o'yinchoq yasashga o'rgatishning ahamiyati.

Origami bolalarning qo'llarini baholashga imkon beradi, juda muhim ko'nikmalarga ega bo'lishga yordam beradi. Yaratuvchanlik bilan fikrlashni, barmoqlarni, muvofiqlashtirishni, tasavvurni, nozik yashirin qobiliyatlarni rivojlantiradi. Bola yaxshi bilimni, masalan, geometriya sohasini yaxshiroq anglaydi. Amalda, u diagonal, burchak nima ekanligini o'rganadi, shuningdek, geometrik tushunchalarni anglaydi. Hissi yaxshilanadi. Origami shakllari yaratish jarayonida bola xayoloti, analitik fikrlash, ixtirochilik bilan bog'liq qaror, strategiyalari ishlab chiqadi. Vazifalarni uddalaydi. Bolaning rivojlanishi uchun juda muhimdir. Kattalar ham origami sinflarida juda ko'p ijobiy fikrlarni topishadi.

Origami uchun kerak bo'lgan barcha narsalar qog'oz, qaychi, orzu va ozgina sabr-toqatdir. Agar yo'riqnomani diqqat bilan kuzatib borsangiz, u juda foydali va qiziqarli mashq bo'ladi. Origami - qog'ozdan turli xil raqamlarni yasash san'ati. Origami qadimgi davrlardan ma'lum va u yerda qog'oz ixtiro qilingan Xitoydan kelib chiqadi. Keyinchalik, Yaponiyaga qiziqarli uslub keldi, u yerda u juda mashhur bo'ldi.

Qog'oz origami qiziqarli va ajoyib ish. Ham kattalar, ham bolalar uni yaxshi ko'rishadi. 3 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar origami san'ati bilan shug'ullanish uchun ayniqsa foydali. Ushbu badiiy shakl qo'l, bo'sh joy tasavvur va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Bundan tashqari, qisqa amaliyotdan so'ng, yaqinlaringizga o'z qo'llaringiz bilan sovg'alar bera olasiz. Yangi o'yinchoqlarning quvonchini qadrlash qiyin.

Bolalar nutqining rivojlanishi nozik vosita mahoratining holati bilan chambarchas bog'liq. Bolalarni tayyorlash barmoqlari aqliy rivojlanishni rag'batlantirmoqda va kiyimni echish, tugmachalarni tugatish va tugmachalarni tugatish, qayiqni, qaychi kabi asosiy elementar

qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Barmoqlaringizni tayyorlash sizning qo‘lingizni yozish uchun tayyorlaydi. Qo‘lning barmoqlari harakati to‘g‘ri va muvofiqlashtiriladi.

Olimlar barmoqlarning nozik harakatlarini o‘qitish bo‘yicha tizimli ishlar, nutqni rivojlantirishga ta’sir etuvchi ta’sir ko‘rsatishi bilan birga, miya yarim qiya katakchasining mehnat qobiliyatini yaxshilash, xotirani eslash, diqqat, eshitish va ko‘rishni rivojlantirish uchun kuchli vosita ekanligini ta’kidladilar.

Ma’lumki, nutq kamchiliklari bo‘lgan ba’zi bir bolalarda, umumiy vosita yetishmovchiligi turli darajalarda, shuningdek, barmoqlarning nozik harakatlarini yaxshilaydi. Bola bilishi va ko‘p narsalarni bilishi, bilmagan, lekin mazali maktab hayotiga kirishi kerak. Origami hayotga muhim ahamiyatga ega bo‘lgan bolaga - unga yaqin va mavjud bo‘lgan san’atni tayyorlashga yordam beradi. Origami qo‘llash barmoqlarning yaxshi o‘qilishini ta’minlaydi, harakatlarning rivojlanishiga yordam beradi, barmoqlarning harakatlarining aniqligini oshiradi. Origami bolalarning ongni nazorat qilishda qo‘llari bilan ishlash qobiliyatini rivojlantiradi, Qo‘llarning nozik motor qobiliyatlari, barmoqlarning aniq harakatlari yaxshilanadi, ko‘z rivojlanadi.

Origami yordam beradi:

- nutqni rivojlantirishda kashfiyot qilish;
- talaffuzni yaxshilash va so‘z boyligini boyitish;
- yozish uchun qo‘l tayyorlash;
- diqqatni, sabr-toqatni, kerak bo‘lganda aniq ushlab turish qobiliyatini rivojlantirish;
- tasavvurni rag‘batlantirish, ijodkorlikni namoyon etish;
- o‘ynash, samolyotda va kosmosda geometriya boshlanishini boshlash;
- Origami bolalarning konstruktiv fikrlashini, ularning ijodiy tasavvurini, badiiy didini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega;
- bolaning mehnat qobiliyatini yaxshilaydi.

Origami bilan muntazam shug‘ullanish maktabgacha tarbiyachilarni maktabga tayyorlash usullaridan biri.

Rus tili o‘qituvchilari (LV Kutsakova, S. Afonkin, T.I. Tarabarina, Yu.V. Shumakov, E. Shumakova va boshqalar) va xorijiy o‘qituvchilar

(M. Kempbell, R. Harbin, E.Kennvey, A. Ioshidzawa, D. Listar va boshqalar) origami bolalarning ayrim qobiliyatlari va fazilatlarini rivojlantirish uchun juda ko‘p afzalliklarga ega ekanligini ta’kidlashadi.

Bolalarning konstruktiv ijodiga bag‘ishlangan bir qator nufuzli rus o‘qituvchilari (DV Kutsakova, 3.V.Lishvan, LVV Panteleyeva va boshqalar) ning tadqiqotlaridagi katta rol o‘ynaydi. Ushbu tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, qog‘ozning qatlanmasi maktabgacha yoshdagi bolalarning nozik motorli ko‘nikmalarini rivojlantirishga, shuningdek, ko‘z va sensor vositasini yaxshilashga faol hissa qo‘shadi.

Hozirgi vaqtda (Yu.V.D. Shumakov, E. Shumakova), origami darslarining miya faolligini oshirishga yordam berish va maktabgacha yoshdagi bolalarning har ikkala yarmida ishlarini muvozanatlashiga hissa qo‘shib kelmoqda, bu esa aqlning oshishiga, aql-zakovat, hislar, tasavvurlar, razvedka, izchillik. Ijodiy fikrlash faollashadi, uning tezligi, moslashuvchanligi, o‘ziga xosligi ortib bormoqda.

O‘z navbatida, bolalar bog‘chasi va maktab o‘rtasida ta’limning uzluksizligi muammosi bo‘yicha tadqiqotlar (T.S. Komarova, G.G.Grigoriev va boshqalar) bu aqliy jarayonlarning rivojlanishi maktabgacha tayyorlovchilarning maktabga tayyorlanishining asosi ekanligini isbotladi.

Mashhur nemis tili o‘qituvchisi Fridrix Frebelni esga olish kerak. Frebel hayot, harakat va bilim bir harmonik akkordning uch qismidir, deb ishonadi. Uning tarbiya va ta’lim falsafasi to‘rtta muhim komponentni o‘z ichiga oldi:

- Bepul faoliyat
- Ijodkorlik
- Jamiyat hayotida ishtirok etish
- Muskulli faoliyat

Ushbu g‘oyalarga asoslanib, u o‘quvchilariga ta’limiy o‘yinlarni, obyektlar bilan ishlashni taklif qildi. U hukmdorning yordami bilan emas, balki geometriya asoslarini o‘rganishni taklif qildi; kompaslar va qat’iyatli qog‘ozning haqiqiy ma’nodagi haqiqiyliги bilan izohlanadi.

Bu so‘nggi g‘oyani hayotga olib kelishga urinib, u o‘z shogirdlari bilan oddiy qog‘ozli haykaltaroslarni birlashtiradi, aslida, origamiyni


pedagogik jarayonga joriy qilish bo'yicha birinchi qadamni qo'yadi. Afsuski, XIX asrning boshlarida Frebel origami bilan to'liq tanish bo'lishi mumkin emas edi. Shu bilan birga, u jasorat bilan birinchi amaliy amerikalik ta'limchi - origamichi deb atash mumkin.

Ustoz o'qituvchilar va psixologlar origami maktabgacha yoshdagi bolalarning qo'llarida nozik vosita ko'nikmalarini takomillashtirishda va ularni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega ekanligini isbotladi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, origami texnika maktabgacha yoshdagi bolaning shaxsini har tomonlama rivojlantiradi. Bu milliy pedagogikani rivojlantirishning bugungi bosqichida juda dolzarb. Origami sinflari bolalarning uyg'un rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega, ular ijodkorlikni rivojlantirishga, tasavvurni uyg'otishga, kuzatishni faollashtirishga, diqqatni kuchaytirishga, tasavvurni kuchaytirishga, irodani tarbiyalashga, qobiliyatni, shaklni his qilishni, ko'z va rangni sezishni rivojlantirishga, xotirani mustahkamlashda yordam beradi.

O'quv jarayonida bola texnik ko'nikmalar bilan bir qatorda, atrofdagi haqiqat obyektlarini tahlil qilish, yaratilgan obyektlar haqida umumiy fikrlarni shakllantirish, mustaqil fikrlash, ijodkorlik, badiiy ta'bni rivojlantirish, qimmatli shaxsiyat xususiyatlarini shakllantirish.


4. Origami usulida o'yinchoq yasash.

Qayiqcha origami o'yinchog'ini yasashni va qayiqcha origamisining paydo bo'lishi haqidagi rivoyat bilan tanishib olaylik. Qayiqcha origamisining paydo bo'lishi haqida xalq orasida shunday rivoyat yuradi. Qadimda bir yigit va qiz sevishib qolishgan ekan. Ular shu qayiqni yasashni o'ylab topishgan ekan. Ular uchrashuvga chiqishni va




dillaridagi suhbatlarini shu qayiq qog‘oziga yozib, bir-birlariga soy orqali jo‘natisharkan. Bir gal yigit suv oqimiga xat yozilgan qayiqni tashlar ekan. Soyning suv oqimi bo‘ylab kelayotgan qayiqni ushlab o‘qirkanda, keyingi gal qiz qog‘ozga xat yozib sevgilisiga qayiq yasab oqizarkan. Shu tarzda yoshlar uchrashishgan ekan va bu sirni to‘ylaridan keyin oshkor etishgan ekan. Shu tariqa qayiqcha origamisi paydo bo‘lgan ekan.

Kuchukcha origami: Kuchukcha origamisi haqida bolalar uchun bir multifilm bor edi. Shuni hikoya qilib beraman. Bir yapon amaldori-samurayining farzandi uzoq muddatdan beri kasal yotadi. U farzandini ko‘p tabiblarga ko‘rsatadi lekin hech tuzalmaydi. Ozgina ham tuzalish alomatlari sezilmaydi. Shu tarzda kunlar o‘tib boraveradi. Bir kuni bu amaldor bir mo‘ysafid cholni o‘g‘lini ko‘rib qo‘yishi uchun chaqirtiradi. Bu chol bolani ko‘rib qo‘yadi va bolaga qog‘ozdan kuchukcha o‘yinchoqini yasab beradi. Bola bu o‘yinchoqni uzoq tomosha qilib yotib, uxlab qoladi. Tushidami yoki xayoliy ongida mo‘jiza yuz berib, kuchukchaga jon kirib, u bilan o‘ynab dalaga chiqib ketadi. Bola shu o‘yinchoq kuchukcha bilan o‘ynay boshlaydi va tuzalib o‘zi dalaga yurib chiqadi. Va shu o‘yinchoq tufayli kasaldan xalos bo‘ladi. Shu sabab ham yaponlar origami o‘yinchoqlarida ilohiy kuch bor deb hisoblashgan. Shuning uchun ham diniy marosimlarda ibodatxonalarini origami o‘yinchoqlari bilan bezatishgan.



Do‘ppi origami: Do‘ppi origami bu bizning milliy do‘ppimizning qog‘ozdan yasash uchun kvadrat shaklli qog‘ozni olib, dioganallari va tomonlari bo‘ylab buklab olinadi. Keyin to‘rt uchi markaziy nuqtaga olib kelib buklanadi. To‘rtta markaziy nuqtagacha bukilgan ushlar yarmisi, yarmisidan ikki marta buklab olinadi. Va rasmdagi kabi to‘rtta



uchi qirqiladi. Qirqilgan uchlar ishkariga buklanadi. Keyin xuddi do‘ppini buklab olib, ilgari do‘ppilarni yig‘ilgan ko‘rpa-to‘shaklar orasiga taxlab qo‘ygandek, buklab olinadi. Rasmdai ko‘rinishdagi amallarni bajarib bo‘lgach, o‘g‘il yoki qiz bola do‘ppisidek naqshlar chizib ranglanadi.

Do‘ppi yasab, chizib, ranglanib bo‘lgandan keyin insonga ijodkorlikka undashidan tashqari olam-olam quvonch bag‘ishlaydi.

Origami o‘yinchoqlari maktabgacha yoshdagi bolalarni quvontiradi, zavqlantiradi, davolaydi, o‘rgatadi, rivojlantiradi, shakllantiradi, yuksaltiradi.

Mustahkamlash uchun savollar.

1. Origami usulining kelib chiqish tarixi haqida so‘zlab bering.
2. Origami turlari haqida ma‘lumot bering.
3. Origaming rivojlanishi haqida nimalarni bilasiz?
4. Origami san‘atining maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida tutgan o‘rni haqida nimalar deya olasiz?

Mavzu yuzasidan test topshirig'i:

1. Origami nima degani?

- a. "Origami" yaponcha soʻz boʻlib, oʻzbekchada "buklangan qogʻoz" degan maʼnoni bildiradi.
- b. "Origami" yaponcha soʻz boʻlib, oʻzbekchada "namlangan qogʻoz" degan maʼnoni bildiradi.
- c. "Origami" yaponcha soʻz boʻlib, oʻzbekchada "pul qogʻoz" degan maʼnoni bildiradi.
- d. "Origami" xitoy tilidan olingan soʻz boʻlib, oʻzbekchada "buklangan qogʻoz" degan maʼnoni bildiradi.

2. Islom qatlamli origami qanday origami?

- a. Nam qogʻozdan yasash
- b. Oq qogʻozdan yasash
- c. Hoʻl qogʻozdan yasash
- d. Pul qogʻozlardan yasash

3. Oddiy origami bilan kimlar shugʻullanadi?

- a. Endi origamini oʻrganishni boshlaganlar va nogironlar
- b. Pulini koʻpaytirishni xohlovchilar
- c. Nam qogʻozdan yasashni istaganlar
- d. Murakkab origami qismlarini oʻrganuvchilar

4. Qaychi va yelim ishlatiladigan origami turi qaysi?

- a. Kirigama
- b. Monegami
- c. Kusudama
- d. Quilling

5. Monegami qanday origami turi?

- a. Oʻz pullarini qayerga qoʻyishni bilmagan, aksincha, moliyaviy tomondan muvaffaqiyat qozonishga harakat qilayotgan kishilar uchun juda mos boʻlgan sanʼat turi
- b. Pullar, money, pul qogʻozi
- c. moliyaviy tomondan muvaffaqiyat qozonishga harakat qilayotgan kishilarga xobbi
- d. Oʻz pullarini qayerga qoʻyishni bilmagan puldorlar uchun oʻylab topilgan, sovgʻa berish uchun ishlatiladigan tur

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Nurmatova M.Sh. Xasanova Sh.T. D.Azimova. Ustaxonada amaliy mashgʻulot. "Musiqqa" T.:2010-y.
2. <https://ru.wikipedia.org/>
3. <https://www.dissercat.com/>

APPLIKATSIYA HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

Reja:

1. Applikasiya turlari.
2. Mavzuli va bezakli applikasiyalar.
3. Applikasiyada qirqishning har xil usullarini bajarish.

***Tayanch tushunchalar:** Applikasiya va uning turlari, qog‘ozdan tayyorlanadigan applikasiyalarning qirqish usullari, applikasiyaning maktabgacha yoshdagi bola uchun ahamiyati haqida*

Applikatsiya lotin tilidan kelib chiqqan bo‘lib, “application” – yopishtirish degan ma‘noni bildiradi. Applikasiya gazlama, qog‘oz, metal va boshqa turli materiallardan yopishtirish yelimlash, tikish, payvandlash usuli bilan tasvirni ifodalash, naqsh ishlash va bezash san‘atidir. Applikasiya xalq amaliy san‘atida keng o‘rin tutadi. Bu usulda qog‘oz, mato, charm, somon, quritilgan o‘simliklar, urug‘lar, tashlandiq narsalar, simlar, iplardan foydalanib har xil ishlarni bajarish mumkin.

Applikatsiya xalq amaliy san‘ati hisoblanib, qadimdan rivojlanib kelayotgan hunarmandchilik turlarining taraqqiyotiga keng xizmat qilib kelmoqda. Bundan 2500-3000 yil avval qadimgi xalqlar turar joylari, kiyim-bosh, buyumlarini applikasiya orqali bezatishgan. Tarixiy shaharlarimiz Buxoro, Samarqand, Xiva kabi yodgorliklar eng qadimiy shaharsozligimizda ham mozaika usulidagi applikasiyadan foydalanilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu applikasiya san‘atining qadimiyligini dalillaydi.



Maktabgacha ta'limda applikasiya asosan qog'oz, plastilin, urug'-mevalar, tashlandiq materiallardan ishlanadi. Maktabgacha ta'limda



applikasiya tayyorlanishi mazmuniga ko'ra uch turga bo'linadi: predmetli applikasiyalar, syujetli-tematik applikasiyalar, dekarativ-bezakli applikasiyalar. Predmetli applikasiyalar bitta narsa, buyum, jonivor yoki

predmetdan iborat bo'ladi. Syujetli – tematik applikasiyalarga izchil mazmunga ega bo'lgan mavzuli applikasiyalar kiradi. Dekarativ-bezakli applikasiyalar predmetli yoki syujetli-tematik applikasiyalarga bezak berish orqali tayyorlanadi. Bezaklar naqshlar, gullar, o'simliklar kabi shakllar bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'limda applikasiyalar rangiga ko'ra shartli ravishda uch turga bo'linadi: bir xil rangdagi applikasiyalar, oq-qora rangli applikasiyalar, ko'p xil rangli applikasiyalar. Bir xil rangli applikasiyalarning asosiy qismi bir xil rangdan iborat bo'ladi. Oq-qora rangli applikasiyalarda asosan oq va qora rangda ishlanadi. Ko'pincha



oqshom payti, qish fasli tasvirlanadi. Oq-qora rangli applikasiyalar xususiyatiga ko'ra siluetli(g'ira-shira ko'rinish, soyali) turi hisoblanadi. *Siluet*-soya surat, qora sharpa, g'ira-shira ko'ringan narsaning ko'chirma tasviri hisoblanadi.

Siluyet san'ati Fransiyada paydo bo'lgan. Siluyet nomi Etin Siluyet familiyasidan olingan. Etin Siluyet XVII asrning fransuz amaldori bo'lgan. Bir kuni uyida ishlayotgan usta-rassomlarning shogirdlaridan biri Etin Siluyetni devorga karikatura chizgan. U soya sifatida ishlangan

edi. Siluet tasviri amaldorning uyiga kelgan mehmonlarga ma'qul kelgan va ular ham uylariga o'z tasvirlarini chizdira boashlagan. Shu tariqa bunday tasvirlash usuli rivojlana boshlandi va siluyet deb atasha boshlagan. Evropada bu san'at turiga ko'pgina rassomlar qiziqishgan va shu sohaning rivojlanishiga hissa qo'shishgan.

Ko'p xil rangli applikatsiyalar o'z nomi bilan ko'p xil rang ishtirok etadigan rang-barang applikatsiyalardir.

Applikatsiyalar shakliga ko'ra ikki turli bo'ladi: tekis yuzali va hajmli



applikatsiyalar. Tekis yuzali applikatsiyalar yassi yuzaga tekis qilib yopishtiriladi. Hajmli applikatsiyalar tekis yuzadan bo'rtib turadi. Hajmli applikatsiyalarda uch o'lchov mavjud. Hajmli applikatsiyalar bo'yi, eni, balandligiga ega.

Applikatsiya maktabgacha ta'limda xususiyligiga ko'ra turlari ko'p va xilma xildir.

- Geometrik applikatsiyalar
- Simmetrik applikatsiyalar
- Qatlamli applikatsiyalar
- Lentasimon applikatsiyalar
- Modulli applikatsiyalar
- Kivilingli applikatsiyalar
- Siluyetli applikatsiyalar
- Mozaikali applikatsiyalar
- Tabiiy, tashlandiq materiallardan applikatsiyalar va b.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni applikasiya mashg'uloti bilan shug'ullantirish:

- bolalarning ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi;
- ijodiy qobiliyatlarini shakllantiradi, rivojlantiradi;
- aqliy darajasini o'sib borishini ta'minlaydi;
- qo'l va barmoqlarning jismoniy harakatlarini aniqlashtiradi;

- bolada paydo bo'lgan har xil ruhiy krizesli holatlarini bartaraf etadi va davolaydi;
- atrof-olam haqidagi bilimlarining boyitishga yordam beradi;
- estetik va badiiy didni tarbiyalaydi;
- kasblarga qiziqtiradi va hunar tanlashga yordam beradi.

Applikatsiya mashg'uloti bolalarni mustaqil shaxs sifatida shakllantirishga, ijodiy qobiliyatlarini ochib berishga, fantaziya, qo'lning aniq harakatlari va barmoqlarning mayda motorikasini rivojlantirishga imkon yaratadi.

Applikatsiya tayyorlashga o'rgatish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

1-bosqish: Tarbiyachi applikatsiya tayyorlash uchun kerakli materiallarni tayyorlab oladi;

2-bosqich: Tarbiyachi hamma bolaga yetadigan qilib applikatsiyaning barcha detallarini tayyorlab oladi va bitta applikatsiyaning namunasini ko'rsatma sifatida tayyorlaydi;

3-bosqich: Bolani yosh guruhiga qarab, applikatsiya qilishga o'rgatish;

➤ Kichik yosh - 3-4 yoshli bolalar oldiga tayyor namuna qo'yiladi va namuna bilan birga ish qog'oziga ham applikatsiya detallari aynan yopishtirilishi kerak joyiga qo'yib chiqiladi. Ular joyida turgan detallarni joyiga yopishtirilishi kerak. Bolalarni kichik yoshdan applikatsiya tayyorlashga shu tarzda o'rgatiladi.

➤ O'rta yosh – 4-5 yoshli bolalarni applikatsiyaga o'rgatish kichik yosh guruhdagidek davom ettiriladi. Keyinchalik sodda mazmunli applikatsiyalarni mustaqil yopishtirishga o'rgatiladi. Applikatsiya mazmuni soddadan murakkablashib borishiga qarab, yopishtiriladigan joyiga qo'yib yoki mustaqil bajarishiga imkoniyat yaratib berish zarur. Albatta, tarbiyachi bolalarni namunaga qaraba applikatsiya tayyorlashini nazorat qiladi hamda o'gatib ko'maklashadi.

➤ Katta yosh – 5-6 yoshli guruh bolalarni applikasiyaga o'rgatishda ko'pincha namunaga qarab mustaqil applikatsiya tayyorlashga

o'rgatiladi. Bola namunaga qarab mustaqil ravishda applikasiya tayyorlashga o'rgansa, fikr-mulohaza qilib ijodkorligi oshadi.

➤ Tayyorlov yoshigadi -6-7 yoshli bolalar guruhi namunaga va erkin(namunaga qaramasdan) mavzuda applikasiyalar tayyorlashga o'rgatiladi. Endi bu yoshga applikasiya tayyorlash bilim, ko'nikma, malakalar egallangan bo'ladi.

3-bosqich: har bir yosh guruhda bolalar tayyorlagan applikasiyalari ko'rgazmaga qo'yiladi va ota-onalariga ham namoyish etiladi.

Kichik yosh guruhlarda applikasiya detallari tarbiyachi va yordamchi tarbiyachi tomonidan tayyor yoki yarim tayyor qilib yasab oladi. Tayyorlov guruhi bolalari ko'proq mustaqil ishlashadi. Ikkinchi, uchinchi yosh guruhlarda ham predmetli applikasiyalarni erkin, mustaqil yasatish kerak. Nimaga deganda bola ishbilarmonlik, uddaburonlik, tadbirkorlik va ijodkorlikni o'rganadi.

Applikasiya bolaning mayda motorikasi, yirik motorikasi, sensomotorikasini va aqliy, axloqiy, estetik, ekologik, iqtisodiy tafakkurini tarbiyalaydi. Applikasiyani qog'ozda nisbatan qirqish usullarini ko'rish, uchratish mumkin. Ular: qog'ozni ko'zda chamalab



qirqish, kontur chiziq bo'ylab qirqish, buklab(simmetrik) qirqish, yirtish orqali qog'ozni qirqish, murakkab shakllarni va ichki qismlarini qirqish usullari mavjud.

➤ qog‘ozni ko‘zda chamalab qirqish usuli hech qanday chiziqsiz ko‘z bilan o‘lchov olib qirqish usuli hisoblanadi. Bu usulni qirqa olishga ko‘zi yetgandagina amalga oshirish mumkin. Masalan: nok, olma kabi shakllarni chizmasdan ikkiga buklab ko‘z oldiga keltirib chizib qirqishdir.

➤ kontur chiziq bo‘ylab qirqish usuli simmetrik bo‘lmagan shakllarni chetki chizig‘i bo‘ylab qirqish tushuniladi. Masalan: ayiq shakli simmetrik emas. Uni faqat chetki kontur chizig‘i bo‘ylab qirqish mumkin.

➤ buklab(simmetrik) qirqish usulida buklaganda ustma-ust tushadigan barcha shakllar tushuniladi. Masalan: olma, nok, gullarning gulbarglari, o‘simliklarning barglari va b.

➤ yirtish orqali qog‘ozni qirqish usuli qog‘ozni yulib-yulib olib shakllarga yopishtiriladi.

➤ murakkab shakllarni va ichki qismlarini qirqish usulida murakkab shaklli naqshlar, qorparchalar kabi figuralarni qirqib olishda ishlatiladi. Ichki qismlariga uchi o‘tkir, uchi biroz qaytgan qaychi ishlatiladi. Applikatsiyaning bu qirqish usulini bolalarga o‘rgatilmaydi. Faqat dars mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rishda va bayram dekaratsiyalarini tayyorlashda tarbiyachi o‘zi bajaradi. Albatta, bolalar xavfsizligini ta‘minlagan holda bolalardan alohida joylarda tayyorlaydi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarni applikatsiyaga o‘rgatish, bolalarning dunyo haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi, fikrlashi, tafakkurini o‘stiradi, o‘zini va dunyoni anglay boshlaydi, ijodkorlik qobiliyatlari namoyon bo‘ladi, kelajakda kasb egallashiga ko‘maklashadi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Applikatsiya tarixi haqida nimalarni bildingiz?
2. Applikatsiyaning mazmuniga, rangiga, shakliga, xususiyligiga ko‘ra qanday turlarga ajratish mumkin?
3. Applikatsiyani maktabgacha yoshdagi bolalarga o‘rgatishdan maqsad nima deb o‘ylaysiz? Fikringiz?

Mavzu yuzasidan test topshirig'i:

1. Applikatsiya so'zi qaysi tildan olingan va qanday ma'noni anglatadi?

- a. Applikatsiya lotin tilidan kelib chiqqan bo'lib, "application" – yopishtirish degan ma'noni anglatadi.
- b. Applikatsiya grek tilidan kelib chiqqan bo'lib, "application" – joylashtirish degan ma'noni anglatadi.
- c. Applikatsiya yunon tilidan kelib chiqqan bo'lib, "application" – yelimlash degan ma'noni anglatadi.
- d. Applikatsiya arab tilidan kelib chiqqan bo'lib, "application" – yopishtirish degan ma'noni anglatadi.

2. Applikatsiya mazmuniga ko'ra necha turga bo'linadi?

- a. 3 turga
- b. 2 turga
- c. 4 turga
- d. 5 turga

3. Predmetli applikatsiyalar qanday applikatsiyalar?

- a. Bitta narsa, bitta jonivor, bitta inson, bitta o'simlik, bitta predmet tasvirlab yopishtirilgan
- b. Bittadan bir nechta predmetlarni birlashtirib yopishtirilgan
- c. Bitta mavzuga oid bir nechta narsalarni yopishtirish tushuniladi.
- d. Bitta narsa, bitta jonivor, bitta inson, bitta o'simlik, bitta predmet tasvirlab yelimlangan

4. Dekorativ applikatsiya nima?

- a. Applikatsiyalarga naqshlar, gullar yoki boshqa biror narsa bilan bezak berilgan bo'lsa
- b. Bitta predmetdan iborat applikatsiya bo'lsa
- c. Predmatli applikatsiyalarni bezatish
- d. Faqat syujetli-tematik applikatsiyalarga naqshlar, gullar yoki boshqa biror narsa bilan bezak berilgan bo'lsa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. G.A.Amirova, A.P.Sulaymonov, B.R.Djurayeva "Maktabgacha ta'lim muassasalarida applikatsiya mashg'ulotlari" Toshkent. 2014-yil
2. G.A.Amirova "Tabiatni estetik idrok etish" Toshkent, 2013-yil
3. M.Sh. Nurmatova, Sh.T. Xasanova, D.Azimova Ustaxonada amaliy mashg'ulot. "Musiqqa" T.:2010 y.
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Applikatsiya>

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TABIIY VA TASHLANDIQ MATERIALLARDAN TURLI O'YINCHOQLAR YASASH

Reja:

1. Tabiiy materiallar bilan ishlash usullari.
2. Tashlandiq materiallar bilan ishlash usullari.
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiiy va tashlandiq materiallardan turli o'yinchoqlar, narsalar yasash hamda zaruriy materiallar.

Tayanch tushunchalar: Tabiyatdagi tabiiy va tashlandiq materiallar bilan ishlash yo'llari, yasash usullari va tarbiyachilar hamda bolalarni ijodkorlikka undash haqida

1. Tabiiy materiallar bilan ishlash usullari.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan tarbiyachi rahbarligida tabiiy materiallar to'plash uchun ekskursiya tashkil etiladi. Ekskursiyaga chiqish oldidan bolalarga tartib-qoidalar va nimalar yig'ish kerakligi haqida ma'lumot beriladi. Tarbiyachi bolalarni guruhlariga ajratib oladi. Shundan so'ng, uyushtiriladigan ekskursiya rejasi tuziladi. Keyin ularga yig'ishi kerak bo'lgan tabiiy materiallardan namunalari ko'rsatiladi. Bolalar namunani tanib olib to'play boshlaydi. Ekskursiyani kuz faslida tashkil etish zarur. Kuz faslida barglar xazon bo'la boshlaydi. Bolalarning e'tiborlari va aqliy faoliyatlarini kuzatilayotgan obyektning zarur bo'lgan asosiy muhim belgilari va xususiyatlarini ajratishga, to'planayotgan materialni to'g'ri baholashga yo'llaydigan savollar tuziladi. Tabiiy materiallar yig'ish jarayonida guruh bolalari bir-birlariga yordam berishadi.

Daraxtzorga kelganda bolalar kayfiyati ko'tarilib, ular har narsaga qiziqish bilan qaraydilar, barglar, ularning ranglari bolalarni ajablantiradi. Ular kuzning butun go'zalligini, uning ranglarini, to'kilgan barglar hidi va ular o'zining elastiklik xususiyatini yo'qotganligini, qattiqlashib, sinuvchan bo'lib qolganligini ko'radilar. Bolalarning atrof-tabiat bilan zavqlanishlari kamayib borishiga qarab, ularning e'tibori barglarning

shakli, daraxtlar navlariga qaratiladi. Ana shu vaqtda o‘simliklarda sodir bo‘layotgan ichki jarayonlar qisqa va tushunarli shaklda bayon etib beriladi: jumladan, o‘simlik yangi sharoitlarga moslashib, qishga tayyorgarlik ko‘ryapti. Barglarni to‘kish bu o‘ziga xos himoya turidir, chunki barglar suvni ko‘p bug‘lantiradi, qishda esa tuproqdan namlik juda kam miqdorda keladi. Shundan keyin bolalarning e‘tibori atrofda uchib yurgan kapalak, ninachilarga, ularning asosiy belgilariga jalb qilinadi. Uchib yurgan hasharotlar ularning tuzilish shakllari mehnat darslarida hasharotlar applikatsiyasini tayyorlash uchun obraz, to‘plangan barglar material xizmatini o‘tashi kerak.

Bolalar barglarni to‘plar ekanlar, ularning ranglari, shakllarini qiyoslashni o‘rganadilar, bu ularning kuzatuvchanligini o‘stirishga yordam beradi. To‘plangan barglar oldindan tayyorlab qo‘yilgan daftar varaqlari orasiga qo‘yiladi. Shundan keyin bolalarga barglarning mehnat mashg‘ulotlarigacha rangini yo‘qotmasligi, buralib ketmasligi uchun qanday ishlov berish kerakligi tushuntiriladi. Har bir ekskursiyada bolalarning e‘tibori insonning yaratuvchilik mehnatiga albatta jalb etilishi kerak. Ekskursiya oxirida unga yakun yasaladi, ekskursiyada egallangan bilimlar umumlashtiriladi. Bundan tashqari, bolalarga kapalak va ninachilar tasviri tushirilgan rasmlarni ko‘rish, ularning tanasi va qanotlarining shakli, rangi qandayligiga alohida e‘tibor berish topshiriladi.

Bunday uyushtirilgan ekskursiyadan keyingi mashg‘ulotda bolalar applikatsiyalarni zo‘r ishtiyoq bilan namoyish qiladilar, agarda applikatsiyani o‘z istaklariga ko‘ra, o‘zlari to‘plagan materiallardan mustaqil yasash topshirilsa, qiziqishlari yanada ortadi.

Ijodiy xarakterdagi ishlar. Masalan: “Baliqlardan kompozitsiya tuzish”. Tarbiyachi umumiy vazifa beradi, bolalar esa, tarbiyachi namunasi asosida o‘z variantlarini izlaydilar.

Tarbiyachi doskaga baliq rasmi tasvirlangan plakatni osib qo‘yib, bolalar bilan birgalikda baliq tanasi, baliqning boshi, qanotlari, dumining shakli tahlil qilinadi. Baliq turiga ko‘ra uning tanasi, qanot va dumlari har xil bo‘lishi mumkinligi aniqlanadi, shuning uchun bu ishda turli tabiiy materiallardan foydalanish mumkin bo‘ladi. Shundan so‘ng, ishni

bajarish tartibi aniqlanadi. Avval baliq qismlari uchun material tanlash, uning umumiy tarhini chizish kerak. Shundan keyin, qaysi detalning qanday tartibda yelimlanishini, detallarning joylarini aniqlash va soʻngra ishga kirishish lozim. Bunday yumushlar bajarilayotgan ishga ijodiy yondoshishni oʻstirishga yordam beradi. Mashgʻulotga yakun yasash va bajarilgan ishni baholashda tarbiyachi foydalanilgan materiallar nomini soʻraydi.

Ijodiy-rivojlantiruvchi muhitni toʻgʻri tashkil etish bola shaxsining har tomonlama yetukligi: mustaqil, maqsadga intiluvchan, ishni toʻgʻri rejalashtira olish qobiliyatlarini takomillashtiradi. Bunday vaziyat bolani toʻgʻri anglab harakat qilishga oʻrgatadi. Tarbiyachilar bolalarning oʻxshamaydigan xislatlarini qadrlashlari, oʻziga xos individual boʻlishlarini hurmat qilishlari lozim.

Tarbiyachilar! Bolani majburlamang, bolaning erkin faoliyat yuritishi uchun imkoniyat yaratib bering. Eng asosiysi, hamma narsa bola uchun qiziqarli boʻlishi lozim. Tabiiy materiallar bilan ishlaganda xafvsizlik qoidalariga amal qilish zarur.

Tabiiy material bilan ishlashda asosiy vazifalar:

➤ Kelgusi ish uchun tabiiy materiallarni tanlashda ishbilarmonlik koʻnikmalarini shakllantirish.

➤ Materialni oldindan tayyorlash va ishda foydalanish koʻnikmalarini shakllantirish (keraksiz qismlarni olib tashlash, kosmosga joylashtirish, birlashtirish, mustahkamlikni saqlash va boshqalar).

➤ Tayyorlangan buyumning tasvirini oʻtkazish koʻnikmalarini shakllantirish.

➤ Tabiiy materiallarning xususiyatlarini mustaqil aniqlash va ulardan foydalanish qobiliyatini shakllantirish.

Bolalar tomonidan tabiiy materiallardan yasalgan buyumlardan foydalanish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega: turli xil turlari ikebana, somondan yasalgan hunarmandchilik, hayvonlar, qushlar, hayvonlar, hasharotlar haykalchalari va boshqalar xonalarni bezash uchun, sovgʻa qilib taqdim etish uchun yasaladi. Yasash mashgʻuloti bolalar uchun juda qiziq. Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida bolalar jonli va jonsiz tabiat materiallaridan ham oʻynab-quvna oʻyinchoqlar yasashadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar qishki mavsumda qor yoqqanda qordan qorbolalar, qorli uylar yasashadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga qorsiz bo'lgan kunlari va yil davomida maxsus o'yin maydonchalarida qum to'kilgan bo'ladi. Shu qumlardan tog'lar, qordan hayvonlar va qushlarning haykalchalari, uy qurish ishlari, mayda toshlardan - quduq, ilonlar, toshbaqalar va boshqa narsalar yasash tavsiya etiladi.

Qum bilan ishlash uchun turli xil katta-kichik chelakchalar, elak, sug'orish idishi, belkurak, qoshiqlar, hayvonlar, o'yinchoq transport vositalari, turli xil figurali qoliplar, o'yinchoq oshxona jihozlari kerak bo'ladi. Qiz bolalar qum bilan o'ynagandanda, qumdan ovqatlar pishirish o'yinini sahnalashtiradi. Ya'ni onalariga imitatsiya(taqlid) qilishadi. Uyida onalarining ovqat pishirish jarayonlarini kuzatganlarini qayta sahnalashtirib o'ynashadi. Ha, ha, idishlarni qum qutisida muvaffaqiyatli ishlatish mumkin - bola qumdan ovqatni "pishirish"ni yaxshi ko'radi. Aytgancha, nafaqat qizlar, balki o'g'il bolalar ham zavq bilan pishiradilar! Qum qutisidagi "ovqat"ni tayyorlash paytida siz sho'rvaga turli xil ingredientlarni qo'shishingiz mumkin, u bolalar kostryulkalarida pishiradi: toshlar, o'tlar, burglar va hu kabi oldida uchragan narsalarni ishlatadi. Masalan: toshlarni oshning go'shti, o'tlar va barglarni ko'katlar o'rnida ishlatishadi.

O'g'il bolalar qumdan ko'pincha qurilish o'yinlarini o'ynashadi. Sayr vaqtida o'g'il bolalar plastik o'yinchoq mashinalar to'plami – bir nechta yuk mashinasi, ekskavator va traktorni olib o'ynaydi. Bu o'yinchoqlarni uy qurish o'yinlarida foydalanadi. Bolalarda qumdan ertak qasrlar, yo'llar, ko'priklar, tunnellar qurish qobiliyatini rivojlantirish, muomala qilish qobiliyatini mustahkamlash, bolalarning tasavvurini va ijodkorligini rivojlantirish, bir-biriga do'stona munosabatni, birgalikda qurish istagini rivojlantirish zarur.



Qarag‘ay, eman daraxti g‘uddalaridan va yog‘ochli qismidan bolalar yer maydonchalarini bezash uchun va boshqa maqsadlarda turli ijodiy ish namunalarini yasash mumkin. Tabiiy materiallar rasmdagi kabi chiziladi va ranglanadi. Bundan tashqari, urug‘ mevalar: mosh, no‘xat, loviya, tarvuz urug‘i, qovun urug‘i, pista, bodom, oshqovoq urug‘lari, guruch, bug‘doy, kunjut, sedana, paxta, paxta chigiti va boshqa tabiiy jonli va jonsiz tabiat materiallardan ijodiy ish namunalarini tayyorlash mumkin. Bu ayiqcha applikatsiyasini tayyorlash uchun bolalarga ikkita namuna qo‘yiladi va tushuncha beriladi. Birinchi namunada chizilgan ayiqcha, ikkinchi namunada tayyor bo‘lgan holati bolalar oldiga qo‘yiladi va yopishtirish jarayoni tarbiyachi hamda bolalar birgalikda olib boriladi. Bolalar uchun bu ijodiy jarayon qiziqarli, zavqli, ularni mehnat qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi, aqliy faoliyatini rivojlantirishga va atrof-alam haqidagi bilimlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

2. Tashlandiq materiallar bilan ishlash usullari.

Tashlandiq materiallar tabiiy materiallar bilan ishlashning bir turidir. Maktabgacha ta’limda tashlandiq materiallar deganda ishlatib bo‘lingan narsalar tushuniladi. Tashlab yuborishi kerak bo‘lgan materiallarni tashlab yubormasdan nimadir kerakli buyumlar, o‘yinchoqlar yoki ta’limiy-ko‘rgazmali qurollar yasaladi. Maktabgacha ta’limda tashlandiq materiallar bilan ishlash keng tarqalgan. Tashlab yuboriladigan materiallardan o‘yinchoqlar, applikatsiyalar qilish bolalarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishga, borliqni idrok qilishga, o‘z “Men”ini anglashga, estetik didini oshirishga, ishbilarmon bo‘lishga zamin hozirlaydi. Tashlandiq materiallar bilan ishlashda gigiena va xavfsizlikka amal qilish muhim sanaladi. Tashlandiq materiallarga avval ishlov berililadi, ish keyin boshlanadi. Materiallar xavfsiz bo‘lishi lozim.

Tabiiy va tashlandiq materiallar bilan ishlash usullari:

➤ Vizual (namuna ko'rsatish, rasmlarni ko'rish, ish ketma-ketligini bajarish).

➤ Og'zaki (tushuntirish, tavsiflash, rag'batlantirish, ishontirish).

➤ Amaliy (mustaqil va qo'shma hunarmandchilik).

Tabiiy tashlandiq materiallar bilan ishlashda yelim, qaychi, cho'tka, PVA kley, rangli qalamlar, guash, akvaril, pichoq, igna kabi jihozlar ishlatiladi. Albatta, o'tkir tig'li jihozlar bolalar oldida turmasligi va ishlatilmasligi kerak. O'tkir tig'li jihozlardan tarbiyachi o'zi bolalardan holi uyda ishlagan vaqtlarida foydalanadi.

Plashtik idishlardan kerakli buyumlar tayyorlash uchun bakalashka, qaychi, guash kerak bo'ladi. Shampun qutilaridan ertak qahramonlarini tayyorlash mumkin. Musqaymoq yeydigan cho'plardan o'yinchoq stol, stul, halinchak, organayzer, uychalar va boshqa narsalar yasash mumkin.



Bir marta ishlatilgan tashlab yuborishga kelib qolgan predmetlarni qayta ishlash keng tarqalgan. Bu noan'anaviy usullardan biri bo'lib, undan foydalangan holda ijodiy modellashtirishga asoslangan samarali faoliyat turi bilan shug'ullanish, odatda chiqindiga aylangan narsalarga ikkinchi hayot berishga imkon beradi. Ishlatib bo'lingan materiallardan yasashning asosiy maqsadlari bolalarning ijodiy, intellektual va badiiy qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, ekologik ta'lim berish hamdir.

Tashlandiq materiallardan harsalar yasash bolalarga ko'p foydali g'oyalar, rivojlanishlarni sodir etadi:

3 yoshdan 4 yoshgacha bo'lgan yosh oralig'idagi bolalarning

➤ Ko'p qiziqarli materiallar bilan tanishadi;

➤ Yasaydigan narsalarining qismlari bilan tanishadi;

➤ Ko'p yaxshi ko'nikmalar hosil bo'ladi;

➤ Mayda, yirik, sensomotorika harakatlari rivojlanadi:

4 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan yosh oralig'idagi bolalarning

➤ Bilim va tadqiqot faoliyatini rivojlantiradi;

➤ O‘yinchoq tasvirini plastmassadan, rangli qog‘ozdan yoki tabiiy materiallarni tashlandiq materiallar bilan birga kombinatsiya qilishni o‘rganadi;

➤ Tafakkur qilish, xulosalar chiqarish, qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllanadi:

4 yoshdan 5 yoshgacha bo‘lgan yosh oralig‘idagi bolalar

➤ bolalarni jamoaviy ish jarayonida o‘z harakatlarini muvofiqlashtirishga o‘rgatadi;

➤ murakkab konstruktsiyalarni ishlab chiqarish texnikasi bilan tanishtiradi;

➤ dekorativ tafsilotlar va bezaklarni kashf qilib, tasvirga badiiy ta’sir ko‘rsatishni o‘rgatadi;

➤ ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi;

➤ tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘la boshlaydi.

Tashlandiq materiallar bilan ishlash katta-yu kichikni ijodkorlikka, yaratuvchanlikka, kashf etishga yo‘naltiradi.

3. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tabiiy va tashlandiq materiallardan turli o‘yinchoqlar, narsalar yasash hamda zaruriy materiallar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tabiiy va tashlandiq materiallardan turli o‘yinchoqlar, narsalar yasash uchun hamda zaruriy materiallar to‘plab, keyin ish jarayoni boshlanadi. Tashlandiq materiallardan narsalar, o‘yinchoqlar yasatish bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.

Tashlandiq va tabiiy materiallardan yasashlarni o‘rganish usullari an’anaviy tarzda taqlid(imitatsiya) asosiga qurilgan bo‘ladi va turli bosqichlarda o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

1-bisqich: yasash kerak bo‘lgan narsa namunasi yaxshilab kuzatishdan iborat.

- Kichik yosh guruhda tarbiyachi-pedagog yordamida namunaga qarab, birgalikda yasaladi.

- O‘rta yosh guruh bolalariga chizilgan yoki kompyuterdan chiqarilgan rasmi namunaga qarab yasash taklif qilinadi.

- olti yoshidan boshlab bolalar o‘yinchoqning sxemasini yoki

modelini tahlil qila olishadi, bolalarning analitik faoliyati o‘yinchoqning asosiy qismlarini va u ishlab chiqarilgan materialni aniqlashni, masalan:

- tushuntirish masalalarini muhokama qilishni o‘z ichiga oladi;
 - qo‘l san’ati mahorati uchun qanday materiallarni ko‘rib chiqish mumkin;
 - tomlarni o‘rnatish uchun qanday variantlar maqbul bo‘ladi;
- masalan, plastilinni modellashtirish, markerlar, qalamlar, bo‘yoqlar yoki dastur elementlari bilan chizish uchun qanday qo‘shimcha texnikani qo‘llash mumkiligini anglab bajaradi.

2-bosqich: bolalar asta-sekin maqsadga erishish uchun rejalashtirish va o‘ylashni o‘rganadilar, butun ish jarayonini yaxlit idrok qilishni o‘rganadilar. Qismlar qaysi ketma-ketlikda kelishini, qaysi materialdan yasalganligini, qaysi vositalardan foydalanish afzalligini aniq biladi. Pedagog o‘rgatish texnikasini tanlashda bolalarning yoshini hisobga olgan holda amalga oshiradi.

- Tarbiyachi-pedagog kichik yosh guruhlarda bolalarga hunarmandchilikni loyihalashning barcha bosqichlarini batafsil ko‘rsatib, tushunarli sharhlar bilan izohlab kuzatib boradi;

- Tarbiyachi-pedagog o‘rta guruhda asta-sekin to‘liq namoyish va batafsil tushuntirish jarayonini qisqartiradi, faol ishni sxematik chizmalar shaklida sxemalar va qo‘llab-quvvatlash rejalari bilan bog‘laydi.

3-bosqich: strukturaning qismlarini alohidalash va qismlarini bog‘lash usuli:

- O‘rta guruhda plastilin biriktiruvchi material sifatida ishlatiladi;
- Katta guruhlarda bolalar yelim, ip, simlar va boshqalardan foydalanadilar.

4-bosqichda bolalar mustaqil ravishda ishlash uchun kerakli materiallar va vositalarni tanlashni amalga oshiradilar.

5-bosqichda bolalar o‘yinchoq va buyumlar yasashini, fikrlash natijasida tug‘ilgan ijodiy g‘oyaning obyektiv timsoliga qadar qo‘l san’ati orqali ishlab chiqarish jarayonini mustaqil ravishda topishadi. Ushbu bosqichda, ijodiy tasavvurning namoyon bo‘lishini va bolaning amaliy amalga oshirish jarayonida mustaqillikka intilishini rag‘batlantirish muhimdir.

6-bosqich tayyor mahsulotlarni sarhisob qilish, tahlil qilish va baholash. Har bir bolaning ishidan ijobiy daqiqalarni topish, qo'llab-quvvatlash va ilhomlantirish muhimdir. Ushbu bosqichda ajoyib uslub bolalar tomonidan ishlab chiqarilgan o'yinchoqlar, buyumlar yordamida qiziqarli hikoya, rol o'ynash yoki teatrlashtirilgan o'yin tashkil etish zarur. Bu amalni qo'llash ularning ishlari kerakli, ahamiyatli ekanligini his etishga yordam beradi.

Darsning vaqtinchalik rejasini. Kirish bosqichi uchun materiallar: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida dars tizimli mantiqiy tuzilishga ega:

Tashkiliy bosqich-o'yin shaklida (besh daqiqagacha) turtki berish-dastlabki tayyorgarlik bosqichi hisoblanadi.

Asosiy bosqich (kichik guruhdagi 10 daqiqadan boshlab tayyorgarlikda 25 daqiqagacha) darsning eng faol amaliy qismidir:

- namunani ko'rsatish, o'qituvchining asta-sekin ko'rsatmalarini tushuntirish;

- bolalarning modeli, sxemasi yoki ijodiy rejasiga ko'ra mustaqil ishi, bolalar alohida-alohida, juftlikda yoki kichik kichik guruhning bir qismi sifatida ishlashi mumkin;

- jismoniy tarbiya, mobil o'yinlar, barmoq yoki nafas olish gimnastikasi, dam olishga yordam beradi, keyin esa yangi kuchlar bilan ajoyib qurilish mashg'ulotlariga qaytadi.

Yakuniy, yakuniy bosqich — besh daqiqagacha) - aks ettirish, ish o'rinlarini tozalash, bolalar ishlari ko'rgazmasini tashkil etish. Tahlil bunday mezonlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi:

- aniqlik va jozibador ko'rinishi hunarmandchilik;
- texnik ko'nikmalar va malakalar hosil qilish darajasi;
- amalga oshirilgan ishlarning mustaqillik darajasi;
- maqsadga muvofiqlik, intizom, mehnatsevarlik va hamkorlik hissi va kompozitsiya ustida ish olib borishda hissiy ta'sirchanlik.

Tarbiyachi-pegagog yasash ishlari odatda qiziqarli, erkin ijodiy muhitda tashkil etishi va o'tkazishi muhimdir. Yorqin, qiziqarli mashg'ulot boshlash va o'rgatishda ijobiy munosabatni shakllantirishga, qulay hissiyotlarni yaratishga, bolalar o'zlarini erkin, qulay his etishi, ishlashi zarur. Ular shu muhitda ishlasa, yaratuvchanlik qobiliyatlarini

yuzaga chiqara oladi va ijodiy faoliyati shakllanadi. Pedagog bolalarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini boy pedagogik texnika bilan motivatsiya beradi. Ko‘pgina ijodiy ish namunalarini ko‘rsatadi.

Tabiiy va tashlandiq materiallar bilan ishlash maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni ijodiy qobiliyatlarini ochishga, rivojlantirishga, shakllanishiga yordam beradi. Bola ijodkor, yaratuvchan, kashfiyotchi bo‘lib o‘sib-ulg‘ayadi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Tabiiy va tashlandiq materiallarni tabiatdan qanday tanlash kerak?
2. Tabiiy va tashlandiq materailar bilan ishlaganda bolaga nimalar tushuntiriladi?
3. Tabiiy va tshlandiq materiallar bilan ishlash qanday tashkil etilishi kerak? Fikringiz?
4. Tabiiy va tashlandiq materiallar bilan ishlash xususida qanday taklif va tavsiyalar bergan bo‘lardingiz?

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nurmatova M.Sh. Xasanova Sh.T. D.Azimova. Ustaxonada amaliy mashg‘ulot. “Musiqqa” T.:2010-y.
2. <https://ru.wikipedia.org/>
3. <https://www.dissercat.com/>
4. <https://melkie.net/>

MAKTABGACHA TA'LIMDA LOY ISHI, PLASTILIN, SHO'R XAMIR, CHINNI XAMIR VA PAPE-MASHE USULI

Reja:

1. Loy ishi.
2. Plastilin.
3. Sho'r xamir.
4. Pape-mashe usuli. Pape-mashe usulida o'yinchoqlar va turli buyumlar yasash.
5. Chinni xamirni tayyorlash texnologiyalari. Chinni xamirdan turli o'yinchoqlar tayyorlash usullari.

Tayanch tushunchalar: Maktabgacha ta'limda loy bilan ishlash va loy o'rnini bosuvchi:plastilin, sho'r xamir, chinni xamir, pape-mashe usuli hamda ulardan yasash ishlari haqida

1. Loy ishi.

Loy — 1) gilning suv bilan hosil qilgan aralashmasi;



2) tuproqni suvga qorib, somon, ba'zan jun kabi narsalar aralashtirib tayyorlangan maxsus qurilish materiali. Imorat va devorlarni suvoq qilishda, kulolchilikda ishlatiladi.²⁵

Mineralning ustun turiga qarab, plastik zoti qizil, jigarrang, to'q sariq, sariq, oq bo'lishi mumkin.

Loy – qurilish materiali. Loy-o'yinchoq. Loy-kulolchilik materiali.

Loy – tibbiyotda davolovchi xususiyatga ham ega. Kosmetologiyada oq, qora, ko'k, pushti, qizil, yashil, sariq, kul rang loy ishlatiladi.



²⁵ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Loy>

Loy bilan ishlash.



Loy bilan ishlash bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Tuproq va suv bilan loy qilib olinadi. Loy tayyorlashda loy qancha ko'p pishitilib mushtlansa shuncha yaxshi, silliq, egiluvchan yorilmaydigan bo'ladi. Loy maromiga, me'yoriga yetgunga qadar suv, tuproq



aralashtirilib qoriladi.

Loy qayta-qayta qayirilib mushtlanadi va oyoq bilan tepilishi ham mumkin. Kulollarimiz tandir tayyorlash uchun loyga juda ko'p ishlov beradi. Somon, jun, gil qo'shadi va bir necha kun loyni pishitadi, mushtlab, tepib oladi.




Loy bilan ishlaganda bolalar qo'llarining kaftlarining va barmoqlarining turli harakatlarni bajaradi. Bu amal bolalarning aqliy, jismoniy, ruhiy rivojlanishini ta'minlaydi. Qo'l motorikasi rivojlangan bolalar nutqi ravon, izchil, ifodali va mantiqli-mazmun mulohazali bo'ladi. Loy ishi insonni mehnat bilan tarbiyalaydi.

Loy - sahovat, halollik, ezgulik timsoli.



Loy birinchi yulib olinadi, dumaloq-shar shaklini yasash uchun kaftlar orasida aylantiriladi. Keyin cho‘zinchoq shakllar, ilon shakllarini yasaydilar. Kulcha non qilib yasaydi. Nonga bezak berishni o‘rganadi. Patir non qilishi va unga nonpar urishadi. Bu o‘yin bolalarda nonvoylik kasbiga qiziqish o‘yg‘otadi.

Loydan choynak yasash bosqichlari:



Loy ishi namunalari:



Loy ishi bilan shug‘ullanish maktabgacha yoshdagi bolalarni kulolchilik, haykaltaroshlik sirlarini o‘zlashtirishga ko‘maklashadi. Loy

ishi bolalarni har tomonlama rivojlantiruvchi, qolaversa davolovchi loy terapiyadir. Loy terapiyasi art-terapiyaning bir turi hosoblanadi.

2. Plastilin.

Uilyam Xarbut

plastilin ixtirochisi

Uilyam Xarbut 1844-yil 13-fevral kuni Buyuk Britaniyada 8 farzandli oilaning 7-farzandi bo‘lib tug‘ilgan.

Plastilin haykaltaroshlik uchun loy o‘rnini bosuvchi mahsulot xamirli plastilinni kasf etgan.

Uilyam Xarbut bolalar o‘yinlari va o‘quv qo‘llanmalarini modellashtirish uchun 1900 yilda Buyuk Britaniyaning Bata shahri yaqinidagi eski tegirmonda ishlab chiqargan.

Buyuk rassom Uilyam Xarbut 1921-yilda vafot etgan.

Plastilinning paydo bo‘lish tarixi haqida yana bir qancha ma’lumotlar mavjud.

“Plastilin” so‘zi italyanacha plastilina va qadimgi yunoncha plastos so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “shtukko” degan ma’noni anglatadi.

Plastilin - bu odamlar bir necha ming yillar davomida bilgan gil. Plastilin - bu mum, hayvon yog‘lari va qurib ketishiga to‘sqinlik qiladigan boshqa moddalar qo‘shilgan tozalangan va maydalangan loy kukunidan iborat modellashtirish uchun material.

Loy ilgari ishlatilgan loy kabi kulrang edi va Uilyam Xarbutt tomonidan faqat ta’lim maqsadida ishlatilgan. Ammo, plastilindan yasalgan modellashtirish o‘z oilasiga qanday zavq keltirganini ko‘rib, ixtirochi boshqa bolalar undan zavq olishi uchun plastilin ishlab chiqarishni boshlashga qaror qildi. “Plastisin” nomi butun oila tomonidan ixtiro qilingan. 1900-yilda u o‘z zavodini ochdi, u 1968-yilgi yong‘inga qadar ishladi. Hozirgi vaqtda ishlab chiqarish Tailandga ko‘chirildi.

Frans Kolbning plastilini hamon “Myunxen Art Plasticine” nomi bilan sotiladi.



Biroq, plastilinning tarixi shu bilan tugamaydi. Bir necha o'n yillar o'tgach, Jo Makviker devor qog'ozidan bir massa yaratdi va namunasini bolalar bog'chasidagi singlisiga yubordi. U bolalarni shu massadan nimadir yasashga taklif qildi va vaqt o'tishi bilan yangi material odatdagi loyni almashtirdi. O'shandan beri haykaltaroshlik materiallari bolalar bog'chasi mashg'ulotlari uchun zarur bo'lib qoldi. Asta-sekin plastilin ixtirosi juda mashhur bo'ldi. Bu kattalar va bolalar uchun sevimli qo'l o'yinchog'iga aylandi. Plastilin ko'plab rassomlar, me'morlar va muhandislar tomonidan kosmik kemalardan tortib dinozavr figuralarigacha bo'lgan turli xil modellarni yaratish uchun ishlatiladi.

Plastilinning kelib chiqishi munozarali bo'lib qolmoqda. Plastilin haqidagi birinchi yozuvlar XIX asr oxirida paydo bo'lgan. Ikkita ixtirochi o'zining ajoyib kashfiyoti haqida, ya'ni 1880-yilda nemis Frans Kolb va 1899-yilda ingliz Uilyam Xarbut xabar berishdi. Ular tomonidan olingan material Germaniyada patentlangan va unga tegishli «Plastilin» nomini olgan. Shu bilan birga, ikkala patent ham deyarli bir xil tarkibga ega bo'lgan va bir necha marta ishlatilishi mumkin bo'lgan quritilmaydigan materiallarga tegishli edi.

Plastilin turlari va xossalari.

Bugungi kunda ishlab chiqarilayotgan plastilinning xilma-xilligi bolalarning tasavvurini hayratda qoldiradi va kattalarning ham. Hozirgi vaqtda bozorda ijodkorlik uchun mahsulotlar mavjud. Plastilinning oddiy bolalar plastilini, badiiy plastilin, mumsimon plastilin, o'simlikka asoslangan ove, to'p, professional haykaltaroshlik plastilini, «aqli» plastilin, qattiqlashuvchi va suzuvchi turlari mavjud.

Oddiy bolalar plastilini.

Barchamizga birinchi modellashtirish darslaridan tanish bo'lgan bu turdagi plastilin hali ham o'z pozitsiyasidan voz kechmaydi: hatto bugungi kunda ham eng yorqin ranglar to'plamini osongina sotib olishingiz mumkin. Eng egiluvchan tuzilishga ega emas. Bunday plastilinning afzalliklari uning arzonligi, hamma joyda mavjudligi va tarkibidagi tabiiy komponentlar: plastilin oldindan tozalangan va kukunli loydan tayyorlanadi. Biroq, bu turdagi plastilinning kamchiliklari ham bor: birinchi navbatda, u juda plastik emas va shuning uchun u uch

yoshdan oshgan bolalar uchun mo'ljallangan, ular allaqachon uning qattiq qismlarini yoğurishga qodir.

Badiiy plastilin.

Plastilin modellashtirish, bezaklar, niqoblar, qo'g'irchoqlar, plastilin bilan bo'yash va boshqalar uchun mo'ljallangan. 10-30 daqiqa qizdirilgandan so'ng, plastilin dekorativ rangli kauchukga aylanadi. Yuqori haroratda yoki quyoshda u shunchaki bo'yoq kabi oqishni boshlaydi, ammo bu xususiyat ham yaxshilik uchun ishlatilishi mumkin: masalan, u bilan chizish (plastilin texnikasidan foydalangan holda) yoki vitrajlar yasang. Juda yumshatilgan plastilinni muzlatgichga bir muddat qo'yish yoki sovuq suvga tushirish orqali biroz qattiqlashishi mumkin; muslatgichda biroz vaqt turgandan keyin, uni olib haykaltaroshlik bilan shug'ullanishingiz mumkin.

Mumli plastilin.

Mumli plastilin (masalan, Gamma tomonidan ishlab chiqarilgan «Bee» plastilini) bir yoshli bolalar uchun maxsus yaratilgan: uning tarkibiga kiradigan mum tufayli u hatto chaqaloqlarning zaif qo'llarida ham oson yoğurulur, ammo undan tayyorlangan qismlar. material bir-biriga mukammal yopishadi, bu ham maydalanganlarni osonlashtiradi.

O'simlik asosidagi plastilin.

Xorijiy ishlab chiqaruvchilar (Erich Krause, Jovi) ko'pincha o'simlik asosidagi plastilin ishlab chiqaradi. So'zning qat'iy ma'nosida, bu endi plastilin emas, balki modellashtirish va modellashtirish uchun maxsus pastadir. U qattiqlashmaydi, yoqimli va yumshoq tuzilishga ega, shuningdek, yuqori plastiklik va yorqin ranglar, ayniqsa bolalar tomonidan yoqadi. Shu bilan birga, turli xil rangdagi bo'laklarni bir-biri bilan aralashtirish, yangi soyalarni olish mumkin. Biroq, bunday plastilinning, ehtimol, bitta, ammo sezilarli kamchiligi bor - uning qismlari bir-biriga yaxshi yopishmaydi. Bu plastilinda bolalar ishlashi juda qiyin.

To'p plastilin.

To'p plastilin - qattiqlashtiruvchi plastilin turlaridan biri: u glitserin asosidagi yopishtiruvchi eritma bilan biriktirilgan kichik ko'pikli sharlardan iborat. Uning asosiy afzalligi, ehtimol, bunday plastilin

qismlarini bir-biriga yopishtirishning soddaligi - shunchaki bir-biriga bog‘lang va ular bola tomonidan hech qanday kuch sarflamasdan bir-biriga yopishadi. Quritilganda (taxminan 24 soat ichida sodir bo‘ladi), to‘p plastilin shakllari qattiqlashadi, ammo kamchiliklar orasida hatto quritilgan hunarmandchilik ham juda nozik bo‘lib qolishi va o‘ynash uchun ishlatib bo‘lmaydi.

Professional haykaltaroshlik loy.

Bu yengil va egiluvchan modellashtirish birikmasi tabiiy ohangiga ega, shuning uchun u nafaqat bolalarni modellashtirish, balki kattalar ijodiy ishlari uchun ham juda mos keladi - masalan, nafis haykalchalar va, ehtimol, ajoyib haykallarning nusxalarini yaratish. Ochiq havoda tayyor mahsulotlar deyarli haqiqiy marmar kabi qattiq bo‘ladi. Ular akril bo‘yoqlar bilan bo‘yalgan va rangni yorqinroq qilish uchun lak bilan bo‘yalgan bo‘lishi mumkin.

Qattiqlashtiruvchi plastilin.

Bu plastilin modellashtirish uchun yumshoq va juda engil massa, quritgandan keyin yanada osonlashadi. Ushbu yuqori sifatli plastilindan bolangiz xohlagan narsani yaratishi mumkin. Plastilin quriganidan so‘ng, hunarmandchilik xona uchun ajoyib bezak bo‘ladi. Plastilin ishlov berish juda oson va qo‘llarga yopishmaydi. Yana bir jihati kiyimda dog‘ qolmaydi. Buning ustiga siz suvga asoslangan maxsus markerlar bilan rasm chizishingiz mumkin. Quritilgan massa yana modellashtirish uchun mos bo‘lishi mumkin: siz uni namlashingiz va 3-4 kun davomida yopiq idishda qoldirishingiz kerak.

Suzuvchi plastilin.

Shu qadar yengilki, undan yasalgan figuralar suvga botib ketmaydi. Shunday qilib, endi siz suzish paytida ham plastilin bilan o‘ynashni boshlashingiz mumkin! Ko‘r-ko‘rona chaqalog‘ingiz bilan birga yorqin tropik baliq yoki suv yuzasida osongina sirpanadigan katta rangli kema.

Aqlli plastilin, yoki “Qo‘llar uchun saqich” (HandGum).

Bu bir vaqtning o‘zida bir nechta xususiyatlarga ega bo‘lgan har qanday shaklni olishga qodir bo‘lgan plastilin - u suyuq va qattiq bo‘lishi, yirtilishi va cho‘zilishi, rangi o‘zgarishi, porlashi va hatto magnitlanishi mumkin. “Aqlli plastilin”, deyish mumkin, noyob o‘yinchoq. Shu bilan


birga, u oddiy plastilin kabi yog‘li emas, kiyim va qo‘llarni bo‘yamaydi va yuvilishi mumkin, zaharli emas, zararli qo‘shimchalar yo‘q, allergiyaga olib kelmaydi va 3 yoshdan boshlab bolalar uchun mutlaqo xavfsizdir. Aytilishicha, u quyidagilarga qodir: barmoqlar, qo‘llar va bilak mushaklarining harakatchanligini oshirish, qon aylanishini yaxshilash (intensiv aralashtirish bilan), barmoqlar, qo‘llar va bilak mushaklarini kuchaytirish, harakatlarni muvofiqlashtirish, aniqlikni yaxshilash, idrokni rivojlantirishga yordam berish, stress va tajovuzning ichki holatini kamaytiradi.²⁶

Bugungi kunda plastilinning turli-tuman turlarini oson toppish va ishlatish mumkin.



Plastilindan narsalar yasash bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

²⁶ <https://argumenta.ru/uz/rabota-za-granicejj/kak-poyavilsya-plastilin-rasskaz-dlya-detei-chtotakoe-plastilin-i-kak-on-poyavilsya/>



Plastilindan yasash xuddi loy bilan ishlash jarayonida bo‘lgani kabi avval zuvalachalar yulib olinadi. Keyin kaftlar orasida yumaloq-shar shakli, kulcha shakli, iloncha shakli, silindr shakllar tayyorlanadi. Keyinchalik oddiy, oson yasaladigan narsalar, so‘ng murakkab shakllarni yasashga o‘tiladi.

4. Sho‘r xamir.

Sho‘r xamir maktagacha ta‘lim tashkilotlarida loy ishi mashg‘ulotlarida loy o‘rnini bosuvchi o‘qitish vositasi sifatida foydalaniladi. Sho‘r xamir bilan ishlash katta-yu kichikning asab tizimini yaxshilaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mayda motorikasini rivojlantiradi. Bosh miya faoliyatini yaxshi rivojlanishiga ko‘maklashadi.




Tuz xamir, dunyoning barcha xalqlari amaliy san‘at tarixida qadimdan beri ma‘lum haykaltaroshlik uchun materialdir. Bu tarkibi uchun ko‘p retseptlar, shuningdek ular bilan ishlash uchun turli metodlar bor. Mustahkam va ishonchli tuz xamir moddiy tannarxi arzon. Noyob sovg‘alar va aksessuarlar yaratish uchun qulay. Inson bolaligidan tuzli xamirdan narsalar yasash ijodiy faoliyatini boshlashi mumkin.

Sho‘r xamir tayyorlash:

- -2 stakan un
- -1 stakan mayda tuz
- -2 st. qoshiq limon soki
- -2 stakan suv
- -1 st.qoshiq o‘simlik yog‘i
- -tortga ishlatiladigan ranglardan
- -rezinali perchatka

Chinniday oppoq xamir

qorib olinadi. Xamir yasayotgan o‘yinchoqlarimizga ketadigan hajmda keragicha kattalikdagi zuvalachalarga bo‘lib olinadi. Xamirdan turli narsalar yasash uchun tortga qo‘shiladigan iste‘mol ranglardan qo‘shib, mushtlab rang aralashtirilib olinadi. Rangni narsa, predmet, hayvon, hashorot, qushlarni yasab bo‘lingahdan keyin har bo‘yasa bo‘ladi. Sho‘r xamirdan narsalar yasash jarayoni boshqa ijodiy faoliyat turi kabi oddiydan murakkabga qarab ishlanadi. Avval oddiy oson narsalar yasaladi. Keyin murakkab narsalar yasashga bosqichma-bosqich o‘tiladi.



Tuzli xamirdan yasalgan ijodiy ish namunalari:



Tuzli xamirdan tayyorlangan narsalar duxovkada, tovada yoki issiq joyda quritilib olinadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy burchaklarni tashkil qilish uchun sho'r xamirdan non, patir, somsa, chuchvara, manti, mevalar, sabzavotlar yasaladi. Bundan tashqari qo'g'irchoq teatri uchun personajlar yasab olinadi. Yasalgan ertak qahramonlari ranglanadi, quritiladi, laklanadi. Qurilishda ishlatiladigan rangsiz lak ishlatiladi. Bu o'yinchoqlarni shirmali, soya teatri, stol teatri ko'rinishida tashkil etish mumkin.



Maktabgacha ta'limda loy ishi mashg'ulotlarida bolalarni ijodkorlikka o'rgatishda tuzli xamirdan foydalaniladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarda ta'lim olayotgan tarbiyalanuvchilarga sho'r xamir beziyon, bexavotir, xavfsiz hisoblanadi. Bolaning ijodiy, yaratuvchanlik qobiliyatlarini yuzaga chiqaradi.

5. Pape-mashe usuli. Pape-mashe usulida o‘yinchoqlar va turli buyumlar yasash.

Pape-mache (fransuzcha papier mâché- «chaynalgan qog‘oz») degan ma‘noni anglatadi. “G‘ijimlangan qog‘oz”, “namlangan, g‘ijim” qog‘oz” deyilgan manbalarni uchratish mumkin. Pape-mashe usuli yelimlar, kraxmal, gips va boshqalar bilan tolali materiallar (qog‘oz, karton) aralashmasidan olingan oson qoliplangan massa. Pape-mashe usulining bugungi kunda juda ko‘p texnologiyalari mavjud. Ba‘zi pape-mashe usulida yasalgan buyum, o‘yinchoqlarni haqiqiy san‘at asari deyish mumkin. Chunki, pape-mashe usulida yasalganligini haqiqiysidan ajratish qiyin bo‘ladi.



Pape-mashe usuli Fransuz nomidan kelib chiqqanligiga qaramasdan, pape-mashe tug‘ilgan joyi qog‘oz ixtiro qilingan Xitoy hisoblanadi. Pape-mashe yasalgan birinchi ob‘ektlar Xitoyda qazishmalar paytida topilgan, ular qadimgi Xitoy zirh va zarbdan yedi. Ularga qattqlik berish uchun ko‘p qatlamli lok-bo‘yoq qoplamasi ishlatilgan. Bu buyumlar Xan sulolasiga mansub (202 y. - 220 y.).

O‘sha kunlarda pape-mashe zirh eng texnologik jihatdan rivojlangan himoya vositasi bo‘lib, u o‘qning urilishi va qilichning yaltirash zarbasini bartaraf yetdi. Yaxshi kuch bilan birga, qog‘oz zirh jangchi jangda tez harakat qilish imkonini beruvchi, juda yengil ko‘tarib qulay, yaltiroq bo‘lgan.

Xitoydan, pape-mashe qiziqish keyinchalik Yaponiya va Fors mamlakatlariga tarqalgan. Bu usul allaqachon dam olish uchun niqoblar va boshqa sifatleri qilish uchun ishlatilgan. Asta-sekin, bu uslub butun dunyo bo‘ylab tarqaldi va yevropa mamlakatlarida eng mashhur edi. XVII asrning o‘rtalaridan boshlab Fransiya pape-mashe texnikasida o‘z mahsulotlarini ishlab chiqarishni boshladi; dastlab u qo‘g‘irchoqlar ishlab chiqarish bo‘lib, ular juda mashhur edi. Inglizlar 1670-yildan o‘rnak oldilar. Pape-mashe 1800-yillarda eng mashhur edi. O‘sha vaqtlarda pape-mashe usulining uchta eng mashhur texnologiyasi mavjud bo‘lgan.

Birinchi texnologiyaga ko'ra, mahsulot oldindan tayyorlangan modelga kichik nam qog'ozlarni qatlam-qatlam yopishtirish orqali amalga oshiriladi. Klassik texnikada 100 qatlamgacha qog'oz qo'llaniladi. Endi polivinilatsetat yelimi ko'pincha shu



maqсадda ishlatiladi va ilgari kraxmal pastasi ishlatilgan. Ba'zan mahsulotni sinishi uchun (ya'ni mustahkamlanishi uchun) qog'oz qatlamlari orasiga mato gazlama qatlamlari qo'shiladi.

Ikkinchi texnologiyaga ko'ra, mahsulotlar qog'ozdan suv bilan suyuq massa hosil qilinadi. Kichik bo'laklarga kesilgan qog'oz issiq suv bilan to'ldiriladi va bir kun issiq joyga joylashtiriladi. Keyin qaynatiladi, bosiladi, yumshatiladi va quritiladi. Olingan qog'oz massasi bo'r bilan yaxshilab aralashtiriladi. Qog'oz-bo'r aralashmasiga doimiy aralashtirilgan holda plastik smetana xamiri olinguncha yelim qo'shiladi. yelim sifatida kraxmal pasta va duradgorning yelimi aralashmasi ishlatiladi. Xamir tayyorlangan shaklga quyiladi yoki uning yuzasiga qatlam qo'yiladi va to'liq quriguncha saqlanadi. Ikkinchi texnologiyaning o'zgarishi maxsus 3D printer yordamida tez quriydigan suyuq qog'oz massasidan mahsulot hosil qilishdir.

Kerakli mahsulotlar: PVA kley, qog'oz, suz, albaster, idish, rangli bo'yoqlar(rangli xamirlar tayyorlash uchun), qum qog'oz(najdak),chutka, qaychi va b.

Birinchi PVA kleyni idishga solamiz. Birinchi qirqilgan yoki yertilgan qogozlarni masalan: shar, olma shaklini olish uchun oddiy suvda namlab yopishtirib boshlaymiz. Qog'oz bilan olma orasida havolarini qoldirmasdan 4-5 qavat qilib oldiniga nam qog'oz bo'laklarini yopishtiriladi. Keyingi qavatlar PVA kleyga botirib yopiladi. 15-20 qavat va undan ziyod qilib yopishtirish ham mumkin. Yopishtirish yakuniga yetgandan so'ng quritishga qo'yiladi. Yoz faslida tezroq quriydi, qish faslida ko'proq vaqt kerak bo'ladi. Yana quritishda gaz plita duxovkasidayam past olovda, qarab-qarab turib, duxovka eshigini qiya ochiq holda past olovda quritish mumkin. Quritish jarayoni tezlashadi.

Yasalayotgan shakl qurigandan so‘ng ajratib olinadi. Olma shakli birlashtirilib kley, kleyli qog‘oz yana yopishtiriladi. Dag‘al joylari qum qog‘oz bilan tekislanadi. Qurilish materiallaridan emulsiya surtilib oqartiriladi. Qurigandan keyin rang beriladi.



Pape-mashe usulida buyumlar yasash uchun xamirli massa tayyorlab olinadi. 200-250-gram suzga qog‘ozni maydalab tashaymiz. Qog‘oz iviydi. PVA kley solib xamirli loyga o‘xshash massa tayyorlab olinadi. Qog‘oz qancha mayda bo‘lsa shuncha yaxshi. Tayyorlangan xamirga, loyga oxshash massa ko‘p g‘ijimlanadi, g‘ijimlaganda yorilmasligi kerak. Tayyor pape-mashe massasini masalan tarelka yasamoqchi bo‘linsa, tarelkaning orqa tomoniga rasmdagidek surtiladi, yopishtiriladi, quritiladi. Qurigandan keyin tarelkadan ajratib olinadi va silliqlanadi. Emulsiya surtiladi, ranglanadi. Oxiri tarelkaga gul chiziladi. Shu usulda istagan narsa, o‘yinchoq yoki buyumlar yasab olinadi..



Pape-mashe o‘yinchoqlari va buyumlari qog‘ozni yertib kleyga bulab shakl olish uchun narsa sirtiga yopishtirilib boriladi. Bundan

tashqari xamirga o'xshagan massa tayyorlash texnologiyasidan foydalanib yasash mumkin. Pape-mashe usuli namunalari:



Ushbu qadimiy hunarmandchilik bir nechta buyumlarni yasashga yordam beradigan bir necha avlod va mamlakatlarni qamrab oladi. Garchi bu nom frantsuzcha bo'lsa-da, bu usul XVII asrgacha Frantsiyada ko'rinishga ega bo'lmagan. Bungacha bu texnika Xitoyda va dunyoning boshqa joylarida miloddan avvalgi 200-yilida qo'llanilgan.

- Qadimgi Xitoyda bu usulda qalqonlar va jangchi dubulg'alarini yasashgan ekan.

- Qadimgi misrliklar zig'ir va gips yordamida o'lim maskalarini tayyorlash uchun qog'oz machelardan foydalanganlar.

- 18-asrda Evropada ushbu texnika bezakli gips va mebelga o'yilgan yog'ochdan arzonroq variant sifatida ishlatilgan.

Pape-mashe usulida ishlaganda qog'oz, qarmoq ipi, yelim pishirish uchun idish, tayyor mahsulotni bo'yash uchun bo'yoq, mo'yqalamlar kerak bo'ladi. Ish qog'ozni tayyorlashdan boshlanadi. Buning uchun gazeta va o'rash qog'ozlari zarur. Qog'oz namlanadi, Pape-mashedan tayyorlangan o'yinchoqlar, har xil mayda chuyda narsalar yasashning osonligi bilan ajralib turadi.

Tayyorlash usuli quyidagicha:

1 qavat o‘rov qog‘oz yoki gazetaga oldindan tayyorlangan suyuq xamirni surib chiqamiz va xamir surilgan qog‘ozni qo‘limizda g‘ijimlab maydalab bir xil massa bo‘lguncha ezg‘ilaymiz. Tayyor bo‘lgan massani bo‘laklarga bo‘lib xohlagan o‘yinchoqni yasashimiz mumkin. O‘yinchoq yasash davomida barcha haykaltaroshlik usullaridan foydalanishimiz mumkin bo‘ladi. G‘ijimlash usuli orqali o‘yinchoq yasashdan ko‘pincha archa bezaklari yasaladi. Bunda yasalayotgan o‘yinchoq ichiga simdan ilgak joylashtiriladi. Yasalgan o‘yinchoq qurigandan so‘ng qum qogoz bilan ishqalanib, silliqlanadi. So‘ngra oq guash yoki tish pastasi bilan bo‘yab olinadi. Pape-mashe usulida kerakli oyinchoqlar, dekaratsiya buyumlari yasash uchun qog‘oz, suv, PVA kley, un, emulsiya, tish pastasi, qum qog‘oz, guash, lak kabi predmetlar kerak bo‘ladi. Pape-mashe usulida ishlash insonga sabr-qanoat, qunt, mustahkam iroda, ijodiy barkamollik bag‘ishlaydi. Dunyoni nafosati va go‘zalligini his etib tasvirlashga yordam beradi.

6. Chinni xamirni tayyorlash texnologiyalari. Chinni xamirdan turli o‘yinchoqlar tayyorlash usullari.

Chinni xamir Argintenada ixtiro qilingan bo‘lib, undan ajoyib gular, shakllar, o‘yinchoqlar, aksesuarlar tayyorlanadi. Chinni xamir sog‘lik uchun zararsiz, yumshoq, qo‘lga yoqadigan massa. Chinni xamir tayyorlash arzonga tushadi. U bilan ishlash zavqli, undan yasalgan narsalar uzoq muddat saqlanadi. Chinni xamir bilan narsalar yasash tasavvurni kengaytiradi, estetik didni rivojlanishiga a‘lo darajad xizmat qiladi. To‘g‘ri tayyorlangan chinni xamir xossasiga ko‘ra yumshoq, ilashuvchan, egiluvchan, istalgan shakl-ko‘rinishni yasasa bo‘ladi. Bu material bilan ishlash uchun chuqur bilim, ko‘nikma, malaka kerak emas. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ayni muddaodir. Chinni xamir tayyorlashning texnologiyalari-usullari juda ko‘p.

Chinni xamir tayyorlash texnologiyalari:

➤ 1-usul: Chinni xamireng oddiy tayyorlash usuli uchun.

- ✓ iste'mol sodasi;
- ✓ kraxmal(kartoshka, guruch yoki makkajo'xori kraxmali);
- ✓ suv, idish;
- ✓ pishirish uchun issiqlik(gaz plita-gaz, elektr plita-elektr toki)
- ✓ iste'mol ranglar



Ushbu kerakli mahsulotlarni baravar miqdorda idishga solib atala qilib olinadi, keyin olov(issiqlikka)ga qo'yib to quyilguncha pishiriladi. Massa quyuq holatga kelib qolganda issiqlikdan olinib, toki soviguncha aralashtiriladi. U soviy boshlagach xamir ko'rinishiga keladi.



Sovuq xamirni chuvalachalarga bo'lib, iste'mol rangi aralashtiriladi. Keyin xohlagan narsani yasash mumkin. YouTubedan «Супер простой рецепт Холодного Фарфора без клей. Холодный фарфор за 5 минут» bilan izlang, toping, tayyorlang, narsalar, shakllar, o'yinchoqlar yasang.



Chinni xamirga rang qo'shayotganda qo'lga salafan paket yoki rezinali qo'lqop kiyib olish zarur.

- 2-usul:
- ✓ 3 osh qoshiq yelim PVA;
- ✓ 2 osh qoshiq pista yog'i
- ✓ 1 osh qoshiq glitsirin

- ✓ 4 osh qoshiq jo‘xori kraxmali
- ✓ 3/1 choy qoshiqda limon kislotasi
- 3-usul: bu usulda chinni(sovuq chinni) xamir aralashmasini pishirmasdan tayyorlash.

- ✓ 2 osh qoshiq PVA yelimi
- ✓ 2 osh qoshiq kraxmali
- ✓ 1 osh qoshiq neft jelisi
- ✓ iste‘mol sodasi
- ✓ 2 tomchi glitsirin

Avval idishga kraxmal, soda, neft jelisi, bir juft tomchi solib aralastiramiz. Keyin PVA kleyni solib xuddi nonga xamir qilgandek qorib olinadi. Agar xamir qo‘llarga yopishadigan bo‘lsa, unda vazilin bilan qo‘lingizni yog‘lab olasiz va yaxshilab mushtlab pishitib olasiz. Yaxshi mushtlangan chinni xamir narsalar yasaganda yorilmaydi.

➤ 4-usul: Ushbu retsept oddiy hisoblanadi va har qanday do‘konlardan ingredientlarni toppish mumkin. Bu chinni xamir tayyorlash usuli pechda pishiriladi. Shuning uchun kerakli idishlar tayyorlab qo‘yiladi.

- ✓ 150 gr. PVA;
- ✓ 150 gr. kraxmal(makkajo‘xori);
- ✓ 25 gr neft jelisi(o‘rniga glitsirinni qabul qilishingiz mumkin);
- ✓ 100 gr iliq suv;
- ✓ 25 gr qo‘l kremi;

Sovuq chinni xamirni tayyorlash uchun



yuqoridagi ro‘yxatdagi indegientlarni oling va aralastiring. Pechga qo‘yib to quyuq holatga kelgunicha aralastirib, qo‘zg‘ab turing.



Pishirish paytida kraxmalni kam-kamdan qo‘shib turing. Aralashma

kartoshka pyuresiga o‘xsash quyushadi. Keyin issiqlikdan massani olib sichiqqa o‘rab qo‘yiladi. Sochiq toza va namlangan bo‘lishi zarur. Sovigandan so‘ng sochiqni olib, kraxmal bilan ishlanadi. Kraxmal sepib ishlash qo‘llarga yopishmasligi uchun qo‘llaniladi. Makkajo‘xori kraxmali yengil, shaffof. Bu chinni xamir tayyorlashning muhim siri hisoblanadi. Chinni xamirdan oddiy shakllardan(narsalardan) tortib, murakkab narsalargacha yasasa bo‘ladi.



Sovuq chinni xamir haykaltaroshlik uchun muhim mahsulotdir. Yumshoq egiluvchan xamir ijodkorlik uchun qulayligi, uni tayyorlash imkoni borligi, qo‘llar bilan bosqichma-bosqich tayyorlanadi va bezak sah‘ati buyumlari yasaladi. Sovuq chinni xamiri tayyorlashning usullari son-sanoqsiz.

Bu ish bilan shug‘ullanuvchi ijodkorlar turli xil individual usullari bilan tayyorlashadi.

Yaponlar buni besh ming yildan ortiq vaqt davomida bilishlariga qaramay, yaqinda u butun Evropada tarqaldi.²⁷ -degan ma‘limotlarni uchratish mumkin. Bundan tashqari Xitoyning “Choy marosimi” bilan bog‘liq degan taxminlar ham mavjud.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Loy nima? Loy haqida gapirib bering.
2. Plastilin qachoq ixtiro qilingan?
3. Pape-mashe qanday usul?
4. Sho‘r xamir qanday tayyorlanadi?
5. Chinni xamir qanday tayyorlanadi?
6. Chinni xamirning bola rivojlanishida qanday turadi?
7. Chinni xamirdan o‘yinchoqlar yasaganmisiz?
8. Yasaganlar uchun: Sizga chinni xamirning nimasi yoqqan?

²⁷ <https://choosevoice.ru>

Mavzu yuzasidan test topshirig‘i:

1. ... - saxovot, halollik, ezgulik timsoli. Nuqtalar o‘rniga mos mahsulotni tanlang.

- a) Loy
- b) Plastilin
- c) Sho‘r xamir
- d) Chinni xamir

2. **Plastilin ixtirochisi kim?**

- a) Uilyam Xarbut
- b) Uiliyam Artur
- c) Ernst Xekkel
- d) Frans Kolb

3. **Pape-mache so‘zi nima degan ma‘noni anglatadi?**

- a) fransuzcha papier mâché- “chaynalgan qog‘oz”
- b) inglizcha papier mâché- “namlangan qog‘oz”
- c) xitoycha papier mâché- “g‘ijimlangan qog‘oz”
- d) inglizcha papier mâché- “qatlangan qog‘oz”

4. **Sho‘r xamir nimalardan tayyorlanadi?**

- a) Un, tuz, suvdan
- b) Un, karxmal, tuzdan
- c) Un, iste‘mol sodasi, suv
- d) Un, tuz, suv, kraxmal, PVAdan

5. **Chinni xamirning ikkinchi nomini ayting.**

- a) Sovuq chinni
- b) Issiq chinni
- c) Shaffof chinni
- d) Oq chinni

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nurmatova M.Sh. Xasanova Sh.T. D.Azimova. Ustaxonada amaliy mashg‘ulot. “Musiqqa” T.:2010-y.

2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Loy>

3. <https://argumenta.ru/>

4. <https://choosevoice.ru/>

KASHTACHILIK TARIXI VA TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI

Reja:

1. Xalq amaliy san'ati turlari.
2. Kashta va uning turlari.
3. Zardo'zlik.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni xalq amaliy san'ati va kashtalar bilan tanishtirishning ahamiyatli jihatlari.

Tayanch tushunchalar: Xalq amaliy san'ati turlari va ular haqida ma'lumotlar, kashta va uning turlari, tikish choklari hamda zamonviylashuvi, maktabgacha yoshdagi bolalarga xalq amaliy san'atini tanishtirish to'g'risida

1. Xalq amaliy san'ati turlari.

Amaliy san'at, amaliy bezak san'ati — bezak san'ati sohasi; ijtimoiy va shaxsiy turmushda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan badiiy buyumlar tayyorlash va kundalik turmush ashyolari (asbob-anjomlar, mebel, mato, mehnat qurollari, kiyim-kechaklar, taqinchoqlar, o'yinchoqlar va b.)ni badiiy ishlash bilan bog'liq ijodiy mehnat sohalarini o'z ichiga oladi. Amaliy san'at asarlari ko'z bilan ko'rish, his etish va anglashga mo'ljallangan. Amaliy san'at asarlari va buyumlari insonning moddiy muhitini go'zallashtirishga, estetik boyitishga xizmat qiladi, ayni paytda o'zining ko'rinishi, tuzilishi, xususiyatlari bilan insonning ruhiy holati, kayfiyatiga ta'sir etadi, bezatilgan narsalar hayotda foydalanilishidan tashqari badiiy qimmati bo'lgani uchun ham qadrlanadi. Shuning uchun xom ashyoning go'zalligi va nafis xususiyatlarini namoyish etish, unga ishlov berish mahorati va usullarining ko'pligi amaliy san'atda estetik ta'sirni oshiruvchi ahamiyatga ega faol vositalardir. Amaliy san'atda narsalarning nafisligiga ikki usul bilan erishiladi:

1) shakli oddiy, jo'n buyumlarga bezak ishlab badiiy qimmati oshiriladi;

2) shakli chiroyli qilib ishlanadi. Narsalarning tuzilishi badiiy buyumlarning mujassamotida muhim rol o'ynaydi.²⁸

²⁸ <https://qomus.info/>

Bezagi tufayli buyum amaliy san'at asariga aylanadi. Amaliy san'atda bezak yaratishda naqsh bilan tasviriy san'at (haykaltaroshlik, rangtasvir, ayrim hollarda grafika) qismlari (alohida yoki turlicha birikuvlari) keng qo'llaniladi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan ilmiy adabiyotlarda amaliy san'at asarlari foydalanilgan xom ashyosi (yog'och, sopol, ganch, tosh, metall, suyak va b.) va ijro usuli (bo'yash, o'yib-kesib ishlash, quyish, kashta tikish, to'qish va b.)ga qarab farqlana boshlandi. Bu esa o'z navbatida buyumlarga ishlov berishni loyihalash (dizayn) va uni ishlab chiqarish bilan bog'lanishi (badiiy sanoat)ga zamin yaratdi.

Xalq amaliy san'atini rivojlantirish, uning unutilgan turlarini qayta tiklash va taraqqiy ettirishda "Usta" birlashmasi (1978) muhim rol o'ynadi. Kulollik, kandakorlik, tosh, yog'och va ganch o'ymakorligi, naqqoshlik, zargarlik san'ati, zardo'zlik, gilamchilik va kigizchilik, lok(sirtiga lak surtish) miniatyurasi, badiiy to'qimachilik, nosqovoq, to'qima ro'zg'or buyumlari, chinni, shisha buyumlar tayyorlash va badiiy amaliy san'at turlari rivojlanmoqda. Ganch o'ymakorligini me'moriy bezaklarda qo'llash bu to'ring barcha maktablari an'analarini rivojlantirishga e'tiborni oshirdi.

Hozirgi amaliy-bezak san'ati ikki yo'nalishda rivojlanmoqda.

1. Badiiy hunarmandchilik. Bu yo'nalishga ayrim korxonalar, zavodlar, fabrikalar kiradi. Buxorodagi zardo'zlik buyumlari, Xivadagi gilamdo'zlik, Rishtondagi sopolsozlik korxonlari shular jumlasidandir.

2. Xalq amaliy-bezak san'ati. Bu yo'nalishda, asosan, mustaqil ravishda ish olib borayotgan ustalar mahsulot ishlab chiqaradilar.

Birinchi yo'nalishda badiiy buyumlar ishlab chiqarish korxonalarida ko'p nusxada tayyorlansa, alohida ustalar faliyatida buyumlar soni nihoyatda chegaralangan bo'ladi. Bu amaliy mehnat mahsulot badiiyligini yuqori bo'lishiga olib olib keladi. Bunday korxonalar mebelsozlik, kashtachilik sohalarida ham bor. Xalq amaliy sah'ati har bir xalqda mavjud bo'lib, ular bir-birlaridan yuqorida qayd qilinganidek, amaliy san'atning janrlari, buyumlar tayyorlashda qo'llanadigan material, shakli, tuzilishi, rangi, bezagi, o'lchovlari jihatidan bir-biridan farq qiladi. Amaliy san'at ustalari o'z asarlarini yaratayotganda go'zallikni tevarak-

atrofdan, tabiatdan oladi. Masalan: o‘zbek xalq ustalari o‘z ijodlarida toychoq, qo‘zichoq, tovus kabi tasvirlarni ishlaydi. Xalq amaliy san‘ati asarlari odamlarning kundalik turmush ehtiyojlarini qondirish, tevarakatrofga, bog‘-rog‘lar, uylarning tashqi va ichki ko‘rinishlariga ko‘rk berish uchun ishlatiladi.

Xalq amaliy san‘ati juda qadim zamonlarda paydo bo‘lgan. Xalq hunarmandchiligi sifatida rivojlanib kelgan.



Ganchkorlik — badiiy hunarmandlik turi; amaliy san‘atning ganchda ishlash bilan bog‘liq sohasi. Binolarni bezashda, me‘moriy detallar ishlashda, devor va shiftlarni suvashda, bezak shakllar hamda o‘yma naqsh va tasvirlar yaratishda keng qo‘llaniladi. Ganchkorlikda bezak ikki usulda bajariladi: uymakori usulida bino devori ganch suvoq qilinib, bezatiladigan qismiga naqsh ishlanadi (qarang Ganch o‘ymakorligi); qolipaki usulida tayyor bezak ganch taxtalarida bezatiladigan sirtga o‘rnatiladi. Qolipaki usuli bezakni birdaniga ko‘p miqdorda tayyorlash imkonini beradi (hozir korxonalarda qoliplar yordamida ham ko‘p nusxada tayyorlanadi).

O‘zbekiston hududida ganchning milliyligi hamda unda ishlashning qulayligi ganchning qadimdan maxsus kasb sifatida shakllanishiga sabab bo‘lgan; mahobatli binolar qurilishi va umuman me‘morchilik, amaliy va tasviriy san‘at rivoji bilan uzviy bog‘liq holda rivojlangan. Qadimdan tosh, g‘isht, sopol, yog‘och bilan bir qatorda ganchdan ham keng foydalanilgan; uyma naqsh va tasvir ishlashga qulayligi esa ganch o‘ymakorligini rivojlantirgan.²⁹ O‘zbek ganchkorligining ajoyib sahifasini Buxoro yaqinidagi Sitoray Mohi Xosadagi “Oq uyda”, Toshkentdagi Navoiy nomli katta opera teatrida va boshqa qadimiy obidalarimizda hamda boshqa yurtimizning diqqatga sazovor joylarida ko‘rish mumkin. Ganchkorlik san‘atining ajoyib va murakkab turlari bilan ishlashda Usta Shirin Murodov (Buxoro), Toshpo‘lot Arslanoqulov,

²⁹ <https://uz.wikipedia.org/>

A. Po‘lotov, A. Samadov, M. Usmonov (Toshkent) , H. Jalilovlar (Samarqand) nom chiqargan ustalar sanalanadi.

Yog‘och o‘ymakorligi san’ati ham O‘zbekistonning barcha viloyatlarida qadimdan keng tarqalgan. Mazkur o‘ymakorlikka oid bo‘rtiq (georelef) naqshlar uy-ro‘zg‘or buyumlarida va me‘morchiligida, ayniqsa, eshik, darvoza, ustunlar, har xil to‘sin, xontaxta, quticha, qalamdon, egar kabilarda ishlatilgan. Mohir ustalar yaratgan bizgacha yetib kelgan ayrim buyumlar hozirgacha o‘zining nafisligi, tabiiyligi va murakkabligi bilan kishini hayratda qoldiradi. Yog‘och o‘ymakorligi namunalari ilk o‘rta asrlarga oid Surxondaryo vohasidagi Yumaloqtepadan, Buxoro, Xiva, Samarqand, Shahrisabz va boshqa joylardagi qazilmalardan topilgan.³⁰ Bugungi kunda yog‘och o‘ymakorligi an‘analarini qayta tiklashda Shavkat Ashurov, Shonazar Jumayev va Akmal Muxiddinov kabi hunarmandlar jonbozlik ko‘rsatib kelmoqdalar.




O‘ymakorlik san’atining ajoyib turlaridan biri – **misgarlik**.

Miskarlik — hunarmandlikning qadimiy sohasi; mis va uning metallar bilan qotishmasidan qurollar, uy-ro‘zg‘or buyumlari va boshqa yasash kasbi. misgarlik buyumlar 2 xil usulda — eritib quyib yoki bolg‘alab yasaladi. Ish jarayonida metall tez-tez qizdirib turiladi. Murakkab shaklli buyumlar yasashda avval ayrim bo‘laklar quyilib, so‘ng ular birbiriga qalaylanadi. Buyumlar qolipdan ko‘chirilgach tozalanib, so‘ng unga naqqoshlar chizma, kandakori yoki bosma usulida gul (naqsh) ishlaydi. 20-asrda Qo‘qon, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xivada misgarlarining o‘ziga xos maktablari shakllangan; mohir ustalar tayyorlagan buyumlar shuxrat qozondi. Ish, asosan, qo‘l mehnatiga



³⁰ <https://uzor.uz/>

asoslangan. Misgarlik artellarida hozir ham an'anaviy buyumlar — choydosh, choyjo'sh, oftoba, lagan, ko'za, kosa, shamdon, dastsho'y va boshqa, zargarlik buyumlari tayyorlanadi; shuningdek, yangi shaklli buyumlar ham paydo bo'lmoqda, ular yangi mavzular, naqshlar, tasvirlar bilan bezatiladi. Ustalar turli shakldagi idishlarni quyib tayyorlaydi, nafis o'yma naqshlar bilan bezaydi, an'anaviy shakllar, naqsh qismlarini turlicha qo'llab naqsh mujassamotini boyitadi va badiiy hunarmandlik asarlari yaratadi. Respublika muzeylarida 19—20-asrlarda yaratilgan misgarlik buyumlari saqlanadi, ular shakli an'anaviy mukammal nisbatlari va naqshinkor bezaklari bilan ajralib turadi.³¹




Naqqoshlik - naqshkorlik — amaliy san'atning qadimiy sohasi;

naqsh yaratish kasbi. Naqqosh usta qog'ozga yoki matoga naqsh mujassamotini yoki naqsh taqsimini chizib oladi (ayniqsa, girih va islamiy kabi murakkab naqshlarda), axta, andoza tayyorlaydi. Amaliy san'at ustalari 2 xil usulda bezak

yaratadilar: naqqoshlar tayyorlagan axta, andoza yordamida hamda naqsh (gul) to'g'ridan-to'g'ri bezash jarayonida ustalar tasavvurining mahsuli sifatida yaratiladi. Naqqoshlikda naqsh, bezakni malakali naqqosh ustalar chizib beradilar, bunday naqshlarni me'morlik, gilamchilik,

kashtado'zlik, kandakorlik va boshqa naqsh mujassamotlarida birday uchratish mumkin. Naqsh yaratish ustadan did, mahoratdan tashqari qunt, uzoq mashq-malaka talab qiladi. Naqqoshlar o'tmishda xalq ustalarining eng bilimdon, iste'dodli qismini tashkil etgan, ular ustodlarda ta'lim olgan, turli fanlar (adabiyot, musiqa, tarix, kimyo, matematika)ni yaxshi bilgan.



³¹ <https://uz.wikipedia.org/>

O‘rta Osiyo hududidagi me‘moriy yodgorliklar, arxeologik qazilmalar naqqoshlikning bu yerda qadimdan rivojlanganligini ko‘rsatadi. Amaliy bezak san‘ati turlari (kulollik, miskarlik, zargarlik, gilamchilik, kashtado‘zlik, kandakorlik va boshqalar) hamda me‘morlikning taraqqiyoti naqqoshlikning ham rivojini taqozo etdi. Qo‘yqirilganqal’a, Tuproqqal’a, Ko‘hna Urganch, Qadimiy Termiz, Ayritom, Bolaliktepa, Varaxsha, Afrosiyob va boshqa joylardan topilgan turli xil uslubdagi naqsh namunalarining jozibadorligi ajdodlarning yuksak madaniyatidan darak beradi.

Kulolchilik san‘ati — hunarmandlikning loydan turli buyumlar



(terrakota, sopol idish, qurilish materiallari va boshqalar) tayyorlaydigan turi. Kulolchilikda asosiy xom ashyo — tuproq. Kelib chiqishi va tarkibi turlicha bo‘lgan tuproqlardan turli xil kulollik buyumi yasash jarayoni. Kulolchilik mahsulotlari

tayyorlanadi. Loy qancha ko‘p pishitilsa, sopolning sifati shuncha yaxshi bo‘ladi. Kulolchilikda asosiy qurol kulollik charxi, usta unda idishlar tayyorlaydi va ularga shakl beradi. Tayyorlangan idishlar quritilib, xumdonga qizdiriladi. Idishlarning turlariga ko‘ra, xumdonlar ham turlicha (katta-kichik) bo‘lishi mumkin. Sirlanadigan idishlar sirlanganidan so‘ng yana bir bor xumdonga qizdiriladi. Odatda, kulollar ma‘lum idishlar ishlab chiqarishga bo‘yicha ixtisoslashgan bo‘ladilar (masalan kosagar, ko‘zagar, koshinpaz, tandirchi va boshqalar).

Xalq amaliy san‘atining pichoqchilik, gilamchilik, kiygiz bosish san‘ati, suyak o‘ymakorligi, savat to‘quvchiligi, bo‘yra to‘quvchiligi, kashtachiligi va boshqa turlari bilan maktabgacha yoshdagi bolalarni tanishtirish hamda hunarnandlar uylariga ekskursiyalar tashkil etish zarur.

Amaliy san‘atning eng ko‘p tarqalgan ommalashgan turi kashtachilik bo‘lib, qadimiy an‘analarga ega. O‘zbek kashtachiligida do‘ppi alohida o‘rin egallaydi. Masalan: shahrisabzliklarning gilam, buxoroliklarning zar, namanganliklarning chust, iroqi, duxoba va boshqa do‘ppilar O‘rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan. Kashta san‘atida belbog‘, dastro‘mol, sandalpech, bug‘macha, to‘rvacha, choyxalta, so‘zana, palak

kabi turlari tikilgan.

2. Kashta va uning turlari.

Kashta (fors. — chizilgan, tortilgan) — amaliy bezak san'atining keng tarqalgan turi; igna bilan tikib tushirilgan gul, tasvir, naqsh. Kashta qo'lda (igna, ilmoqli igna, ilmoqli bigiz bilan) yoki mashinada, asosan, mato (bo'z, chit, satin, shoyi, baxmal, movut va b.) va charm (etik, mahsi, pichoq qini, kamar, ot jabduqlari va b.)ga tikiladi. Kashta mujassamotida o'simliksimon naqshlar, handasiy (geometrik) shakllar, fazoviy jismlar, meva va hayvonlarning uslublashtirilgan tasvirlari, baytlar, keyinroq kishilarning qiyofalari, me'moriy obidalar ham o'z ifodasini topdi.

Kashta tikish turli usullarda matoga avvaldan axta (andaza) yordamida tushirilgan gul, tasvir, naqsh asosida, ba'zan matodan iplari sug'urilib tayyorlangan asosda sanama usulida bajariladi. Bunda jun, ip, ipak (rangli), zig'ir tolali tabiiy va sun'iy (sintetik) tolalardan, metall (tilla, kumush)dan tayyorlangan iplardan foydalaniladi, shuningdek, dur, nozik, piston, ba'zan qimmatbaho tosh va tangalar keng ishlatiladi. Mato, mo'yna, charmlardan applikasiya (quroq) tikishda kashtadan foydalaniladi.

Kashta buyumlar (palak, so'zana, choyshab, gulko'rpa, kirpech, dorpech, zardevor va b.), kiyimlar (ko'ylak, do'ppi, nimcha, peshonaband, kamar va b.), mustaqil bezak namoyonlarda keng ishlatiladi.

Kashtachilik - kashta tikish kasbi, amaliy san'atning qadimiy sohalaridan biri bo'lib kelgan. Arxiologik topilmalar kashtachilikning deyarli barcha xalqlarda qadiymiyligini, iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda har bir xalqning madaniyati hisoblanib kelingan.

O'zbek milliy kashtado'zlik xalq hunarmandchilik san'atining eng qadimiy turlaridan bo'lib, u xalqning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashta kiyimlar va buyumlarni bezashda hamda ro'zg'or bezak buyumlari tayyorlashda qadimdan qo'llaniladi.

Kashtachiligimiz san'ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. O'zbek chevar ustalari qo'llari bilan tikilgan kirpich, so'zana, zardevor, gulko'rpa, choyshab kabilar Fransiya, Italiya, Yaponiya, Germaniya, Belgiya, Amerika, Hindiston kabi xorijiy, shuningdek Respublikamizning Farg'ona vodiysida faqat xonadonlarda

emas, balki amaliy san'at muzeylarida ko'p namunalari to'planib, doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan.

Do'ppi – O'zbekistonda keng tarqalgan yengil bosh kiyim. Do'ppi kiyish dastlab Eronda va turkiy xalqlar o'rtasida rasm bo'lgan. Asrlar davomida do'ppining turli xillari vujudga kelgan. Baxmalga, satinga, sidirg'a shoyiga ip, ipak va zar bilan do'ppi gullari tikilgan. O'zbekistonda, Toshkent, Chust, Buxoro, Samarqand, Boysun, Shahrisabz do'ppilari mashhur bo'lib, ular o'ziga hosdir.

Mamlakatimizning barcha tumanlarida do'ppi tikiladi. Uning Iroqi, Chust do'ppi, gilam do'ppi, chakma tur, qizil gul, piltado'zi, zardo'ppi, to'ldirma deb nomlanadigan milliy do'ppilar bor. Har bir do'ppi yaratilish uslubiga ega bo'lib, ular bir-biridan farq qiladi.

Arag'chin – sharsimon do'ppi, uni asosan keksalar kiyadi. Toshkentda sharsimon do'ppilar kanda xayol, bosma, chakmator, iroqi chok usullarida tikiladi.

Tus do'ppi – keng tarqalgan yassi yuzali do'ppi. Ko'pincha tus do'ppi chust do'ppi deb yuritiladi. Tus do'ppilarning birgina klassik variantining o'zida sakkizta chok uslubi qo'llaniladi. Masalan, zanjira, to'g'ri chok, chita, kungura, yetalatma, taroq, ova, pildiroq. Chust do'ppisining tepasi kvadrat shaklida bo'rtib chiqib, yarim shar ko'rinishida bo'ladi. Toshkent do'ppisi sidirg'a baxmaldan (gulsiz) tikilgan bo'ladi. Buxoro do'ppilari sidirg'a yoki guli baxmaldan jiyakli qilib tikiladi, jiyagi turli xil ipaklardan rangdor naqshli yo'rma usulida tikilgan bo'ladi.

Joynamoz – yerga solib ustida namoz o'qiydigan to'shama. Joynamoz har xil matodan tayyorlanib, uning uch tomoni mehrob shaklida tikilgan bo'ladi. Undan machit, madrasa va uylarda foydalaniladi. U turli o'lchamda bo'ladi. Joynamoz kashtachilikda juda chiroyli qilib bezatiladi.

Zardevor – uy jihozi, u sidirg'a shoyi baxmal, satinga kashta tikib bezatilgan badiiy buyum. Zardevor yangi tushgan kelinning uyiga, shiftiga yoki devoriga ilib qo'yiladi. U zar ip yoki ipak gajimli bo'lib, eni 40-70 sm uzunligi mo'ljallangan uyning devoriga moslab tikiladi.

Palak – devorlarga ilinib eng yirik, eng qimmat bezak buyumlaridan biri. Palakda osmon va to'lin oy aks ettiriladi. Uni qadimda oq yoki malla

bo'zga kashta tikib tayyorlangan. U so'zanadan gullarining yirikligi, zaminiga ham kashta qoplanishi bilan farq qiladi. Palakni o'rtasida yirik oy tasviri qizil qirmizi, pushti ipak bilan kashtalanadi va atrofiga juda chiroyli qilib o'simliksimon naqshlar tikiladi. Naqshlar ichida ko'pincha bodom, qalampir elementlari qo'llaniladi. Palakda qirqtacha oy ham tasvirlash mumkin, shuning uchun oyini soniga qarab olti oyli palak, o'n ikki oyli palak, hattoki katta uylar uchun qirq oyli palak tikilgani bizga ma'lum. Oylar turli ranglar bilan bir necha xil tasvirlangan. Mashhur kashtado'zlar ba'zida oyni ajoyib naqshlar bilan bezab, o'z mahoratlarini namoyish etganlar. Agar oyni ichida sidirg'a rangda ifodalangan bo'lsa, uni, oypalak, agar naqshli bo'lsa gulpalak va hokazo nomlar bilan yuritiladi. Keyingi vaqtlarda palakni qo'l mehnati ko'p bo'lgani uchun so'zana deyila boshlandi. Lekin hozir palakni qo'lda tikishga katta ahamiyat berilmoqda.

Kirpech – tokchaga taxlab qo'yilgan kiyim-kechak ustidan yoki devorning bo'sh joylariga ilib, uyni bezatib turishi uchun ishlatiladigan badiiy buyum. Kirpech kashtalari qo'lda yoki mashinada tikiladi. Kirpech qo'lda ilma kashta bilan bezaladi. U kiyim-kechakni changdan saqlaydi va uyni bezab turadi. Odatda, palakka o'xshatib tikilgani kirpechpalak deb yuritiladi. Bu turi ham keng ishlatiladi.

So'zana – igna bilan tikilgan degan ma'noni beradi. So'zana matoga kashta tikib tayyorlangan badiiy buyum bo'lib, xonani bezatish uchun devorga ilib qo'yiladi. U satin, baxmal, shoyi va boshqa matolarga kashta tikib tayyorlanadi. U o'ziga xos badiiy ko'rinishga ega. Matoning rangidan ustalarimiz kashta zamini sifatida foydalanadilar. Shuning uchun u palakdan farq qiladi. So'zana har bir xonadonda bo'lgan, chunki har bir qiz turmushga chiqishidan oldin o'zi uchun so'zana tayyorlagan. So'zana kelinlarning sepi xisoblangan. Kambag'al oilada so'zanani malla, oq bo'zdan, badavlatroqlarida esa shoyidan, baxmaldan tikishgan. So'zana uchun kompozitsion joylashgan o'simliksimon naqshlardan foydalaniladi. So'zana o'rtasida ko'pincha doirasimon gul tikilib atrofi guldor islimiy naqshlar bilan bezatiladi. So'zana tikish juda qadimdan rivojlangan, lekin XIX asrgacha bo'lgan so'zanalar saqlanmagan. Faqat XIX asrga oid Samarqand, Buxoro, Nurota, Farg'ona, Uratapa,

Shahrisabz, Toshkent va boshqa joylardagi soʻzana turlaridan namunalari bor. Sanʼatning bu turi ayniqsa Oʻzbekiston hududida qadimdan keng tarqalgan. Keyingi paytlarda soʻzana mashinada tikilib kelmoqda.


Choyshab – forscha-tojikcha roʻyjotun chodiri degan maʼnoni bildiradi. Choyshab asosan taxmonga tutish, yotganda yopinish uchun toʻshak ustidan toʻshaladi. Toʻshak ustidan yopiladigan choyshab ham kashtali oq surp, taxmonga tutiladigan satin, shoyi, baxmal va boshqalardan tikiladi. Hozirgi vaqtda choyshabdan soʻzana kabi badiiy buyum sifatida ham foydalanib kelinmoqda.³²

Kashta tikish texnologiyasi: kashta turli rangdagi ipak, mulina, za rip bilan igna, ilmoqli bigizda har xil matoga mashinada gul tikishdir. Kashta har xil kiyimlarga, Roʻzgʻor buyumlariga tikiladi. Kashtachilikda mato, kigiz, charm, karton, zigʻir, jun, ipak, sunʼiy iplar, zar iplar, mayin sim, xom charmdan tayyorlangan tasmalar, munchoq, marjon, metal pufakcha, qimmatbaho tabiiy va sunʼiy toshlar, shihsadan tayyorlangan munchoqlar va baoshqa materiallar ishlatiladi. Kashtachilikda oʻziga xos ish qurollari mavjud boʻlib, ular oʻziga xos operatsiyani bajaradi. Kashtachilikda ignalar, ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar, toʻgʻnagʻich, angishvona qaychi hamda chambaraklar ishlatiladi. Chambarak asosan, yagʻochdan boʻladi, u doira, kavadrat, toʻgʻri toʻrtburchak shaklida boʻladi. Kichik kashtalarga doira chambarak ishlatiladi, chunki u qulaydir. Hamma kashtalarga ham kashta ishlatilavermaydi. Ip va igna kashta tikiladigan matolar qalinligiga mos qilib tanlanadi. Kashtachilikda yogʻoch dastali ikki xil, yaʼni ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar ishlatiladi.³³ Ayrim materiallarga masalan, charm va kartonga qiynalmasdan tikish uchun ilmoqsiz bigiz ishlatiladi. Naqshlar uchun oʻtkir uchli 10-12 sm uzunlikdagi qaychilar ishlatiladi. Tikish qulay boʻlishi uchun, qatim 50-60 sm dan uzun boʻlmasligi lozim, kashta chambarakda tikilsa angishvona qoʻllanilmaydi. Naqsh nusxasi har xil materiallarga, har xil yoʻllar bilan tushiriladi. Kashta tikish uchun gul va naqsh nusxasi tasviri konturini chizib, erkin kashta tikish turlari bilan tikiladi. Arqoq oʻrim iplari kesishtirib tiqilgan polotno yoki boʻz shaklida

³² Nurmatova M.Sh. Xasanova Sh.T. D.Azimova. Ustaxonada amaliy mashgʻulot. “Musiqqa” T.:2010-y.

³³ <https://kompy.info/>

to‘qilgan matolarga tikiladi. Buning sababi kashta tikilgan polotno yoki bo‘z shaklida to‘qilgan matolarga tikiladi. Buning sababi kashta tikishda





mato iplarini sanab tikishga qulaydir. Sanama kashta turi O‘zbekistonda keng tarqalgan. Erkin kashta esa mato tanlamaydi, tushirilgan tasvir asosida tikiladi. O‘zbek kashtachiligida yo‘rma, ilma, iroqi, bosma, xomdo‘zi, chamak, shipta xayol, baxya, choklar keng tarqalgan. Rasmda sanama, bosma chok tasviri tushirilgan.

Zanjir, yo‘rma choklarga asoslanib tikilgan suv choki va gulli suv choklari

Badiiy kashtalarda turli joydan turli choklar ishlatiladi. Chunonchi, Shahrisabzda yo‘rma, kandaxayol, Iroqi, Toshkentda ko‘proq bosma choki, Buxoro, Nurota, Samarqand kashtalari yo‘rma chokidan keng foydalanib kelinadi.

Kashta namunalari.





Hozirgacha buyumlar o‘ziga xos go‘zallik, nafis bezaklarning rang-barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega, buni arxeologik topilmalar va yozma manbalar isbotlab bermoqda. O‘zbek kashtachiligi iqlimi, tabiiy sharoit, muhit bilan bog‘liq holda barcha kasb-hunarlar bilan birgalikda rivoj topgan. XIV - XV asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko‘rish mumkin. Ispan elchisi Rui Ganzalem de Klavixo Amir Temur saroyida o‘zbek milliy kashta bezaklarini ko‘rganini kundaligida yozib qoldirgan. Kamoliddin Behzod “Zafarnoma” asarida ishlangan tasvirlarda ko‘rish mumkin. “Temur taxtda” miniatyurasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirgan.

O‘zbek kashtachiligi qo‘shni xalqlar kashtachiligi ta’sirida boyidi va rivojlandi. O‘zbek kashtalariga e’tibor bersak, unda hind, xitoy, rus, qozoq, qirg‘iz va tojik kashtachiliklarining usullarini uchratamiz.

Kashtachilik san’atida har bir millatning o‘ziga xos eng ko‘p qo‘llaydigan naqshlari bo‘ladi.

O‘zbek kashtalarida o‘simliksimon, geometrik shakl hamda gul naqshlari ko‘p qo‘llaniladi. Qadimiy an’analarga ko‘ra, o‘zbek qizlari-bo‘lajak kelinchak seplari bo‘lmish har xil kashtachilik buyumlarini ya’ni dastro‘mol, choyxalta, parda, belbog‘, sumka, nimcha, joynomoz, gulko‘rpa, kirpich, zardevor, choyshab, so‘zana, kiyim bezaklari va bosh kiyimlarini, sovg‘alarni o‘zlari tayyorlashgan. To‘yda kuyovning qarindosh-urug‘lariga kelin o‘zi tikkan buyumlarini sovg‘a qilgan. To‘ydan oldin sep yoyib ko‘rgazma qilinar, bu kelinning chevarligini,

mehnatsevarligini namoyish etishi va kashta qanchalik nozik, chiroyli bo'lsa yuqori baholanar edi. Qizlar juda yoshligidan boshlab kashta tikishga o'rgatilib, ular uch, to'rt yildan keyin mustaqil kashta tikishni boshlaganlar. O'rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo'lib, oilada kashta tikish bilan ayollar shug'ullanishgan. O'tmishda bu kashtalar oq va tabiiy malla shoyi, adras, hisoriga, baxmal matolarga tikilgan, keyinchalik satin, shoyi, baxmalga tikiladigan bo'ldi. Ish jarayonida ular o'z mahoratlarini oshirishgan, bir-biridan va kattalardan avlodlar tajribasini o'rganishgan. Xalq badiiy hunarmandchilik mahsulotlari faqat bizning mamlakatimizda emas, balki chet mamlakatlarda ham cheksiz talab qilinadi. Pliniyning aytishicha, Vavilon kashtachiligi qadimdan mashhur bo'lib, matoga turli rangdagi iplar bilan kashta tikishni o'sha yerda kashf etishgan.

Keyinchalik Vavilon Rim imperiyasi tarkibiga kirgach ipak, zar yoki jun ip qo'shib tikilgan rang-barang kashtachiligi bilan shuhrat qozongan. Kashtachilik san'atining an'analari Vizantiyada ham rivoj topgan.

XIII va XV asrlarda Kichik Osiyo doirasida paydo bo'lgan hamda Vizantiya imperiyasini barbod qilgan usmoniy turklar ham ushbu san'atga o'zlarining munosib ulushlarini qo'shganlar. Qrim va Kavkazning qayeridaki Vizantiya madaniyati uzoq vaqt kuchli ta'sir o'tkazgan bo'lsa, o'sha yerda kashtachilik rivojlanavergan. Qadimgi Rus ham Vizantiyaga taqlid qilib kashtachilik san'atini o'rgangan. Rus kashtasi gullarining xarakteriga va tikilish usullariga ko'ra juda turli-tumandir. Popov (yo'rma) chokli kashta tikish Olonets, Vologda oblastlari va Arxangelsk oblastining g'arbiy qismida keng tarqalgan. Hozirgi vaqtda Rossiyada ellikdan ortiq baxyasimon kashtado'zlik korxonalari bor. Ivanovo, Ryazan, Kalinin, Smolensk va boshqa oblastlarda kashtado'zlik markazlari bo'lib, u yerdagi korxonalarda turli kiyimlar va uy ro'zg'orni bezaydigan turli buyumlar ishlab chiqariladi.

XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro etilishi kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi.

Kashtado'zlikning yirik namoyondalaridan Andijondagi "Qizil bayroq" arteli rassom kashtado'zi X.Nazarov, Samarqanddagi "Xotin-qizlar mehnati" arteli kashtado'zi Usmon Shokirov, toshkentlik

kashtado‘z va chizmakash Xayri Sobirovalar kashta buyumlariga yangi turli xil naqsh kompozitsiya va tikish usullarini yaratdilar. X.Sobirova onasi Zaxira Mirxoliqovadan qo‘lda, mashinada tikish sirlarini va chizmachilikni o‘rgandi.

3. Zardo‘zlik.

Zardo‘zlik – hunarmandchilikning qadimiy turlaridan biri zar ip bilan naqsh (kashta) tikish hunari. Zardo‘zi (forscha) zar-tilla (o‘zbekcha), (forscha) do‘zi-tikmoq (o‘zbekcha) so‘zini anglatadi. Zardo‘zlik san’ati tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Zardo‘zlikning vatani Vavilon bo‘lib, u Rim imperiyasiga qarashli bo‘lgach, zar, ipak va jun qo‘shib tikilgan rang-barang kashtachiligi bilan butun dunyoga mashhur bo‘lgan. Vizantiyada zardo‘zi kiyim-kechaklarni faqat imperator ayollari, aslzodalar kiyishgan. Vizantiya bilan doimiy madaniy, siyosiy-iqtisodiy aloqalar o‘rnatish sababli Eron podsholigida ham zardo‘zlik san’ati taraqqiy etgan. XV-XVII asrlar oralig‘ida Eronda zardo‘zlik san’atining rivojlanganligini o‘sha davrda ishlangan namunalar va rasmlar dalolat beradi. Vizantiyadan Qadimgi Rusiyaga ham zardo‘zlik san’ati kirib kelgan.

Zardo‘zlik O‘rta Osiyada juda qadimdan rivojlanib kelayotgan xalq amaliy san’ati turidir. Arxeologik topilmalar va tarixiy manbalardan ma’lumki, O‘rta Osiyo xalqlari orasida qadimdan I-II asrlarda zarbof kiyimlar, badiiy buyumlar keng tarqalgan. 1947-yili Toshkent viloyatining Vrevskiy qishlog‘ida o‘tkazilgan arxeologik topilmada ayol qabridan I-II asrlarga tegishli zarbof kiyimlar topilgan. XIX-XX asr boshlarida Buxoro, Samarqand, Farg‘ona viloyatlarida zardo‘zlikning o‘ziga xos maktablari ochilgan. Qimmatbaho matodan tayyorlanadigan zardo‘zi kiyimlar mahalliy aholining turli tabaqalari o‘rtasida keng tarqalgan. Bu kiyim-kechaklar asosan amir saroyidagilar, Shahar boylari uchun tikilgan. Yuzlab qo‘li gul ustalar hammasi saroy ehtiyojlari uchun tayyorlangan. Bu ustalarning ko‘pchiligi ota-bobosidan meros bo‘lgan kasbi saroy ahillari uchun kamzul, chakmon, chalvor, poyafzal, belbog‘, salla, quloq va gul tikishdir. Bunday kiyimlar xon buyurtmasi yoki yaqinlari tomonidan bironta oilaviy tantana yoki bayram munosabati bilan tayyorlash uchun buyuriladi. Hech kim, hatto eng katta amaldorlardan

birortasi ham yuqorida aytib o‘tilgan kiyimlardan hech birini o‘ziga buyurtirishga haqi yo‘q edi, ular zarbop kiyimlarni amir sovg‘a qilgandagina kiyishlari mumkin edi. Ayollar va bolalarning zardo‘zi kiyimlari faqat badavlat xonadonlarning an`analaridagina kiyilgan, kiyimlarni ular birorta oilaviy tantana yoki bayram munosabati bilan kiyishgan. Boy xonadonlarning 8-10 yoshdan katta bo‘lmagan o‘g‘il bolalariga sunnat to‘yi munosabati bilan zarbop to‘n kiydirishgan. XIX—XX asr boshlarida Buxoroda 350 ga yaqin zardo‘z ustalar bo‘lgan. Ular ustidan nazorat qilib turadigan maxsus tashkilot bo‘lgan. Ustalarning aytishicha eng birinchi usta zardo‘z, eng birinchi ustoz, g‘oyibona homiy hamda pir Hazrati Yusuf bo‘lgan deyishadi. Shu haqda kichkina risolacha bo‘lib unda zardo‘zlik kasbining paydo bo‘lishi, uni o‘rganish qonun-qoidalari, ishdan oldin o‘qiladigan duolar zardo‘zlik kasbining homiysi “Arvohi pir”ga sig‘inish uzoq vaqtgacha davom etgan. Zardo‘zlik uchun zar Eron, Arabiston, Rossiyadan kirib kelgan. Ustaxonaga ustakor boshchilik qilgan. Ustakor tajribali, malakali tarhkashlardan (ya`ni naqsh chizuvchi usta) qushbegi tomonidan saylangan. Gul, naqsh chuzuvchilar “tarhkash”lar deb atalgan ekan. Ustakor barqut, shoyi, ip va boshqa xom-ashyolarni tarqatib turgan. Gul kesuvchi ustalar podshoqlik ustaxonasida asosiy kishilardan hisoblanar edi. U gulbur deb nomlangan.

1920-yilgacha Buxoro amirining ustaxonasida 300 ta erkak shug‘ullanar edi. U vaqtlarda ayollar zardo‘zlik bilan shug‘ullanishmagan. Keyinchalik ayollar ham tika boshlagan.


Har bir kasbda o‘ziga xos asbob-uskunalar bo‘ladi. Zardo‘zlikda asbob-uskunalar uncha ko‘p bo‘lmasada o‘ziga xos tomonlariga va tuzilishiga ega.

Zardo‘zlikni bilish uchun asosan uch hunarni yaxshi bilish kerak, birinchisi — rasm solish va naqsh chizishni, ikkinchisi—gul kesishni, ya`ni gulbur bo‘lishni, uchinchisi — kesilgan gulga zarni tika bilishi kerak. Agar zardo‘zlar bularni birortasini bilmasa uchallasidan bittasiga muhtoj bo‘lishi kerak bo‘ladi. Shuning uchun uchala kasbni chuqur o‘rganishga to‘g‘ri keladi.

Chambarak — korcho‘b, uning to‘n, jun hamda mayda-chuyda buyumlar uchun mo‘ljallangan uch turi mavjud. Ular katta-kichikligi

bilan bir-biridan farqlanadi. Korcho‘b uzunligi 320 santimetrgacha bo‘lgan ikki teng yonli silliq yog‘och dastadan iborat bo‘lib, uchida joylashgan harakatlanuvchi shamshirak yordamida chambarakni xohlagan kattalikka keltirish mumkin. Chambarak bo‘zdan qilingan kerish (tavar) tortiladi hamda u tikib tayyor bo‘lgan buyum bilan birga chiqarib olinadi. Zardo‘zlar ko‘rpachada chordona holda o‘tirib ishlaganlar. Zardo‘zlikda qadimdan patila degan asbob ishlatiladi. Patila oddiy yog‘ochdan chorrax (to‘rt qirrali) va nafis qilib tarashlangan, ichini kovlab qo‘rg‘oshin quyib vazminlashtirilgan bo‘ladi. Unga to‘rt qavat qilib zar o‘raladi. Keyin maxsus kartondan kesilgan gullar ustidan tikib chiqiladi. Bunday patilalar ipni zich qilib o‘rashni ta‘minlagan, Zardo‘zlikda angishvona ham ishlatiladi.

Angishvona — forsha, angusht, ya‘ni barmoq, vona saqlovchi degan ma‘noni bildiradi. Yostiqlik, ko‘rpa tikishda qo‘lga igna kirib ketmasligi uchun barmoqqa kiyiladigan metall g‘ilof. Angishvonaning ustki va yoni ignani keti qadaladigan, ya‘ni nina toyib ketmasligi uchun chuqurchalardan iborat bo‘ladi. Qadimda metall kam bo‘lganligi uchun charmdan ham tayyorlangan.



Zardo‘zlikda ikki xil angishvonadan foydalaniladi. Birinchisi fabrika angishvonasi bo‘ladi, uni o‘rta barmoqqa ikkinchisi tagsiz, qalin charmdan yasalgani chap qo‘lning uchta barmog‘iga taqilib ishlanadi. Charmli angishvonani fabrikada metalldan ishlangani ham bo‘ladi.

Igna — zardo‘zlikda chatish-tikish uchun ishlatiladigan o‘rtacha kattalikdagi igna.

Qaychi shuturgardan — zardo‘zlikda ishlatiladigan qaychi turi bo‘lib, u tuya bo‘yin qaychi degan ma‘noni beradi. Ya‘ni tuya bo‘yniga o‘xshash qaychi bo‘lib gul qirqishda ishlatiladi. Zardo‘zlikda oddiy qaychilar ham ishlatiladi.



Zamindo‘zi — bunda zar tikilayotgan kiyim yoki kiyim gulnaqshining zamini yoppasiga zar bilan tikiladi. Zamindo‘zi siddi ustiga tikilib, siddi jaydari ipakdan tayyorlanadi. Birinchi navbatda ip 4 yoki 5 qavat qilib, keyin esa ikki qavat qilib eshiladi. Shu hosil bo‘lgan ingichka shnurni zardo‘zlikda *siddi* deb yuritiladi. Zardo‘zlikda tikilish, joyining yuzasi katta yoki kichikligiga qarab, o‘lchamga moslab stanokda siddilar sariq bo‘z ustiga sakkiz, yigirma, yigirma to‘rt qator qilib tortiladi. Siddilar aniq hisob bilan tikilib ular sanab tikiladi hamda ularning soni mo‘ljaldagidan ortiq bo‘lmasligi kerak. Aks holda, mavj yoki nusxalar buziladi. Zamindo‘zida mavji yak ro‘ya va mavji duro‘ya qismlari bor. Zamindo‘zi qadimda qimmatbaho to‘nlarda ishlatilgan bo‘lib hozir zardo‘zi do‘ppilarning jiyagidagina qo‘llanib kelinadi.

Guldo‘zi — bunda tikilayotgan naqshning tagi okiq qolib faqat gul naqshlarining o‘zi zar bilan tikiladi. Guldo‘zi tikish usuli o‘ziga xos bo‘lib bu quyidagi bosqichda bajariladi. Naqqosh



tomonidan naqsh chiziladi. Naqsh nusxasi qalin qog‘oz, karton yoki teridan qirqib andazasi tayyorlanadi. Sidirg‘a baxmal matoga qadab chiqiladi, ya‘ni omonat tikib chiqiladi yoki yelimlanadi. Karton nusxani zar ip bilan qoplab tikib chiqiladi. Biroz bo‘rtma naqsh gul hosil bo‘ladi. Endi zardo‘zlikda zar tikish xillari hamda usullari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tamiz. Bu aytib o‘tiladigan tikish xillarining ko‘pchiligi zardo‘zlikda qo‘llanilyapti. Ayrimlari deyarli qo‘llanilmayapti. Bu tikish xillari kam qo‘llansada lekin uning ishlatish sohasini topsa bo‘ladi. Bu usullarning yo‘q bo‘lib, unutilib ketayotgani kishini achintiradi. Qadimdan qo‘llanilib kelingan tikish usullaridan yosh avlod foydalansa, xalq yaratgan an‘anaviy, nodir uslublarni asrab qolgan bo‘lur edik. Bu masala mustaqillik yillaridan keyin to‘garaklar ochilib yoshlarga o‘rgatila boshlangan.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni xalq amaliy san‘ati va kashtalar bilan tanishtirishning ahamiyatli jihatlari.

Maktabgacha ta’limda xalq amaliy san’atining barcha turlari bilan tanishtirish zarur va ularning tarixi haqidagi bilimlar beriladi. Xalq amaliy

san'ati namunalarini bolalarga ko'rsatiladi. Ular haqida ma'lumotlar beriladi. Amaliy san'at namunalarini ishlatilish o'rinlarini aytib o'tiladi. Bolalarni xalq amaliy san'ati turlari bilan tanishtirishda ekskursiyalar, sayohatlar, sahna ko'rinishlari tashkil qilish yaxshi natija beradi. Bundan tashqari tarbiyalanuvchilarni boshqa millatlarning hunarmandchilik buyumlari, kiyimlari bilan ham tanishtirish lozim. Xalq amaliy san'ati bilan tanishtirish bola tasavvurini, bilimini kengaytiradi. O'zbek va boshqa xalqlarning madaniyatidan xabardor qiladi. Ularda estetik did shakllanadi.

Bolalarni kulolchilik ustaxonalariga, tikuv korxonalariga, nonvoyxonalarga, gilam to'qish sexlariga, zardo'zlik korxonalariga, temirchilik ustaxonalariga, qo'g'irchoq tikish ustaxonalariga ekskursiyalarga olib borish zarur. O'lkamiz bo'ylab muzeylarga, tarixiy yodgorlik-obidalarimizga sayohatlarga olib chiqish, bolalarda keng tasavvur hosil qiladi. Bugungi kundagi kashta namunalari ishlatiladigan o'rinlarini sanab o'tish kerak. Kashta yo'qolib ketmaydi, u yillar o'tgan sayin zamonaviylashib boraveradi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Xalq amaliy san'atining boshqa turlarini nazariy-amaliy jihatlarini o'rganing.
2. Qadimda kashtachilik qayerlarda ishlatilgan?
3. Kashtachilikda qanday bezak buyum turlari bor?
4. Kashtalar qadimda qanday matolarga tikilgan?

Mavzu yuzasidan test topshirig'i:

1. ... (fors. — chizilgan, tortilgan) — amaliy bezak san'atining keng tarqalgan turi; igna bilan tikib tushirilgan gul, tasvir, naqsh.

Nuqtalar o'rniga qaysi amaliy san'at turini qo'ysa to'g'ri bo'ladi?

- a. Kashta
- b. Gilamchilik
- c. Zardo'zlik
- d. Zamonaviy kashta

2. Kulolchilikda asosiy xom ashyo nima?

- a. Tuproq
- b. Gil

c. Qum

d. Suv

3. Zardo‘zi so‘zi qaysi tildan olingan va ma‘nosi nima?

a. Zardo‘zi (forscha) zar-tilla (o‘zbekcha), (forscha) do‘zi-tikmoq (o‘zbekcha) so‘zini anglatadi.

b. Zardo‘zi (forscha) zar-sariq (o‘zbekcha), (forscha) do‘zi-ip (o‘zbekcha) so‘zini anglatadi.

c. Zardo‘zi (tojik) zar-oltin, kumush (o‘zbekcha), (forscha) do‘zi-tikmoq (o‘zbekcha) so‘zini anglatadi.

d. Zardo‘zi (forscha) zar-ip (o‘zbekcha), (forscha) do‘zi-tikmoq (o‘zbekcha) so‘zini anglatadi.

4. Naqqoshlik qanday kasb?

a. Xalq amaliy san‘ati turi bo‘lib, naqsh yaratish kasbi

b. Xalq amaliy san‘ati turi bo‘lib, yog‘ochga gul o‘yib ishlash kasbi

c. Xalq amaliy san‘ati turi bo‘lib, misga naqsh yaratish kasbi

d. Xalq amaliy san‘ati turi bo‘lib, ganchga naqsh yaratish kasbi

5. Kamoliddin Behzod “Zafarnoma” asarida ishlagan “Temur taxtda” miniatyurasida chodirga ishlangan kashta nechanchi asrga mansub?

a. XIV - XV asrlarga mansub

b. XV - XVI asrlarga mansub

c. XIX - XX asrlarga mansub

d. XIV - XVII asrlarga mansub

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qo‘ziyeva Z. E. Xalq amaliy san‘ati. metodik qo‘llanma Navoiy, 2012-y.

2. Qazaqova S. Xalq hunarmandchilik turlaridan zardo‘zlik tarixini o‘rganish. metodik tavsiya Urganch, 2013-y.

3. Nurmatova M. Sh., Xasanova Sh. T., D. Azimova. Ustaxonada amaliy mashg‘ulot. “Musiqqa” T.:2010-y.

4. <https://qomus.info/>

5. <https://uz.wikipedia.org/>

6. <https://uzor.uz/>

O‘YINCHOQLAR VA ULARNI TAYYORLASH TEXNOLOGIYALARI.

Reja:

1. O‘yinchoqlar va ularni tayyorlash turlari.
2. Yumshoq o‘yinchoqlarni tikish va ularning bola tarbiyasidagi o‘rni.
3. Ilgak va spitsa bilan o‘yinchoqlar to‘qish usullari.

Tayanch tushunchalar: O‘yinchoqlar, yumshoq o‘yinchoqlar, ilgak va spitsa bilan to‘qiladigan o‘yinchoqlar hamda o‘yinchoqlarning bola hayotida tutgan o‘rni haqida

1. O‘yinchoqlar va ularni tayyorlash turlari.

O‘yinchoq – bola o‘ynaydigan, bolani ovutadigan predmet va narsalar to‘plami. Hamma bolaligida o‘yinchoq bilan ovungan. Unda tinchlantiruvchi sehr bor, bolakay kecha-kunduz uni qo‘ldan qo‘ygisi kelmaydi. Ba’zi qizaloqlarni kuzatgansiz, qo‘g‘irchog‘ini quchoqlab uyquga ketadi. O‘yinchoqlar bilan xuddi yaqin do‘stidek gaplashadigan farzandlarimizga havas qilamiz. Zamona zaylini qarang-da, bozorga tushsangiz, ming xil o‘yinchoq.



Bola hayotini o‘yinchoqsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. U qay ko‘rinishda bo‘lmasin, bolaning hissiy qobiliyatini rivojlantiradi, nutqiy faolligini yaxshilaydi, lug‘at boyligini oshiradi, tahlil qilish, umumlashtirish, taqqoslash, diqqatni jamlashga o‘rgatadi.³⁴ Har bir bola zehni, zukkoligi, o‘ziga xos nutqi bilan ajralib turadi. Jismonan, ruhan rivojlanayotgan bolaga o‘yinchoqlar turli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Psixologlarning fikricha, bola hamma o‘yinchoqlarni ham o‘ynab ketavermaydi. Har bir kichkintoy o‘z qiziqishiga qarab o‘yinchoq tanlaydi. Og‘ir, vazmin bolalar mayda detalli, sho‘x, to‘polonchi bolalar esa yengil o‘ynaladigan o‘yinchoqlarga moyildir. Tarbiyachi bolaning har

³⁴ Xolmurodova F. Ma’rifat gazetasi Toshkent 2019-y. 1-son

tomonlarni rivojlanishini hisobga olib, barcha o'yinchoqlarni o'ynashi uchun muhit yaratishi kerak. O'yinchoq xavfsiz bo'lishi zarur. Guruhlarda tarbiyachi va yordamchi tarbiyachi xloramin eritmasi bilan o'yinchoqlarni yuvib tozalaydi.

Har bir xalqning o'yinchoqlari o'ziga xos pedagogik, badiiy va texnikaviy an'analarga ega. Ushbu an'analarni, bir tomondan, xalqaro, ikkinchi tomondan – madaniyat, hayot, pedagogikaning milliy o'ziga xosligi bilan belgilangan xususiyatga ega. O'yinchoqlar faqat XIX asr oxiri XX asr boshlarida ilmiy tadqiqot mavzusi bo'lgan.³⁵ O'yinchoq qadimgi xalqlardan, ibtidoiy madaniyatdan boshlab va bizning davrimizga qadar moddiy madaniyat, hayot yodgorligi sifatida o'rganishni boshlagan etnograflar namoyish etilgan. Osiyo, Afrika, Amerika xalqlarining o'yinchoqlari to'plamlari, Parij pedagogik muzeyidagi qo'g'irchoqlar to'plami, Nyumberg, Berlin, Stokgolm, Parij va boshqa muzeylarda diqqatga sazovor. Xalq o'yinlarini o'rganish bo'yicha rus tadqiqotchilari orasida L. G. Orshanskiy va Moskvadagi o'yinchoq muzeyining asoschisi N. D. Bartramni ta'kidlash kerak.

Bugungi kunda bolalar uchun ko'plab rivojlantiruvchi ta'limiy o'yinchoqlarning yangi avlodlari yaratila boshlangani hech kimga sir emas. Qadimda o'yinchoqlar asosan harakatli va tarbiyalovchi xususiyatlarga ega bo'lgan bo'lsa, endilikda rivojlantiruvchi ta'limiy o'yinchoqlar avlodi rivojlandi va ota-onalarning, ta'lim xodimlarining ishonchiga kira oldi. Sababi rivojlantiruvchi ta'limiy o'yinchoqlar bolaga kerakli ko'nikmalarni o'rgatishning ajoyib usuli. Bunday o'yinchoqlar qatoridan bolalarning ijodkorligini tarbiyalovchi o'yinchoqlar ham borki, ilmiy tadqiqotimiz davomida ayni shu turdagi o'yinchoqlarning ahamiyati, ularning turlarini o'rganishga e'tibor qaratdik.

Interaktiv o'yinchoqlar. Rivojlantiruvchi ta'limiy o'yinchoqlarning orasida interaktiv o'yinchoqlar juda mashhur. Qo'shiqlar kuylash, suhbatlashish va hikoyalar aytib bera oladigan o'yinchoqlar nutqning rivojlanishiga foydali ta'sir ko'rsatadi. Shunisi e'tiborga loyiqki, so'zlarni idrok etish va tushunishni rivojlantiradigan o'yinchoqlar bolaning ijodiy qobiliyatlarini erta yoshdan tarbiyalaydi.

³⁵ <https://fayllar.org/>

Piramidalar. Mantiqiy rivojlantirish uchun qulay bo'lgan piramidadagi halqalarni bola nafaqat o'z o'rniga taqibgina qolmay, balki ularni to'g'ri tartibda joylashtirishi kerak. Piramidalar plastik, yog'och yoki matodan tayyorlanishi mumkin. Piramidalarni o'ynash uchun tavsiya etilgan yosh 1-3 yosh. Ushbu yoshda nisbatlar, shakl va rang tushunchalari shakllanadi. Bundan tashqari, ular nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun tavsiya etiladi, chunki bu jarayonda mayda motorikalar rivojlanadi. Sensomotor koordinatsiyani shakllantirishga, "qo'llar va ko'zlar" harakatini muvofiqlashtirishga yordamlashadi. O'yinchoqning tarkibiy qismlaridan foydalanib, bolani shakl, rang va hajm haqidagi asosiy tushunchalar bilan tanishtirish mumkin.

Pazllar. Qat'iylik va diqqatlilik sifatleri bolada jumboqlarni echish orqali rivojlantiriladi. Rasmlarni yig'ish ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Mozaikalarni o'z o'rniga qo'yishda bola ijod qiladi, boshqacha yo'llarini kashf qiladi. Klassik kublar. Bu turdagi o'yinchoqlar tayyorlov guruhidagi bolalarni intellektual rivojlantirish uchun katta yordam berishi mumkin. Harfli yoki raqamli kublar bolalarni hatto maktabga tayyorgarlik ko'rishida ham yordam beradi. Bunday o'yinchoqlarning asosiy turlari - bu idishlar va ramkalar. O'yinchoqning tarkibiy qismlarini birlashtirar ekan, bola buyumlarning hajmi va shaklini solishtirishni, qo'l va ko'z harakatlarini boshqarishni o'rganadi. Bu o'yinchoqlar, shuningdek, fikrlash va tasavvur qobiliyatini rivojlantiradi. Stolda o'ynaladigan o'yinlar. Bunday o'yinchoqlar barmoq bilan ishlashni talab etgani bois, mayda motorika rivojlanadi, nutqiy jarayon yaxshilanadi, qo'llar yozuv ko'nikmalariga tez o'rganadi.

Montessori o'yinchoqlari. Montessori metodikasida shunday jihozlar borki, bola mustaqil ravishda shug'ullanib, yangi bilim hosil qiladi. Masalan, har xil shakldagi silindrlarni o'z hajmiga mos joylarga joylashtirish. Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, tarbiyachi ko'rsatmasi bilan topshiriqni bajargan bolalar ertasiga ushbu vazifani qaytadan ko'rsatib berishda xatolikka yo'l qo'ydi, mustaqil bajargan bolalar silindrlarni deyarli bexato bajardi. Mustaqil o'zlashtirish jarayonida ko'proq vaqt talab qilinishi mumkin, lekin ular olgan bilimlarini xotiralarida mustahkam saqlab qoladilar.

Konstruktorlar. Bolaning yoshi 3-6 yosh oralig'ida bo'lganida, u ijodkorlikni rivojlantirish uchun muhitga ega bo'lishi kerak. Bola sodda jumboqlarni bajonidil yechadi, turli xil kartochkalar, konstruktorlar bilan mashg'ul bo'ladi. Rasm, applikatsiya va modellashtirishga o'rgatuvchi o'yinchoqlar. Ayni turdagi o'yinchoqlarni ijodiy qobiliyatlari rivojlangan bolalar o'ynashga moyillik bildirishadi. Rivojlantiruvchi o'yinchoqlar bolaning qaysi yo'nalishga moyilligini aniqlay oladi. Agar u konstruktorlarni qalamdan afzal ko'rsa, uni san'at maktabiga yuborish qiyin.³⁶

Bolalarning o'yinchoqlari matoli, yog'ochli, plastmasali, suvli, havoli, qumli tayyorlanishi mumkin.

2. Yumshoq o'yinchoqlarni tikish va ularning bola tarbiyasidagi o'rni.

Kerakli ashyolar: Yumshoq o'yinchoq uchun iloji boricha yangi mato yoki avvaldan yuvib, dazmollangan satin, barxat, shtapil, paxmoq, chit, junli matolar.

O'yinchoq hayvonlarni tayyorlash uchun, sun'iy va tabiiy jun matolaridan foydalaniladi. Tana, yuz ko'rinishlarini tasvirlovchi qo'g'irchoq o'yinchoqlari uchun shifon, shoyi matolar. Yuz uchun och pushti, och jigarrangi matodan olinadi.

Kiyimlari uchun: rangli matolar. Soch uchun: sun'iy iplar, viskoza, qismlarni birlashtirishda 1-2 mm yumshoq simlardan o'yinchoqlarni jixozlashda, har xil tugmacha, biser, tasma, lentachalar, shnurlar hamda eskiz tayyorlash uchun plastilin zarur. O'yinchoq ichini paxta, sintefon, trikotaj chiqindilari, averlo tikishda chiqqan qirindilar, yog'ochdan chiqqan qipiq bilan to'ldirish mumkin.

Yumshoq o'yinchoq tayyorlashga o'rgatish ishini nimadan boshlash kerak?

Dastlab, bolalarni igna ushlab, igna to'g'nog'ichdan o'rinli foydalanishga, so'ng eng oddiy chok turlarini tikishga o'rgatish zarur. Chok turlarini o'rgatish uchun amaliy bir necha ish tavsiya etiladi (ro'molcha tikish, xaltacha, kitob uchun xatcho'p) bu esa bolalarni chok turlarni tikish malakasini egallashlariga sharoit yaratadi. Bolalarda igna

³⁶ www.scientificprogress.uz

bilan ishlash malakasi hosil bo'lgandan so'ng, oddiy model tayyorlashga o'tiladi. Kichik bolalar qo'lda tikadilar, kattaroq bolalar tikuv mashinada tikishlari mumkin.

Yumshoq o'yinchoq tayyorlash jarayoni quyidagi ishlardan iborat: mato tanlash, g'ijim bo'lak matoni dazmollash, matoga andozani chizish, qismlarni bichish, tikish, ichini to'ldirish, ustini jihozlash.

Andoza kartondan tayyorlanadi. Bichishda mato ikkiga buklanadi, uning chap tomoniga andoza qo'yib, uchi yaxshi ochilgan qalam bilan tayyorlanayotgan bo'lsa, andoza har bir bo'lak mato ustiga ipini qiyalab yo'nalgan tomoniga qo'yiladi. To'q mato bo'lsa, andoza oq yoki sariq rangli qalam bilan, och rangli mato bo'lsa qora rangli uchi yaxshi ochilgan qalamdan foydalaniladi.

Chizib olingan mato har tomonidan 0,5 sm chok uchun qoldirib, qirqiladi, so'ng qo'lda yoki mashinada tikiladi. Burchaklari o'ng tomonidan chiqariladi. Tayyor tikilgan shakl metal tayoqcha yordamida o'tmas tomoni bilan o'ngiga ag'dariladi.

Agar o'yinchoq tabiiy jundan tayyorlanayotgan bo'lsa, chok xaqi qoldiriladi, chetlari qalin ipda tikiladi. O'yinchoq titiluvchan matodan bo'lsa chok xaqi qodirilmaydi, o'yinchoq bichib bo'lgandan so'ng, ustki qismdan halqa choki bilan tikiladi.

Hayvon va qushlarni tikish quyidagi qoida bo'yicha: avval tana va qorin qismlar bir biriga tikiladi. Shaklning ikki yarmi tayyor bo'lgandan so'ng ularni birga tikiladi. Shakl o'ngiga ag'darilib, ochiq qoldirilgan joydan ichi to'ldiriladi, qismlar bir-biriga ko'rinmas chok bilan birlashtirib tikiladi. O'yinchoqning ichi paxta yoki mayda mato qiyqimlari bilan to'ldiriladi oyoq qismlarini tayoqcha yordamida to'ldiriladi. Bolalar texnik jarayon bilan tanishtirilgandan so'ng o'yinchoq tayyorlashga o'tiladi.

O'yinchoq tayyorlanishning murakkablik bosqichiga qarab ikki guruhga ajratiladi:

1-guruh (kichik bolalar) yengil to'ldiriladigan o'yinchoqlar (tovuq, matreshka qo'g'irchog'i, pingvin, o'rdakcha, kuchukcha, filcha, quyoncha, ayiqcha, xo'tikcha, jirafa, pastki qismi tikilgan qo'g'irchoq).

2- guruh qo‘g‘irchoq teatri uchun qo‘g‘irchoq personajlari (ayiqcha, maymuncha, qo‘g‘irchoq, mushuk, sim sinch o‘rnatilgan o‘yinchoq).

Eslatma: berilgan andoza qanday kattalikda bo‘lsa shundayligicha tikilishi kerak. Kattalashtirishga berilgan, kattalashtirishi kerak bo‘lgan o‘yinchoq katak ichida chiziladi.

O‘yinchoqlar tayyorlashni kattalar ham, bolalar ham yaxshi ko‘radilar. Bular bolalar uchun bir ermak o‘yin bo‘lsa, kattalar uchun bolalar qalbiga yo‘l topishdir. O‘yinchoqlar yasash bolalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. saviyasini kengaytiradi, ijodiyotga qiziqishni tarbiyalaydi. O‘yinchoqlarni bolalar bilan birga yasash va mehnat qilish bo‘lib qolmasdan, balki ijod qilish, fikrlash hamdir. Ular o‘zlari yasagan o‘yinchoqlarida o‘zlarini ajoyib-g‘aroyib istaklarini, muhabbatlarini, mehnatlarini sarflaydilar. SHuning uchun ularning mehnatlarini qadrlash va mehnat qilishga qiziqtirish lozim. Bu esa ularda maqsadga intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tirishqoqlik, o‘zaro yordam berish, mehnatsevarlik, e‘tiborlilik, batartiblikni tarbiyalaydi.

Qo‘g‘irchoq teatri, mazmunli-rolli o‘yinlar, ertaklar, hikoyalar uchun qo‘g‘irchoqlarni tayyorlash ancha mehnatni talab qiladi. Shuning uchun kattalar bolalarga andozalarni tayyorlash tikish yo‘llarini tushuntirib berish zarur. O‘yinchoqlarni tayyorlashda har xil matolar qiyqimlaridan, eski kiyimlardan foydalanish mumkin (chit, poypoq, pahmoq, trikotaj, junli matolar, movut, eski telpaklar).




O‘yinchoqlarni tikishda chok, yo‘rma chok, qoviq chok, bosma chok, sirtmoqsimon choklardan foydalaniladi. O‘yinchoq tayyorlashda, eng avvalo, kartondan andoza tayyorlanadi. Berilgan chizmalarni

kattalashtirish lozim bo‘lsa, kerakli o‘lchamda katakchalar chizib olib,

ularni va chizmadagi katakchalar bir xil sonlar bilan belgilanadi. So‘ng har bir katakning ichidagi chizma chizib chiqiladi. Shunda chizma kerakli o‘lchamda kattalashtiriladi. Andoza gazmolga qo‘yib bichiladi. Bichishda gazmoldan 8 mm tikish uchun qoldirib so‘ng qirqiladi. Tikish tayyorlangan o‘yinchoqni ichi har xil paxta, parolon va trikotaj qiyqimlari bilan to‘ldirib, tayyorlanadi. Bosh qismini bezatish uchun tugmacha, munchoq, yaltiroq charm yoki kleyonka ishlatiladi.

Mushukcha o‘yinchog‘ini tikish. Matolar: mo‘ynali gazlamalar, trikotaj paxta. Mushuk yasash uchun rasmda ko‘rsatilgan chizma asosida andoza tayyorlanib, gazmoldan quyidagi detallar qiladi. Tana-2ta, tana tagi-2ta, (bittasi kartondan, ikkinchisi gazmoldan), dum-1ta, bosh-2ta, tumshug‘i uchun yopiq-1ta, quloq-4ta, ko‘z-2 tadan tayyorlanadi.



Qirqilgan detallar juftlanib ko‘klanadi, so‘ng o‘ngiga tekislab shaklga keltiriladi. Mushukning tanasi taglik bilan bekitiladi. Tanasiga chizmada ko‘rsatilgan joyga yashirin chok bilan boshi va dumi tikiladi. Oq paxta yoki trikotajdan tumshug‘i uchun yopqich bichilib, ramkasi zanjirsimon chok bilan tikiladi. Tikib bo‘lgandan so‘ng, shaklga ip bilan bir necha marta o‘raladi va o‘rtasidan chiziqlar bilan ko‘rsatib qo‘yilgan bosh qismidagi joyga tikiladi. Boshning uchiga burun pushti munchoqdan yoki tugmachadan tikiladi. Boshning pastki qismiga yon tomonlariga qora charmdan ko‘z qorachig‘i, zangori movutdan ko‘z osti qirqib tikiladi. Quloqlari ikki rangdan, tashqarisi gavdasi rangidan, ichkarisi pushti paxmoq yoki trikotajdan qirqilib birlashtiriladi. So‘ng o‘ngiga aylantirilib, ozgina cho‘ziladi va bosh qismidan ko‘rsatilgan joyga tikiladi.

3. Ilmoq va spitsa bilan o‘yinchoqlar to‘qish usullari.

To‘qish, xalqalarni hosil qilish usullari. O‘zbek xalqi qadimdan qo‘l hunarmandchiligi sirlarini chuqur egallab kelgan. Jumladan, o‘zbek xotin- qizlari mohirlik bilan kashta, jiyak, duppi, tun, so‘zana kabilarni tikish bilan shug‘ullanganlar. Ular atlas va gilamlar to‘qishgan. Bor xomashyolardan foydalanganlar. Hozirgi kunga kelib ayollarimiz orasida

qo'lda kiyim – qo'ldopchalar, o'yincholar to'qish keng rivojlanib bormoqda. Qo'lda to'qilgan o'yinchoqlar betakror va bejirimdir. To'qish amaliy san'atning bir turi bo'lib, nihoyatda zavqli va foydalidir. To'qilgan o'yinchoqlar yaroqsiz bo'lib yotmaydi yoki tashlab yuborilmaydi. Har bir to'qish hunaridan xabari bor xotin-qiz kerakli buyumni osonlikcha to'qib oladi va umuman to'qigan sari o'z-o'ziga ishonch va yaratuvchanlik qobiliyati ortib boradi.

To'qish qurollari bu - spitsa va ilgakdir. Spitsa asosiy to'qish quroli bo'lib, uning quyidagi turlari bor.

1. Aylana troschali.
2. Aylana naychali.
3. To'g'ri ikki uchi uchli.
4. To'g'ri bir uchli.

Spitsalar — nikellangan, pulat, temir, alyumin, plastmassa va yogochdan yasalgan bo'ladi. Eng foydalanishga qulay spitsa po'latdan yasalgan, ikki uchi uchli va bir uchi uchli spitsadir. Chunki u mustahkam bo'lib, yog'och va plastmassa spitsalar kabi sinib ketmaydi. Har bir spitsaning raqami bor. Spitsaning raqami uning diametrini bildiradi.

1. Raqamli spitsani diametri 1 mm.

1. Raqamli spitsani diametri 4 mm.

To'qishni o'rganuvchi talabaga har xil raqamli spitsalar bo'lishi kerak. Chunki har bir spitsa o'z o'rnida ishlatiladi. Bu buyumni sifatli bo'lishiga olib keladi.



Ilgak: Kalta [12-15 sm] va [30-40 sm] hamda ingichka va yug'on [1-6 mm] ilgaklar bor. Har xil iplarni to'qishda har bir ipning uziga mos ilgak tanlanadi. Ilgak ipdan ikki baravar yug'on bo'lishi kerak. Ilgak pulat, alyumin, plasmassa, mis va temirdan yasalgan bo'ladi. Ilgakdan spitsada to'qilgan, matoni birlashtirishda, mato chetini aylantirib to'qib chiqiladi.


To'qish. Buyumni qo'lda to'qish uchun spitsa yoki ilgak kerak bo'ladi. Buyumni junli, jun aralash ip, ipak, ip paxta, ipi, quyon va echki yunglaridan yigirilgan ip, ham ip va hokazolardan to'qish mumkin.

To‘qiladigan buyumga shakl berish uchun andozaga muvofiq yoki hisobga yarasha shu xalqalar soni ko‘paytiriladi.

Ilgak yordamida to‘qish. Ilgak yordamida to‘qish qo‘l mehnati turlaridan biridir. To‘qishning asosiy turlari - shnurcha, ustamali zanjir, ustamasiz zanjir to‘qish bilan tanishib olgach, namunaga yoki rasmga qarab juda xilma- xil buyumlar to‘ish mumkin. Ilgak bilan jun, oddiy ip va ipakdan har xil buyumlar to‘qish mumkin. Asosiy asbob - metalldan, yog‘ochdan, plastmassadan, suyakdan yasalgan ilgakdir. Ilgaklar: 2 dan to 6 gacha nomerli bo‘ladi. Ilgakning nomeri uning yug‘onligiga va ish bajaradigan (to‘qiydigan) qismining chuqurligiga bog‘lik. Ilgak ipning yug‘on-ingichkaligiga va sortiga qarab tanlanadi. Ip ilgakning ish bajaradigan qismining chuqurligi (ilgagi)dan bir yarim-ikki barobar yug‘on bo‘lishi kerak.

To‘qish paytida ilgakni o‘ng qo‘lning bosh va ko‘rsatkich barmog‘i bilan ushlab va uni o‘rta barmoq bilan ishga solib turish kerak. Ilgakda to‘qilgan buyumlar xalqaning shakli va o‘lchamiga qarab har xil bo‘ladi. Buyumning tekis to‘qilishi uchun ipni bir tekis tortib turish, xalqani bog‘lash, ularning soni va shakliga rioya qilib turish kerak. Agar xalqaning o‘lchami va shakliga rioya qilinmasa, xalqalar sanab to‘qilmasa, buyumning ko‘rinishi va shakli buziladi.

Birinchi xalqa – to‘qish bu xalqadan boshlanadi. Ilgak o‘ng qo‘lda bo‘ladi. Ip uchini xalqa qilib buklab, chap qo‘lning bosh va ko‘rsatkich barmog‘i bilan ushlab turish kerak. Xalqaga ilgakning uchini so‘kib va kalavadagi ipni ilib, xalqa orasidan tortib chiqariladi. So‘ngra ip yana ilgak bilan ilib olinadi va hosil bo‘lgan yangi xalqa orasidan tortib chiqariladi. Ipning uchi tortiladi va 1sm qoldirib uchi qirqib tashlanadi.



Havo xalqasi - kalavadan ilgak uchi bilan ipni ilib xalqa hosil qilishdir, bunda kruchokning o'zida birinchi xalqani hosil qilib olamiz. Havo xalqasining bir nechtasi zanjir yoki shnur hosil qiladi. Shnur har qanday turning asosi hisoblanadi. Havo xalqasining soni buyum o'lchamiga yoki rasmdagi xalqa soniga bog'lik bo'ladi. Havo xalqasi tukishda ularning o'lchamlari bir xil bo'lishiga e'tibor berish kerak.

Ustamasiz zanjir to'qish. Kerakli uzunlikdagi zanjir hosil bo'lgach, burilish xalqasi to'qiladi. Zanjirni ung tomoni bilan chap qo'lning ko'rsatkich barmog'i bo'ylab qo'yiladi va chap qo'lning bosh barmogi bilan ushlab turib, ilgak zanjirning ung tomonidan uchinchi xalqaga suqiladi (Ilgakning o'zida turgan xalqa, ya'ni burilish xalqasi ham qo'shib hisoblanadi). Kalavadagi ip ilgakda ilib olinadi va havo xalqasi orqali tortib chiqariladi. Ilgakda ikkita xalqa xosil bo'ladi. Yana ilgak bilan kalavadagi ipni olib, bu xalqalar bog'lanadi. Ilgakda yana bitta xalqa qoladi. Ikkinchi qatorning zanjirini tukish uchun ilgakni navbatdagi xalqaning urtasiga suqiladi va kalavadan yana ip ilib olib, yana havo xalqasidan tortib olib chiqariladi. Ilgakda yana bog'lanadigan ikkita xalqa hosil bo'ladi. Keyingi zanjirlar ham shu tariqa to'qiladi. Ustamasiz zanjir bilan to'qilgan buyumlar zich va tarang bo'ladi. Ustamali zanjir. Ustamali zanjir bilan to'qilganda buyum nafis va jimjimador chiqadi. Bir ustamali zanjir quyidagicha tukiladi. Birinchi (etakchi) xalqali ilgak uchining ustiga ung tomondan ip tashlanadi - bu ip ustama ipdir. Ustama ipli ilgak xalqaga sanchiladi (chetidan uchinchi xalqa); agar ustunchalar zanjir bilan tukilsa, kalavadagi ip ilib olinadi va uni xalqa shaklida ilgakka tortiladi. Bu vaqtda ilgakda ikkita xalqa hosil bo'ladi, ularning o'rtasida esa ustama ip bo'ladi. Ilgak bilan kalavadan ip ilib olinadi va qo'shni xalqa bilan ustama ipdan tortib o'tkaziladi, ilgakda yana ikkita xalqa bo'ladi. So'ngra ip ilib olinadi va bu ikkala xalqadan tortib chiqariladi. Ilgakda yana bitta yetakchi xalqa hosil bo'ladi. Agar ustunchalar tukishni zanjirdan boshlamay, ustamali yoki ustamasiz zanjirdan iborat polotnodan boshlansa, u holda birinchi ustuni uchta havo xalqasi bilan hosil qilinadi. Uchinchi yetakchi xalqadan ustamali ustuncha to'qish boshlanadi. Ilgak bilan ishlagan vaqtda ba'zi bir maxsus terminlarni bilib olish kerak.

O‘yinchoqlarning bola hayotida tutgan o‘rni beqiyos va u kichkintoyning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi bebeho vosita sifatida tan olinadi. O‘yinchoqlar bola hayotida, uning jismoniy, ruhiy, aqliy kamolotga yetishida muhim vositalardan biri hisoblanadi. O‘yinchoqlar vositasida o‘ynaladigan o‘yinlar orqali bolalarda tafakkur, tasavvur, xotira, diqqat kabi barcha psixik jarayonlar rivojlanadi va atrof-muhit haqidagi bilimi yanada kengayib boradi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Yumshoq o‘yinchoqlar qayerlarda ishlatiladi?
2. Bola uchun yumshoq o‘yinchoqlarning qanday foydali tomonlari bor?
3. Yumshoq o‘yinchoq tikishda nimalarga e’tibor berish kerak?

Mavzu yuzasidan test topshirig‘i:

1. O‘yinchoq nima?

- a. O‘yinchoq – bola o‘ynaydigan, bolani ovutadigan, rivojlantiradigan predmet va narsalar to‘plami
- b. O‘yinchoq – bolani ko‘ndirishda qo‘llaniladigan narsalar to‘plami
- c. O‘yinchoq – bola o‘ynaydigan, bolani ovutadigan legolar to‘plami
- d. O‘yinchoq – bola o‘ynaydigan, bolani ovutadigan, mozaikalar, yumshoq o‘yinchoqlar, predmet va narsalar to‘plami.

2. To‘qish san’ati uchun qanday asosiy ashyolar kerak?

- a. Turli o‘lchamdagi spitsa, ilmoq, ip
- b. Turli o‘lchamdagi spitsa, ilmoq, ip, sabr-toqat
- c. Turli o‘lchamdagi spitsa iplar
- d. Turli o‘lchamdagi karton, spitsa, ilmoq, ip

3. Qanday o‘lchovdagi ilgaklar bor?

- a. kalta [12-15 sm] va [30-40 sm] hamda ingichka va yo‘g‘on [1-6 mm] ilgaklar bor.
- b. kalta [1-5 sm] va [3-4 sm] hamda ingichka va yo‘g‘on [1-6 mm] ilgaklar bor.
- c. kalta [12 sm] va [30 sm] hamda ingichka va yo‘g‘on [6 mm] ilgaklar bor.
- d. kalta [15 sm] va [40 sm] hamda ingichka va yo‘g‘on [1 mm] ilgaklar bor.

4. O‘yinchoq qachon paydo bo‘lgan?

- a. Qadim zamonlardan beri mavjud.
- b. Mil.av. I asrda
- c. Mil. I asrda
- d. XIX-XX asrlarda

Mavzu yuzasidan foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nurmatova M. Sh., Xasanova Sh. T., D. Azimova. Ustaxonada amaliy mashg‘ulot. “Musiqqa” T.:2010-y.
2. Xolmurodova F. Ma’rifat gazetasi Toshkent 2019-y. 1-son
3. <https://fayllar.org/>
4. www.scientificprogress.uz

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020-y. O‘RQ-637-son.
2. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-son qarori 1-ilovasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyasining davlat standarti”
3. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 16.12.2019-y., O‘RQ-595-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. “Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish (kichik guruh)”. “Standard Polygraph Servige”, Toshkent, 2019-y.
5. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. “Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish (katta guruh)”. “Standard Polygraph Servige”, Toshkent, 2019-y.
6. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. “Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish (o‘rta guruh)”. “Standard Polygraph Servige”, Toshkent, 2019-y.
7. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. “Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish (tayyorlov guruh)”. “Standard Polygraph Servige”, Toshkent, 2019-y.
8. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo‘stoni 2013
9. Kayumova N. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU 2013.
10. Nurmatova M.Sh., Xasanova Sh.T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish metodikasi. “Sho‘lpon” T.:2010y.
11. Nurmatova M.Sh., Xasanova Sh.T., Azimova D. Ustaxonada amaliy mashg‘ulot. “Musiqqa” T.:2010-y.
12. Amirova G.A. Tabiatni estetik his etish. Toshkent, 2013-y.
13. Amirova G.A., Sulaymonov A.P., Djurayeva B.R. Maktabgacha ta’lim muassasalarida applikasiya mashg‘ulotlari. “Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi”, Toshkent, 2014-y.

14. Axmedov F.Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. “Aloqachi”, Toshkent, 2008-y.
15. Rasulova A.Sahna nutqi. “Musiqqa”. Toshkent. 2009-y.
16. Чаброва Т.Л. Обучение театрализованной и творческой деятельности.Ташкент, 2021.
17. Namangan davlat universiteti Ijtimoiy-madaniy faoliyat yo‘nalishi talabalari uchun “Teatr tarixi” fanidan ma‘ruzalar matni Namangan. 2014-yil, 21-bet.
18. Sotimboy Tursunboyev Teatr tarixi o‘quv qo‘llanma, “Bilim”, – T.: 2005, 288 bet
19. Mirsaidova N., O‘taganov R. “Qo‘g‘irchoq boshqarish asoslari”(qo‘lqopli qo‘g‘irchoq) nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanma Toshkent-2015. 8-bet
20. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. J.III. N – Tartibli/ Tahrir hay‘ati: T.Mirzayev va b.; O‘zR FA Til va adabiyot instituti. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
21. Генкин Д.М. Массовые праздники. —М.: «Просвещение». 1975. С. 91.
22. Abdumurod Tilavov “Bolalarga gap uqtirish san‘ati”, “Sano-standart nashriyoti” Toshkent, 2016-y. 30-bet
23. O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti Qo‘g‘irchoq teatri rejissiyorligi yo‘nalishining “Qo‘g‘irchoq teatri rejissiyorligi” fanidan o‘quv uslubiy majmuasi 2014-yil
24. O‘tamurodova Sh.M. “Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida qo‘g‘irchoq teatrini tashkil yetish” Farg‘ona davlat universiteti “Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘limning dolzarb masalalari: muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani 2020 yil, 1-qism, 345-347-betlar.
25. Qo‘ziyeva Z. E. Xalq amaliy san‘ati. metodik qo‘llanma Navoiy, 2012-y.
26. Qazaqova S. Xalq hunarmandchilik turlaridan zardo‘zlik tarixini o‘rganish. metodik tavsiya Urganch, 2013-y.
27. Xolmurodova F. Ma‘rifat gazetasi Toshkent 2019-y. 1-son

Qo‘shimcha adabiyotlar:

28. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.” - Toshkent, O‘zbekiston, 2017.

29. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.” - Toshkent, O‘zbekiston, 2016.

30. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash- yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi.” - Toshkent, O‘zbekiston, 2017.

31. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. - Toshkent, O‘zbekiston, 2017.

32. Xasanboeva O. va boshq. Oila pedagogikasi. T.: “Aloqachi”, 2007 y.

33. “Bolangiz maktabga tayyormi?” metodik qo‘llanma. T., 2001.

34. Qodirova F., Toshpo‘latova Sh., A‘zamova M. “Maktabgacha pedagogika”.-T., “Ma’naviyat”. 2013

35. Shodmonova Sh.. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. Fan va texnologiya. -T., 2008.

Axborot manbalari:

36. <http://www.ziyonet.uz/>

37. <http://www.google.co.uz/>

38. <http://www.google.ru/>

39. <http://www.biotehnolog.ru/>

40. <http://ru.wikipedia.org/>

41. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Teatr>

42. www.bharatiya.ru

43. <https://qomus.info/>

44. <https://uzor.uz/>

45. <https://fayllar.org/>

46. www.scientificprogress.uz

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I. MODUL. TEATR TARIXI VA NAZARIYASIGA BIR NAZAR	
Teatrning kelib chiqish tarixi.....	4
Qo‘g‘irchoq teatrining paydo bo‘lishi, tarixiy ildizlari va tarbiyaviy ahamiyati.....	32
Teatrning nazariy tushunchalari haqida.....	44
II. MODUL. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA SAHNA FAOLIYATI	
Maktabgacha ta’lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatining asosiy maqsadi.....	59
Maktabgacha ta’lim tashkilotida turli yosh guruhlarida sahnalashtirish faoliyatining asosiy vazifalari.....	79
Sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishining o‘ziga xosligi.....	91
Qo‘g‘irchoq teatri uchun badiiy adabiyot janrlari va personajlarini yasash orqali bolalarning badiiy ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish mazmuni.....	105
Maktabgacha talim tashkilotida qo‘g‘irchoq teatrlari turlari va jihozlarini yasash.....	122
III. MODUL. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA IJODIY FAOLIYAT TURLARI	
Maktabgacha ta’limda bolalarni ijodiy faoliyatini tashkil qilish texnologiyasi.....	136
Qog‘ozdan buklash yo‘li bilan o‘yinchoqlar yasash (“Origami usuli”).....	148
Applikatsiya haqida umumiy tushuncha.....	164
MTTda tabiiy va tashlandiq materiallardan turli o‘yinchoqlar yasash.....	171
Maktabgacha ta’limda loy ishi, plastilin, sho‘r xamir, chinni xamir va pape-mashe usuli.....	181
Kashtachilik tarixi va tayyorlash texnologiyasi.....	201
O‘yinchoqlar va ularni tayyorlash texnologiyalari.....	220
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	232

B.S. Abdullayeva, Sh.M. O‘tamurodova

BOLALARNI SAHNALASHTIRISH VA IJODIY FAOLIYATGA O‘RGATISH

o‘quv qo‘llanma

“Bookmany print” nashriyoti

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 26.09.2022.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 ¹/₁₆

Nashriyot bosma tabog‘i 13,2. Shartli bosma taboq 13,8.

Adadi 100 nusxa. ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.